



M.S. QOSIMOV,  
G.Ya. MUXAMEDJANOVA

# INVESTITSIYA LOYIHALARI TAHLILI



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLYI VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**M.S. QOSIMOV, G.Ya. MUXAMEDJANOVA**

# **INVESTITSIYA LOYIHALARI TAHLILI**

*O'quv qo'llanma*

**TOSHKENT – 2011**

M.S.Qosimov, G.Ya. Muxamedjanova. "Investitsiya loyihalari tahlili". (O'quv qo'llanma). -T., TDIU, 2011.- 212 bet.

Mas'ul muharrir: i.f.d., prof., N.M. Maxmudov

#### Taqrizchilar:

1. Rasulov Alisher Fayzievich - O'zbekiston Respublikasi FA qoshidagi Iqtisodiyot instituti professori, iqtisod fanlari doktori.
2. Kalanova Mo'tabar Zikirillaevna - Makroiqtisodiyot kafedrası dotsenti, iqtisod fanlari nomzodi

Ushbu o'quv qo'llanmada loyihalarning mohiyati va ularni tayyorlash, loyiha tahlili kontseptsiyasi, loyihalarini moliyaviy-iqtisodiy baholashning uslubiy asoslari va usullari, loyihalarni tahlil qilishning turli jihatlari yoritilgan. Loyihalarni texnik, institutsional, ijtimoiy, ekologik, moliyaviy va iqtisodiy tahlil qilish masalalari alohida-alohida mavzularda berilgan; shuningdek loyihalarning tavakkal xavfini baholash mavzusi o'rin olgan. Iqtisodiy taxlilning uslubi investitsiya loyihalarining taxlili uslubidan va yondashuvidan tubdan farq qiladi. Iqtisodiy taxlil jarayonida loyiha mamlakat iqtisodiyoti uchun qanday naf berishi, mamlakat makroiqtisodiyotiga, uning monitar va fiskal siyosatiga aloqadorligi keng va chuqur taxlil qilinadi. Loyixa tahlilida asosiy e'tibor investitsiyalarni samaradorligiga qaratiladi va bu ko'proq investorlarni qarashini hamda davlat manfaatlarini muvozanatini ifoda etadi. Shu bilan birga ushbu qo'llanmada ekologik, institutsional, ijtimoiy, makroiqtisodiy va moliyaviy iqtisodiy yondashuvlarga alohida e'tibor qaratilgan. Investitsiya loyihalarini tahlilida esa bunday ko'p qirrali yondashuv cheklangan va asosiy etibor investor va tijorat nuqtai nazaridan qaraladi. Shu sababli ushbu qo'llanma iqtisodiy - analitik xususiyatga ega.

Qo'llanma iqtisodiyot yo'nalishida ta'lim olayotgan talabalarga mo'ljallangan. Undan loyihalarni tuzish va tahlil qilish bilan shug'ullanuvchilar ham foydalanishlari mumkin.

## KIRISH

O'zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiyalash, tarkibiy qayta qurish, iqtisodiy o'sishning barqaror, yuqori sur'atlarini ta'minlash vazifalari iqtisodiyotimizga jalb etilayotgan investitsiyalar hajmini to'xtovsiz o'stirishini, har bir so'mlik investitsiya eng zarur, eng ko'p samara beradigan ob'ektlarga sarflanishini talab etadi. Ichki investitsiya manbalarining cheklanganligi xorijiy investitsiyalarni jalb qilish borasida ham katta kuch-g'ayratni talab etmoqda. Afsuski qulay investitsiya muhiti yaratilishi, davlat tomonidan investitsiya faoliyati qonun yo'li bilan qo'llab-quvvatlanishiga qaramasdan, investitsiya jarayonlarida bir qator muammolar saqlanib kelmoqda. Bunday holatning sabablari qatorida vakolatli idoralarda texnik-iqtisodiy asoslangan loyihalarni ekspertizadan o'tkazish muddatlari cho'zib yuborilayotganligi hamda investitsiya loyihalari bo'yicha ishlovchi tizimni malakali kadrlar bilan ta'minlashni talab etmoqda.

Mamlakat iqtisodiyot vazirligida, viloyat xokimliklarining iqtisodiyot boshqarmalarida va qator vazirlik va idoralarda investitsiya loyixalari bilan bir qatorda ijtimoiy, ekologik, innovatsion, institutsional va boshqa turkumdagi loyixalarni ishlab chiqarishda, ularni taxlil qilish va amalga oshirishda ayniqsa yuqori malakali kadrlarga ehtiyoj sezilmoqda.

Loyihalar etarlicha chuqur va ilmiy tahlil qilinmasligi oqibatida amalga oshirilgan ba'zi loyihalarda ko'zda tutilgan samaraga erisha olinmayapti. Loyiha tahlilini chuqur biladigan, uning barcha jihatlarini tushunadigan, zarur bo'lsa malakali mutaxassislarni jamlab, loyiha tahlili bo'yicha faoliyatni uyushtira oladigan mutaxassislarga ehtiyoj har qachongidan ortib bormoqda. Ko'rinib turibdiki, maqsadga «Loyihalar tahlili» fanini puxta o'rganish, bu jarayonda tavsiya qilinayotgan adabiyotlar ustida tinimsiz ishlash orqaligina erishish mumkin. Ushbu qo'llanma shu hayotiy zarurat mahsulidir. Unda iqtisodiyot yo'nalishida ta'lim olayotgan talabalar va barcha loyihalar tahlili bilan qiziquvchilar uchun loyiha tahlilining eng muhim jihatlari bayon qilingan.

## **I-BOB. LOYIHALAR TAHLILINING IQTISODIY KONTSEPTSIYALARI**

### **1.1. Investitsiya: mohiyati, asosiy turlari va tarkibi**

Makro va mikro ko'lamda iqtisodiyotni rivojlantirishni investitsiyalarsiz tasavur qilib bo'lmaydi. Investitsiyalar korxonalarni rivojlantirish, mamlakatda iqtisodiy o'sishni ta'minlashning bosh omillaridan biridir. Investitsiyalar deganda yangi ishlab chiqarishlarni tashkil etish, ishlab turgan quvvatlarni saqlab turish va rivojlantirish, ishlab chiqarishni texnik tayyorlash, foyda olish hamda ( atrof-muhitni muhofaza qilish, ijtimoiy rivojlanish kabi) boshqa yakuniy natijalar olish maqsadida turli dasturlar yoki alohida tadbirga (loyiha)larga sarflanadigan mablag' tushuniladi. Investitsiyalar o'z ichiga foyda (daromad) olish va ijtimoiy samaraga erishish maqsadida tadbirkorlik va boshqa faoliyat turlariga sarflangan pul mablag'lari, shuningdek, maqsadli bank omonatlari, paylar, aksiyalar, boshqa qimmatbaho qog'ozlar, texnologiyalar, mashina va uskunalar, litsenziyalar (shu jumladan, tovar belgilari), kreditlar, har qanday boshqa mulk va mulk huquqlarini hamda intellektual boyliklarni oladi.

Demak, investitsiya tushunchasi «Investitsiya faoliyati to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonunida ta'rif berilganidek, iqtisodiy yoki boshqa faoliyat ob'ektiga sarf qilinadigan moddiy va nomoddiy ne'matlar va ularni tasarruf qilish huquqini ifodalaydi. Moliyaviy mohiyatiga ko'ra investitsiyalar daromad olish maqsadida xo'jalik faoliyatiga sarflanadigan barcha turdagi aktivlardir (vositalardir).

Iqtisodiy mohiyatiga ko'ra, investitsiyalar asosiy va aylanma kapitalni yaratish, kengaytirish yoki rekonstruksiya qilish va qayta qurollantirish uchun qilinadigan xarajatlardir.

Tijorat amaliyotida investitsiyalarning quyidagi uch shakli o'zaro farqlanadi:

- fizik aktivlarga qilingan investitsiyalar;
- pul aktivlariga qilingan investitsiyalar;
- nomoddiy aktivlarga qilingan investitsiyalar.

Fizik aktivlar deganda asosiy ishlab chiqarish vositalari, ya'ni ishlab

chiqarish binolari va inshootlari hamda xizmat muddati bir yildan ortiq bo'lgan har qanday mashina va uskunarlar tushuniladi.

Pul aktivlari deganda boshqa jismoniy va yuridik shaxslardan pul mablag'larini olish huquqi, masalan, bankdagi depozitlar, aksiyalar, obligatsiyalar va boshqalar anglashiladi.

Nomoddiy aktivlar xodimlarni qayta tayyorlash yoki malakasini oshirish dasturlarini amalga oshirish, litsenziyalar sotib olish, savdo belgilarini ishlab chiqarish natijasida firma ega bo'ladigan boyliklardir.

Qimmatbaho qog'ozlarga qilinadigan investitsiyalar «portfel' investitsiyalari», fizik aktivlariga qilinadigan investitsiyalar esa real investitsiyalar, deb ataladi.

Investitsiyalarning har ikki turi ham korxonalar barqaror ishlashi uchun muhim ahamiyatga ega. Portfelli investitsiyalar muammolari moliyaviy menejment sohasida chuqur o'rganilishini ta'kidlagan holda bu o'quv qo'llanmamizda biz ko'proq real aktivlarga qilinadigan investitsiyalarga to'xtalamiz.

Real aktivlarga qilinayotgan investiyalarni tayerlash va tahlil qilish asosan firmaning maqsadlariga, ya'ni investitsiya yordamida firma nimaga erishmoqchi ekanligiga bog'liqdir. SHu nuqtai nazardan investitsiyalarni quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

I. Iqtisodiy samaradorlikni oshirish uchun sarf qilinadigan investitsiyalar. Bunday investitsiyalardan asosiy maqsad uskunalarini almashtirish, xodimlarning malakasini oshirish, ishlab chiqarish quvvatlarini samarali hududlarga ko'chirish asosida firmalarning xarajatlarini kamaytirish uchun sharoit yaratishdan iborat.

II. Ishlab chiqarishni kengaytirish uchun sarf qilinadigan investitsiyalar. Bunday investitsiyalashdan maqsad mavjud quvvatlar hisobiga oldindan shakllangan bozorlar uchun tovarlar ishlab chiqarish imkoniyatlarini kengaytirishdan iborat.

III. Yangi ishlab chiqarishlarni vujudga keltirish uchun sarf qilinadigan investitsiyalar. Bunday investitsiyalar ilgari ishlab chiqarilmagan tovarlar va ko'rsatilmagan xizmatlar turlarini vujudga keltirish, yoki ilgari ishlab chiqarilgan tovarlar bilan yangi bozorlarga chiqish imkonini beradi.

IV. Davlat boshqaruv idoralari talablarini bajarish uchun sarf qilinadigan investitsiyalar. Masalan, ekologiya va mahsulot standartlari talablarini bajarish uchun sarflanadigan investitsiyalar. Investitsiyalarni bunday tasniflashda tavakkalchilik darajasi har xil bo'lishi asos qilib olingan.

Yuqorida keltirilganlardan birinchi va to'rtinchi tur investitsiyalarida tavakkal xavfi darajasi past, qolgan ikkitasida esa yuqori hisoblanadi. Bozorda avval ma'lum bo'lmagan mahsulotni ishlab chiqarish va yangi bozorlarni egallash uchun investitsiya sarfi katta tavakkalchilikni talab qiladi. SHu sababli ham uchinchi guruh investitsiyalari tavakkal xavfi eng yuqori bo'lgan investitsiyalardir.

Ishlab chiqarishni kengaytirishga qilingan investitsiyalarda tavakkal xavfi yangi ishlab chiqarishga qilingan investitsiyalarga qaraganda pastroq. Ayni paytda samaradorlikni oshirishga qilinadigan investitsiyalar bozor allaqachon qabul qilgan tovarlarning sifatini oshirish, tannarxini kamaytirishni ko'zda tutgani uchun ham, ularda tavakkal xavfi darajasi ikkinchi va uchinchi guruhlar investitsiyalarinikidan ancha past bo'ladi. Xuddi shu kabi davlat boshqaruv idoralari talablarini bajarishga sarflangan investitsiyalarning tavakkal xavfi darajasi ancha kichik hisoblanadi.

Investitsiyalar, shuningdek, manbalariga ko'ra, ichki va tashqi investitsiyalarga bo'linadi. Ichki investitsiyalar manbalari davlat byudjeti, korxonalar va aholi mablag'lari, bank kreditlari hamda nobyudjet jamg'armalari mablag'lari, tashqi investitsiyalar manbalari bo'lib xorijiy davlatlar va firmalarning, shuningdek, xalqaro moliya tashkilotlarining mablag'lari hisoblanadi. Investitsiyalarni manbalariga ko'ra bunday guruhlash ularning manbalari bo'yicha tuzilishini ham belgilash imkonini beradi. Iqtisodiy tahlil maqsadlarida va amaliyotda investitsiyalarning manbalariga ko'ra tuzilishi bilan birga ularning tarmoq tuzilishi, hududiy tuzilishi, mulkchilik shakllariga ko'ra tuzilishi, takror ishlab chiqarish tuzilishi va texnologik tuzilishi farqlanadi.

Investitsiyalarning tarmoq (hududiy) tuzilishi alohida tarmoq (hudud)ning ma'lum davrda qilingan investitsiya sarflaridagi ulushini ko'rsatsa, mulkchilik shakllariga ko'ra tuzilishi jami investitsiyalar manbai va sarfidagi davlat va nodavlat mulki ob'ektlarining hissasini ko'rsatadi.

Takror ishlab chiqarish tuzilishi yangi qurilish, ishlab chiqarishni kengaytirish, rekonstruksiya qilish va qayta qurollantirish maqsadlarida sarflangan investitsiyalarning jami investitsiyalardagi ulushi ko'rinishida aniqlanadi.

Investitsiyalarning texnologik tuzilishi qurilish-montaj ishlari, uskuna va inventarlar hamda boshqa xarajatlar (loyiha-qidiruv ishlari, boshqaruv xarajatlari va h.k.)ga qilingan xarajatlarning jami investitsiya xarajatlaridagi ulushini ko'rsatadi.

Investitsiyalar tuzilishini tashkil etish, ularning samaradorligini oshirish ko'p jihatdan mamlakatda amalga oshirilayotgan investitsiya siyosatiga bog'liq.

## 1.2. Makroiqtisod va investitsiyalar aloqadorligi

Makroiqtisod investitsiyalarni jalb etish uchun eng avvalo muhit yaratadi va investitsiya jarayonini rag'batlantiradi. Makroiqtisodiy nazariyada investitsiyalar - I, uy xo'jaliklarining iste'mol xarajatlari - C, hukumat xarajatlari - G hamda sof eksport xarajatlari - Xn bilan birga jami xarajatlarni (jami talab) tashkil etadi yoki uning bir qismi deb qaraladi. YA'ni:

$$YaMM = C + I + G + Xn$$

Investitsiya mablag'larining asosiy manbai bo'lib yopiq iqtisodiyot sharoitida mamlakatdagi uy xo'jaliklari jamg'armalari - Sp hamda hukumat jamg'armalari -Sg hisoblanadi.

$$S = Sp + Sg$$

Ochiq iqtisodiyot sharoitida bunga xorijga chiqariladigan mamlakat ichki jamg'armalari bilan xorijdan investitsiyalar va kreditlar ko'rinishida kirib keladigan jamg'armalar o'rtasidagi farq -Sxn ham qo'shiladi:

$$S = Sp + Sg + Sxn$$

Investitsiyalar hajmidagi u yoki bu manba ulushi mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasiga, mamlakatdagi daromadlar darajasiga, ijtimoiy tuzilmaga, amalga oshirilayotgan iqtisodiy vazifalar, iqtisodiy siyosat strategiyasiga bog'liq.

Ma'lumki, milliy iqtisodiyotda yaratilgan yalpi daromad




(YAMM)ning bir qismi turli shakllarda iste'mol qilinadi, bir qismi esa yuqorida ko'rsatilgan shakllarda jamg'ariladi. Milliy iqtisodiyotga qilingan jami investitsiya xarajatlari bilan yalpi jamg'armalar o'rtasida tenglikka erishish, ya'ni  $I=S$  ayniyatning ta'minlanishi makroiqtisodiy muvozanatga erishishning muhim shartlaridan biridir.

Bu ayniyatga o'z-o'zidan erishilmaydi, chunki uy xo'jaliklari nafaqat sarmoya sifatida foydalanish maqsadida, balki kutilmagan xarajatlar, qimmatroq buyumlar xarid qilish uchun ham mablag' jamg'aradilar. YA'ni jamg'armalarning bir qismi investitsiyalarga kelib qo'shilmaydi. Bunday vaziyatda hukumat investitsiya xarajatlarining bir qismini o'z zimmasiga olishi yoki xorijiy investitsiyalarni jalb qilish orqali yuqoridagi ayniyatni ta'minlashi, bu uchun esa mamlakatda qulay investitsiya muhitini yaratishi lozim. Samarali byudjet-soliq, pul-kredit, valyuta va tashqi savdo siyosati, investorlarga yaratilgan kafolatlar va imtiyozlar hamda makroiqtisodiy barqarorlik bu muhitni belgilovchi shartlardir. Ayniqsa inflyatsiya sur'atlarining yuqori bo'lishi jamiyatda inflyatsion psixoz holatini yuzaga keltirib, iste'molga cheklangan moyillikning ortishiga, jamg'armalar va oxir-oqibat investitsiyalar hajmining pasayishiga olib keladi.

Investitsiyalar hajmini belgilovchi asosiy omillar foiz stavkasi va kutilayotgan o'rtacha foyda me'yori hisoblanadi. Iqtisodiyotga qilinadigan investitsiyalar hajmi foiz stavkasiga teskari proporsional kattalik hisoblanadi.

Grafik 1.2.1.



Investitsiyaga talab funksiyasi quyidagi ko'rinishga ega:

$$I_{\text{talab}} = E - dR + nY$$

Bu erda:  $I_{\text{talab}}$ - iqtisodiyotda investitsiyalarga talab hajmi;

$E$  – foiz stavkasi nolga teng bo'lgandagi investitsiyalarga maksimal talab hajmi;

$d$  – foiz stavkasi o'zgarishiga investitsiyalar hajmi o'zgarishi bog'liqligini ko'rsatuvchi empirik koeffitsient;

$R$  – bank foiz stavkasi;

$n$  – investitsiyalashga cheklangan moyillik;

$Y$  – jami daromad (yalpi milliy mahsulot);

Investitsiyalashga cheklangan moyillik investitsiya xarajatlaridagi o'zgarish miqdorining ( $\Delta I$ ) jami daromadlar o'zgarishidagi ( $\Delta Y$ ) ulushini ko'rsatadi.

$$n = \Delta I / \Delta Y$$

Keltirilgan formula va grafikdan ko'rinib turibdiki, foiz stavkasi nolga teng bo'lganda ham investitsiyalar hajmi ma'lum miqdor bilan chegaralanar ekan. Chunki mamlakatdagi daromad darajasi cheklanganligi, boshqa resurslarning miqdori va sifati, mamlakatdagi qurilish industriyasi, ishlab chiqarish infratuzilmasining rivojlanish darajalari cheksiz hajmdagi investitsiyalarni o'zlashtirish imkoniyatini bermaydi.

Kapital egalari foiz stavkasidan yuqori yoki hech bo'lmaganda unga teng bo'lgan sof foyda me'yorini ta'minlagan loyihalargagina sarmoya qo'yadilar. Bundan xulosa shuki, hukumat foiz stavkalarini tushirishga erishsa yoki kutilayotgan sof foyda me'yorining oshishi uchun shart-sharoit yaratsa, iqtisodiyotga qilingan investitsiyalar miqdori orta boradi.

### **1.3. Investitsiyalar tahlilida asoslaniladigan asosiy iqtisodiy kontseptsiyalar**

Investitsiyalarni tahlil qilish, ularning samaradorligi darajasini aniqlash bir qancha iqtisodiy kontseptsiyalarga tayanib amalga oshiriladi.

## 1. Investitsiyalarning firma boyligini oshirishdagi roli.

Har qanday firma investitsiya jalb qilar ekan, avvalo, o'z boyligini oshirishni maqsad qilib qo'yadi. Bu maqsad firmaning foydani ko'paytirish kabi ko'pincha asosiy deb qaraladigan boshqa bir maqsadidan ancha kengroqdir. Chunki firmaning asosiy maqsadi foydani ko'paytirishdan iborat deyilganda foyda va rentabellik darajasini darhol ko'paytirishni emas, balki bozordagi o'z sektorini kengaytirish yoki nomoddiy aktivlarini oshirishga qaratilgan tijorat strategiyalarini tushunish qiyin bo'lar edi. Demak, firma boyligini oshirish investitsiyalashga undovchi anchagina universal bo'lgan sababdir.

Firma boyligi o'z ichiga firma o'z kapitalining bozor qiymatini (O'KBQ) hamda firma majburiyatlarining bozor (MBQ) qiymatini oladi. YA'ni:

$$\text{Firma boyligi} = \text{O'KBQ} + \text{MBQ}$$

Shu narsa ravshanki, firmaning real boyligi uning kapitali (yuqori likvidli aktivlar ko'rinishida turgan kapitalni istisno qilgan holda) qanchalik ko'pligi bilan emas, balki bu kapital tovarlar va xizmatlar bozorida firmaga qanday holatni ta'minlab berishi bilan belgilanadi. Shu sababga ko'ra, investitsiyalar firmalarning raqobatbardoshligini yaxshilasa va ular kapitalining daromadlilikini oshirsa, ularning boyligi ko'payadi hamda egalari yanada boyiydilar. Aks holda investitsiyalar firma balansi passivlarini ko'paytirgani holda uning raqobatbardoshligini oshirmasa, firmaning rentabelligi pasayib ketishi, buning oqibatida esa uning boyligi kamayishi mumkin.

Aytilganlardan xulosa shuki, investitsiyalar, shu jumladan, real aktivlarga qilinadigan investitsiyalarning maqsadga muvofiqligini baholashning asosiy mezon bo'lib, ularning firma boyligiga qanday ta'sir etishi hisoblanadi.

## 2. Pul tushumlari haqida tushuncha.

Pul tushumlari (pul ob'ekt oqimlarining, cash flow) iqtisodiy adabiyotlarimizda yaqindan buyon qo'llanilayotgan atama bo'lib firma tijorat faoliyati natijasida olingan tushumlarni, ya'ni pul kirimlari va chiqimlari ko'rsatadi.

Pul tushumlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Asosiy faoliyat bo'yicha:

- naqd pul evaziga sotishdan olingan pul tushumi;
- pul o'tkazish yo'li bilan sotishdan olingan pul tushumlari.

2. Investitsiyalar bo'yicha:

- qimmatli qog'ozlarga qilingan investitsiyalardan daromadlar;
- shu'ba korxonalar va xorijdan tushumlar;
- aktivlarni sotishdan keladigan tushumlar.

3. Moliyaviy operatsiyalar bo'yicha:

- qimmatli qog'ozlarni sotishdan olingan tushumlar;
- qarzlar.

Firmaning pul chiqimlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Asosiy faoliyat bo'yicha:

- xom ashyo va materiallar uchun to'lovlar;
- ish haqi to'lovlari;
- soliq to'lovlari;
- sug'urta to'lovlari.

2. Investitsiyalar bo'yicha:

- asosiy kapitalni sotib olishga;
- asosiy kapitalni montaj qilishga.

3. Moliyaviy operatsiyalar bo'yicha:

- foizlar va dividendlar to'lashga;
- ssudalar va obligatsiyalar bo'yicha majburiyatlarni so'ndirishga.

Pul tushumlari va chiqimlari o'rtasidagi farq, ya'ni sof pul tushumlari firma boyligi oshishini ta'minlovchi sof pul qoldig'idir. Ammo firma faoliyatining yakuniy natijasini baholashda buxgalter yondashuvi bilan moliyachi yoki iqtisodchi yondashuvi o'rtasida farq bor.

Buxgalter yondashuviga ko'ra firma faoliyatining yakuniy natijasini soliqlar to'lagandan keyin firma ixtiyorida qolgan sof daromad tashkil etadi. Moliyachi va iqtisodchi yondashuviga ko'ra yakuniy natijaga nafaqat firma ixtiyorida qolgan sof daromad, balki foydalanilishi me'yoriy hujjatlar bilan cheklab qo'yilgan, ammo pirovardida firmaning umumiy boyligiga qo'shilib, uni ko'paytiradigan pul mablag'lari ham kiradi.

Bunday mablag'larga amortizatsiya ajratmalari hamda hisoblangan, ammo to'lanmagan soliqlar kiradi.

Amortizatsiya o'zining iqtisodiy mohiyatiga ko'ra, asosiy kapitalning ma'naviy va jismoniy eskirishini qoplash uchun mablag' jamg'arishni ta'minlaydigan maqsadli ajratmadir. Bu ajratmalar miqdori uch omilga bog'liq:

- asosiy kapital tarkibiga kirgan uskunaning balans qiymatiga;
- uskunaning xizmat muddatiga;
- uskuna uchun belgilangan amortizatsiyani hisoblash uslubiga.

Amortizatsiya ajratmalari maqsadli pul jamg'armasini tashkil etish manbai bo'lgani holda, shuningdek, firma foydasidan boshqa xarajatlar singari ayirib tashlansa-da, firma mulki bo'lib qolaveradi. Firma asosiy kapitalni yangilashga kirishganda amortizatsiya jamg'armasidan sof foyda kabi foydalaniladi. SHu nuqtai nazardan amortizatsiya jamg'armasini shakllantirish firmaning investitsiya zahirasini jamg'arishni anglatadi.

SHu sababga ko'ra, hisoblangan amortizatsiyani firma tijorat faoliyatining yakuniy natijasiga, ya'ni (sof) pul tushumlariga kiritish mantiqan to'g'ri bo'ladi.

Buxgalteriya hisobining Amerika standartlari GAAP (Generally Accepted Accounting Principles) atamalaridan foydalansak, pul tushumlarini aniqlash tenglamasi quyidagicha yoziladi:

$$PT = MRT - (JX - A) - FT - S \text{ to'l.}$$

Bu erda: PT – pul tushumlari;

MRT - mahsulot realizatsiyasidan tushum;

JX - jami xarajatlar;

A - amortizatsiya;

FT - foiz to'lovlari;

S to'l.- to'langan soliqlar.

Iqtisodiy nazariya nuqtai nazaridan qaraganda har qachon firmaning boyligi kelajakda bo'ladigan barcha pul tushumlarining hozirgi qiymatiga teng. Investitsiyalar maqsadga muvofiqligini aniqlash uchun barcha pul tushumlari va chiqimlari to'g'ri baholanib, ular firma boyligini qanchaga ko'paytirishi aniqlab olinadi. Olingan natija esa yakuniy qaror qabul qilish uchun asos bo'ladi.

#### **1.4. O'zbekiston investitsiya siyosatining mohiyati va yo'nalishlari**

O'zbekistonda 2009-2014 yillarga muljallangan ishlab chiqarishni texnik va texnologik qayta qurollantirish dasturi hozirda muvaffaqiyatli amalga oshirilmoqda. Amalga oshirilayotgan investitsiya siyosati mustaqillikning dastlabki yillaridanoq yoqilg'i energetika va don mustaqilligini ta'minlash, iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, eksport salohiyatini oshirish va import o'rnini bosuvchi mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirish uchun ustuvor sohalarni qo'llab-quvvatlash, Chet el investitsiyalarini jalb qilish uchun ochiq eshiklar siyosatini olib borish kabilarga qaratildi. Investitsiya siyosatni olib borishda quyidagi tamoyillarga asoslanildi:

- belgilangan davlat ustuvorliklari asosida eng muhim tarmoqlar va faoliyat sohaslarini tanlab qo'llab-quvvatlash;
- ijtimoiy ahamiyatli tarmoqlarni (sog'liqni saqlash ta'lim, madaniyat va h.k.) aholi turmush darajasini yaxshilash, umrini uzaytirish, ijtimoiy jihatdan keskin tabaqalanishning oldini olish, iste'mol talabining faollashuvini ta'minlash maqsadida etarli darajada qo'llab-quvvatlash;
- Chet el investitsiyalarini o'zaro manfaatdorlik asosida ustuvor sohalarga jalb qilish;
- potensial investitsiya resurslarini savdo sohasi va pul bozorida sanoat sohasiga qayta taqsimlash;
- ilmiy tadqiqot, tajriba-konstruktorlik ishlarini qo'llab-quvvatlash, xorijdan yangi texnikalar uchun litsenziyalar sotib olish, katta laboratoriyalarni saqlab turishga quvvati etadigan yirik korporatsiyalar tuzish orqali ishlab chiqarish kapitalini jamlash hisobiga intellektual kapital va ilmiy-texnik potentsialni oshirish;
- qishloq xo'jaligi mahsulotlari va mineral xom ashyo resurslarini chuqur qayta ishlash va ularni tashqi bozorda raqobatbardosh bo'ladigan darajaga olib chiqishga yo'naltirilgan investitsiya loyihalarini qo'llab-quvvatlash;
- aholining oziq-ovqat va iste'mol tovarlariga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishga mo'ljallangan ishlab chiqarish quvvatlarini jadal

rivojlantirishni investitsiyalar bilan ta'minlash;

- investitsiya jarayonlari ishtirokchilarining o'zaro aloqalarini tartibga solib turuvchi qonunchilik bazasini takomillashtirish.

Investitsiya manbalarini shakllantirish borasida davlat ko'radigan chora-tadbirlar investitsiyalarning ichki manbalariga tegishli bo'lib, asosan soliq-byudjet siyosati va pul-kredit siyosati vositalari yordamida davlat, aholi, korxonalar, bank va davlat byudjeti mablag'larini shakllantirish, qayta taqsimlash va ular o'rtasida ma'lum proportsiyalarni yuzaga keltirishga qaratilgan. Masalan, soliq stavkalarining pasaytirilishi aholi va korxonalar daromadlarining oshishiga, investitsiyalar manbai bo'lgan aholi jamg'armalari va korxonalarining sof foydasi miqdorlarining ko'payishiga olib keladi. Ayni paytda investitsiyalarning manbalariga ko'ra tuzilishida bu ikki guruhning ulushi oshadi. Jami investitsiyalar hajmida bank kreditlari, korxonalar va aholi mablag'lari hissasining yuqori bo'lishi bozor iqtisodiyoti sharoitida ijobiy hodisa hisoblanadi.

Bir qator davlatlarda qo'llaniladigan jadallashtirilgan amortizatsiya usuli ham korxonalarda investitsiya mablag'larining tezroq jamlanishiga olib keladi va investitsiya jarayonlarini tezlashtiradi. Biroq O'zbekistondagi buxgalteriya tizimida bu usul qo'llanilmaydi. Investitsiya siyosatining eng muhim bo'g'ini investitsiya mablag'larini eng ustuvor va ahamiyatli tarmoqlar va hududlarga jalb qilish borasidagi chora-tadbirlarni o'z ichiga oladi. Bu maqsadda, umuman, mamlakat iqtisodiyotida, xususan esa, ustuvor deb belgilangan tarmoqlar va hududlarda qulay investitsiya muhitini yaratish zarur. Investitsiya muhiti bir qator shart-sharoitlarga qarab baholanadi. Bu shart-sharoitlarga siyosiy barqarorlik, inflyatsiya va ishsizlik darajalari, byudjetning to'ldirilishi darajasi, davlatning iqtisodiyotdagi ishtiroki va xususiy sektorning rivojlanishi darajasi, iqtisodiyotning, xususan, tashqi savdo, valyuta bozorlarining erkinligi, bozor infratuzilmasining rivojlanishi darajasi, tabiiy va mehnat resurslarining mavjudligi va ulardan foydalana olish imkoniyatlari, ishchi kuchining malakasi, soliq tizimining xususiyatlari, bank foiz stavkalari, bozor sig'imi va boshqalar kiradi.

Investitsiya muhitini belgilovchi eng muhim omillardan biri mamlakatda investorlar uchun yaratilgan imtiyozlar va kafolatlardir.

Investorlar uchun soliq imtiyozlarini berish amaliyotda keng qo'llaniladigan tadbirdir. Masalan, respublikamizda korxonalar foydasining ishlab chiqarishni kengaytirish, rekonstruksiya qilish va qayta qurollantirishga sarflangan qismi soliqqa tortilmaydi. SHuningdek, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash, xalq iste'moli tovarlari, bolalar assortimentidagi hamda eksportga mo'ljallangan tovarlar ishlab chiqarish kabi bir qator sohalarda yangi ochilgan korxonalar soliqlardan vaqtincha ozod etilish, umumiy soliq stavkalariga nisbatan pastroq soliq stavkalari qo'llanilishi kabi imtiyozlarga ega bo'ladilar.

Ichki investitsiya manbalari cheklangan bir sharoitda, ayniqsa, o'tish davrini boshidan kechirayotgan davlatlar uchun Chet el investitsiyalarini jalb qilish alohida ahamiyatga ega. Respublikamizda mustaqillik yillarida 13 mlrd. AQSH dollaridan ko'proq miqdordagi Chet el investitsiyalari o'zlashtirildi. Xorijiy investorlar uchun, ular oladigan yakuniy moliyaviy natijalariga bevosita va bilvosita ta'sir etadigan bir qator imtiyozlar va kafolatlar tizimi yaratilgan. Mamlakatimizda mustaqillik yillarida Chet el investitsiyalari ishtirokida bunyod etilgan eng yirik sanoat ob'ektlari respublikamizning eksport salohiyatini oshirdi, eksport va importning tovar tuzilishida ijobiy siljishlarga erishish, mamlakatning to'liq yoqilg'i-energetika mustaqilligini ta'minlash imkonini berdi.

### **1.5. Iqtisodiyotni rivojlantirishni asosiy yo'li – loyihalarni yaratish va amalga oshirish**

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiyotni modernizatsiyalash dasturi asosida 2009-2014 yillarda 852 loyihani amalga oshirish nazarda tutilmoqda. Ularning 127 tasi innovatsion loyihalar bo'lib, qiymati 7.3 milliard dollarga teng.

Respublikamiz mustaqillikka erishib, bozor munosabatlarini rivojlanayotgan ekan, iqtisodiyotni jadal rivojlantirishni eng asosiy omillardan biri bo'lgan investitsiya siyosatiga bog'liqdir. Investitsiya siyosatining samaradorligini ta'minlash iqtisodiyotning ustuvor yo'nalishlari va hozirgi kun talablariga javob beradigan mukammal investitsiya dasturini ishlab chiqishni talab etadi.



SHu bois ham mustaqillikningdastlabki kunlaridanoq investitsiyalarni, xususan, xorijiy investitsiyalarni ustuvor investitsiya loyihalariga jalb qilishga alohida e'tibor berildi. Investitsiya faoliyatining erkinligi va rivojlanishini ta'minlash maqsadida uning huquqiy asosini mustaxkamlash uchun «Investitsiya faoliyati to'g'risida»gi, «Chet el investitsiyalari to'g'risida»gi, «Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to'g'risida»gi qonunlar qabul qilindi.

Mazkur qonunlar xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni, xorijiy sheriklar bilan hamkorlikni mustahkamlashni va rivojlantirishni, ustuvor investitsiya loyihalarini amalga oshirishni va mamlakatda investitsion faollikni oshirishni rag'batlantirishga yo'naltirilgan.

Investitsiya loyihalari, avvalo, ustuvor tarmoqlarga, ya'ni neft va ximiya sanoati, transport, energetika, er osti qazilma boyliklarini ishlab chiqarishga, qurilish, telekommunikatsiya tarmoqlariga, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishga va ularni keng qayta ishlashga, turizm sohasini rivojlantirishga qaratilishi lozim. Mazkur investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun, eng avvalo, qulay investitsiya muhiti barpo etilishi lozim bo'ladi. Qulay investitsiya muhiti investorning u yoki bu davlat iqtisodiyotiga mablag' sarflash uchun shart-sharoitlarning qulayligini, ya'ni siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy sharoitlarning yaratilganligini baholashdagi barcha hisob-kitoblar majmuasini o'z ichiga oladi. Investitsiya muhitining jozibadorligi unga ta'sir etuvchi omillar darajasiga bog'liqdir

Har bir mamlakatdagi investitsiya muhiti birinchi navbatda, uning siyosiy barqarorligidadir. Xuddi ana shu omil Chet ellik investorlarning boshqa mamlakatga muddatli shartnomalar asosida resurslarni kiritish imkoniyatini beradi.

Investitsiya muhitiga ta'sir etuvchi omillardan yana biri huquqiy-me'yoriy hujjatlarning mavjudligidir. Bu esa investorning investitsiya faoliyatini amalga oshirish uchun kafolat vazifasini bajaradi.

O'zbekistonda investitsiya siyosatining asosiy tamoyillari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

1. Ishlab chiqarishni texnik jihatdan qurollantirish va

modernizatsiyalash, yangi ish o'rinlarini yaratish asosida iqtisodiy o'sish barqarorligini ta'minlash.

2. Vazirliklar, kontsernlr, korporatsiyalar va iqtisodiyotning boshqa bo'limlari ishtirokida va adres dasturlariga qat'iy rioya qilgan holda moliyalashtirishning barcha manbalari hisobidan markazlashgan va markazlashmagan kapital qo'yilmalar hajmini aniqlash.

3. Iqtisodiy samaradorlikni taqsimlash maqsadida eksportga mo'ljallangan va import o'rnini bosuvchi loyihalar nuqtai nazaridan ustuvor investitsiya takliflari ro'yhatini ishlab chiqish va chuqur ekspertizadan o'tkazishlarni ta'minlash.

4. Iqtisodiyotning turli sohalarini rivojlantirishda investitsiyalarni amalga oshirish tenderlar asosida o'tkazilishi lozim.

Respublikamiz investitsiya siyosatining ustuvorligi, eng avvalo, investitsiyalar, iqtisodiyotni tarkibiy jihatdan qayta qurish va texnik yuksaltirishga, shuningdek korxonalarining asosiy fondlarini modernizatsiya qilish (yangilash, zamonaviylashtirish) va qayta qurollantirishga yo'naltirilishi kerak.

Milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda investitsiya loyihalarini amalga oshirish ahamiyati benihoya katta bo'lib, u quyidagilar bilan izohlanadi:

— birinchidan, xorijiy investitsiyalar ishlab chiqarishga zamonaviy texnika va texnologiyalarni joriy etib, eksportga mo'ljallangan mahsulotlarni ishlab chiqarishni rivojlantiradi;

— ikkinchidan, import o'rnini bosuvchi tovar ishlab chiqarishni yulga qo'yish va buning uchun xorijiy investitsiyalarni iqtisodiyotning ustuvor sohalariga yo'naltirish va aholining me'yordagi turmush darajasini ta'minlash imkonini yaratadi;

— uchinchidan, kichik va xususiy tadbikorlikni rivojlantirish va qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini jadallashtirish orqali o'sib borayotgan aholini ish joylari bilan ta'minlaydi;

— to'rtinchidan, korxonalarining eskirgan ishlab chiqarish quvvatlarini, moddiy-texnik bazasini yangilaydi va texnik qayta qurollantiradi;

— beshinchidan, tabiiy resurslarni qayta ishlovchi korxonalarni barpo etishga ko'maklashadi va h.k.

Bugungi kunda iqtisodiyotimizni modernizatsiyalash, texnik va texnologik yangilash, uning raqobatdoshligini keskin oshirish, eksport salohiyatini yuksaltirishga qaratilgan muhim ustuvor loyihalarni amalga oshirish bo'yicha Dastur ishlab chiqarilmoqda. SHu borada, dastlabki hisob-kitoblarga ko'ra, umumiy qiymati 24 milliard AQSH dollaridan ziyod bo'lgan qariyb 300 ta investitsiya loyihasi ustida ishlamoqda.

Jumladan, bunda yangi qurilish loyihalari-18,5 milliard dollarni, modernizatsiya va rekonstruksiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash bo'yicha loyihalar esa taxminan 6 milliard dollarni tashkil qiladi. Dasturda kiritilishi mo'ljallanayotgan bu loyihalar avvalambor yoqilg'i-energetika, kimyo, neft-gazni qayta ishlash, metallurgiya tarmoqlariga, engil va to'qimachilik sanoati, qurilish materiallari sanoati, mashinasozlik va boshqa sohalarga tegishlidir.

Iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarini rivojlantirish uchun xorijiy investitsiyalarni jalb qilish siyosati mavjud mablag'lardan, vaqtdan va imkoniyatlardan samarali foydalanishga, turli xil qaltisliklarni, mavjud shart-sharoitlarni hisobga olgan holda boyliklarni samarali joylashtirishga va shu yo'l bilan respublika iqtisodiyotini ko'tarishga, uning jahon iqtisodiy tizimiga qo'shilishiga, Chet el investitsiyalarining kirib kelishini rag'batlantirish yo'li bilan investitsiyalarni, ko'prok, iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlariga jalb qilishga hamda ulardan samarali foydalanishga qaratilgan. Bugungi kunda xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning bir qancha shakllari mavjud. Bulardan:

— ulush qo'shib qatnashishi orqali qo'shma korxonalarni tashkil etish;

— 100% mol-mulk xorijiy investorga tegishli bo'lgan xorijiy korxonalarni tashkil etish;

— yirik xorijiy kompaniya va firmalarning sho'ba korxonalari va filiallarini tashkil etish;

— kontsessiya va lizing shartnomalari tuzish;

— tenderlar e'lon qilish;

— erkin iqtisodiy hududlar tashkil etish;

- moliyaviy aktivlarni sotish va sotib olish.

Chet el investitsiyalarining jalb etilishi kapital import qiluvchi mam-

lakatda soliq ijara haqi, barkaror valyuta tushumlari, asosiy fondlarning va shu kabilarning kupayishi evaziga milliy daromadning o'sishini ta'minlab beradi. Mamlakatga Chet el investitsiyalarining kirib kelishi tabiiy va mehnat resurslarining arzonligiga va boshqa shart-sharoitlarga asoslanadi. SHuning bilan birga ular iqtisodiyotda yangi investitsiya loyihalarining amalga oshirilishini ta'minlash orqali ularga yangi malaka, texnologiyalar, "nou-xau", boshqaruv tajribasi, tejamkorlik mahoratlarini va boshqa moddiy va nomoddiy boyliklarni kiritadilar. Chet el investitsiyalarining mamlakat iqtisodiyotiga jalb etilishi uning iqtisodiy imkoniyatlarining kengayishini tezlashtiradi va iqtisodiy qudratining oshishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Xullas, samarali investitsiya loyihalarini o'zlashtirish orqali rivojlangan bozor iqtisodiyotini barpo etish bilan bog'liq ko'pgina vazifalarni hal etishga muvaffaq bo'lamiz. Uning amalga oshirilishi birgina qo'shimcha faoliyat va ishlab chiqarishning yo'lga qo'yilishini ta'minlab qolmasdan, balki jamiyat xayotining haqiqiy darajasini ko'rsatib beruvchi aholi turmush farovonligining oshishiga va davlat boyligini ko'paytirishga o'z hissasini qo'shadi.

### **Qisqacha xulosalar**

Investitsiyalar - loyihalarni amalga oshirish uchun sarflanadigan pul mablag'lari, moddiy va nomoddiy aktivlar tushuniladi. Investitsiyalarni jalb etilish darajasi iqtisodiyotni modernizatsiyalash darajasini ko'rsatadi

Iqtisodiy mohiyatiga ko'ra, investitsiyalar- asosiy va aylanma kapitalni yaratish, kengaytirish yoki rekonstruktsiya qilish va qayta qurollantirish uchun qilinadigan xarajatlardir.

Tijorat amaliyotida fizik aktivlar, pul aktivlari va nomoddiy aktivlarga qilingan investitsiyalar o'zaro farqlanadi. Tavakkalchilik darajasi turlicha bo'lishiga ko'ra, samaradorlikni oshirish, ishlab chiqarishni kengaytirish, yalpi ishlab chiqarish va davlat talablarini qondirishga qilinadigan investitsiyalar turlanadi.

Investitsiya xarajatlari YaMM tarkibida muhim salmoqqa ega bo'lib, uning manbai jamg'armalar, shu jumladan, Chet el jamg'armalari hamdir.

Investitsiyalarga talab hajmini belgilovchi asosiy omillar foiz stavkasi va sof foyda me'yoridir. Investitsiyalar, shu jumladan real aktivlarga qilinadigan investitsiyalarning maqsadga muvofiqligini baholashning asosiy mezonlari ularning firma boyligiga qanday ta'sir etishi hisoblanadi.

Investitsiya siyosati deganda belgilangan maqsadlarga erishish uchun investitsiya manbalarini shakllantirish, ularni ustuvor sohalarga jalb qilish, samarali o'zlashtirish uchun ko'riladigan chora-tadbirlar majmuasi tushuniladi. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan investitsiya siyosati mustaqillikning dastlabki yillaridanoq yoqilg'i-energetika va don mustaqilligini ta'minlash, iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, eksport salohiyatini oshirish va import o'rnini bosuvchi mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirish uchun ustuvor sohalarni qo'llab-quvvatlash, Chet el investitsiyalarini jalb qilish uchun ochiq eshiklar siyosatini olib borish kabilarga qaratildi.

Chet el investitsiyalari rivojlanayotgan davlatlar iqtisodiyotini oyoqqa qo'yishning muhim omili bo'lib, asosiy investorlar Rambus klubi a'zolari bo'lmish etti davlatdir. Chet el investitsiyalarini jalb qilishning kontsessiya, kompensatsiya shartnomalar kabi uslublari mavjud. Chet el investitsiyalarini jalb qilish zarurati mamlakatda investitsiya muhitini yaxshilashni talab etadi.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar**

1. Investitsiyalarning mohiyati nimada?
2. Investitsiyalarni turlicha tasniflash mezonlari deganda nimani tushunasiz?
3. Investitsiyalar tuzilishini turli mezonlarga ko'ra izohlang va ahamiyatini tushuntiring.
4. Firma boyligi nima va uning investitsiyalar samaradorligini baholovchi boshqa ko'rsatkichlardan afzalligi nimada?
5. Pul oqimlarining mazmunini va tarkibini tushuntirib bering.
6. Firma faoliyatining yakuniy natijasiga moliyachi va iqtisodchi yondashuvidagi farq nimadan iborat?
7. Jamg'arish va investitsiya tengligi ayniyati nimani anglatadi va unga qanday erishiladi?

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiyotni modernizatsiyalash siyosati dasturlarning yo'nalishlari va tamoyillari nimalardan iborat?

Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish uslublari va yo'nalishlarini izohlab bering.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1.И.А.Каримов. Барча режа ва дастурларимиз Ватанимиз тараққиётини юксалтириш, халкимиз фаровонлигини оширишга хизмат қилади: – Т.: Ўзбекистон, 2011. – 48 б.

2.Староверова Г.С. Экономическая оценка инвестиций. Учебное пособие.- Г.С. Староверова, А.У.Медведев.3-е изд, - М: КНОРУС, 2010. 215-250с.

3. Балдин К.В. Инвестиции и инновации. Учебное пособие. \ К.В. Балдин, И.И. Передеряев и др.-2- изд- М: Издател'ское – торговая корпорация «Дашков и К», 2010. 199-238 с.

4.А.Э.Ишмухамедов, М.С. Қосимов, З.А. Джумаев, Г.Я.Мухамеджанова. Лойиха тахлили. Т.: ТДИУ 2006 й. 6-20 бетлар.

5.Турина А.В. Инвестиции. Практикум. Учебное пособие. \ А.В. Турина-М: КНОРУС.2010.- 112-208 стр.

## II-BOB.LOYIHA TAHLILI KONTSEPTSIYASI

### 2.1. Loyiha nima?

Loyiha tushunchasi va tahliliga adabiyotlarda turlicha tariflar berilgan. Biz ulardan eng soddasini keltiramiz. Loyiha cheklangan vaqt davomida hamda belgilangan byudjet bilan oldinga qo'yilgan maqsadlarga erishishga xizmat qiluvchi o'zaro bog'langan tadbirlar majmuidir.

Tarmoqlarda yaratilayotgan ob'ektlar shu qadar murakkabki, ularni amalga oshirish ishlari loyiha emas, balki dastur doirasida olib boriladi. Dasturlar uzoqroq muddatga, kengroq ko'lamga ega bo'lib, asosiy maqsadga xizmat qiluvchi bir necha loyihani o'z ichiga olishi mumkin. Bu loyihalar dasturning xizmat muddati va ko'lami bo'yicha bir nechtani tashkil etib, maqsadi, turi bo'yicha o'zaro farq qilishi mumkin.

Loyihaning asosiy elementlari quyidagilardir:

Loyiha atamasi bilan quyidagi tushunchalar o'zaro bog'langan:

- loyiha davri (bosqichi);
- loyiha tahlili;
- loyiha menejmenti;
- loyihani moliyalashtirish.

Har bir loyihani belgilovchi 4-asosiy omil mavjud:

1. Loyiha ko'lami (kichik loyiha, megaloyiha)
  - kichik loyiha – ko'lamiga ko'ra katta bo'lmagan sodda va cheklangan hajmdagi, (qiymati 15 mln. AQSH dollarigacha bo'lgan loyihalar);
  - megaloyihalar maqsadli dasturlar bo'lib, maqsadlar umumiyligi, resurslar va vaqt bo'yicha o'zaro bog'langan bir necha loyihani o'z ichiga oladi. Bunday loyihaning qiymati 15 mln.dollardan 1 mlrd. gacha yoki mehnat sig'imi 20 mln. kishi soatidan ko'p bo'ladi.
2. Amalga oshirish muddatlari (qisqa muddatli, o'rta muddatli va uzoq muddatli loyihalar).
3. Sifatli (deffektsiz loyiha).

#### 4. Resurslarning cheklanganligi (mul'tiloyiha).

Loyihalarning asosiy xususiyatlari quyidagilardir:

1. Vaqt bo'yicha cheklanganligi – loyihani ishlab chiqish hamda amalga oshirish muddatlarining cheklanganligi.

2. Alohida faoliyat turlari bilan bog'liq hodisalarning aniq belgilangan ketma-ketligi.

3. Maqsadga yo'naltirilganligi.

SHuningdek, modul' loyihalar, xalqaro va investitsiya loyihalari farqlanadi.

Biz ushbu qo'llanmada barcha turdagi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan loyixalarni loyihalarini ko'rib chiqamiz va Jahon banki tomonidan investitsiya loyihalarini baholashda qo'llaniladigan ba'zi tartiblarga asoslangan holda fikr yuritamiz.

Loyiha tushunchasi ikki ma'noda qo'llaniladi:

1. Belgilangan maqsadlarni amalga oshirishga qaratilgan xatti-harakatlar majmuini amalga oshirishni ko'zda tutuvchi ish, faoliyat, tadbir sifatida.
2. Bu faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan tashkiliy-huquqiy va hisob-moliya hujjatlari tizimi sifatida.
3. O'lchamchilik – loyiha bo'yicha faoliyat va kutilayotgan natijalarni miqdoriy ifodalash imkoniyatlarini mavjudligi.

## **2.2. Loyihalarning tasnifi (klassifikatsiyasi).**

O'zbekiston Respublikasi Makroiqtisodiyot vazirligida turli turkumdagi loyihalar bilan ishlash, tahlil qilish va boshqarish ishlari amalga oshiriladi. Loyiha – bu alohida tizimning vaqt bilan chegaralangan, maqsadga yo'naltirilgan o'zgarishi bo'lib, u kapital va resurslar hamda maxsus tashkilotlar harajatlarining taxminiy doirasida belgilangan talablar bilan natijalarning sifatiga qaratilgan xisob - kitoblar va tadbirlar yig'indisidir.

“Alohida tizimlar” tushunchasiga kiritilishi nafaqat loyihaning to'liqligi va uning boshqa tashkilotlar bilan chegaralanganligini ko'rsatadi,



balki loyihaning yagonaligini (seriyali ishlab chiqarishdan farqli ravishda) bildiradi, demakki, uning betakrorligini va yangilik (innovatsiya) belgilarini ham turlichaligini bildiradi. Loyihalar kiritilish sohalari, ko'lam, davomiyligi, qatnashuvchilarning tarkibi, qiyinlik darajasi, natijalar ta'siri va hakazolar bo'yicha katta farq qilishi mumkin.

Loyihalarning tahlili va sintezi qulayligi uchun turli xil boshqarish tizimlari turli asoslar bo'yicha tasniflanishi mumkin.

**Loyiha turi** (amalga oshirilayotgan loyihaning asosiy faoliyat sohalari bo'yicha): tashkiliy, iqtisodiy, ijtimoiy va aralash.

**Loyiha sinfi** (loyiha tarkibi va tizimini hamda uning fan sohasi bo'yicha): monoloyiha, multiloyiha, megaloyiha. Monoloyiha – bu har xil tur, qurilish va hajmdagi alohida loyihadir. Multiloyiha – bu bir necha monoloyihalar tashkil topgan va ko'p loyihali boshqaruvli tadbiqu talab qiluvchi kompleks loyihadir. Megaloyiha – bu ta'lim sohalari va h. rivojlantirishning maqsadli dasturlari bo'lib, bu tartibga bir qator mono va multiloyihalar kiritiladi.

**Loyiha ko'lami** – (loyihaning hajmi, qatnashuvchilar soni va atrof-muhitga ta'sir darajasi bo'yicha): kichik loyihalar, o'rta loyihalar, yirik loyihalar, juda yirik loyihalar. Loyihalarning bunday taqsimoti juda shartlidir. Loyiha ko'lamlarini aniqroq shaklda ko'rish mumkin. Davlatlararo, xalqaro, milliy mintaqalararo va mintaq, tarmoqlararo va tarmoqlar bo'yicha, kooperativ, tashkiliy loyihalar.

**Loyiha davomiyligi** (loyihani amalga oshirish vaqti davomiyligi bo'yicha): qisqa muddatli (3 yilgacha), o'rta muddatli (5 yildan ortiq).

**Loyihalarning murakkabligi** (murakkablik darajasi bo'yicha): oddiy, murakkab, juda murakkab.

**Loyiha turi** (loyihaning fan sohasi xarakteri bo'yicha): investitsion, innovatsion, ilmiy-tadqiqot, aralash. Investitsion loyihalarga odatda, investitsion qo'yilmalarni talab qiluvchi, bosh maqsadi asosiy fondlarni ishlab chiqarish ya'ni yangilash bo'lgan loyihalar kiritiladi. Innovatsion loyihalarga, tizimlar rivojlanishini ta'minlaydigan, bosh maqsadi yangi texnologiyalarni, nou-xau va boshqa yangiliklarni ishlab chiqish va qo'llash bo'lgan loyihalar kiritiladi.

Loyihalarning turlariga tasniflanish va bo'linmalariga mos ravishda

loyihalarni bir-biridan ajratib turadigan bir necha xususiyatlari va odatiy shartlarni ajratish mumkin.

### **Investitsion loyihalar**

Loyihalarni ichida investitsion loyihalarning o'zni juda katta. Investitsion loyihalar bilan iqtisodiyot modernizatsiya qilinmoqda va innovatsion texnologiyalar real sektorga va barcha sohalarga tatbiq etilmoqda. Investitsion loyihalarning maqsadi (masalan, uy maydonining kv.m. mahsulotning ishlab chiqarish hajmi, o'lchami va profili): bitimning muddati, davomiyligi; loyiha harajatlari, loyihaning talab qilingan resurslari kabi ko'rsatkichlar va tadbirlar ishlab chiqiladi. Investitsion loyihaga misol bulib Toshkent oblastida qurilayotgan O'zbekiston – Amerika avtomobil motorlari ishlab chiqaruvchi qo'shma korxonasini misol qilish mumkin.

### **Ilmiy izlanish va rivojlanish loyihalari (R&D).**

Yngi mahsulotni ishlab chiqarish, qurilish sohasidagi izlanishlar yoki yangi informatsion boshqaruv tizimlarini ishlab chiqish quyidagi xususiyatlar bilan xarakterlanadi: loyihaning bosh maqsadi aniq belgilangan, lekin alohida maqsadlar xususiy natijalarga erishishi doirasida aniqlanishi kerak; loyihaning yakunlanishi va davomiyligi muddati oldindan aniqlangan, ularga iloji boricha aniq rioya etish zarur, ammo ular olingan oraliq natijalar va loyihaning umumiy siljib borishiga bog'liq hamda to'g'rilanishi ham kerak; loyihaning harajatlar rejasi odatda ajratilgan assignatsiyalar va oz miqdorda loyihani haqiqatda siljib borishiga bog'liq; asosiy cheklashlar quvvatlardan foydalanish imkoniyatlarini cheklanganligi bilan bog'liq (uskunalar va mutaxassislar). Qoidaga asosan, mavjud quvvatlar loyihaning harajatlari va uning tayorgarlik muddatini aniqlab beradi. Bunday loyihalarga innovatsion loyihalarni misoli qilish mumkin.

### **Tashkiliy masalalar**

Korxonani qayta qurish, yangi boshqaruv tizimining kontseptsiyalarini realizatsiya qilish, yangi tashkilotni tuzish yoki xalqaro forum o'tkazish – loyiha sifatida quyidagicha xarakterlanadi: loyihaning

maqsadlari oldindan aniqlangan, biroq loyiha natijalarini sifat va miqdor ko'rsatkichlarini yuqoridagi ko'rsatilgan loyihalarga nisbatan aniqlash qiyinroq, chunki ular tizimning tashkiliy jihatdan yaxshilashi bilan bog'liq; muddat va davomiylik taxminan belgilanadi; resurslar imkoniyat doirasida belgilanadi; loyiha harajatlari aniq belgilanadi va iqtisodiy nazoratga qo'yiladi; biroq loyihaning siljib borishi yuzasidan to'g'rilanish (korrektirovka)ni talab qiladi.

### **Iqtisodiy loyihalar**

Korxonalarni xususiylashtirish, auditorlik tizimini tashkillashtirish, yangi soliq tizimini kiritilishi – bu o'zining xususiyatlariga ega bo'lgan barcha iqtisodiy loyihalar: loyihaning maqsadi tizimning iqtisodiy ko'rsatkichlari ishlashining yaxshilanishi hisoblanadi, shuning uchun ularni avvalroq ko'rib chiqilgan holatlarga nisbatan baholash qiyinroqdir; maqsadlar taxminan belgilanadi, lekin loyihani siljib borishi bo'yicha to'g'rilanishini (korrektirovka) talab qiladi; loyiha muddatlari ham xuddi shunday, loyiha uchun resurslar zaruriyat yuzasidan imkoniyat doirasida taqdim etiladi; harajatlar taxminan aniqlanadi, iqtisodiyliigi nazorat qilinadi va loyihani siljib borishi aniqlanadi. Bu shuni bildiradiki, iqtisodiy natijalarga belgilangan muddatlarda o'rnatilgan harajatlar asosida erishilishi kerak, resurslar talab bo'yicha taqdim etiladi.

### **Ijtimoiy loyihalar**

Ijtimoiy ta'minot tizimini qayta qurish, sog'liqni saqlash, aholining kam ta'minlangan tabaqalarini ijtimoiy himoya qilish, tabiiy va ijtimoiy siljishlar oqibatlarini engib o'tish – bularning barchasi o'z hissasiga ega ijtimoiy loyihalardir: maqsadlar faqat oraliq natijalarga erishish doirasida to'g'rilanishi kerak va ko'zda tutiladi, ularni miqdor va sifat jihatdan baholash ancha murakkablashgan; loyihaning muddati va davomiyliigi taxminiy omillarga bog'liq yoki faqat belgilanadi va oqibatda aniqlanishi zarur; loyiha harajatlari, odatda byudjet assignatsiyalariga bog'liq; resurslar talab bo'yicha imkoniyat doirasida ajratiladi. Ijtimoiy loyihalar yuqori aniqlikka ega.

Loyihaning amalga oshirilishi ma'lum ichki dinamik va tashqi muhit

qurshovida yuz berib, unga ma'lum ta'sirini o'tkazadi. SHu bilan birga, qurilish loyihalarida bino etilayotgan qurilma konstruksiyalariga tushadigan barcha turdagi statistik va dinamik yuklarni aniqlay olish va hisoblay olish zarurligi kabi, kengroq ko'lamdagi loyihada ham, loyihaga va uning muhitiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan barcha jismoniy, iqtisodiy, ijtimoiy, moliyaviy tashkiliy va h. omillarni aniqlash va hisobga olish muhim, ma'lum sharoitlarda bunday omillarning har biri loyiha uchun xavfli bo'lib chiqib, uning buzilishiga olib kelishi mumkin.

Loyiha atrof muhit o'rtasidagi munosabatni ma'lum bir mahsulot ishlab chiqaradigan korxonaga uchun mahsulotni rivjlantirish loyihasi misolida ko'rib chiqish mumkin. Oddiy, uzoq muddat faoliyat tashkilot o'zgarishlar va yaegilanish sharoitida talabning yuzaga chiqishiga asos bo'lib xizmat qiladi. Bu esa, natijada loyihaning paydo bo'lishiga olib keladi. Qachonki loyiha haqiqatdan boshlangan bo'lsa, u mustaqil rivojlana boshlaydi. Loyihani amalga oshirish jarayonida uning ishtirokchilari o'z vazifalarini bajarishga diqqat qaratadilar. Ular o'z loyihalari olamida yashashadi, fikrlashadi va harakat qilishadi. Korxonani uzoq muddat doirasida tashkil qilishda, kichik nisbatan qisqa muddatli «loyiha» tashkiloti paydo bo'ldi.

Loyihani amalga oshirish davomida korxonaning ishlab chiqarish, sotish, boshqaruvdagi oddiy hayoti davom etaveradi. Xuddi shu holat loyihaning muhitiga ham tegishli. Bu erda ham o'zgarishlar yuz berib, ular korxonaga orqali loyihaga ta'sir etadi. Loyihaning mavjud shart-sharoit va ularni rivojidan ajralib bo'lmaydi. Demak, oldindan loyihaning bevosita muhitini (ya'ni, korxonaning o'zini) va atrof muhitini (ya'ni, korxonaga atrofini) hisobga olish kerak.

Ularning o'zgarishi, natijasida, loyiha muvaffaqiyati uchun hal qiluvchi o'rinni egallashi mumkin.

Bundan tashkari ekologik loyihalar, institutsional loyihalar, xalqaro loyixalar kabi loyihalarning turlari mavjud. Iqtisodiyot boshqarmalarda va Respublikamizning iqtisodiyot vazirligida barcha turdagi loyihalar bilan ish olib boriladi.

### 2.3. Loyiha hayot davrining asosiy bosqichlari

Loyiha yuzaga kelgan vaqtdan toki u tugatilgunga qadar o'tgan vaqt oralig'iga loyihaning hayot davri, loyiha bosib o'tishi lozim bo'lgan holatlarga esa fazalar, bosqichlar deyiladi. Loyihalar hayot davri (LHD) ning quyidagi bosqichlari farqlanadi:

1. Investitsiya oldi bosqichi.

- a) investitsiya imkoniyatlarining tahlili;
- b) dastlabki texnik-iqtisodiy asoslash;
- v) texnik-iqtisodiy asoslash;
- g) investitsiya imkoniyatlari to'g'risida doklad.

2. Investitsiya bosqichi.

- a) muzokaralar olib borish va shartnomalar tuzish;
- b) loyihalashtirish;
- v) qurish (qurilish ishlarini amalga oshirish);
- g) marketing;
- d) xodimlarni o'qitish.

3. Eksploatatsiya bosqichi.

- a) qabul qilish va ishga tushirish;
- b) uskunalarni almashtirish (yangilash);
- v) kengaytirish, innovatsiya.

Mehnat sig'imiga ko'ra LXD ni quyidagicha tasavvur qilish mumkin:

Bosqichlar	Kontseptsiya	Rejalashtirish	Loyihalashtirish	Qurilish	Yakunlash
Vaqt	3 %	5%	20%	60%	12%

Loyihaning kontseptsiyasini ishlab chiqish loyihaning yakuniy maqsadlari va bu maqsadlarga erishish yo'llarini belgilashni o'z ichiga oladi. Bunda muqobil maqsadlar ko'rib chiqiladi, hajmlar, muddatlar, foyda hajmi miqdoran solishtiriladi.

Loyihani yashovchanligini baholash dastlabki texnik-iqtisodiy

asoslash mazmunini tashkil etadi. Bunda bir necha muqobil variantlar ko'rib chiqiladi va qiymati hamda foyda bo'yicha baholanadi. Loyihani rejalashtirish bosqichida loyiha bo'yicha ishlar rejasi tuziladi. Bu rejada ishlarning tarkibiy va vaqt bo'yicha bosqichlari, ijrochilari aniqlanadi. Biz faqat investitsiya oldi bosqichini o'rganamiz, holos. LXDni xarakterlagan holda quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin:

1. Loyiha g'oyasi.
2. Muammo tahlili (maqsadlar, talablar, vazifalar).
3. Kontseptsiyani ishlab chiqish (ishlab chiqishga qo'yilgan talablar, amalga oshirish imkoniyatlari tahlili, muqobil kontseptsiyalar).
4. Loyihani ishlab chiqish.
5. Loyihani amalga oshirish (ish hujjatlari, xarid, sinov, qabul qilish).
6. Ekspluatatsiya (natijalar sinovi, texnik xizmat ko'rsatish).
7. Tugatish (demontaj, sotish, rivojlantirish haqida qaror qabul qilish va yangi loyiha).

Loyihani ishlab chiqishning turli bosqichlarida turli darajadagi aniqlikka, erishiladi va xatolikka, qaltislikka yo'l qo'yiladi.

#### **2.4. Loyiha muhiti**

Loyiha muhiti tashqi va ichki muhitlarga bo'linadi. Tashqi muhitni korxonada doirasida o'zgartirib yoki boshqarib bo'lmaydi. SHuning uchun tashqi muhitdan kelib chiqib samarali ichki muhitni yaratish va raqobat qilish zarur bo'ladi. Korxonaning loyihaga ta'sirini ya'ni loyihaning ichki muhiti omillarini ko'rib chiqamiz.

Korxonada rahbariyati – loyihaning maqsadi va asosiy talablarini aniqlashning bosh manbai hisoblanadi. Korxonaning rivojlanish strategiyasidan kelib chiqib, rahbariyat mutaxassislarining alohida talablarini umumlashtiradi. Bunga rahbariyatning maxsus talablari qo'shiladi, loyihani amalga oirish talabi, bo'linmalar va korxonada mutaxassislari va h. tomonidan loyihaning maqsad va talablarini

to'g'rilash (korrektirovka) tartibi va uslubi.

Moliya sohasi – mahsulotni seriyali ishlab chiqarish va loyiha harajatlarini qoplash uchun kalkulyatsiyalar hisobi bilan loyiha bjudjet doirasini hamda loyihani moliyalashtirish usullari va manbalarini aniqlaydi.

Sotish sohasi – loyiha muhim talab va shartlarini tashkil qiladi, bu esa sotish bozorlari va sotib oluvchilarni qarorlari bilan aniqlanadigan, raqobatchilarning mavjudligi va harajatlar bilan bog'liq.

Tayyorlash sohasi – ishlab chiqarish vositalari bozori bilan bog'liq va o'zining maxsus talablarini oldinga suradi, masalan: texnologiya va uskunalardan foydalanish bo'yicha tavsiyalar, turib qolgan ishlab chiqarish maydonlarini ishga tushirish talabi, ma'lum texnologik jarayonlardan voz kechish, ishlab chiqarish vositalari bozori imkoniyatlarining loyiha talablariga mos kelishi va hakazo.

Moddiy ta'minot sohasi – xom ashyo va yarim tayyor mahsulotlar bozori bilan bog'liq va maqbul narxlarda xom ashyo, material va uskunalar bilan ta'minlash imkoniyatidan kelib chiqib, loyihaga o'zining talablarini qo'yadi.

Infrastruktura sohasi – turli xizmatlar bozori bilan bog'liq va loyihaga va uning ta'minotiga o'z talablarini qo'yadi. Bunga, reklamaga, transportga, aloqa telekommunikatsiyaga, informatsion va boshqa tur ta'minotga bo'lgan talablar kiritiladi.

Ishlab chiqarish chiqindilaridan foydalanish va ulardan foydalanish sohasi – atrof muhit himoyasi xizmati va talablari hamda ishlab chiqarish chiqindilaridan oqilona foydalanish bilan bog'liq.

Korxonaning boshqa bo'linmalari tomonidan ham boshqa talablar ham bo'lishi mumkin.

Loyiha rahbari, uning jamoasi va loyiha menejmenti va vazifalariga quyidagilar kiradi: loyihaga bo'lgan jami talablarni yig'ish; barcha aloqador qatnashchilar loyiha ma'lumotlari bilan ta'minlash; talablarni qondirish imkoniyatlari va darajasini aniqlash; loyiha talablari va ularning o'zgarishlari to'g'risida ma'lumotlarni yig'ish shakli va ko'lamini aniqlash; loyiha muhiti dinamikasi bashoratining shakllanishi; prioritetlarni baholash me'yorlari va talablar ierarxiyasining shakllanishi;

bajarish uchun majburiylarda «mayda istaklar»gacha.

Korxonada muhiti loyihaga korxonada ichidan bevosita katta ta'sir ko'rsatadi. Tashqi omillarning ham loyihaga ta'siri katta:

**Siyosiy xarakteristikalar va omillar:** siyosiy barqarorlik; loyihaning hukumat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi; jinoyatchilik darajasi; ishtirokchi mamlakatlar bilan savdo balansi; harbiy birlashmalarda ishtirok etish.

**Iqtisodiy omillar:** milliy xo'jalik strukturasi; javobgarlik va mulkiy huquqlar turlari, jumladan, er huquqi; tarif va soliqlar, sug'urtalash; inflyatsiya darajasi va valyuta barqarorligi; bank tizimining rivojlanganligi; investitsiyalar va kapital qo'yilmalar manbalari; tadbirkorlik erkinligi va xo'jalik mustaqilligi darajasi; bozor infrastrukturasi rivojlanganligi; baholar darajasi; bozorlar holati; savdo, investitsiyalar, ishlab chiqarish vositalari, xom ashyo va mahsulotlar, ishchi kuchi va boshqalar.

**Jamiyat** – uning xarakteristikalari va omillari: hayot darajasi va sharoitlari, ta'lim darajasi; ko'chib yurish erkinligi, «kirish-chiqish», mehnat qonuniyligi, chiqish (zabastovka)larni taqiqlash; sog'liqni saqlash va meditsina, dam olish sharoitlari; jamoat tashkilotlari, pressa, televidenie; mahalliy aholini loyihalarga munosabati.

**Qonun va huquq:** inson huquqlari; tadbirkorlik huquqlari; mulkka egalik huquqlari; sug'urta va imtiyozlar berish to'g'risidagi qonun va normativ aktlar.

**Fan va texnika:** fundamental va yordamchi fanlarning rivojlanish darajasi; informatsion texnologiyalar va komp'yuterlashtirish darajasi; sanoat va ishlab chiqarish texnologiyalari; energetik tizimlar; transport tizimlari; aloqa va kommunikatsiya.

**Madaniyat:** savodxonlik darajasi; tarix, madaniyat, urf-odatlar, din; madaniy talablar; hayot ta'limoti, ish, dam olish, sport va boshqalar.; natijalar sifatiga va mehnat sharoitlariga bo'lgan talablar darajasi.

**Tabiiy va ekologik omillar:** tabiiy iqlim sharoitlari; harorat, yog'inlar, namlik, shamollar, dengiz sathidan balandlik, seysmiklik, landshaft va monografiya va boshqalar; tabiiy resurslar, transport tizimlari bilan aloqa va joylashuv; sifat bo'yicha standartlar; havo yo'llari, suv



manbalari va tuproq qatlami; atrof muhitga sanitar talablar; atrof muhitni muhofaza qilish bo'yicha qonunchilik; tendentsiyalar tasnifi va ekologik tizimlarning holati: havo, suv va tuproq.

**Infrastruktura xarakteristikalari va omillari:** transport vositalari. Aloqa va kommunikatsiya, yuk tashish, EHM tarmoqlari va informatsion tizimlar; energiya ta'minoti; aloqa xizmatlari; xom ashyo va xizmatlar; xo'jalik tarmoqlari, logistika va material texnik ta'minot; sanoat infrastrukturasini; xizmat ko'rsatuvchi tizimlar va boshqalar.

Loyihaning o'ziga va xususan uning muvaffaqiyatli amalga oshirilish jarayoni loyihaning ichki muhitiga katta ta'sir ko'rsatadi. Ushbu omillar quyidagilardir:

**Maxsus tashkillashtirilganlik:** loyihaning asosiy ishtirokchilari, huquqlar, taqsimot, javobgarlik va majburiyatlar orasidagi o'zaro aloqani aniqlab beradi, hamda loyihani amalga oshirish muvaffaqiyatiga ta'sir qiladi.

**Loyiha ishtirokchilari** – loyihani amalga oshirish jarayonida turli xil qiziqishlarni va amalga oshirib, maqsad va rag'batga mos ravishda o'z talablarini shakllantiradi va o'zlarini qiziqishlari, qobiliyatlari va loyiha «jalb qilinganlik» darajasi bilan loyihaga ta'sir ko'rsatadi.

**Loyiha jamoasi** – loyihaning «aql markazi», motori va ishni bajaruvchi a'zosi bo'lib, loyihaning rivoji va muvaffaqiyati ko'p jihatdan unga bog'liq.

**Loyihani boshqarish uslubi** – loyiha jamoasida psixologik klimat va atmosferani aniqlaydi, uning ijodiy aktivligi va ishchanligiga ta'sir qiladi.

**Kommunikatsiya usullari va vositalari** – loyihada jalb qilingan ishtirokchilar orasida informatsiya almashinuvining to'raligi, ishonchliligi va tez hamda samaradorligini aniqlab beradi. Aslida bu «loyihaning nerv tizimi» bo'lib uning muvaffaqiyati ko'p jihatdan mukammallashtirish darajasiga bog'liq.

**Loyihaning iqtisodiy shartlari** – loyiha byudjeti va harajatlari, loyiha ichida amal qiluvchi va uning asosiy qiymat xarakteristikalarini aniqlovchi baholari, soliq va tariflari, Xatarchilik va sug'urta, rag'bat va imtiyozlari va boshqa iqtisodiy omillar bilan bog'liq.

Loyihaning ijtimoiy shartlari - quyidagilar bilan xarakterlanadi: loyiha ishtirokchilariga standart hayotiy shartlarini ta'minlab berish; maosh darajasi; kommunal xizmatlar ta'minlash; ijtimoiy shartlar (maktab, bog'cha, tibbiy xizmatlar va b.) bilan ta'minlash, mehnat shartlari va texnik xavfsizligi; sug'urta va ijtimoiy ta'minot va b.

Qolgan omillarga quyidagilarni kiritish mumkin:

Atrof muhitga loyiha natijalarining ta'siri;

Texnik shartlar: loyihaning qabul qilingan asosiy texnologiyalari; uskuna, mashina va b.

Loyihannig komp'yuterlashtirish va informatizatsiyalashtirish darajasi.

2.4.1-jadval

Loyiha	Loyiha muhitini ta'sir qilish sohalari								
	Siyosat	Iqtisod	Jamiyat	Qonun va huquq	Madaniyat	Tabiat	Ekologiya	Infrastruktura	Fan va texnika
Ijtimoiy	3	3	3	3	3	1	2	2	1
Iqtisodiy	3	3	2	3	2	0	1	1	1
Tashkiliy	2	3	2	3	3	2	1	1	2
Innovatsion	1	2	1	2	3	1	1	1	3
Investitsion	1	3	2	3	1	3	3	3	2

Tashkillash, loyihaning xujjatlashtirish tizimi yuqorida keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, loyihani atrof muhit bilan aloqalari chuqurlashib bormoqda, lekin muhim omillarni ta'sir qilish darajasi turli xil loyihalar uchun har xildir. Loyihaning solishtiriladigan ko'lamlarda asosiy tur va ko'rinishlari uchun loyihaning muhim omillari ta'siri darajasi to'g'risidagi ekspert ma'lo'otlar keltirilgan.

Ta'sir qilish baholari: 0-ta'sir qilmaydi; 1-kuchsiz ta'sir qiladi; 2-

o'rtacha ta'sir qiladi; 3-kuchli ta'sir qiladi.

Ushbu ma'lumotlar tahlilidan quyidagi qiziqarli xulosalarin chiqarish mumkin:

- tashqi muhit ta'siriga eng ko'p ijtimoiy va investitsion loyihalar, keyin tashkiliy, iqtisodiy, eng kam darajada – innovatsion loyihalar duchor bo'lgan;
- loyihaga eng ko'p quyidagilar ta'sir etadi: iqtisodiyot va qonun va huquq, keyin madaniyat, faqat keyingina, siyosat va jamiyat;
- loyiha eng kam tabiat, ekologiya va infrastrkturaga ta'sir qiladi.

Loyiha ishtirokchilarining tarkibi. Ularning roli, loyihaning turi, qurilish ko'lamini va murakkabligiga bog'liq. Ishtirokchilarga vazifa va javbgarlikni taqsimlash loyihaning hayotiy tsikli fazalariga bog'liqdir. Bu erda umum qabul qilingan qattiq reglamentlar yo'q. Quyida loyiha ishtirokchilari va ularning vazifalari sanab o'tilgan.

**Tashabbuskor** – loyihaning bosh g'oyasi bo'lgan tomon, uning loyihani amalga oshirish bo'yicha boshlang'ich asoslari va takliflari. Tashabbuskor sifatida loyihaning kelajakdagi ishtirokchilaridan deyarli har qaysi maydonga chiqishi mumkin, lekin natijada loyihani amalga oshirish bo'yicha ishbilarmonlik tashabbusi loyiha buyurtmachisidan kelib chiqishi kerak.

**Buyurtmachi** – asosiy tomon bo'lib, u loyihani amalga oshirish va uning natijalariga erishishdan manfaatdor. Loyihaning yangi egasi va natijalardan foydalanuvchidir. Buyurtmachi loyihaning asosiy talablari va ko'lamini aniqlab beradi, o'z vositalari yoki jalb qiluvchi investorlar vositalari hisobiga loyihani moliyalashtiradi, loyihani asosiy bajaruvchilari bilan shartnomalar tuzadi. Bu shartnomalar bo'yicha javobgar bo'ladi, loyihaning barcha ishtirokchilari orasidagi o'zaro munosabatlari jarayoni boshqaradi. Loyiha bo'yicha butun jamiyat va qonun oldida javobgar hisoblanadi.

**Investor(lar)** – loyihaga investitsiya kirituvchi tomonlar, masalan, kredit yo'li bilan bo'lishi mumkin. Investorlarning maqsadi loyihani amalga oshirishdan o'z investitsiyalari bo'yicha maksimal foyda olishdir. Agar buyurtmachi va investor bitta shaxs bo'lmasa, unda investor sifatida odatda banklar, investitsion fondlar va boshqa tashkilotlar chiqadi.

Investorlar buyurtmachi bilan aloqaga kirishadi, kontraktlar bajarilishini nazorat qiladi va loyihani amalga oshirish bo'yicha boshqa tomonlar bilan hisob-kitoblarni bajaradi. Investorlar loyihaning teng huquqli sherigi va uning mulklari egasi bo'lib, buyurtmachi bilan shartnoma yoki kredit kelishuvi bo'yicha, ularga barcha vositalar to'lanmaguncha, o'z investitsiyalari hisobiga hosil qilinadi.

## 2.5. Loyiha ob'ektlari va sub'ektlari

**Loyiha rahbari** – yuridik shaxs bo'lib, unga buyurtmachi va investor loyihani boshqarishda, ishlarni boshqarishda hisobot beradi: rejalashtirish, nazorat va loyihaning barcha ishtirokchilari ishlarini boshqaradi. Kichik loyihalarda loyiha menedjeri loyihani boshqaradi. Loyiha rahbarining vazifalari va javobgarligi ko'lami buyurtmachi bilan bo'lgan shartnoma asosida aniqlanadi. Lekin loyiha rahbari va uning jamoasi oldida odatda belgilangan muddatlar, byudjet va sifatga amal qilib loyihaning ma'lum maqsad va natijalariga erishguncha loyihaning hayotiy tsikli davomida umum faoliyat rahbarligi va ishlar koordinatitsiyasi vazifasi qo'yiladi.

**Loyiha jamoasi** – maxsus tashkiliy struktura bo'lib, loyiha rahbari tomonidan boshqariladi va loyihani amalga oshirish davrida shakllantiriladi. Loyiha jamoasi vazifasi – loyihaning maqsadlari samarasiga erishishda loyihaning boshqaruv vazifalarini amalga oshirish. Loyiha jamoasi tarkibi va vazifalari loyihaning ko'lami, murakkabligi va boshqa xarakteristikalariga bog'liq; lekin har qanday holatda jamoa o'zlariga yuklatilgan barcha majburiyatlarni yuqori professional darajada ta'minlab berishi kerak.

**Shartnomachi** – loyihaning tomoni yoki ishtirokchisi bo'lib, buyurtmachi bilan o'zaro munosabatda bo'ladi, shartnoma bo'yicha ishlarni bajaralishi uchun javobgarlikni o'z bo'yniga oladi – bu loyihaning to'liq yoki bir qismi bo'lishi mumkin. SHartnomachi maqsadi – mumkin bo'lgan eng yuqori foyda olish. Asosiy shartnomachi vazifalariga buyurtmachi bilan shartnoma tuzish, subshartnomalar bilan shartnoma tuzish va tanlash, ularning ishlarini boshqaruvini ta'minlash, bajaruvchilar

ishlarini qabul qilish va xizmatlar uchun to'lash kiradi. SHartnomachi sifatida loyiha rahbari yoki loyihaning boshqa aktiv ishtirokchilari chiqishi mumkin.

**Subshartnomachi** – yuqoriroq darajadagi shartnomachi yoki subshartnomachi bilan shartnoma aloqalariga kirishida. SHartnoma bo'yicha ish va xizmatlarni bajarishga javobgardir.

**Loyihalovchi** – yuridik shaxs bo'lib, loyiha doirasida loyihaviy izlanish ishlarini shartnoma bo'yicha bajaradi. Loyihaning asosiy shartnomachisi yoki bevosita buyurtmachi bilan shartnoma aloqalariga kirishadi.

**Asosiy vositachi** – yuridik shaxs bo'lib, uning taklifi buyurtmachi tomonidan qabul qilingan. SHartnoma asosida ishlarni bajaralishiga javobgar. Alohida ishlar va xizmatlarni bajarishga subvositachilar bilan shartnomalar tuzadi va tanlaydi. Qurilish loyihalarida asosiy vositachi vazifasini odatda qurilish yoki loyiha-qurilish firmalari va tashkilotlari bajaradi.

**Ta'minotchilar** – subshartnomachilar, ular shartnoma asosida turli xil etkazib berish ishlari – materiallar, uskunalar, transport vositalari va boshqalarni amalga oshiradi.

**Ruxsatnoma beruvchilar** – tashkilotlar bo'lib, er maydoniga egalik qilish huquqi, savdo qilish, ma'lum turdagi ish va xizmatlar va hokazolar uchun ruxsat beradi.

**Hukumat tashkilotlari** – o'z manfaatlarini loyiha ishtirokchilarida soliq solish yo'li bilan qondiruvchi tomon bo'lib, loyihani amalga oshirish bilan bog'liq. Ekologik, ijtimoiy va boshqa umumiy va davlat talablarini olg'a suradi va qo'llaydi.

**Er maydoni egasi** – yuridik yoki jismoniy shaxs bo'lib, loyiha jalb qilingan er maydoni egasidir. Erga egalik qilish yoki foydalanish huquqini shartnoma asosida beradi va buyurtmachi bilan aloqaga kirishadi.

**Loyihaning yakuniy mahsuloti ishlab chiqaruvchisi** – hosil bo'lgan asosiy foizlardan foydalanishni amalga oshiradi va yakuniy mahsulotni ishlab chiqaradi. Asosiy maqsad – tayyor mahsulotni iste'molchilarga sotishdan daromad olish. Loyihaning barcha bosqichlarida ishtirok etadi va loyihaning asosiy ishtirokchilari bilan

o'zaro munosabatga kirishadi. Uning roli va vazifasi loyihaning yakuniy natijalarida mulk hissasiga bog'liq. Ko'p hollarda loyiha buyurtmachisi va investordir.

**Yakuniy mahsulot iste'molchilari** – yuridik va jismoniy shaxslar bo'lib, mahsulot sotib oluvchilari va foydalanavchilaridir, ishlab chiqarilayotgan mahsulot va ko'rsatilayotgan xizmatlarga talablarni belgilab unga talabni shakllantirishadi. Loyiha harajatlari iste'molchilar vositalari hisobiga qoplanadi va loyihaning barcha ishtirokchilari foydasi shakllanadi.

**Loyihaning boshqa ishtirokchilari.** Loyihani amalga oshirishga loyiha muhitining boshqa tomonlari ham ta'sir ko'rsatib, ular loyiha ishtirokchilari bo'lishi ham mumkin, bu: asosiy ishtirokchilarning raqiblari; loyihani amalga oshirishda iqtisodiy manfaatlari to'qnashadigan ijtimoiy guruhlar va noiqtisodiy loyiha homiylari; turli injenerlik tashkilotlari, (loyihaga jalb etilgan) va boshqalar.

- 1) fan sohasi – maqsadlar, vazifalar, ish va asosiy natijalar ya'ni «loyihani amalga oshirish» uchun nima qilish kerak? hamda uning qulayliklari va murakkabligi, belgilangan muddatlari.
- 2) Loyihani amalga oshirish jarayoniga jalb qilingan mulkiy aloqalar (nima, qancha turadi va kimga tegishli?).
- 3) Loyihani amalga oshirishning asosiy g'oyalari (qanday bajarish?)
- 4) Loyihaning asosiy aktiv ishtirokchilari (kim bajaradi ?)
- 5) Loyihaning asosiy passiv ishtirokchilari. (loyiha kimga tegishli?)
- 6) Loyiha ishtirokchilari rag'bati qanday? (tahliliy daromad, zarar, xatarlilik va hokazo).

Bu savollarga javob topish orqali loyiha ishtirokchilarini aniqlab olish mumkin, ularning maqsadlari, rag'bati va o'zaro munosabatlarini belgilaydi va bu asosda loyihani tashkillash va boshqarish bo'yicha asosli qarorlarni qabul qilishga yordam beradi. Loyiha bilan bog'liq markaziy tushunchalardan biri loyihaning maqsad va vazifalari hisoblanadi. Maqsad – bu ma'lum vaqt oralig'ida erishilgan qoniqarli faoliyat natijasi. Vazifa – bu miqdoriy ma'lumotlar yoki bu natija parametrlari to'lanishi bilan xarakterlanadigan va belgilangan vaqt oralig'ida erishiladigan faoliyatning

qoniqarli natijasidir. Demak, agar maqsadning erishishi muddati belgilangan va qoniqarli natijaning miqdoriy xarakteristikalari berilgan bo'lsa, maqsad vazifaga aylanadi. Bundan tashqari shu narsa aniqki, maqsad vazifaga nisbatan umumiyroq kategoriya: unga bir qator masalalarni echish natijasida erishish mumkin. Bundan kelib chiqadiki, maqsadlarni vazifalarga nisbatan tartiblash mumkin. Maqsad – bu «loyihaning umumiy vazifasini amalga oshirishning isbotlanadigan natijasi va berilgan shartlari». Har bir loyiha uchun bir qator o'zaro maqsadlarini qurish mumkin. Bu esa loyiha strukturasi va uning ishtirokchilarini aks ettiradi. Loyihaning maqsadlariga erishish darajasi aniqlash imkoniyatlari uchun mos o'lchov (kriteriya)larni tanlash zarur. Bu o'lchovlar asosida loyiha maqsadlariga erishish maqsadlarida al'ternativ qarorlarni baholash mumkin. Maqsadlar loyihaning «yo'l qo'yilgan qarorlar sohasi»da bo'lishi kerak. Bir marta shakllantirilgan maqsadlar o'zgarimas bir narsa deb qaralmasligi lozim. Loyihani amalga oshirish davomida o'zgarishlar ta'siri ostida loyiha va olingan oraliq natijalar atrofida loyiha maqsadlari o'zgarishlarga duchor bo'lishi mumkin. SHuning uchun maqsadning qo'yilishini uzluksiz dinamik jarayon deb qaralib, unda mavjud holatlar tendentsiyalar tahlil qilinadi va zarur vaqtda maqsadlar to'g'rilanishi mumkin.

Loyihaning maqsad ta'rifi, loyihaning natijalari tugash muddati, harajatlar va maqsadning o'zgarish tartibi, o'zaro bog'liq maqsadlari, ierarxiyasi aniq bir tomonlama belgilangan shaklda o'z aksini topishi kerak. Loyihaning maqsad ta'rifi loyihaning muhimligini belgilaydi.

Maqsadlarini, loyihaning tarkibi, maqsadlari loyihani amalga oshirish jarayonlarini rejalashtirish va nazorat qilishni aniqlash va tushunib etish uchun loyiha strukturasi aniqlash va qurish zarur. Buning asosida turli darajada detallashtirish bilan taqdim qilingan loyihaning o'zaro bog'liq elementlari va jarayonlarining jami tushiniladi. Loyiha strukturasi o'zining turli ishtirokchilari uchun loyihani rejalashtirish va nazorat qilishga zarur va etarli bo'lgan loyihani tarkibiy qismlariga (element, modul) bo'limning ierarxik shaklini bildiradi.

## 2.6. Loyihalar tahlilining mohiyati va vazifalari

Loyihalar tahlili – xarajatlar va daromadlar hamda loyiha bilan bog'liq bo'lgan qaltislikni (tavakkalchilikni) tizimli baholash va ochib berish asosida loyihalarni tayyorlash, baholash va tanlab olish usulidir. Loyiha tahlilining katta qismi loyiha davrining dastlabki bosqichida, ya'ni uni qabul qilish yoki qilmaslik to'g'risida qaror qabul qilingungacha amalga oshiriladi.

Loyihaning daromadlilikini aniqlash loyiha tahlilining vazifasi hisoblanadi. Daromadlilik esa loyihadan olinadigan daromad bilan unga qilingan xarajatlar o'rtasidagi farq sifatida aniqlanadi. YA'ni loyihaning daromadlilikini aniqlash uchun uning barcha natijalarini aniqlash hamda loyihadan olingan daromadlar unga qilingan xarajatlardan ortish yoki ortmasligini hisoblab ko'rish kerak. Chunki loyihani amalga oshirish uchun bugun qilinayotgan xarajatlar bilan undan qandaydir vaqt o'tgandan keyin olinadigan daromadlarni bevosita solishtirib bo'lmaydi. Loyihaning ko'pgina aktivlari va inshootlari uzoq muddat xizmat qilishi buning sababi hisoblanadi. Loyihaning ayrim xarajatlari va natijalarini, masalan, qurilish ishlari xarajatlarini o'lchash va baholash oson. Boshqalarini esa o'lchash oson, lekin baholash ancha qiyin. Masalan: xodimlarni o'qitish xarajatlari va natijalarini miqdoriy va sifat jihatdan o'lchash oson lekin real natijalarini baholash ancha murakkab.

Nihoyat, ayrim loyihalar natijalarini, masalan loyihalarning an'anaviy faoliyat turlariga ta'sirini o'lchash ham, baholash ham qiyin.

Loyiha xarajatlari turli xilda bo'lishi tufayli loyiha har xil nuqtai nazardan ko'rib chiqiladi.

1. Loyiha texnik jihatdan asoslanganmi?
2. Loyiha tijorat talablariga javob beradimi?
3. Loyiha o'z-o'zini moliyaviy jihatdan qoplaydimi?
4. U iqtisodiy jihatdan o'zini oqlaydimi?
5. Loyiha atrof -muhitga qanday ta'sir o'tkazadi?



6. Loyiha mahalliy ijtimoiy - madaniy xususiyatlarni hisobga olganmi?
7. Loyihani amalga oshirishning institutsional (tashkiliy) imkoniyatlari bormi?

Ijoby natijalar yalpi xarajatlardan ortish-ortmasligini aniqlash zarur. Xarajatlarni tahlil qilish uchun quyidagi savollarga javob olishimiz kerak:

- Loyihaning biz istagan natijasi qanday?
- Loyiha xarajatlarini kim ko'taradi va uning ijobiy natijalaridan kim foydalanadi?
- Loyihaning ijobiy natijalari qachon va qaerda paydo bo'ladi?

Loyihaning yakuniy qiymati to'g'risida tasavvurga ega bo'lish uchun loyihaga aloqador bo'lgan kishilarning turli guruhlariga olgan foyda va qilgan yuqotishlarni qanday taqqoslash va jamlash kerak?

Bu loyihaning yakuniy ijobiy natijasi boshqa mumkin bo'lgan loyihalar natijasidan nimasi bilan farq qiladi?

Loyiha tahlili loyihani shakllantirish jarayonining o'zidayoq uning turli jihatlari ta'sirini va rolini o'zgartirish imkonini beradi. Har qanday yangi axborot, agar foydali bo'lsa, ilgari qabul qilingan qarorlarni o'zgartirish uchun sabab bo'lishi mumkin.

Demak, loyiha-smeta hujjatlari loyiha tahlili jarayonida, ya'ni loyihaning turli jihatlari ko'rib chiqish natijalari va yangi olingan axborotlardan kelib chiqib, ilgari berilgan baholarni tuzatish bilan birga ishlab chiqiladi.

## **2.7. Loyihalar tahlili tuzilmasi**

Loyiha tahlilida daromadlar va xarajatlar quyidagi 7 nuqtai nazardan turib baholanadi va ular loyiha tahlilining 7 bo'limini tashkil etadi.

1. Texnik tahlil: loyiha texnik jihatdan asoslanganmi?
2. Tijorat tahlili: loyiha mahsulotiga bozorda talab bormi?
3. Moliya: moliyaviy jihatdan loyiha yaroqlimi?

4. Loyihaga qilingan xarajatlar undan foydalanuvchi (iste'molchi) lar hisobiga qoplanadi-mi ?

5. Ekologiya: loyiha atrof-muhitga kanday ta'sir ko'rsatadi?

6. Institutsional rivojlanish: loyiha uchun mas'ul bo'lgan tashkilotlar uni amalga oshirish va ekspluatatsiya qilishga qodirmilar?

7. Loyihaning ijtimoiy va madaniy talablarga mosligi: Loyiha mahalliy sharoitlarga moslanganmi? Loyiha aholining ayrim guruhlari ta'sir ko'rsatadimi ?

8. Iqtisod: loyihaning ijobiy natijalari uni amalga oshirish va ekspluatatsiya qilish xarajatlaridan ortiqmi? Loyihada tavakkalchilik darajasi qanday?

Loyiha tahlilining har bir bo'limi o'z uslubiga ega hamda ko'rilayotgan xarajat, daromad yoki boshqa omillar xarakteriga ko'ra miqdor yoki sifat ko'rsatkichlari to'g'risidagi foydalaniladigan axborot hajmi o'zgarib turadi. Hatto tahlilning miqdoriy jihatlariga tegishli bo'lgan moliyaviy loyihalar ham prognozlashga xos bo'lgan noaniqlik omillaridan kelib chiquvchi sifat elementlariga ega. YA'ni loyiha tahlili loyihaning kelajak holatlar to'g'risidagi fikrlarning o'zgarishiga ta'sirchanligini hisobga olib bilishi kerak.

## **2.8. Davlatning iqtisodiy faoliyati va investitsiya loyihalari**

Loyiha tahlilining turli bo'limlari doirasidagi tadqiqotlar loyihaning o'zaro kelishib olingan vazifalaridan kelib chiqib olib borilishi lozim. Ko'pincha bu vazifalar, hududdagi mahalliy sharoitlar loyihani amalga oshirishga ko'rsatadigan ta'sirni hisobga olgan holda alohida sektorlarni rivojlantirish dasturlarini aks ettiradi. Bu vazifalar xarakteriga, shuningdek, quyidagilar ham ta'sir ko'rsatadi:

- turli tadbirlarni o'tkazishni kimga (davlat yoki xususiy sektorga) topshirish to'g'risida jamiyatning xohish-irodasi.
- davlat loyihalari oldiga qo'yilgan maqsadlar bo'yicha ijtimoiy guruhlarning o'zaro kelishuvga erishishiga yordam beruvchi

jarayonlar.

Ilmiy tadqiqotlar yakunlari hamda to'plangan tajriba shuni ko'rsatadiki, davlatning faolliligi ko'lamlarini qisqartirish hamda davlat dasturlarini xususiy iqtisodiy faoliyat uchun qulay siyosiy sharoitlar yaratishga yo'naltirish foydaliroq bo'lar ekan. Bozor iqtisodiyotiga ega davlatlarda ham, shuningdek, sobiq sotsialistik davlatlarda ham siyosatchilar va iqtisodchilar davlatning nafaqat bevosita davlat korxonalari faoliyatidagi roliga, shu bilan birga davlat an'anaviy ishtirok etib kelgan infratuzilma va ijtimoiy xizmatlar sohasidagi roliga ham ikkilanish (shubha) bilan qarashadi.

Xususiy sektorning bu sohalarida ishtirok etish uchun intilishiga bosh sabab menejerlar shaxsan javobgar bo'lgan sharoitda ob'ektlar faoliyati samaradorligini oshirish imkoniyati mavjudligi hisoblanadi. Xususiy investorlar maishiy xizmatlarga muvaffaqiyatli jalb qilingan hollarda moliyaviy resurslarga ega bo'lish imkoniyatlari kengayishidan ham ma'lum ma'noda manfaatdorlik kelib chiqadi.

Puxta o'ylangan makroiqtisodiy siyosat yuritayotgan mamlakatlarda investitsiyalangan kapitallardan keladigan daromad ancha yuqori. Iqtisodiyotdagi xatoliklar nisbatan katta bo'lmagan mamlakatlarda investitsiyalardan keladigan samara 10%dan ancha ortiq va 20%gacha hamda undan ham ko'proqqa etadi. Noto'g'ri makroiqtisodiy siyosat yuritayotgan (shuningdek, valyuta mukofoti yuqori bo'lgan) mamlakatlarda investitsiyalardan keladigan samara (qaytim) bor-yug'i 10% ga etadi va ko'pincha undan ham past bo'ladi.

Makroiqtisodiy siyosatni to'g'ri va noto'g'ri olib borayotgan har ikkala guruh davlatlarida ham xususiy, ham davlat investitsiyalaridan olinadigan foyda jami investitsiyalarning milliy hajmidagi davlat investitsiyalari ulushiga mutanosib tarzda o'zgaradi. Davlat investitsiyalari ulushi past bo'lgan sharoitda investitsiya samarasi (qaytimi) yuqori bo'lishi, bu ulush 40% gacha va undan yuqori bo'lsa keskin pasayib ketishi kuzatiladi.

Kuzatilgan bu ikki qonuniyat ham davlat faoliyatini o'zgartirish ya'ni makroiqtisodiy xatoliklarni qisqartirish va iqtisodiy faoliyatda

davlat rolini pasaytirish maqsadga muvofiq ekanligini ko'rsatadi. Bir vaqtning o'zida xususiy sektorning makroiqtisodiy siyosat maqsadlarini belgilashda hamda loyihalarda ishtiroki kengaytirilgandagina bunday o'zgarishlardan yutuqqa erishish mumkin.

Davlat loyihalarini tanlashda hal qiluvchi ovozga ega bo'lgan taqdirda ham, xususiy investitsiyalarni avtomatik tarzda siqib chiqarmasligi lozim.

Xususiy kapital ishtiroki uchun sharoitlarni yaxshilash zarurati loyihalarni kim amalga oshirishi kerakligi hamda xususiy kapital ishtiroki ko'zda tutilgan loyihalarni kim ishlab chiqishi kerakligi to'g'risida so'rov o'tkazishni, shuningdek, mavjud davlat tuzilmalari va siyosati iqtisodiyotning yangi sektorlarga xususiy kapitalni kiritishga qay darajada yordam berishi yoki to'sqinlik qilishini ko'rib chiqish zarur.

Loyiha maqsadi, tahlil chizmasi va rejalashtirish barcha manfaatdor tomonlarning hamkorligi jarayonida muntazam muvofiqlashtirib borilsagina, davlat ixtiyorida qolgan loyihalar muvaffaqiyatli amalga oshirilishi mumkin. Bu manfaatdor tomonlar jumlasiga loyiha tufayli zarar ko'ruvchilar ham, foyda oluvchilar ham, loyihani amalga oshirish va ekspluatatsiya qilish uchun mas'ul bo'lgan tashkilot xodimlari ham, shuningdek, davlat boshqaruv idoralari, siyosatchilar hamda moliyachilar ham kiradi.

Loyiha vazifalari va ko'lamini belgilash uchun hamda loyihani tayyorlashda, boshqarishda, ishlab chiqarish grafigini o'rnatishda turli guruhlarining rolini va mas'uliyatini aniqlash uchun bu guruhlar ishtirokida (hamkorligida) rejalar ishlab chiqish jarayonidan tobora ko'p foydalanilmoqda. Loyiha tahlilining etti bo'limi loyihaning barcha jihatlarini har tomonlama baholash imkonini beradi. Bunga, shubhasiz, loyiha tahlili jarayonida hamkorlik qilayotgan guruhlar tarkibi ham ta'sir ko'rsatadi.

Loyihalarni rejalashtirishga bunday yondashuv ikki tomonlama ustunlikka ega. Birinchidan loyihalarni hamkorlikda rejalashtirish o'zaro kelishuvga erishishga yordam beradi hamda ishtirokchilarni

loyiha maqsadlari va vazifalariga tarafdorliklarini ta'minlaydi. Tajriba shuni ko'rsatadiki, bunday rejalashtirilgan loyiha muvaffaqiyatli va yashovchan bo'ladi.

Ikkinchidan, turlicha manfaatlarga ega bo'lgan ishtirokchilarning jalb qilinishi ekspertlar guruhlarini o'rtasida loyiha xarajatlari va natijalarining nisbiy qiymati to'g'risidagi tortishuvlarga nisbatan samaraliroqdir.

Iqtisodiyotni rivojlantirishning turli loyihalari shunday natijalarga olib keladiki, ularni ob'ektiv baholab bo'lmaydi (masalan, hayvonot turlarining yo'qolib ketishi). Agar rejalashtirish jarayoniga manfaatdor tomonlar, kerak bo'lsa, mahalliy aholi va xalqaro jamiyat jalb etilsa, ilgari echilishi gumon bo'lgan muammolarni echish uchun ham imkon topilishi mumkin.

### **Qisqacha xulosalar**

Loyiha-cheklangan vaqt davomida hamda belgilangan byudjet bilan oldinga qo'yilgan maqsadlarga erishishga xizmat qiluvchi o'zaro bog'langan tadbirlar majmuidir. Loyiha asosiy xususiyatlari o'lchamlilik, vaqt bo'yicha cheklanganlik, bajariladigan ishlarning ketma-ketligi, maqsadga yo'naltirilganlik kabilar hisoblanadi.

Loyiha yuzaga kelgan vaqtdan toki tugatilgan vaqtga qadar bo'lgan vaqt loyiha hayot davri deyiladi, u investitsiya oldi bosqichi, investitsiya bosqichi va ekspluatatsiya bosqichidan iborat.

Loyiha tahlili xarajatlar va daromadlar hamda loyiha bilan bog'liq bo'lgan qaltislikni tizimli baholash, ochib berish asosida loyihalarni baholash va tanlab olish usulidir. Loyiha daromadlilikini aniqlash loyiha tahlilining asosiy vazifasi bo'lib, buning uchun loyiha bo'yicha barcha daromadlar unga qilingan barcha xarajatlar bilan solishtiriladi.

Loyiha tahlilida daromadlar va xarajatlar quyidagi etti nuqtai nazardan turib baholanadi: texnik tahlil, institutsional tahlil, ekologik tahlil, ijtimoiy tahlil, tijorat tahlili, moliyaviy tahlil, iqtisodiy tahlil. Loyihalarni amalga oshirishda davlatning bevosita ishtirokini

qisqartirish va uning faoliyatini xususiy iqtisodiy faoliyat uchun qulay sharoit yaratishga yo'naltirish zarur.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar**

1. O'zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiya qilish sharoitida loyihalarning o'rni va roli.
2. Loyihaning asosiy elementlari nimalardan iborat?
3. Loyihalarning asosiy xususiyatlarini tushuntirib bering.
4. Loyiha hayot davri bosqichlariga izoh bering.
5. Loyiha tahlilining mohiyati nima va vazifalariga nimalar kiradi?
6. Loyiha tahlili jihatleri va tuzilmasini tushuntiring.
7. Loyihalarda davlat ishtiroki qaysi shakl va yo'nalishda bo'lishi maqsadga muvofiq?
8. Loyiha texnik jihatdan asoslanganmi?
9. Loyiha tijorat talablariga javob beradimi?
10. Loyiha o'z-o'zini moliyaviy jihatdan qoplaydimi?
11. U iqtisodiy jihatdan o'zini oqlaydimi?
12. Loyiha atrof -muhitga qanday ta'sir o'tkazadi?
13. Loyiha mahalliy ijtimoiy - madaniy xususiyatlarni hisobga olganmi?
14. Loyihani amalga oshirishning institutsional (tashkiliy) imkoniyatlari bormi?

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Бочарев В.В. Инвестиции. Учебник для ВУЗов. Питер 2009. - 317-384 стр.
2. Игонина Л.Л. «Инвестиции». Учебник. 2-е издание, М: Магистр 2008.-125-340 стр.
3. Колмыкова Т.С. «Инвестиционный анализ» Учебное пособие М: ИНФРА-М -2009.-156-230 стр. Учебники экономического факул'тета МГУ им. Ломоносова.
4. Есипов В.Е. и др. Коммерческая оценка инвестиций. Учебное пособие. КНОРУС М: 2009. -348-450 стр.

### **III-BOB.LOYIHALARNI TAYYORLASH**

#### **3.1. Loyihalarni tayyorlash tushunchasi**

Har qanday loyiha avvalo g'oya sifatida vujudga keladi. G'oyaning chuqur tahlil qilinishi, ichki va tashqi omillarni o'rganilishi natijasida uning xaqqoniyligi va hayotiyliigi kelib chiqadi. Loyihalar ma'lum ilmiy tadqiqot, ilmiy izlanishlar va marketing tadqiqotlari natijasida tuziladi va ilmiy jihatdan asoslanadi. Izlanishlar natijasi sifatida aniq g'oya va loyihaning kotseptsiyasi yaratiladi. G'oya esa real va aniq davr bilan chegaralanadi. Loyihani amalga oshirishda yulboshchining roli benihoya kattadir. SHu bilan birga loyihaning muhiti qulay va rag'batlashtirish mexanizmi samarali bo'lishi kerak. Loyiha yulboshchisi o'z atrofiga professional mutaxassislardan iborat komandani to'play olsagina, har tomonlama asoslangan loyihani yaratishni ta'minlashi mumkin.

Korxonaning investitsiya loyahasini korxonra rahbari va uning etuk mutaxassislari ishlab chiqishadi. Agar korxonra mutaxassislarning bilimi va tajribasi etarli bo'lmasa, professional maslahatchilar xizmatidan foydalaniladi. Agar yirik loyihalar ko'p komponentlarga ega bo'lsa, bunday loyihalarga tayyorlashga xalqaro tajribaga ega bo'lgan ekspertlar va mahalliy mutaxassislar jalb etiladi. Ularning bilim va tajribalari tayyorlangan loyihalarning real va ilmiy asoslanganligini ta'minlaydi. Loyihalarning real bo'lishi uchun, shuningdek, ularni tayyorlash jarayonida ekspertlarning xulosasini olish maqsadga muvofiqdir. Ba'zi hollarda loyihalarni tayyorlash jarayonida ularning samaradorligi pastligi va amaliyotga tadbiiq etish qiyinligi ekspertlar tamonidan isbotlanadi. Natijada kelgusidagi unumsiz xarajatlarning oldi olinadi.

Keyingi yillarga loyihalarni tayyorlashga va amalga oshirishga bo'lgan talab O'zbekiston Respublikasida oshib bormoqda. YUqori talablarga javob beradigan loyihalarni ishlab chiqish va ekspertiza qilish buyicha katta tajriba to'plandi. Buni Toshkentda 2010 yilning may oyida bo'lib o'tgan Osiyo taraqqiyot banki boshqaruvchilarining yillik anjumanida jahonning ko'plab taniqli mutahassislari ta'kidlab o'tdilar.

### **3.2. Investitsiya loyihalari hujjatlarini tayyorlash bosqichlari**

YUqorida (2.3 savolga qarang) ko'rsatib o'tilganidek, investitsiya loyihalarini xalqaro tajribada uchta yirik bosqichga bo'ladilar:

investitsiya oldi bosqichi;

investitsiya bosqichi;

yangidan vujudga kelgan ob'ektlarni ekspluatatsiya qilish bosqichi.

«Loyihalar tahlili» fanining asosiy vazifasi birinchi bosqich to'g'risida fikr yuritishdir. BMTning YUNIDO nomli bo'limi tomonidan chiqarilgan byulletenida investitsiya oldi bosqichini to'rtta yo'nalishga bo'lib o'rganish tavsiya etiladi. Bular:

investitsiya kontseptsiyalarini tanlash;

dastlabki (birlamchi) loyihalarni vujudga keltirish;

yakuniy loyihani vujudga keltirish va uning texnik-iqtisodiy hamda moliyaviy jihatdan ma'qulligini baholash;

loyihaning yakuniy muhokamasi va u bo'yicha ma'lum qarorga kelish.

Investitsiya oldi bosqichini bunday yo'nalishlarga ajratish maqsadga muvofiqdir. Chunki avval korxonaning yoki tarmoqning investitsiya yordamida ijtimoiy va iqtisodiy ko'rsatkichlarini yaxshilash imkoniyati bor yoki yo'qligini aniqlash kerak. Bundan keyin investitsiya haqidagi fikrlarni chuqur o'rganib chiqish va shu asosda biznes-rejani vujudga keltirish lozim. Agar bu reja investor va buyurtmachida qiziqish uyg'otsa ishini keyingi bosqichlarda davom ettirish lozim. Bu yo'nalish biznes-rejani chuqur tahlil-qilish va uni iqtisodiy-moliyaviy tomondan baholashdan iborat. Agar bu izlanishlar natijasi ijobiy bo'lsa, loyihalarni vujudga keltirish bilan bog'liq bo'lgan oxirgi xulosa


chiqarish yo'nalishiga o'tish tavsiya etiladi. Industrial rivojlangan mamlakatlarda investitsiya oldi bosqichini vujudga keltirish loyiha qiymatining 1,5-5% hajmidagi xarajatni talab etadi. Albatta, bu erda



loyiha qiymati hajmi asosiy rol' o'ynaydi. Umumiy investitsiya xarajatlaridagi investitsiya oldi bosqichining yo'nalishlari bo'yicha xarajatlar ulushi quyidagicha: birinchi yo'nalishda 0,2 - 1,0%, ikkinchi yo'nalishda 0,25 - 1,5 %, uchinchi yo'nalishda katta loyihalar bo'yicha 0,2 - 1,2 %, kichiklari bo'yicha esa 1,0 - 3,0%ni tashkil etadi.

Investitsiya oldi bosqichida muqobil variantlarga ega bo'lgan bir necha loyihalar o'rganiladi va ulardan samaradorligi pastlari yoki samara bermaydiganlari chiqarib yuboriladi. Bunday loyihalar kelgusi yo'nalishlarda ko'rilmaydi va bu bilan juda katta mablag' tejab qolinadi. Loyihalarning investitsiya oldi bosqichini quyidagi chizma

ko'rinishida ifodalash mumkin. (3.2.1. chizma qarang).



### **3.3. Investitsiya imkoniyatlarini qidirishni tashkil qilish**

O'zbekiston Res-publikasida innovatsi-on, investitsion, ijti-moiy va boshqa turdagi loyihalarga investitsiya manba'larini aniqlash-dan ko'ra eng avvalo pishiq –puxta ishlan-gan loyihalarni ishlab chiqarish dolzarb ma-sala bo'lib hisoblanadi.

Investitsiya loyi-halari uchun g'oyalarni qidirish va ular ichida maqbulini tanlab olish juda murakkab hamda mas'uliyatli vazifadir. Birinchidan, bu muammoni echish uchun loyihani vujudga keltirishdan kim mafaatdor ekanligini bilish zarur. Agar bu loyiha ishlab turgan korxonaga uchun bo'lsa, unda investitsiya kontseptsiyasi shu tarmoqda yig'ilgan tajriba, undagi xodimlarning malakasi, bozor muammolari ma'lum ma'noda belgilangan bo'ladi. Bu korxonalarni boshqaruvchi idoralar ham investitsiya kontseptsiyasini vujudga keltirishda qiynalmaydilar. Ular uchun bunday loyihani amalga oshirish zarurati, korxonaga mahsulotlari hozircha mavjud talabni etarlicha qondira olmasligi, yoki shu tarmoq shu davrda ustuvor tarmoq ekanligi ham belgilab beriladi.

Xalqaro tajribada turli sohadagi korxonalar uchun investitsiya kontseptsiyalarini izlab topish uchun asos bo'lib xizmat qiladigan dastlabki shart-sharoitlarning quyidagi tasnifi (klassifikatsiyasi)qabul qilingan:

- ishlab chiqarish yoki qayta ishlash uchun zarur bo'lgan foydali qazilmalar resurslarining mavjudligi;

- qishloq xo'jaligining agrosanoat kompleksi doirasida amalga oshirilishi mumkin bo'lgan loyihalar doirasi hamda qishloq xo'jaligini rivojlantirish potentsialini belgilab beruvchi imkoniyatlari va an'analari;

- ijtimoiy-iqtisodiy va demografik omillar ta'sirida yoki bozorda yangi tovar vujudga kelishi natijasida talab hajmi va tarkibida kelajakda bo'lishi mumkin bo'lgan o'zgarishlarni baholash (Masalan, radiotexnikaning rivojlanishi gramplastinkalar ishlab chiqaruvchi korxonaga uchun investitsiya kontseptsiyalarini yaratishda turtki bo'lib

xizmat qiladi);

- import tuzilmasi va hajmi. Bu ko'rsatkichlar import o'rnini bosuvchi ishlab chiqarishlarni yaratishga yo'naltirilgan loyihalarni vujudga keltirishga turtki bo'lishi mumkin;

- o'xshash resurslar va ijtimoiy-iqtisodiy darajaga ega bo'lgan davlatlarning ishlab chiqarish tuzilmasini rivojlantirish bo'yicha tajribalari va an'analari;

- milliy yoki jahon iqtisodiyoti doirasida iste'molchi tarmoqlarda yuzaga kelgan yoki kelishi mumkin bo'lgan ehtiyojlar;

- iste'molchi tarmoqlarda ishlab chiqarish hajmini oshirish rejaları to'g'risidagi yoki ishlab chiqarilgan mahsulotga jahon bozorida talabning o'zgarishini xarakterlovchi axborotlar;

- yagona xom ashyo bazasida turli xil mahsulotlarni ishlab chiqarishning ma'lum va yangidan topilgan imkoniyatlari;

- ommaviy ishlab chiqarishdan iqtisodiy tejamkorlikka erishish maqsadida ishlab chiqarish ko'lamlarini kengaytirish;

- umumiy iqtisodiy shart-sharoitlar (masalan, hukumat tomonidan qulay investitsiya muhitining yaratilishi, milliy valyuta almashinuv kursining o'zgartirilishi natijasida eksport imkoniyatlarining yaxshilanishi va h.k.).

YUqorida keltirilganlar loyihalarni investitsiyalash uchun umumiy shart-sharoitlar hisoblanadi. Bu shart-sharoitlar hali loyihalarni tashkil etish uchun to'liq asos bo'la olmaydi. U yoki bu loyiha kontsepsiyasining keyingi bosqichlarini davom ettirish yoki ettirmaslik uchun mutaxassislarining chuqur tahlili natijalari zarur bo'ladi. Moliyaviy manbalardagi axborotlar etarli bo'lishiga qaramay, investor o'zicha biror-bir qarorga kelishdan xavfsiraydi. Bundan tashqari turli tahlillarga sarf etish uchun uning vaqti ham yo'q. SHuning uchun investor har xil konsul'tantlarga murojaat etishni lozim ko'radi. Investitsiya bo'yicha konsul'tantlar - bular shunday shaxs yoki firmalarki, ularning asosiy vazifasi o'z mijozlariga mablag'larni qaysi loyihaga sarf etishni tavsiya etishdan iborat.

### **3.4. Loyihalarni birlamchi tayyorlash va biznes rejalarni o'rni**

Loyihalarni birlamchi tayyorlash yo'nalishining asosini biznes - reja tashkil etadi. Kichik loyihalar uchun biznes-reja birinchi darajali asoslovchi hujjat hisoblansada, katta loyihalarni tayyorlashda oraliq hujjat vazifasini o'taydi, xolos. Bunday biznes-rejasining vazifasi quyidagi savollarga javob topishdan iborat:

Investitsiya loyihasining kontseptsiyasi loyiha ustida ishni davom ettirib, texnik-iqtisodiy va moliyaviy jihatdan foydali ekanligini baholash uchun hujjatlar tayyorlashga arziydigan darajada qiziqarli va foydalimi?

Bu kontseptsiyada kelajakdagi muvaffaqiyat uchun hal qiluvchi rol' o'ynaydigan, shu sababli alohida e'tibor bilan tadqiq qilinishi shart bo'lgan jihatlar bormi?

Biznes-reja investitsiya loyihalarini asoslaydigan, loyihalarning imkoniyatlarini belgilaydigan, daromad va xarajatlarni hisoblaydigan, mablag' oqimini ko'rsatadigan muhim hujjatdir. Bu hujjat orqali loyihalar boshqariladi. Biznes - rejaning asosiy vazifasi loyihalarga tizimli baho berishdan iboratdir.

Biznes-reja iqtisodchi va ishbilarmonlarga quyidagi to'rtta asosiy masalani echishda yordam berishi kerak:

- bozor sig'imi va uni rivojlanish istiqbollarini o'rganishda;
- bu bozorga zarur bo'lgan mahsulotlarni tayyorlash uchun ketadigan xarajatlarni baholash va bu xarajatlarni tovarlarni sotish baholari bilan solishtirib, mo'ljallangan ishning foydaliligi darajasini aniqlashda;
- yangi biznesning birinchi yillarida bozorda kutilishi mumkin bo'lgan to'siqlarni aniqlashda;
- ish rivojlanayotganligi, yoki orqaga ketayotganligini doimiy baholab borish imkonini beruvchi signal-ko'rsatkichlarni aniqlash.

Biznes-reja istiqbol xarakterga ega bo'lib, uni kamida 3 yil yoki 5 yil oldinga tuzish tavsiya etiladi. Biznes-rejada birinchi yil muhim

ahamiyatga ega bo'lganligi uchun reja ko'rsatkichlari oylar bo'yicha, ikkinchi yili chorak (kvartal)lar bo'yicha, keyingi yillarda esa yilda bir marta ifoda etiladi. Biznes-reja ma'lum bir tuzilmaga ega bo'lishi kerak. Masalan, YUNIDO ma'lumotnomasida bu tuzilmada, qabul qilinishi mumkin bo'lgan qarorlarni tahlil qilishga bag'ishlangan quyidagi bo'limlarni ajratib ko'rsatish tavsiya etilgan:

1. tovar ishlab chiqarish hajmi va tuzilmasi. Bozor sig'imini va korxonaning ishlab chiqarish quvvatlarini baholash bu uchun asos bo'lib hisoblanadi;
2. mahsulot ishlab chiqarish uchun foydalaniladigan resurslar assortimenti va hajmi;
3. yangi ishlab chiqarish ob'ektlarini joylashtirish;
4. ishlab chiqarishni tashkil qilishning texnik asoslari: kelgusidagi texnologiyalar va ularni realizatsiya qilishni ta'minlovchi uskunalar parki tavsifi;
5. ishlab chiqarish, boshqaruv va savdo xodimlari ishini ta'minlash uchun sarflanadigan xarajatlar hajmi va tuzilmasi;
6. ishlab chiqarish va boshqaruv xodimlari ish faoliyatini tashkil qilish, shu jumladan, mehnat haqi masalalari;
7. loyihani amalga oshirishni tashkiliy-huquqiy jihatdan ta'minlash, shu jumladan, yangi tashkil qilingan ob'ektlarning huquqiy maqomi;
8. loyihani moliyaviy ta'minlash, ya'ni zarur investitsiya summolari, taxminiy ishlab chiqarish xarajatlari, shuningdek, investitsiya resurslarini olish imkoniyatlarni hamda ulardan foydalanishning samaradorligini baholash.

Mahsulotlar realizatsiya qilinadigan bozor va raqobatni baholash biznes-rejada katta o'rin tutadi. Ishlab chiqarayotgan mahsulotingiz nihoyatda sifatli, oxirgi texnika va texnologiya talablariga javob beradigan bo'lishining o'zi hali ijtimoiy natija emas. Eng muhimi, mahsulotingiz iste'molchiga kerakli bo'lishi va u realizatsiya qilinishi kerak. SHuning uchun bu bo'limning asosiy vazifasi sizning ishlab chiqaradigan mahsulotingiz o'z iste'molchisini topa olishi va raqobatga

chidamliligiga investorni ishontira olishdan iboratdir.

Mahsulot realizatsiya qilinadigan bozorlarni o'rganish davrida, ularni to'rt guruhga bo'ladilar:

- siz ishlab chiqaradigan mahsulotingizni iste'molchilar bilmaydigan bozorlar;

- ishlab chiqarmoqchi bo'lgan mahsulotingizni iste'molchilar biladigan, lekin sotib olmaydigan bozorlar;

- sizning raqobatchingiz mahsulotini sotib oladigan bozorlar;

- iste'molchilar sizning mahsulotingizni sotib oladigan bozorlar.

Ana shu bozor turlari chuqur tahlil qilingandan keyin loyiha mahsulotini qaerda va necha so'mdan sotish kerakligi aniqlanadi.

Biznes - rejadan tashqari, agar investitsiya asosiy fondlarni kengaytirish yoki rekonstruksiya qilishga sarf etilsa, unga smeta ham tuziladi.

### **Biznes rejaning ahamiyati**

Amaliyotda kichik biznes tadbirkorlari biznes reja tuzishga keng e'tibor bera boshladilar. Korporativ biznesda biznes reja boshqaruvning eng asosiy vositasi sifatida e'tirof etiladi. SHuning uchun ham biznes reja hamma uchun kerak: bankirlar, investorlar, kompaniya menejerlari va o'z istiqbollari va vazifalarini tushunib etishni xohlagan xodimlar uchun biznes reja kerak. Asosan investorlar va hamkorlar o'z g'oyalarini puxta tahlil etishlari, ularning to'g'riligini tekshirishlari uchun biznes reja juda muhim. Biznes rejasiz tijorat faoliyati bilan shug'ullanishning umuman iloji yo'q, chunki muvaffaqiyatsizlik qaltisliklari juda yuqori bo'lishi mumkin.

### **Biznes rejaning mohiyati va turlari**

Biznes reja-bu korxonaning kelgusidagi barcha asosiy jihatlarini yoritib beruvchi va korxonaning jozibadorligi, etakchi va uning investitsiya loyihasi layoqatliligini isbotlovchi hujjatdir.

Biznes rejani tuzish sabablari quyidagilar hisoblanadi:

1. Tashqi foydalanish uchun. Ishni investorlar va hamkorlarga taqdim etish uchun.
2. Ichki foydalanish uchun. Bu erda ish barcha kuchli va zaif

tomonlari bilan taqdim etiladi. Biznes rejaning bunday varianti boshqaruv vositasi sifatida doimiy tarzda foydalaniladi. Korxonada, agar biznes reja ichki foydalanish uchun ishlab chiqilsa, muhim ustunliklarga erishishi mumkin. Uni yozish jarayonida, tashqi xamkorlarga hech qachon yozilmasligi kerak bo'lgan, tijorat nuqtai nazaridan mahfiy bo'lgan ko'pgina masalalarni ko'rib chiqish mumkin bo'ladi.

Biznes rejada tuzib unda investitsiya olish nazarda tutilsa, korxonada oladigan daromadning 20-50% foiz stavkalarini qaytarish, va boshqa unimsiz xarajatlarga sarflanishi mumkin. Agar korxonaning ichki imkoniyatlarini to'la ishlatib rejadagi maqsadga erishish mumkin bo'lsa shu varianda ishni tashkil qilgan afzalroq. SHuning uchun ichki masalalarni echishga qaratilgan ichki biznes reja tuziladi.

Rivojlanishning barcha variantlari va strategiyalari ichki biznes-rejani yozishda oldindan ishlangan bo'lishi lozim. Agar investorni jalb etish oqlangan bo'lsa, u holda investor va korxonada ham bitim uchun etarli asosga ega. SHunday qilib, ikki tomon ham birinchi navbatda ichki yo'naltirilgan biznes-rejani tuzishdan manfaatdordir. Tashqi foydalanish uchun tuzilgan biznes-reja avvalo ichki imkoniyatlar cheklangan bo'lganligi uchun tuzilishi kerak.

Shunday qilib, biznes-rejaning yo'nalishi tadbirkorlarga quyidagi vazifalarni hal etishga yordam beradi:

1. Bo'lg'usi savdo bozori rivojlanishining hajmi va istiqbolini o'rganib chiqish;

2. Bozor uchun kerakli mahsulotlarni ishlab chiqarish xarajatlarini baholash, ishning unumdorligini aniqlash uchun o'z tovarlarini sotish mumkin bo'lgan narxlarni qiyoslash;

3. Uni sotishning dastlabki yillarida to'siqlarini topish;

4. Biznes holatini muntazam nazorat qilish mumkin bo'lgan ko'rsatkichlarni aniqlash.

Alohida aytish joizki, biznes-reja odatda istiqbolga tuziladi va uni oylar bo'yicha taqsimlagan holda tuzish kerak, ikkinchisi uchun –

choraklar bo'yicha va faqatgina 3-yildan boshlab yillik ko'rsatkichlar bilan cheklanish lozim.

Afsuski, iqtisodiy sharoitlarimizda bunday rejalashtirishning hali iloji yo'q, chunki iqtisodiy vaziyat juda tez o'zgarimoqda. Bir yildan ko'proq oraliqqa rejalashtirish hato bo'lishi mumkin. Ko'pchilik hozir bir yillik reja tuzish bilan chegaralanmoqda.

### **Biznes-rejaning tarkibi**

Har qanday biznes o'z xususiyatlariga ega, binobarin, har qanday vaziyatlarda qulay bo'lgan «standart» reja mavjud bo'lishi ehtimol. Har qanday biznes-rejaning yagona sinalgan tuzish tamoyili mavjud.

Haqiqatda, ba'zan muammoning mohiyati adekvat tarzda yoritish uchun uni muhitga oid qiladilar, lekin shu bilan birga o'quvchining qiziqishi susaymasligi uchun uni haddan tashqari murakkab qilib bo'lmaydi. Ko'pgina loyihalar 10-20 bet doirasida cheklangan bo'lishi lozim. Korporativ korxonalarining biznes-rejalari va xalqaro moliyaviy institutlarning talablari bo'yicha tayyorlangan biznes rejalar katta xajmda va aniq ma'lumotlar va dalillardan tashkil topadi. Biznes-rejaning taqdim etilgan mazmuni ixtiyoriy hisoblanadi. SHu bilan birga, u ko'zda tutilishi shart bo'lgan barcha asosiy jihatlarni o'z ichiga oladi, shuning uchun unga etarli e'tibor bilan yondoshish zarurdir.

Biznes-rejaning xulosasi/rezumesi (1-2 varaq)dan tashkil topishi maqsadga muvofiqdir. Biznes-rejaning quyidagi ma'lumotlar beriladi:

Rejaning maqsadi

Moliyaga ehtiyoj, uning maqsadi va ular qanday maqsadlarga mo'ljallanganligi. Biznes va uning maqsadli mijozining qisqacha yoritilishi. Sizning biznesingiz raqiblaringizning biznesidan farqli o'laroq nimani bajaradi. Sizning biznesingizga aynan nima ishonch uyg'otishi lozim (hisobot materiallari, guruh rahbarining malakaliligi, patent va litsenziya, sertifikat va boshqalar).

Asosiy moliyaviy takliflardan foyda

Maqsad va vazifalar;

G'oyalari tahlili



Faoliyatning asosiy yo'nalishlari va maqsadlari. Tarmoqning tavsifi (iqtisodiyot sektorlari).

Mahsulot.

Mahsulot-/xizmatlarning yoritilishi va ularning tatbiq etilishi.

Ajralib turuvchi sifatleri yoki beqiyoslik.

Sizning biznesingiz uchun zarur bo'lgan texnologiya va malaka

Litsenziya/patent huquqi

Bozorning kelgusi salohiyati

Bozor tahlili

Xaridorlar

Raqiblar (ularning kuchli va zaif tomonlari)

Bozor segmenti

Bozor hajmi va uning o'sishi.

Bozordagi baho ulushi

Korxonalar mijozlarining tarkibi

Raqobatning ta'siri

Marketing rejasi

Marketingni joylashtirilishi (mahsulot/xizmatning raqobatbardoshligini ta'minlash) – mahsulot, xizmatlarning raqobatlashuvchi firmalar bilan qiyoslagandagi asosiy tavsiflari.

Narx shakllanishi.

Tovarni targ'ib etish sxemasi

Savdoni rag'batlantirish usullari

Ishlab chiqarish rejasi

Ishlab chiqarish va maydonlarning joylashtirilishi

Jihozlar

Asosiy materiallar va jihozlarning ta'minot manbalari.

Subpudratchilardan foydalanish

Boshqaruvchi xodimlar

Asosiy boshqaruvchi tarkib

Boshqaruvchi tarkibni mukofotlash

Xodimlar soni va sifatini rejalashtirish bo'yicha qisqacha xulosalar.

Talab etilayotgan mablag'lar manbalari va hajmi.

Bu pullarni qaerdan, qaysi shaklda va qanday muddatlarda olishinishi.

Mablag'larni qaytarish sxemasi va muddati.

Moliyaviy rejaning asosiy punktlari va xatarni baholash, savdo hajmi, foyda, tannarx va h.k.

Xatar, uni qay tarzda Chetlab o'tish mumkin.

Mufassal moliyaviy reja.

Savdo hajmini bashoratlash.

Foyda va zararni baholash.

Naqd pullar harakatini tahlili etish.

Yillik balans.

Biznes-reja xulosalardan boshlanishi lozim, ularni siz eng oxirgi navbatda yozasiz, lekin aynan ular biznes-rejangizning dastlabki punkti bo'lishi lozim. Xulosa/rezume qisqacha – 2-3 bet atrofida bo'lishi lozim. Rezyume - bu mustaqil reklama hujjatidir, chunki unda biznes-rejangizning asosiy qoidalari, holati mavjud bo'ladi. Bu ko'pgina doimiy investorlar o'qiydigan yagona qism hisoblanadi. Investor esa, avvalambor quyidagi ma'lumotni bilishni xohlaydi: kredit miqdori, qanday maqsad uchun kerakligi, qoplashning ko'zda tutilgan muddatlari, kim loyihani investitsiyalashni xohlashi, qarzdor qanday shaxsiy mablag'larga ega? Agar rezume aniq, sodda va ishonarli qilib yozilgan bo'lsa investor yoki biznes reja o'qiyotgan ekspert uni barcha saxifalarini o'qishga qiziqadi hamda astoydil o'rganishga kirishadi.

### **3.5. Loyihani yakuniy varianti va uning texnik-iqtisodiy Hamda moliyaviy jihatdan ma'qulligi**

Loyihalarni texnik-iqtisodiy va moliyaviy asoslashda, uning barcha jihatlari (ya'ni texnik, moliyaviy, tijorat jihatlari) bilan bog'liq bo'lgan muammolarni muqobil suratda ko'rib chiqiladi. Bu vazifani faqat iqtisodchilarning o'zlarigina uddalay olmaydilar, shu sababli loyihalarni tayyorlashning bu bosqichida turli sohadagi mutaxassislar

guruhi ishtirok etishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

Bular:

- shu tarmoqda ish tajribasiga ega bo'lgan iqtisodchi (iloji bo'lsa mutaxassislar guruhiga iqtisodchi rahbarlik qilishi kerak);

- mahsulot realizatsiya qilinadigan bozorni tahlil qiladigan mutaxassis(marketolik);

- mahsulot ishlab chiqarish texnologiyasini yaxshi biladigan bir yoki bir necha muhandis-texnolog;

- mahsulot xususiyatlarini, uni sotishda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolar, xizmat ko'rsatishni yaxshi biladigan muhandis-konstruktor;

- shunga o'xshash ishlab chiqarishlarni barpo etish bilan shug'ullangan quruvchi-muhandis;

- shu turdagi ishlab chiqarishlarda xarajatlar hisobini yuritish bo'yicha mutaxassis.

Doim ishlovchi mutaxassislar bilan bir qatorda guruh ishida loyihaning ayrim muammolari bo'yicha mutaxassislar ham (masalan, ekologlar) vaqti-vaqti bilan jalb etilishi mumkin. Loyihani qabul qilishga, ya'ni uni qabul qilishga qandaydir omillar ta'sir ko'rsatishi aniqlansa, loyiha guruhi darhol bu to'siqni bartaraf etuvchi muqobil echimlarni topishi lozim.

Loyihani yakuniy shakllantirish va uni to'liq texnik-iqtisodiy va moliyaviy asoslashning mazmunini yakuniy qarorga kelish uchun zarur bo'lgan barcha turdagi ma'lumotlarni tayyorlash tashkil etadi.

Loyihalarni texnik-iqtisodiy asoslash deganda - ularning maqsadga muvofiq ekanligi va standartligini ko'rsatadigan, hisoblanadigan hujjatlar majmuasini tayyorlash tushuniladi.

Bu investitsiya oldi hujjat bo'lib, unda loyihalar muhandislik - konstruktorlik, qurilish-texnologik tomondan asoslanadi. Tajribada bu jarayonga bir yoqlama yondashish uning hamma loyihalar uchun bir xil modelini topish juda qiyin.

TIA bo'limlarining taxminiy tuzilmasi quyida keltirilgan:

1. Loyihalarni vujudga keltirish shart-sharoitlari va g'oyasi:

- 1.1. Loyiha g'oyasining mazmuni.
- 1.2. Loyiha tashabbuslari.
- 1.3. Loyiha bo'yicha ma'lumotlar.
2. Bozor tahlili va marketing strategiyasi:
  - 2.1. Umumiqtisodiy tahlil.
  - 2.2. Marketing bo'yicha izlanishlar.
  - 2.3. Loyiha strategiyasi asoslari.
  - 2.4. Marketing kontseptsiyasi.
  - 2.5. Marketing tarmoqlari va xarajatlari.
3. Loyihani resurslar bilan ta'minlanganligi:
  - 3.1. Xom ashyo va materiallar tasnifi (klassifikatsiyasi).
  - 3.2. Materiallarga bo'lgan talabning o'ziga xos xususiyatlari.
  - 3.3. Material resurslar mavjudligi va ularni etkazib berish.
  - 3.4. Materiallarni etkazib berish marketingi.
  - 3.5. Butlovchi mahsulotlar va material resurslar xarajatlari.
4. Loyihalardagi ob'ektlarni joylashadigan o'rni va atrof-muhit:
  - 4.1. Ob'ekt joylashadigan joy tahlili.
  - 4.2. Tabiiy muhit.
  - 4.3. Atrof-muhitning ta'sirini baholash.
  - 4.4. Ijtimoiy-iqtisodiy siyosat.
  - 4.5. Loyihalarning infratuzilmasi holati.
  - 4.6. Loyiha uchun joyni tanlash.
5. Loyihalash va texnologiya:
  - 5.1. Ishlab chiqarish dasturi va quvvatlar.
  - 5.2. Loyiha uchun texnologiya tanlash.
  - 5.3. Loyiha uchun texnologiya sotib olish.
  - 5.4. Loyiha uchun asosiy hujjatlarni tayyorlash.
  - 5.5. Loyiha uchun kerakli mashinalar va uskunalarni tanlash.
  - 5.6. Aholi uchun uy-joy qurish.
  - 5.7. Texnikaviy xizmat ko'rsatishga qo'yiladigan talablar.
  - 5.8. Umumiy investitsiya xarajatlarini baholash.
6. Loyihalar ko'rsatilgan korxonani tashkil qilish va boshqa xarajatlar:

6.1. Korxonani boshqarishni tashkil etish.

6.2. Loyihalashni tashkil etish.

6.3. Umumxo'jalik va umumishlab chiqarish xarajatlari.

7. Mehnat resurslari:

Ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy muhit.

Xodimlarning toifa bo'yicha mehnat resurslariga talabi.

SHTat jadvali.

Xodimlarni o'qitish-o'rgatish va qayta tayyorlash rejasi.

Xodimlar mehnatiga haq to'lash xarajatlarini baholash.

8. Investitsiya loyihasini amalga oshirishni rejalashtirish:

Investitsiya loyihasini amalga oshirishni rejalashtirishning maqsadi.

Loyihalarni amalga oshirish bosqichlari.

Loyihalarni amalga oshirish grafigi.

Loyihalarni amalga oshirish byudjeti.

9. Investitsiya loyihalarini moliyaviy tahlili va investitsiyalarni baholash:

Loyihalar moliyaviy tahlilining maqsadi va vazifalari.

Loyiha xarajatlarini baholashning tahlili.

Loyihalarning iqtisodiy samaradorligini baholash uslubi.

Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish.

Ijroiy TIA ni vujudga keltirish uchun loyiha g'oyasi mamlakat va hududdagi umumiy iqtisodiy sharoitlarga mos kelishi kerak.

Loyiha g'oyasida investitsiyaning aniq mazmunini ifoda qilish va investorlarning nima uchun bu loyihaga qiziqishi sabablarini belgilab berish zarur. Bu bo'limda loyihaning tarixi, g'oyaning vujudga kelish sababi, u bo'yicha oldin qilingan izlanishlar bayonoti beriladi.

## **Qisqacha xulosalar**

Loyiha tahlili uning g'oyasi yaratilishi bilanoq boshlanadi, chunki g'oyaning ko'pi birinchi muhokama bosqichidayoq uni kelajagi yo'qligi sababli tugatilishi mumkin.

Loyiha tahlili investitsiya oldi bosqichida ham amalga oshiriladi. Bu bosqich to'rtta yo'nalishga bo'lib o'rganiladi. Bular:

1. investitsiya kontseptsiyalarini tanlash;
2. dastlabki loyihalarni vujudga keltirish;
3. yakuniy loyihalarni vujudga keltirish va ularni moliyaviy baholash;
4. loyiha bo'yicha yakuniy qarorga kelish.

Investitsiya oldi bosqichida bir necha muqobil variantlarga ega bo'lgan loyihalar o'rganiladi va ulardan samarasi pastlari chiqarib yuboriladi. Turli sohalardagi korxonalar uchun investitsiya kontseptsiyalarini izlab topish uchun asos bo'lib shart-sharoitlar tasnifi (klassifikatsiyasi) qabul qilingan. Bunga foydali qazilmalar, qishloq xo'jalig potentsialini belgilovchi omillar, demografik omillar va h.k.lar kiradi.

Loyihalarni birlamchi tayyorlash bosqichining asosini biznes-reja tashkil etadi. Biznes-reja investitsiya loyihalarini asoslaydigan, loyihalarning imkoniyatlarini belgilaydigan, daromad va xarajatlarni hisoblaydigan, mablag' oqimlarini ko'rsatadigan muhim xujjatdir.

Biznes-reja bozor sig'imini o'rganish, mahsulot ishlab chiqarish xarajatlarini baholash, bozorda kutilishi mumkin bo'lgan to'siqlarni belgilash, ishlarning borishi to'g'risida signal ko'rsatkichlarni aniqlashda iqtisodchilarga yordam beradi.

Loyihalarni tayyorlashda mutaxassislarining optimal tarkibga ega guruhi ishtirok etishi lozim. Gohida loyihani baholash ishiga ishchi guruhga kirmaydigan mutaxassislar ham jalb etilishi mumkin. Loyihalarni texnik iqtisodiy asoslash o'z ichiga bir necha bo'limlarni oladi.

Bular:

Loyihalarni vujudga keltirish shart-sharoitlari va g'oyasi.

Bozor tahlili va marketing strategiyasi.

Loyihalarning resurslar bilan ta'minlanganligi.

Loyihalarda ob'ektlarni joylashgan o'rni va atrof-muhit.

Loyihalash va texnologiya.

Loyihada ko'rsatilgan korxonani tashkil etish va boshqa xarajatlar.

Mehnat resurslari;

Investitsiya loyihalarini amalga oshirishni rejalashtirish.

Investitsiya loyihalarini moliyaviy tahlil qilish va investitsiyalarni baholash.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar**

1.Loyiha g'oyasi nima uchun tahlil qilinadi?

2.Investitsiya loyihalari hujjatlarini tayyorlash bosqichlariga tavsif bering.

3.Investitsiya oldi bosqichining asosiy vazifalari nimalardan iborat?

4.Investitsiya kontseptsiyalarini izlab topish uchun asos bo'luvchi shart-sharoitlarni sanab o'ting.

5.Biznes-reja nima va uning vazifalari nimadan iborat?

6.Biznes-reja tuzilmasiga tavsif bering.

7.Loyihalarga yakuniy baho berish uchun jamlanadigan mutaxassislar guruhi qanday bo'lishi kerak?

8.Loyihalarni texnik-iqtisodiy asoslash bosqichlariga izoh bering?

9.Loyiha uchun texnologiya tanlash kerakmi?

10.Loyiha uchun texnologiya sotib olish kerakmi? Qanday texnologiyalar tanlovi o'tkaziladi?

11.Loyiha uchun asosiy hujjatlarni tayyorlash kerakmi?

12.Loyiha uchun kerakli mashinalar va uskunalarni tanlash kerakmi?

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1.Колмыкова Т.С. «Инвестиционный анализ» Учебное пособие М: ИНФРА-М -2009.-145-230 стр. Учебники экономического факультета МГУ им. Ломоносова.

2.Есипов В.Е. и др. Коммерческая оценка инвестиций. Учебное пособие. КНОРУС М: 2009. -127-236стр.

3. Балдин К.В. Инвестиции и инновации. Учебное пособие. \ К.В. Балдин, И.И. Передеряев и др.-2- изд- М: Издательское – торговая корпорация «Дашков и К», 2010 -202-238 с.

4. Николаев М.А. Инвестиционная деятельность: Учебное пособие \ М.А. Николаев-Финансы и статистика, ИНФРА. М-2009.- 332-336 стр.

5. Тюрина А.В. Инвестиции. Практикум. Учебное пособие. \ А.В. Тюрина-М: КНОРУС.2010.- 123-208 стр.

6..А.Э.Ишмухамедов, М.С. Қосимов, З.А. Джумаев, Г.Я.Мухамеджанова. Лойиха тахлили. Т.: ТДИУ 2006 й. 58-73 бетлар.



## **IV-BOB. INVESTITSIYA LOYIHALARINI MOLIYAVIY-IQTISODIY BAHOLASHNING USLUBIY ASOSLARI**

### **4.1. Investitsiya loyihalarini tanlashda moliyaviy-iqtisodiy baholashning roli**

Har qanday turkumdagi loyihalarni baholashda loxixadan olinadan naf aniqlanadi. Ular pul va pul bulmagan manfaatdorlik bo'lishi mumkin. Avvalo pul ko'rinishidagi manfatlarni hisoblash uslublarini ko'rib o'taylik. Buning uchun investitsiya loyihalariga murojat etamiz.

Real aktivlarga mablag' sarf qilishning maqbul variantlarini tanlash va asoslab berish jarayonida investitsiya loyihalarini iqtisodiy - moliyaviy baholashning ahamiyati juda katta. Boshqa barcha jihatlari ijobiy bo'lgani holda ham quyidagi shartlarni ta'minlamagan loyiha amalga oshirish uchun qabul qilinmaydi:

1. tovarlarning realizatsiya qilinishidan kelgan daromadlar sarf etilgan xarajatlarni qoplamasa;
2. loyihani mablag' bilan ta'minlaydigan investor o'rtacha foyda me'yoridan kam bo'lmagan rentabelikka erishmasa;
3. investor uchun ma'qul keladigan davr ichida xarajatlar qoplanmasa.

Mana shu shartlarning bajarilishi real ekanligini aniqlash investitsiya loyihalarini moliyaviy- iqtisodiy baholashning eng muhim vazifasi hisoblanadi. Bunday baholashni o'tkazish bir qancha sabablarga ko'ra, ancha qiyin. Bu sabablar quyidagilardir:

- birinchidan, investitsiya xarajatlari bir marta qilinishi yoki uzoq muddat ichida bir necha marta takrorlanishi mumkin;
- ikkinchidan, investitsiya loyihalarini amalga oshirishdan natija olish jarayoni ham uzoq davom etishi mumkin;
- uchinchidan, uzoq muddatli operatsiyalarni amalga oshirish investitsiya loyihalarining barcha jihatlarni baholashda noaniqlik darajasi oshishiga, turli xatoliklarga yo'l qo'yilishiga olib keladi.

Aynan ana shu omillarning mavjudligi investitsiya loyihalarini baholashning maxsus, xatolik darajasi minimal bo'lgan, etarlicha

asoslangan qarorlar qabul qilish imkonini beradigan uslublarini vujudga keltirishni taqozo etdi.

## 4.2. Diskontlash haqida tushuncha

Diskontlash – bu iqtisodiyotda XX asrning ikkinchi yarmidan jahon moliyaviy iqtisodiyotiga keng ko‘lamda kirib kelgan yangi nazariya va uslubdir.

Investitsiya loyihalarini baholashning maxsus uslublari vujudga kelishiga sabab, pul mablag‘lari qiymatining vaqt davomida o‘zgarib turishidir. YA‘ni bugungi bir so‘m qiymati bir yil keyin olinadigan bir so‘m qiymati bilan bir xil emas.

Bir xil summadagi pulning turli vaqtda har xil qiymatlarga ega bo‘lishiga bir qancha sabablar mavjud:

- birinchidan, bu holat inflyatsiya jarayonlari bilan izohlanadi, ya‘ni baholar darajasining ko‘tarilishi oqibatida bugun bir so‘mga olish mumkin bo‘lgan tovarni bir yildan so‘ng bir yarim yoki ikki so‘mga sotib olish mumkin bo‘ladi;

- ikkinchidan, har qanday tijorat operatsiyasiga (shu jumladan, bank depozitiga) qo‘yilgan bir so‘m pul uning yordamida olingan daromad hisobiga bir yildan keyin kattaroq miqdordagi pulga aylanadi. Bu holat moliyaviy operatsiyalarning aksiomasi hisoblanadi va investitsiya loyihalarini iqtisodiy asoslash va tahlil qilish mexanizmini belgilab beradi.

Demak, har bir moliya mutaxassisi yoki investitsiyalarni tahlil etayotgan mutaxassisning asosiy shiori quyidagicha bo‘lmog‘i kerak:

Bugungi olingan bir so‘m, kelgusida olinadigan bir so‘mdan qiymat jihatidan kattadir.

Buni juda oddiy misolda ko‘rishimiz mumkin. Agar siz 100 so‘m pulni 10% stavka bilan bankka qo‘ysangiz, kelgusi yili (uni FV deb belgilymiz), sizning omonatingiz:

$$FV_1 = 100 + 100 * 0,1 = 110 \text{ so‘mga teng bo‘ladi.}$$

Agar pulingizni yana bir yil olmaysiz, deb faraz qiladigan bo'lsak, ikkinchi yilning oxiriga borib sizning omonatingiz:

$$FV_2 = [100(1+0,10)] \cdot (1+0,10) = 100(1+0,10)^2 = 100 \cdot 1,21 = 121 \text{ so'm}$$

bo'ladi.

Jamg'armalar ko'payishining bu modeli murakkab foizlar modeli deyiladi va quyidagicha yozilishi mumkin (1-formula):

$$FV_n = RV_n (1+k)^n$$

Bu erda: FV (ing. future value) – bugun investitsiya qilinayotgan summaning kelgusidagi, ya'ni ma'lum davr o'tgandan so'nggi – investor ega bo'lishi mumkin bo'lgan qiymati;

RV (ing. present value) - kelajakda daromad olish uchun investitsiya qilinayotgan summaning joriy (bugungi) qiymati;

k - investitsiyalarning daromadlilik darajasi. Bizning misolimizda u jamg'arma omonatlari bo'yicha bank foiz stavkasiga, umumiy hollarda esa bir necha muqobil loyihalar bo'yicha eng yuqori bo'lgan kutilayotgan sof foyda me'yoriga teng;

n - investitsiyalar harakatda bo'lib daromad keltirib turadigan muddat. Bizning misolimizda omonatlarni bankda saqlash davri (yil, oy, kun). Agar omonatlar bo'yicha yiliga bir marta daromad hisoblansa, n yillarning tartib raqamini, har oyda hisoblansa, bir oylik davrlar tartib raqamini ko'rsatadi.

Amaliyotda yuqorida keltirilgan formula yordamida kelgusi qiymatlarni hisoblashda maxsus hisoblash dasturlaridan, shuningdek, k va n ning turli miqdorlarida investitsiyalar dastlabki miqdorining o'sib borishi koeffitsientlari kiritilgan maxsus jadvallardan foydalaniladi (1-3 ilovalar).

Bugun investitsiya qilinayotgan mablag'larning kelgusidagi qiymatini hisoblash jarayoni diskontlash deb yuritiladigan moliyaviy hisob-kitoblarning bir ko'rinishidir. Diskontlashning ikkinchi turi kelgusi qiymatni hisoblashga teskari jarayon bo'lib, kelgusida olidigan summaning joriy davrdagi qiymatini hisoblab topish imkonini beradi.

Bunda kelgusida ma'lum summaga ega bo'lish uchun bugun qancha miqdorda investitsiya qilish kerakligi hisoblab topiladi. Albatta, kelajakda olinadigan summa bugun biz foydali ishga sarflayotgan va biz

kutgan miqdorda foyda keltiradigan investitsiya summasidan ko'p bo'lishi kerak emas. Diskontlashning bu turi joriy qiymatni hisoblash yoki keltirilgan, diskontlangan qiymatni aniqlash deyiladi. Bunday hisob-kitobni bajarish uchun kelgusi qiymatni hisoblash formulasiga nisbatan teskari formuladan foydalaniladi (2-formula):

$$RV_n = FV_n / (1+k)^n = FV_n * 1 / (1+k)^n$$

Bu erda:  $RV_n$  – n yildan so'ng olinadigan summaning keltirilgan, joriy qiymati (diskontlash koeffitsienti  $k$  ga teng bo'lganda n yildan so'ng  $FV_n$  miqdordagi summani olish uchun bugun qilinishi kerak bo'lgan investitsiya summasi);

$FV_n$  – n yildan so'ng olinadigan summa.

Agar  $k$  biz mablag'imizni o'zimiz uchun qulay bo'lgan investitsiya loyihasiga sarflaganimizda haqatda olishimiz mumkin bo'lgan daromad darajasini aks ettirgagina, bu formula mazmunga ega bo'ladi.

Misol: Aytaylik, investor traktor zavodining aksiyalarini sotib olmoqchi bo'lsin. Zavodning har bir aksiyasi 10 ming so'mdan taklif qilinayotgan va 5 yildan keyin aksiyalarning bahosi 2 marta oshishi kutilayotgan bo'lsa, shuningdek, mablag'ni bank depozitiga qo'yganda 10% daromad olish imkoniyati mavjud bo'lsa, aksiyalarni sotib olish maqsadga muvofiqmi yoki yo'qmi?

Demak, aksiyalar bahosi 5 yildan so'ng ikki martaga oshadi va 20 ming so'mni tashkil etadi. Joriy qiymatni hisoblash formulasini qo'llab, quyidagilarni topamiz:

$$RV_5 = 20000 * 1 / (1+0,10)^5 = 20000 * 0,6209 = 12418 \text{ sum}$$

Demak, 5 yildan so'ng har bir aksiyaning qiymati 20000 so'mni tashkil etsa, uning bugungi qiymati 12418 so'mga teng bo'lar ekan. YA'ni investor har bir aksiyani sotib olish uchun 10000 so'mdan emas, 12418 so'mdan sarflaganda ham mablag' sarflashning bu varianti bankka mablag' qo'yishdan ko'ra samaraliroqdir. Agar foiz stavkasi 15% dan ortiq bo'lsa, mablag'ni bank depozitiga qo'yish samaraliroq bo'lishini xuddi shu usulda hisoblab topish mumkin.

Diskontlash stavkasini tanlashda amaldagi shakllangan yoki kutilayotgan o'rtacha ssuda foizi darajasiga asoslanish lozim. Bozor

iqtisodiyoti sharoitida u bozor kon'yunkturasiga, mamlakatning, tarmoqning va firmaning, shuningdek, boshqa mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishi istiqbollarga bog'liq.

### **4.3. Annuitetning kelgusi qiymati**

Investitsiya loyihalarini moliyaviy-iqtisodiy baholash tamoyillarini yaxshiroq tushunib olish uchun moliyaviy operatsiyalarning yana bir, kelajakda ma'lum summani to'plash uchun har yili pul mablag'lari to'lab borilishini ko'zda tutuvchi turini tahlil qilib ko'rishimiz zarur. Annuitet (ingl. annuite-yillik to'lov) deb nomlanadigan bu turdagi operatsiyalarga amortizatsiya fondini jamg'arish, ya'ni asta-sekin eskirgan asosiy fondlar o'rniga yangisini sotib olishga etarli bo'lgan pul summasini jamg'arish misol bo'la oladi. Asosiy vositalarning qiymati juda yuqori bo'lganligi sababli to'liq eskirib bo'lganida ularni faqat joriy yilda olingan foyda hisobigagina yangilab bo'lmaydi. Bunday holatdan qutulishning birdan-bir to'g'ri yo'li amortizatsiya fondlarini shakllantirib borishdir. Bu mexanizm shunchalik muhimki, butun dunyo mamlakatlari tomonidan tan olinadi va amortizatsiya summasi soliqqa tortilmaydi.


Ammo amortizatsiya ajratmalari ular uchun belgilangan vazifani bajarishlari uchun, menejerlar hozirda qilinayotgan ma'lum miqdordagi ajratmalar hisobiga kelajakda qanday summaga ega bo'lishlarini bilishlari kerak. Bunday hisob-kitoblarni 1-formula yordamida bajarish mumkin bo'lsa-da, elektron jadvallar va maxsus ma'lumotnomalardan foydalanish ancha qulayroq usul hisoblanadi.

Misol. Aytaylik, siz har yilning oxirida 1 mln. so'mdan 3 yil davomida 10% stavka bilan bankdagi maxsus hisobvaraqqa mablag' o'tkazib bordingiz. 3 yildan so'ng siz qanday summaga ega bo'lasiz? Birinchi yil o'tkazilgan million so'm bankda 2 yil turadi, ikkinchi millon so'm esa 1 yil turadi, uchinchi million esa uchinchi yil oxirida o'tkazilgani uchun ham foiz ishlashi nuqtai nazaridan bankda hech qancha muddat turmaydi. Kelgusi qiymatni hisoblash formulasi yordamida har bir o'tkazma uchinchi yil oxiriga qadar qanday miqdorgacha o'sib borishini va ularni qo'shib, shu muddatda qancha miqdordagi mablaqqa ega

**Investitsiyalarning kelgusidagi qiymati hisob-kitobi**

Mablag' o'tkaziladi -gan yil tartib raqami	Foiz daromadi hisoblanadi -gan vaqt (yil)	Yillik o'tkazma (ajratma)ning kelgusi qiymati (mln.so'm)
1	2	$1,00 * (1+0,10)^2$
2	1	=1,21
3	0	$1,00 * (1+0,10)^1 = 1,10$
		$1,00 * (1+0,10)^0 = 1,00$
Jami	Kelgusi qiymat	3,31

Bu jarayonlarni grafikda quyidagicha tasvirlash mumkin:



Shunday qilib, annuitetning yakuniy summasi quyidagicha topildi:

$$FVA_3 = 1.00 * (1 + 0.10)^2 + 1.00 * (1 + 0.10)^1 + 1.00 * (1 + 0.10)^0 = 3,31$$

Bu hisoblash sxemasini universal' formula ko'rinishida tasvirlaymiz (3-formula):

$$FVA_n = \sum_{t=1}^n PMT_t \cdot (1 + k)^{n-t}$$

Bunda,  $FVA_n$ - annuitetning kelgusi qiymati (ingl.future value of annuite);

$RMT_t$  - t-davr oxirida to'lanadigan (ajratiladigan, o'tkaziladigan) summa;

n-daromad olinadigan davrlar (oylar, choraklar, yillar) soni;

k- daromad darajasi.

Agar hamma davrlardagi to'lovlar miqdori bir xil bo'lsa, bu tenglamani hech bir qiyinchiliksiz quyidagi ko'rinishda yozish mumkin (4-formula):

$$FVA_n = \sum_{t=1}^n PMT_t \cdot (1+k)^{n-t}$$

Formulada birinchi va oxirgi yilgi to'lovlar o'rinlari almashib qolganligi tufayli birinchi (tq1) yilgi to'lov hech qanday daromad keltirmagandek (chunki,  $(1+k)^{-1}$  miqdor 0 ga teng bo'ladi) va aksincha, oxirgi (tqn) yilgi to'lov esa daromadga eng ko'p hissa qo'shganek bo'lib ko'rinadi. Ammo to'lovlarning mutlaq hajmi bir xil bo'lganligi tufayli bu «matematik adolatsizlik» olinadigan natijalarga ta'sir ko'rsatmaydi. Aksincha bu holat annuitetni hisoblash formulasini yanada soddalashtirish imkonini beradi. Bunday soddalashtirish natijasida formula quyidagi ko'rinishni oladi (5-formula):

$$FVA_n = RMT_t \cdot FVA1_{n,k}$$

$FVA1_{n,k}$  - foiz daromadi stavkasi k ga teng bo'lgan sharoitda va n davr mobaynida 1 so'mlik annuitetning daromad olinadigan har bir davr oxiridagi kelgusi qiymati (2-4 ilovalar). U quyidagi formula yordamida aniqlanadi (6- formula):

$$FVA1_{n,k} = [(1+k)^n - 1] / k$$

To'lovlar hamma davrlar uchun bir xil bo'lgan bunday annuitet

unifikatsiya qilingan (standart) annuitet deb ataladi.

Annuitet bo'yicha summaning o'sib borishini hisoblashda maxsus jadvallardan foydalanish mumkin (2-ilova). Bunda, avvalo, foiz stavkasi k ga teng bo'lgan sharoitda bir so'mning n- yildagi kelgusi qiymati jadvaldan topiladi va so'ngra topilgan koeffitsient pul oqimining yillik summasi (PMT)ga ko'paytiriladi.

#### 4.4. Annuitetning joriy qiymati

Investitsiya loyihalarini asoslab berish va tahlil qilishning asosini bugun qilinadigan (joriy) xarajatlar bilan kelgusida olinadigan pul tushumlari (pul oqimlari)ni taqqoslash tashkil etadi. Bu vazifani bajarishga annuitetning joriy qiymatini aniqlashni ko'zda tutuvchi yondashuv juda yordam beradi. Bu yondashuv asosida bugun qo'yilgan mablag'lar kelgusidagi tushumlar bilan qanchalik qoplanishini etarli darajada aniq hisoblab topish mumkin.

Misol: Aytaylik investitsiya loyihasi kelgusi 3 yilning har bir yili oxirida 1 million so'mdan pul tushumiga ega bo'lishni ko'zda tutsin. Foiz stavkasi yiliga 10% bo'lgan sharoitda 2-formula va 4-ilovadan foydalanib, bu pul tushmlarining joriy qiymatini aniqlaymiz. Olingan natijalar quyidagi jadvalda keltirilgan.

4.4. 2-jadval

#### Annuitetning joriy qiymatini aniqlash

Yillar	Pul tushumlari (mln.so'm)	Joriy qiymat
1	1	$1,0 * [ 1 / (1+0,1)^1 ] = 0,909$
2	1	$1,0 * [ 1 / (1+0,1)^2 ] = 0,826$
3	1	$1,0 * [ 1 / (1+0,1)^3 ] = 0,751$
Jami	Joriy qiymat	2,486

Investitsiya natijasida bunyod bo'lgan ob'ekt necha yil amal qilishiga qaramasdan bu hisoblash usulining mazmuni o'zgarmaydi. 2-formulaga



asoslangan holda bu hisob-kitob quyidagicha o'tkazildi:

$$PVA_3 = 1/(1+0.10)^1 + 1/(1+0.10)^2 + 1/(1+0.10)^3 = 2,486$$

Bunga asoslangan holda annuitetni keltirilgan qiymatini hisoblashning umumiy tenglamasini yozamiz (7-formula):

$$PVA_t = \sum_{t=1}^n PMT_t / (1+k)^t$$

Bu erda:  $PMT_t$  - t davr oxirida bo'ladigan kelgusidagi to'lov;  
k- investitsiyalar bo'yicha zarur daromad me'vori;  
n- hozirgi investitsiyalardan daromad keladigan davrlar soni.

Agar annuitet bo'yicha hamma davrlardagi to'lov miqdori bir xil bo'lsa, 7-formulani quyidagi ko'rinishda yozish mumkin (8-formula):

$$RVA_n = PMT_t * PVA_{n,k}$$

Bu erda:  $PVA_{n,k}$  - daromadlilik stavkasi k ga teng bo'lgan sharoitda n davrning har biri oxiridagi annuitetning joriy qiymati(9-formula).

$$PVA_{n,k} = [1 - 1/(1+k)^n] / k$$

8- va 9- formulalar yordamida zarur miqdorlarni topish uchun maxsus jadvallardan(5- ilova) foydalanish mumkin. Bunda 1 so'mlik annuitetning kelgusi qiymatini joriy qiymatga keltirish koeffitsienti topiladi va so'ng bu koeffitsient annuitetning haqiqiy summasiga ko'paytiriladi.

#### 4.5. Renta qiymati

Investitsiya loyihalarini baholash jarayonida, ba'zida, eng ko'p qancha miqdorda mablag' sarflash mumkin degan savolga javob berishga to'g'ri keladi. Bu savolga javob topish uchun muammoga renta tipidagi qo'yilmalardan olish mumkin bo'lgan muqobil daromad nuqtai nazaridan yondoshish foydali. Renta tipidagi qo'yilmalarga banklardagi muddatsiz

depozitlar misol bo'la oladi.

Bu turdagi investitsiyalar annuitetga qarama-qarshi o'laroq perpetuitet (ingl.perpetuity-abadiylik) deb ataladi.

Perpetuitet ko'rinishidagi investitsiyalarning muddati cheklamagani holda, hisoblangan foiz daromadini birdaniga olish imkoniyati mavjud bo'ladi hamda asosiy summa daromad keltirishda davom etaveradi.

Bunday holatda yillik daromad quyidagi formula yordamida aniqlanadi (10- formula):

$$RMT = RV * k$$

Bu erda: RV- bankka qo'yilgan muddatsiz depozitning asosiy summasi;

k- bu turdagi depozitlar uchun bank tomonidan to'lanadigan daromadning foiz stavkasi;

RMT- depozit bo'yicha yillik daromad.

Agar formulani boshqa ko'rinishda yozsak, unda xuddi shu miqdordagi pul tushumini vujudga keltirayotgan investitsiyalarning qiymatini anglab etamiz (11-formula).

$$RV = RMT / k$$

Bu formulani qo'llash bizni investitsiya tahlilining juda oddiy mantig'ini anglab etishga olib keladi. Uning mohiyatini quyidagi misol yordamida ko'rib chiqamiz:

Aytaylik, bank depozitida bizning 1 mln. so'm omonatimiz bor va bank bu depozit uchun yillik 60% daromad to'laydi. Demak, har yili yanvar' oyining boshlarida o'tgan yil uchun hisoblangan 600 ming so'm daromadni bankdan olishimiz mumkin. 11-formuladan foydalanib, daromad stavkasi yiliga 60 % bo'lganda 600 ming so'm daromad olish uchun qancha miqdorda investitsiya qilishimiz zarurligini topamiz:

$$RV = 600000 / 0,60 = 1\ 000\ 000 \text{ so'm.}$$

Ko'rilgan misol asosida quyidagi xulosaga kelishimiz mumkin: agar bank depozitiga qo'yilgan 1 million so'm yiliga 600 ming so'm daromad keltirsa, keyingi yilning boshida 600 ming so'mga teng (yoki undan kam) daromad keltiradigan investitsiya loyahasiga 1 million so'mdan ko'p mablag' ajratish maqsadga muvofiq emas.

Perpetuitetning yana bir ko'rinishi investitsiya davrining

cheklanmaganligi va doimo o'sib boruvchi yillik daromad bilan xarakterlanadi. Agar bu o'sish  $q$  ga teng suratda ro'y bersa va  $RMT_1$  birinchi yilning oxirida kutilayotgan pul tushumlari summasini aks ettirsa, davri cheklanmagan investitsiyalarning joriy qiymati quyidagi formula yordamida aniqlanadi (12-formula).

$$RV = RMT_1 / k - q$$

Bu tenglama odatda Gorden modeli deb ataladi. Bu formula sodda ko'rinishga ega bo'lishiga qaramasdan, undan ehtiyot bo'lib foydalanish kerak. Gorden modeli yordamida olingan natijalar to'g'ri bo'lishi uchun bir necha shartlarga amal qilish zarur.

Birinchi, formula suratidagi  $PMT$  0 indeksi bilan emas, balki 1 indeksi bilan turibdi. Bundan xulosa shuki, formula bo'yicha hisob-kitoblar investitsiyalangan mablag'lar bo'yicha ular ishlatilgan birinchi davr oxiridagi to'lovdan boshlab bajariladi. Agar to'lov investorga darhol kelib tushsa, bu to'lov summasini Gorden modeli yordamida topilgan joriy qiymat summasiga qo'shish kerak.

Ikkinchi, bu modelni pul tushumlari oqimi uzluksiz va bir xil suratda o'sgan holdagina ishlatish mumkin. Uchinchi, bu modelda ( $q$ ) o'sish surati ( $k$ ) diskontlash koeffitsientidan kam bo'lgan holdagina model yordamida olingan natija haqiqatga yaqin bo'ladi. Bu talab pul bozori xususiyatlaridan kelib chiqadi va bajarilishi noreal emas. Chunki, agar bir tarmoqda daromadlarning o'sish surati diskontlash koeffitsienti (daromadlilikning o'rtacha darajasi) dan yuqori bo'lsa, tezda bu tarmoqqa investitsiya mablag'lari oqib kela boshlaydi va daromadlilik darajasi  $q$  pasayib ketadi.

Mavzuga yakun yasay turib, har qanday investitsiya loyihalarini baholashda amal qilinishi shart bo'lgan bir necha tamoyillarni ta'kidlab keltiramiz:

1. Hisob-kitoblar bir xil qiymatdagi pullarda olib borilishi shart. Bu uchun barcha xarajatlar va olingan natijalar kelgusidagi yoki hozirgi davrdagi ma'lum bir sanaga keltirib olinadi.

2. Investitsiyalarni baholash bu mablag'lar investor uchun ular sarflanishi mumkin bo'lgan boshqa loyihalarga nisbatan kam bo'lmagan daromad keltirishi mumkinligi nuqtai nazaridan turib amalga oshirilishi

kerak.

3. Umumiy holatlarda pul tushumlari u bilan bir xil qiymatga keltirilgan pul xarajatlaridan ko'p bo'lgan investitsiyalarni tanlash joiz.

### **Qisqacha xulosalar**

Loyihalarni moliyaviy - iqtisodiy tahlil qilinishi eng avvalo diskontlash nazariyasi va uslubiyotiga asoslanadi. Diskontlash nazariyasi va amaliyoti O'zbekiston mustaqqilligidan keyin barcha moliya institutlarida qo'lanila boshlandi. Bu O'zbekistonni bozor iqtisodiyotiga o'tishi va banklar va boshqa moliya institutlarining raqobatlashuvi bilan ham bog'liq.

Loyiha maqbul deb topilishi uchun u bo'yicha olingan daromadlar xarajatlardan ko'p bo'lishi, loyiha bo'yicha rentabellik o'rtacha foyda me'yoridan kam bo'lmasligi hamda xarajatlari ko'zda tutilgan muddatda qoplanishi kerak.

Inflyatsiya jarayonlarining mavjudligi, mablag'larning boshqa ob'ektlarga sarflanishi hisobiga foyda olish imkoniyatlaridan mahrum bo'linishi hamda xarajatlarning qoplanmaslik xavfining borligi tufayli bugungi bir so'm ertagi bir so'mdan qimmatroq hisoblanadi. Loyihalarning samaradorligi aniqlanayotganda barcha davrlar bo'yicha pul xarajatlari va tushumlari qiymati diskontlanadi, ya'ni kelgusidagi pul oqimlari hozirgi davrga keltirib olinadi va so'ng taqqoslanadi.

Kelajakda ma'lum summani to'plash uchun har yili pul mablag'lari to'lab borilishi annuitet tushunchasini beradi. Renta tipidagi qo'yilmalar (masalan, banklardagi muddatsiz depozitlar) annuitetga qarama-qarshi o'laroq parpetuet deb ataladi. Perpetuitet ko'rinishidagi investitsiyalarning muddati cheklamagani holda, hisoblangan foiz daromadini birdaniga olish imkoniyati mavjud bo'ladi hamda asosiy summa daromad keltirishda davom etaveradi.

Investitsiyalarning moliyaviy-iqtisodiy samaradorligini baholashda annuitet va perpetuitetning ham joriy, ham kelgusi qiymatlari ko'rsatkichlaridan foydalaniladi.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar**

1. Loyihalarni moliyaviy - iqtisodiy baholashning maxsus usullarini yaratish zarurati paydo bo'lishiga sabab nima?

2. Diskontlash va diskont stavkasi atamalari nimani anglatadi? Annuitetnin kelgusi va joriy qiymatlari deganda nimani tushunasiz?

3. Perpetuitet nima va perpetuitet ko'rinishidagi investitsiyalarning samaradorligi qanday aniqlanadi?

4. Gorden formulasi qanday vaziyatlarda qo'llaniladi?

5.  $RV = RMT_1 / k - q$  bu formula nimani anglatadi?

6.  $RV = RMT / k$  bu formula nimani anglatadi?

7.  $RMT = RV * k$  bu formula nimani anglatadi?

8.  $RVA_n = RMT_t * PVA1_{n,k}$  bu formula nimani anglatadi?

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Колмыкова Т.С. «Инвестиционный анализ» Учебное пособие М: ИНФРА-М -2009.-145-230 стр. Учебники экономического факультета МГУ им. Ломоносова.

2. Есипов В.Е. и др. Коммерческая оценка инвестиций. Учебное пособие. КНОРУС М: 2009. -156-450 стр.

3. Балдин К.В. Инвестиции и инновации. Учебное пособие. \ К.В. Балдин, И.И. Передеряев и др.-2- изд- М: Издательское –торговая корпорация «Дашков и К», 2010. -167-238 с.

## **V-BOB.INVESTITSIYA LOYIHALARINI MOLIYAVIY–IQTISODIY BAHOLASHNING ASOSIY USULLARI**

### **5.1. Investitsiya loyihalarini moliyaviy-iqtisodiy baholashning mohiyati va usullari**

Har qanday investitsiya loyahasini moliyaviy-iqtisodiy baholash mazmunini juda sodda savolga, ya'ni kelgusidagi pul tushumlari hozirgi qilingan xarajatlarni qoplaydimi yoki yo'qmi, degan savolga javob topish tashkil etadi.

Rivojlangan bozor iqtisodiyotiga ega mamlakatlarda investitsiyalarni baholashning turli loyihalarga qo'yilgan mablag'larning foydaliligini taqqoslashga asoslangan usullari ko'p qo'llaniladi. Bunda u yoki bu loyihaga investitsiya qilishning muqobil varianti bo'lib boshqa ob'ektlarga mablag' sarflash, shuningdek mablag'larni ma'lum foiz bilan bankka qo'yish yoki ularni qimmatli qog'ozlarga aylantirish imkoniyatlari hisoblanadi.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, investitsiya loyihalari samaradorligini baholash uslublari deganda xarajatlarning foydaliligi va qoplanishi nuqtai nazaridan turli ob'ektlarga (loyihalarga, tadbirlarga) investitsiya qilishning maqsadga muvofiqligini aniqlash usullari tushuniladi. Investitsiyalar samaradorligini aniqlashda, ularning ayrim jihatlarinigina xarakterlaydigan alohida ko'rsatkichlardan foydalanish etarli bo'lmaydi. SHu sababli investitsiya loyihalari samaradorligini baholash uchun bir necha uslublar va ko'rsatkichlar tizimidan foydalaniladi.

Investitsiya loyihalarini baholashda besh asosiy uslubdan keng foydalaniladi. O'z navbatida bu uslublarni ikki guruhga aratish mumkin:

1. Diskontlash kontseptsiyasini qo'llashga asoslangan uslublar:
  - sof joriy qiymatni aniqlash uslubi;
  - investitsiyalarning rentabellik darajasini aniqlash uslubi;
  - ichki foyda me'yorini aniqlash uslubi.
2. Diskontlash kontseptsiyasini qo'llashni ko'zda tutmagan uslublar:
  - investitsiya loyihalariga sarflangan mablag'larni qoplash davrini

aniqlash uslubi;

- investitsiyalarning buxgalteriya rentabelligini aniqlash uslubi.

Ushbu uslublarni ko'rib chiqishdan oldin shuni ta'kidlash zarurki, har beshala uslub investitsiyalarning mutlaq samaradorligini aniqlash usuli sifatida ko'rib chiqiladi. YA'ni har bir investitsiya loyihasini amalga oshirish firmaning boshqa loyihalarga investitsiya sarflash imkoniyatlariga ta'sir etmaydi, degan shartga amal qilinadi.

Bunday shartning kiritilishiga sabab shuki, amalda ko'pchilik investiya loyihalarining amalga oshirilishi boshqa loyihalarni amalga oshirish imkoniyatlarini pasaytiradi yoki mutlaqo yo'qqa chiqaradi. Bunday investitsiya loyihalari o'zaro konfliktli loyihalar deyiladi. O'zaro konfliktli loyihalar jumlasiga shuningdek, firmaning ma'lum bir pirovard maqsadiga erishishning turli yo'llarini ko'zda tutuvchi loyihalar kiradi. Turli loyihalarning konfliktli bo'lishiga sabab korxonalar mablag'larining cheklanganligidir. Firmalar loyihalarni nafaqat mutlaq samaradorligi mezoniga ko'ra, balki mablag' etmay qolganligi sabab boshqa loyihalarni amalga oshira olmasligi tufayli o'zi ko'rishi mumkin bo'lgan yo'qotishlar nuqtai nazaridan kelib chiqib ham tanlaydi. Boshqacha aytganda, firma investitsiya loyihalarini nisbiy samaradorlik mezoniga ko'ra tanlaydi.

Investitsiyalar samaradorligini aniqlash usullarini o'rganishga kirishishdan oldin biz e'tiborga olishimiz zarur bo'lgan yana bir shart shundan iboratki, bu jarayonda loyiha bilan bog'liq bo'lgan barcha xarajatlar va tushumlar pul ko'rinishiga ega deb qaraladi.

## **5.2. Investitsiya loyihalarini moliyaviy – iqtisodiy baholashda pul oqimlarini diskontlashga asoslangan usublari**

Sof joriy qiymat – NPV ( ingl.net present value). Sof joriy qiymat ko'rsatkichi loyiha amalga oshirilishi natijasida firma boyligi qanchaga ko'payganini xarakterlaydi. Sof joriy qiymatga asoslangan holda investitsiyalarni tahlil qilish usuli quyidagi ikkita shartdan kelib chiqadi:

- har qanday korxonalar yoki firma o'z boyluklarini oshirishga harakat qiladi;
- har xil vaqtda sarflangan mablag'lar bir xil qiymatga ega bo'lmaydi.

Sof joriy qiymat bu diskontlangan pul tushumlari bilan (albatta investitsiya natijalarida vujudga kelgan) diskontlangan xarajatlarining farqidir.

Agar boshlang'ich investitsiya mablag'larini  $I_0$ , t-davr oxiridagi pul tushumlarini  $SF_t$  deb belgilasak, u holda sof joriy qiymatni aniqlashni ko'rib chiqamiz.

Agar sof joriy qiymat (NPV) musbat miqdorga ega bo'lsa bu loyiha uchun qilinadigan investitsiya samaralidir.

Misol: Firma 500mln so'mga universal do'kon uchun joy, bino sotib oldi. Bu do'kondan 10 yil davomida har yili 100 mln.so'mdan pul tushumlari bo'ladi. O'sha davrda muqobil foyda me'yori 10% bo'lsa shu do'konni sotib olish kerakmi degan savol tug'iladi. Hisob-kitoblar shuni ko'rsatdiki, firma 10 yil ichida o'z kapitalini 114,6 mln. so'mga ko'paytiradi. Loyiha samaralidir.

Ayrim hollarda «uzoq» muddatli investitsiya sarf etilib uzoq muddat ichida pul tushumlari vujudga keladi. YA'ni pul oqimi birdaniga emas bir necha yilga cho'ziladi. Bunda quyidagi formuladan foydalanish mumkin (13-formula):

$$NPV = \sum_{t=1}^n \frac{CF_t}{(1+k)^t} - \sum_{t=1}^n \frac{I_t}{(1+k)^t}$$

Loyihalarning hayot davri cheklanmagan holatlarda NPVni hisoblashda Gorden formulasidan foydalaniladi (14-formula).

$$NPV = SF_1 / (k + q) - I_0$$

Bu erda:  $CF_1$ -pul tushumlari;

$q$ -pul tushumlarining doimiy o'sish suratlari.

Misol: Firma yangi «Modellar uyi»ni 510 mln. so'mga sotib olmoqchi SHu davrda muqobil foyda me'yori 15%. Har yili bu korxonona 70 mln.so'm pul tushumlari vujudga keltiradi. Korxonani sotib olish to'g'ri bo'ladimi?

$$NPV = 70 / (0,15 - 0) - 510 = 466,7 - 510 = -43,3$$



Bundan ko'rib turibmizki, korxonani sotib olish firma uchun ziyon keltiradi.

Faraz qilaylik, pul tushumlari yiliga 4% ga oshsin va yil oxirida 70 mln. so'm pul tushumiga ega bo'linsin, bunday holatda korxonani sotib olish foydali bo'ladi.

$$NPV=70/(0,15-0,04)-510=70/0,11-510=636,4-510=126,4 \text{ mln.so'm.}$$

Investitsiyalar samaradorligini NPV asosida aniqlash usuli keng tarqalganiga sabab bu ko'rsatkichning dastlabki shart-sharoitlar turli kombinatsiyalarida barqaror, o'zgarmay turishidir. NPV investitsiyalashning ushbu varianti firma boyligi o'sishiga olib keladimi, degan savolga javob bersa-da, bunday o'sishning nisbiy o'lchamlari haqida hech qanday ma'lumot bermaydi. Bunday ma'lumot esa investor uchun juda zarur. Bu kamchilikni to'ldirish uchun boshqa bir ko'rsatkich investitsiyalar rentabelligini hisoblash usulidan foydalaniladi.

Investitsiya rentabelligi RI(ingl. profitability index) qilingan har bir so'm investitsiyaga qanday darajada foyda olinganligini, yoki investor boyligi qanchaga ko'payganini ifodalaydigan ko'rsatkichdir. Ko'pincha, foyda me'yori, deyiladigan bu ko'rsatkichni quyidagi formula bilan aniqlash mumkin(15-formula):

$$PI = \left[ \sum_{t=1}^n \frac{CF_t}{(1+k)^t} \right] / I_0$$

Bunda:  $I_0$  - dastlabki investitsiya summasi;

CF - pul tushumlari;

t – davr.

Agar «uzoq muddatli xarajatlar - uzoq muddatli tushumlar» holati bo'lsa bunda formula quyidagi shaklga ega bo'ladi(16-formula):

$$PI = \sum_{t=1}^n \frac{CF_t}{(1+k)^t} / \sum_{t=1}^n \frac{I_t}{(1+k)^t}$$

Oldingi misolga (modalar uyi) qaytib loyihaning rentabelligi darajasini aniqlaymiz:

$$PI=100 * 6.1446 / 500 = 1.23 = 123\%$$

ya'ni loyiha uchun sarf etilgan har bir so'm 0,23 so'm sof joriy daromad olib kelmoqda.


17-formuladan ko'rinib turibdiki, unda sof joriy qiymatning ikki tomoni – daromad va investitsiya tomoni o'zaro taqqoslanadi. Agar diskontning qandaydir darajasida loyihaning rentabelligi birga teng bo'lsa, u holda keltirilgan investitsiya xarajatlari keltirilgan daromadlarga, teng bo'ladi va loyihaning sof keltirilgan diskontlangan daromadi nolga teng bo'ladi.

Agar NPV musbat bo'lsa, PI albatta 1 dan katta bo'ladi. Demak, PI 1 dan katta bo'lsa, investitsiyalar samarali hisoblanadi. SHuni ta'kidlash joizki, PI investitsiyalarning mutlaq samaradorligi ko'rsatkichi bo'lishi bilan birga investitsiya loyihalarini yana ikki jihatdan turib baholash imkonini beradi.

Birinchidan, bu ko'rsatkich yordamida loyihaning barqarorligi darajasini tekshirib ko'rish mumkin. YA'ni PI qancha katta bo'lsa, loyihaning mustahkamligi (barqarorligi darajasi) shuncha katta bo'ladi. Bunday loyiha sharoitlar o'zgarishi ta'sirida darhol foyda keltirmaydigan loyihaga aylanib qolmaydi.

Ikkinchidan, PI mutaxassislarga turli investitsiyalarni ularning samaraliligi nuqtai nazaridan taqqoslash imkonini beradi.

Ichki foyda me'yori (ingl. Internal rate of return-IRR) - daromadlilikning shunday me'yoriki, unda pul tushumlarining diskontlangan qiymati pul chiqimlarining diskontlangan qiymatiga teng bo'ladi. Boshqacha qilib aytganda, IRR loyiha bo'yicha investitsiyalashdan olingan sof tushumlarning diskontlangan qiymati investitsiyalarning diskontlangan qiymatiga teng bo'lishini ta'minlovchi koeffitsientdir. Uni hisoblash uchun sof joriy qiymatni hisoblashda qo'llaniladigan formulalar qo'llaniladi. Ammo bunda berilgan minimal foiz me'yorida (diskont stavkasida) pul oqimlarini diskontlash o'rniga foiz me'yori



(diskont)ning NPV ni nolga teng bo'lishini ta'minlovchi miqdori topiladi. SHunday qilib, IRR - diskont koeffitsientining shunday miqdoriki, bunda NPV 0 ga teng bo'ladi. Buni grafikda quyidagicha tasvirlash mumkin:

NPV ning diskontlash koeffitsientiga bog'liqligi grafigi.

Yuqoridagi grafikdan kurinib turibdiki, IRR diskontlash koeffitsientining shunday miqdoriki, unda NPV gorizontall o'qni kesib o'tadi, ya'ni nolga teng bo'ladi.

Iqtisodiy adabiyotda ichki foyda me'yori ichki daromad me'yori, qoplash koeffitsienti yoki samarasi, ba'zida esa kapital qo'yilmalar samarasi, deb ham ataladi. IRR ni hisoblash usuli NPV ni hisoblash usuli singari diskontlash konsepsiyasiga asoslanadi. IRR miqdorini ikki usulda topish mumkin:

Birinchi usulda sof joriy qiymatni hisoblash formulasida NPV miqdori nolga tenglashtirib olinib, diskontlash koeffitsienti hisoblab topiladi. YA'ni quyidagi formulalardagi  $k$  miqdori topiladi (17, 18 - formulalar).

$$0 = \sum_{t=1}^n \frac{C_t}{(1+k)^t} - I_0$$

$$0 = \sum_{t=1}^n \frac{C_t}{(1+k)^t} - \sum_{t=1}^n \frac{I_t}{(1+k)^t}$$

Bu formulalar yordamida aniq javob olish qiyin. Olingan natijalar ma'lum darajada taqribiy bo'ladi. Ichki foyda me'yorini topish uchun «sinov va xato» usulidan foydalaniladi, ya'ni formulaga diskontning ancha katta va kichik miqdorlari berilib olingan natija solishtiriladi. Agar olingan natijalardan biri nolga yaqinroq bo'lsa, bunga sabab bo'lgan diskont stavkasiga yaqin miqdorlar berilib, formula, natija toki nolga maksimal darajada yaqinlashmaguncha echiladi.

Ikkinchi usulda IRR miqdorini topish uchun keltirish koeffitsientlari jadvallaridan foydalaniladi.

Misol: Aytaylik, transport firmasi 40 mln. so'mga yuk tashish mashinasini sotib olmoqchi. Uni ekspluatatsiya qilish 20 yil davomida yiliga 3,2 mln. sum pul tushumlarini keltirishi kutilmoqda. Pul tushumlari yil oxirida bo'ladi deb hisoblasak, annuitet holatiga duch kelamiz.

$$RVA_n = RMT_t * PVA1_{n,k}$$

$$40 = 3,2 * PVA1_{n,k}$$

$$PVA1_{n,k} = 40 : 3,2 = 12,5$$

Annuitetning joriy qiymatini hisoblash koeffitsientlari jadvalidan 20-qatorda (20 yillik muddat) olingan natijaga eng yaqin miqdor 12,462 bo'ladi. Bu miqdor 5% lik diskont stavkasiga mos keladi. Ayni shu diskont stavkasida kelgusida mashinani ekspluatatsiya qilishdan olingan pul tushumlarining diskontlangan joriy qiymati uni sotib olish uchun qilingan hozirgi investitsiyalarga teng bo'ladi, ya'ni NPV 0 ga teng bo'ladi. Demak, mazkur loyihada IRR 0,05 ga teng.

IRR ba'zida tekshiruv diskonti deb ham ataladi, chunki u diskontlash koeffitsientining loyihalarini samarali va samarasiz turlarga ajratish imkonini beruvchi darajasidir. Buning uchun IRR firmaga standart sifatida qabul qilingan mablag'larning qoplanish darajasi bilan solishtiriladi. Bunday qo'yilmalar rentabelligining standart darajasi bar'er koeffitsienti HR (ingl. hurdle rate) deb ham ataladi.

- agar  $IRR > HR$  - bo'lsa loyiha ma'qul;
- agar  $IRR < HR$  - bo'lsa loyiha ma'qul emas;
- agar  $IRR \approx HR$  - bo'lsa loyiha har qanday qaror qabul qilish mumkin.

IRR  $> HR$  bo'lgan holatda NPV musbat, investitsiyalar rentabelligi esa birdan yuqori. IRR  $< HR$  bo'lsa, NPV manfiy, PI esa birdan kichik bo'ladi.

SHunday qilib, IRR ma'qul bo'lmagan loyihalarni ajratib oluvchi tur vazifasini o'taydi.

Bundan tashqari bu ko'rsatkich loyiha bo'yicha tavakkal xavfi darajasi indikatorini hisoblanadi. IRR bar'er koeffitsientidan qanchalik katta bo'lsa, loyihaning mustahkamligi zahirasi shuncha katta bo'ladi. Bu esa kelgusidagi pul tushumlarini baholashda yo'l qo'yiladigan xatolar natijasida ko'riladigan zarar xavfi kam bo'lishini ta'minlaydi.

### 5.3. Investitsiya loyihalarini baholashning sodda usublari

Endi investitsiya loyihalarini baholashning sodda (statik) usullarini ko'rib chiqamiz. Bu usulblar diskontlash kontseptsiyasi paydo bo'lmagan oldin ham keng qo'llanilgan bo'lib, ular yordamida, asosan pul kirimlari va chiqimlarini taqqoslash orqali loyihalarning maqsadga muvofiqligi aniqlanadi.

Investitsiyalarning qoplanish davri RR (ingl. Paybak period), bu shunday davrki, bunda dastlabki qilingan investitsiyalar miqdori tiklanadi (19-formula).

$$PP = I_0 / CF^*_t$$

Bunda:  $I_0$  - dastlabki investitsiya miqdori;

$CF^*_t$  - loyihani amalga oshirish natijasida bir yilda tushadigan mablag'. Bunda  $CF^*_t$  darajasidagi summa belgisiga e'tibor berish kerak. Bu belgi  $CF^*_t$  summasini ikki usulda (tomonlama) aniqlash mumkinligini ko'rsatadi. Birinchi usul qachonki, pul tushumlari yil davomida bir xil bo'lsa qo'llaniladi. Aytaylik, biz 600 mln. so'm investitsiya sarf qildik va 8 yil ichida har yili 150 mln. so'mdan daromad olishni kutayapmiz. Unda  $600/150=4$  yil ichida sarflangan investitsiya qoplanadi va qolgan 4 yil davomida investor sof foyda oladi.

Ikkinchi usul investitsiya qilingandan keyin, pul tushumlari bir xil bo'lmasa yoki o'sib boruvchi miqdorni tashkil etsa qo'llaniladi. Masalan, yuqorida keltirilgan misolimizda pul tushumlari yillar bo'yicha bir xil bo'lmasdan ortib borsin:

1-yil	50 mln. so'm,
2-yil	100 mln. so'm,
3-yil	200 mln. so'm,
4-yil	250 mln. so'm,
5-yil	300 mln. so'm.

Bunda 3 yil ichidagi pul tushumlari investitsiya summasidan kam, 4 yil ichidagisi esa ko'p. Bunday holatlarda investitsiyalarni qoplash davrini aniq belgilab olish uchun quyidagi ishlarni bajarish lozim:

- qaysi yillar orasida investitsiya summasi qoplanishini topish zarur.

Bizning misolda 3-4 yillar orasida;

- qoplanmagan summa miqdorini aniqlash kerak, bizning misolda bu  $150 \text{ mln. so'mni } (600 - (100 + 150 + 200))$ ;
- aniqlangan qoplanmagan summani 4-yilgi pul tushumlari miqdoriga bo'lish kerak, ya'ni  $150/300=0,5$ . Ko'rinib turibdiki qoplanmagan summa 4-yilning yarmida qoplanadi. Demak, bunda investitsiyalarni qoplash davri 3,5 yilni tashkil qiladi.

Investitsiyalarning qoplanish muddati ko'rsatkichidan quyidagi shartlar bajarilgandagina foydalanish yaxshi natija berishini e'tiborda tutish kerak:

- 1) bu ko'rsatkich yordamida taqqoslanayotgan barcha loyihalar bir xil hayot davriga ega bo'lishi kerak;
- 2) barcha loyihalar boshlang'ich investitsiyalarning bir martalik sarflanishini ko'zda tutadi;
- 3) mablag' sarflanib bo'lingandan so'ng barcha investorlar loyiha hayot davrining oxirigacha bir xil pul tushumlariga ega bo'ladilar.

Bu ko'rsatkich hisoblab topish osonligi, tushunish uchun soddaligi bilan birga loyihaning tavakkal xavfi darajasi haqida ma'lumot berishi tufayli ham qadrlidir. Investitsiyalarning qoplanish muddati qanchalik katta bo'lsa, dastlabki hisoblangan natijalarga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi shart-sharoitlarning yuzaga kelishi xavfi shuncha yuqori bo'ladi.

SHu bilan birga bu ko'rsatkich jiddiy kamchiliklarga ham ega. YA'ni u ikki muhim holatni inkor qiladi:

- 1) turli muddatlarda pulning qiymati turlicha bo'lishini;
- 2) qoplanish muddati tugagandan so'ng ham pul tushumlarining davom etishini.

SHu sababli ham PP ko'rsatkichini investitsiyalar samaradorligini baholashda asosiy usul sifatida qo'llab bo'lmaydi. SHuni ta'kidlash joizki investitsiyalarning qoplanish muddatini hisoblashdagi ko'rsatilgan birinchi kamchilikni tuzatish mumkin. Bu uchun pul oqimlari diskontlab olinadi, xolos.

Investitsiyalarning buxgalteriya rentabelligi ROI (ingl. return on investment) ko'rsatkichi loyihalarini baholashning ikkinchi sodd (statik) ko'rsatkichi bo'lib, adabiyotlarda investitsiyaga o'rtacha foyda me'yori

(IRR – ingl. average rate of return), hisoblangan foyda me'yori (IRR – ingl. accounting rate of return), deb ham yuritiladi. Bu ko'rsatkich vositasida investitsiyalarga pul tushumlari asosida emas, balki buxgalteriya ko'rsatkichi bo'lgan firma daromadi miqdoriga asoslanib, baho beriladi.

Ko'rsatkichning nomidan xulosa qilish mumkinki, u buxgalteriya hisoboti bo'yicha firma daromadi o'rtacha miqdorini investitsiyalarning o'rtacha miqdoriga nisbatini ifodalaydi.

Bu ko'rsatkich quyidagi formula yordamida aniqlanadi(20-formula):

$$ROI = EBIT(1 - T) / [(C.y.b. - C.y.o.):2]$$

Bu erda: EBIT (ingl. earnings before interest and tax) - firmaning foiz va soliqlar to'lovlarini amalga oshirgunga qadar (yoki soliq to'lovlaridan keyingi, lekin foiz to'lovlarigacha) bo'lgan foydasi miqdori;

T - soliq stavkasi (koeffitsientda beriladi);

C.y.b., C.y.o. - aktivlarning yil boshidagi va yil oxiridagi qiymati. Bu ikkala miqdor o'rtasidagi farq investitsiya xarajatlari hajmini ko'rsatadi.

ROI ko'rsatkichining qo'llanishi uning hisoblangan darajasini tashkilot uchun standart bo'lgan rentabellik darajalari bilan solishtirishga asoslangan. Agar bu ko'rsatkich tashkilot tomonidan standart deb qabul qilingan ko'rsatkichdan katta bo'lsa, loyiha ma'qul deb hisoblanadi. Bu ko'rsatkich hozirgacha dunyoning ko'pchilik mamlakatlarida keng qo'llanib kelinishiga quyidagilar sabab:

Birichidan, uni hisoblash oson va diskontlash kabi murakkab hisob-kitoblarni talab etmaydi. SHu bilan birga ayrim shart-sharoitlar mavjud bo'lsa, hisoblangan ROI miqdori IRR miqdoriga juda yaqin bo'ladi. Bu shart-sharoitlar quyidagilardir:

- agar investitsiyalar perpetuitet ko'rinishida yillik pul tushumlarining teng miqdordagi summolari sifatida amalga oshirilsa;
- to'plangan amortizatsiya qo'shimcha mablag'larsiz eskirgan uskunalarni yangilash uchun etarli bo'lsa;
- investitsiyalarni amalga oshirish davrida aylanma kapital miqdorida o'zgarish ro'y bermasa.

Loyihalarni baholashning statik usullari loyiha bo'yicha qo'shimcha ma'lumotlar olish imkonini berishi bilan qadrlidir.

Ikkinchidan, aksiyadorlik kompaniyalarida bu ko'rsatkich menejerlarni investitsiyalashning aksiyadorlarni eng ko'p qiziqtiradigan buxgalteriya rentabelligi ko'rsatkichi bilan bog'liq bo'lgan variantlariga yo'naltiradi.

ROI ko'rsatkichi kamchiliklari uning afzalliklari aksini tashkil etadi. YA'ni bu ko'rsatkich vositasida investitsiya loyihalari taqqoslanganda:

- pulning turli vaqtlarda qiymati bir xil bo'lmasligi e'tiborga olinmaydi;

- loyihalar turlicha muddat xizmat qilishi inkor qilinadi, ya'ni bir xil rentabellikka ega ikki loyihadan biri 5 yil, ikkinchisi 10 yil daromad olishini ta'minlashi bu ko'rsatkichda aks etmaydi.

SHuningdek, investitsiyalarning buxgalteriya rentabelligi firma boyligining real o'zgarishini xarakterlamasdan, aksiyadorlar va «Chetdagi» boshqa shaxslarning talablariga mos natija olishga qaratilgan

Ko'rib chiqilgan investitsiya loyihalarini baholashning barcha usullarini birgalikda qo'llashgina loyihalarning samarali yoki samarasiz ekanligi to'g'risida aniq xulosa olish imkonin beradi.

### **Qisqacha xulosalar**

Pul oqimlarining xozirga davrdagi bir birlik oqimi kelgusidagi xar qanday bir birlik oqimidan qiymati kattadir.

Investihiya loyihalari samaradorligini baholash uslublari deganda xarajatlarning foydaliligi va qoplanishi nuqtai nazaridan turli ob'ektlarga (loyihalarga, tadbirlarga) investitsiya qilishning maqsadga muvofiqligini aniqlash usullari tushuniladi.

Investitsiyalar samaradorligini aniqlashda, ularning ayrim jihatlarinigina xarakterlaydigan alohida ko'rsatkichlardan foydalanish etarli bo'lmaydi. SHu sababli investitsiya loyihalari samaradorligini baholash uchun bir necha uslublar va ko'rsatkichlar tizimidan foydalaniladi. Investitsiyalar samaradorligini baholashning diskontlashga asoslangan uslublariga sof keltirilgan qiymat, investitsiyalar rentabelligi va ichki foyda me'yorini hisoblash uslublari kiradi. Sof joriy qiymat ko'rsatkichi loyiha amalga oshirilishi natijasida firma boyligi qanchaga



ko'payganini xarakterlaydi.

Investitsiya rentabelligi qilingan har bir so'm investitsiyaga qanday darajada foyda olinganligi yoki investor boyligi qanchaga ko'payganini ifodalaydigan ko'rsatkichdir IRR loyiha bo'yicha investitsiyalardan olingan sof tushumlarning diskontlangan qiymatini investitsiyalarning diskontlangan qiymatiga teng bo'lishini ta'minlovchi koeffitsientdir. IRR - diskont koeffitsientining shunday miqdoriki, bunda NPV 0 ga teng bo'ladi.

Loyiha investitsiyalarini baholashning sodda (statik) uslublariga investitsiyalarning qoplanish davri va buxgalteriya rentabelligini hisoblash usublari kiradi. Loyihalarni baholashning statik usublari loyiha bo'yicha qo'shimcha ma'lumotlar olish imkonini beradi. Investitsiya loyihalarini moliyaviy-iqtisodiy baholashning barcha usublari o'ziga xos afzalliklar hamda kamchiliklarga ega. SHu tufayli ularni birgallikda qo'llabgina investitsiya loyihalarini kompleks baholashimiz mumkin.

### Nazorat va muhokama uchun savollar

1. Sof joriy qiymat «uzoq muddatli xarajatlar va uzoq muddatli pul tushumlari» holatida qanday aniqlanadi?

2. Investitsiyalarning rentabelligi ko'rsatkichi bo'yicha loyihalarning maqbulligi qanday mezonlarga ko'ra aniqlanadi?

3. Ichki foyda me'yori ko'rsatkichining mohiyati nimada?

4. Diskontlashga asoslangan uslublar bo'yicha investitsiyalar samaradorligini aniqlash mezonlarini sanab o'ting.

5. Buxgalteriya rentabelligi ko'rsatkichi investitsiyalar rentabelligi ko'rsatkichidan nima bilan farq qiladi?

6. Investitsiyalarni baholashning statik usublari kamchiligi va afzalliklari nimada?

7.  $NPV = \sum_{t=1}^n \frac{CF_t}{(1+k)^t} - \sum_{t=1}^n \frac{I_t}{(1+k)^t}$  bu formula nimani anglatadi?

8.  $PI = \left[ \sum_{t=1}^n \frac{CF_t}{(1+k)^t} \right] / I_0$  bu formula nimani anglatadi?

9.  $PI = \frac{\sum_{t=1}^n \frac{CF_t}{(1+k)^t}}{\sum_{t=1}^n \frac{I_t}{(1+k)^t}}$  bu formula nimani anglatadi?

10. 
$$0 = \sum_{t=1}^n \frac{C_t}{(1+k)^t} - I_0$$
 bu formula nimani anglatadi?

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. А.Э. Ишмухамедов, М.С.Қосимов, З.А. Джумаев, Г.Я.Мухамеджанова. Лойиха тахлили. Т: ТДИУ. 2006.-91-107 б.
- 2.Игонина Л.Л. «Инвестиции».Учебник. 2-е издание, М: Магистр 2008.-145-267 стр.
- 3.Колмыкова Т.С. «Инвестиционный анализ»Учебное пособие М: ИНФРА-М -2009.-178-230 стр. Учебники экономического факультета МГУ им. Ломоносова.
- 4.Есипов В.Е. и др. Коммерческая оценка инвестиций. Учебное пособие. КНОРУС М: 2009. -145-450 стр.
5. В.В. Инвестиции.Учебник для ВУЗов. Питер 2009. -156-238 стр.

## **VI-BOB.RAQOBATLASHUVCHI INVESTITSIYA LOYIHALARINI BAHOLASH**

### **6.1.Raqobatlashuvchi investitsiyalar haqida tushuncha**

Investitsiyalar maqbulligini asoslashda qo'llaniladigan ko'rsatkichlar bizni ziddiyatli xulosalarga olib keladi.Barcha mezonlarga ko'ra investitsiyalarning yuqori daromadli bo'lishi kamdan-kam uchraydigan holdir. Buning ustiga bitta investitsiya loyihasi o'zi bir ko'rsatkich (masalan -IRR) bo'yicha o'zaro farq qiluvchi bir necha miqdorlarga ega bo'lishi mumkin. SHu sabab bu mavzuda tahliliy ma'lumotlar ziddiyatli bo'lgan holatlarda (ayniqsa raqobatlashuvchi investitsiyalar sharoitida) qanday qilib investitsion qarorlar qabul qilish to'g'risida fikr yuritamiz.

Investitsiya Loyihalari o'rtasida raqobat ikki sababga ko'ra yuzaga keladi:

Birinchidan, noiqtisodiy harakterdagi sabablarga ko'ra ikki loyiha bir-birini inkor etadi. Masalan: Transport kompaniyasi ma'lum miqdorda yuk tashish uchun 10 yoki 8 tonnali yuk tashish mashinalarini sotib olishi mumkin. Agar yuk tashish uchun etarli miqdorda 10 tonnali yuk mashinalarini sotib olinsa, 8 tonnali yuk mashinalari kompaniya uchun kerak bo'lmay qoladi. Garchand, 8 tonnali yuk mashinalarini sotib olish uchun etarli mablag' bo'lsa xam, kompaniya ularni sotib olmaydi.

Ikkinchidan, byudjetning cheklanganligi sababli ham investitsiyalar o'zaro raqobatlashuvchi bo'lishi mumkin. Masalan: Firma ixtiyorida NPV darajasi yuqori bo'lgan bir necha Loyihalar mavjud bo'lsa-yu, uning mablag'i faqat bir Loyihani moliyalashtirishga etsa. Harajatlarni oqilona sarflash kerak. SHunda, firma ixtiyoridagi shu bir necha loyihalar o'zaro raqobatlashuvchi bo'ladi.

### **6.2.Muqobil investitsiyalar**

Investitsiyalar bitta natijaga erishishning bir nechta muqobil variantlari mavjud bo'lgan holda yoki qandaydir cheklangan resursning (pul mablag'laridan tashqari) bitta manbasini ishlatganlarida o'zaro inkor

etuvchi yoki muqobil bo'lishi mumkin. Masalan: «Uzsanoatqurilishbank» o'z filiallarining komp'yuter texnikasi bilan ta'minlash vazifasini hal etayotganida, unga turli firmalar o'zaro muqobil bo'lgan bir nechta investitsiya loyihalarini taklif qilishgan. Toshkent univermagi uchun uning binosini turli firmalarga ijaraga berish to'g'risidagi taklif ham o'zaro inkor qiluvchi loyihalarga misol bo'ladi. Resurslar cheklanganligi bilan bog'liq ko'pgina iqtisodiy masalalar singari muqobil investitsiya loyihalaridan birini tanlash muammosi ham cheklangan vaqt davomida ro'y beradi, ya'ni shu vaqt davomida resurslarning etishmovchiligi muammosini ham xal etish kerak. Masalan: ishlab chiqarish korxonasi oldida yoki bir tsexdagi uskunalarni yangilash eki yangi tsex qurish loyihalaridan birini tanlash muammosi shu davr ichida birdaniga ikki loyihani moliyalashtirish imkoniyati yuqligi tufayli yuzaga keladi. Quyidagi misolda muqobil investitsiyalardan birini tanlash jarayonida ro'y beradigan muammolarni ko'rib chiqamiz.

Ayaylik yangi qurilgan mikrarayonda uy-joylarni issiq suv bilan ta'minlash uchun isitish qozonini qurish kerak. Buning uchun ko'mir, gaz, mazut kabi uch xil turdagi yoqilg'i ishlatilishi mumkin. Mutaxassislar energiya ta'minotining uch varianti bo'yicha quyidagi tahliliy jadvalni tuzishdi. (Tahlil oson bo'lishi uchun barcha variantni ham amal qilish muddati 4 yil deb olindi).

Inves- titsi turi	Yillik pul tushumlari					NPV mln.sum	PI	IRR %
	Yillar							
	0	1	2	3	4			
Ko'mir	(1000)	750	500	0	0	95,04	1,095	18
Gaz	(1000)	350	350	350	350	109,45	1,109	15
Mazut	(500)	180	180	180	180	70,58	1,141	16

Ko'mir varianti samaradorligining pastligi tufayli unga moslab qurilgan qozonxona uchinchi yildan boshlab pul tushumini ta'minlamaydi.

SHu bilan birga diskont koeffitsienti 10% ga teng bo'lganda, bu variant mazut sxemasiga nisbatan yukori NPV ga ega. Demak, turli ko'rsatkichlar bo'yicha turli Loyihalar samaralidek tuyuladi. Loyiha tahlilida bunday muammolar ikki sababga ko'ra yuzaga keladi:

1. Kelgusi pul tushumlarining grafiklaridagi farq.
2. Talab etilgan investitsiya summalaridagi farq.

Jadvalda IRR ko'rsatkichiga ko'ra ko'mir varianti gaznikidan ustun, ammo ko'mir variantida dastlabki yillarda pul tushumlari katta bo'lgan va mutlaqo to'xtagan. Boshqacha aytganda, kattaroq ichki foyda normasi ko'mir Loyihasida gaz Loyihasiga nisbatan qisqarok davrda ta'minlanadi. Boshqa tomondan qaraganda mazut sxemasi bir so'mlik investitsiyaga eng ko'p foyda keltiradi. Bu erda NPV ning kichikligi dastlabki investitsiya miqdorining kamligi bilan izohlanadi.

### **6.3. Investitsiya loyihalarining amal qilish muddatlaridagi farqlar**

Investitsiya loyihalari samaradorligini baholashda diskontlash stavkasini tanlashdan tashkari Loyihalarni amal qilish muddati xam ta'sir ko'rsatadi. Masalan: transport firmasi ishlatilgan va yana uch-turt yil xizmat qilishi mumkin bo'lgan yoki 8-10 yil xizmat qiladigan yangi avtomobillarni sotib olishi mumkin. Bunday holatda ikki Loyihani qanday taqqoslaymiz? Buni tushunish uchun ikkinchi savolda keltirilgan birinchi jadvalga qaytamiz. Jadvalga ko'ra ko'mir varianti tanlanganda ikki yildan so'ng pul tushumlari to'xtaydi. Shunga ko'ra, hisob-kitobda ikki yildan so'ng yana shunday investitsiya qilish mumkin degan shartni qo'yamiz. YA'ni, ming so'mga yangi qozon sotib olish mumkin deb faraz qilamiz. Bunday shartni qabul qilish ko'mir va gazga tegishli NPVni maksimallashtirish imkoniyatlarini solishtirishga sharoit yaratadi. (NPV juda kichik bo'lgani uchun mazut variantini ko'rib chiqmaymiz) SHu bilan birga, to'rt yildan so'ng mikrarayon markazlashgan isitish tizimiga ulanadi. Qozonxonalarning yopilish ehtimoli bor. Uning qoldik qiymati nol'ga tenglashadi. Bunday shartlar bizni quyidagi jadvaldagi natijalarga olib keladi.

## Investitsiyalash natijalari.

Investitsiyalash variantlari va ko'rsatkichlari	Yillar				
	0	1	2	3	4
Ko'mir:					
1-investitsiyalash	-1000	750	500	-	-
2-investitsiyalash	-	-	-1000	750	500
$\Sigma$ investitsiyalash	-1000	750	-500	750	500
Jami	173,59				
Gazga investitsiyalash	-1000	350	350	350	350
Jami	109,45				

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, ikki marta investitsiyalashga qaramasdan ko'mir varianti gaz variantidan ko'prok NPVni ta'minlaydi. Albatta bunday natija biz qabul qilgan bir qancha shartlarni ya'ni amortizatsiya sxemasi, asosiy vositalarning qoldiq qiymati va investitsiyalash natijasida yaratilgan ob'ektlarni boshqa sub'ektlarga sotish imkoniyatlariga bog'liq. CHunki har kanday investitsiya loyihalarini tahlil qiluvchi mutaxassis tanlangan mezon bo'yicha loyixalarni baholayotganda hisob-kitob asosiga qo'yilgan shartlarni to'g'ri belgilash kerak. SHu sababli tahlil qilinayotgan loyihalarni to'g'ri tafsiflash uchun asosiy e'tiborni hisob-kitoblarni aniq qilish, buning uchun esa murakkabroq usullarni qo'llashdan ko'ra, bu hisob-kitoblarning dastlabki shartlarini to'g'ri baholashga e'tiborni qaratish lozim. SHunda oddiroq hisob-kitob usuli ham olingan natijalarning ishonchligi yuqoriroq bo'lishini ta'minlaydi. Ayni paytda hisob-kitoblarni soddalashtirishga tez-tez zarurat tug'iladi. Masalan: investitsiya resurslari cheksiz qayta investitsiyalangan sharoitda Loyihalarini NPVga ko'ra tafsiflash sharoitida bunday zarurat yuzaga keladi. Buni tushunish uchun transport firmasi bo'yicha misolga qaytamiz. Ma'lumki, firma to'rt yil xizmat qiladigan yoki to'qqiz yil xizmat qiladigan yangi avtomobillarni sotib olishi mumkin. NPVga ko'ra Loyihalarni oddiy tanlab olish maqsadga muvofiq emas. CHunki,

Loyihalarning amal qilish muddati turlicha (to'rt yildan so'ng firma eski mashinalarni hisobdan chiqarib, boshqalarini sotib oladi deb ko'zda tutilgan). Buning ustiga bu muddatlar karrali emas. SHu sabab hisob-kitoblarni taqqoslashni ta'minlash uchun bu ikki Loyihani bir xil xizmat davrga keltirib olishimiz kerak. CHunki, aynan shu muddat investitsiyalangan aktivlar ikki Loyiha bo'yicha teng xizmat muddatini o'tab bo'ladi. Ko'rinib turibdiki, bu hisob-kitoblar uzoqqa cho'ziladi. SHu sabab, bu muammoni echish uchun soddalashtirishning qulay vositasi ekvivalentli annuitetdan foydalanish kerak. Bu usul ba'zida NPVni yillik hisoblash deb ham aytiladi.(21-formula):

$$EA=ANPV$$

ANPV ( inglizcha- annualized net present value)

Bunday soddalashtirishda taqqoslanayotgan loyihalarda kalislik darajasi bir xil bo'lgandagina yul kuyiladi.

EA ni topish usuli NPVni hisoblash usuliga muvofiq emas. U NPVni maksimallashtirish investitsiya loyihasi tanlashni osonlashtiradi xolos.

Ekvivalent annuitet – darajali, ya'ni unifikatsiya qilingan annuitet bo'lib, baholanayotgan loyiha bilan bir xil davomiylikka va bu loyihadagi NPV bilan bir xil joriy qiymatga ega. Bunday annuitetni hisoblash formulasi quyidagi ko'rinishga ega: ( 22-formula):

$$EA =NPV / PVA_{1n,k}$$

Bu formulada PMT – EA, PVA – NPV , bilan almashtirilgan.

Ekvivalent annuitetdan foydalanish mantiqi shundaki, bunday annuitetlarni o'zaro taqqoslanayotgan loyihalar bo'yicha hisoblaganda, agar Loyihalarda amal qilish muddatlari bir vaqtda tugagunga qadar qayta moliyalash ko'zda tutilgan bo'lsa, eng katta EA ga teng raqobatlashuvchi investitsiya Loyihasi barcha pul tushumlari bo'yicha eng yirik NPV ni ta'minlaydi.

Isitish bilan bog'liq misolimizga qaytsak. Loyihadagi ko'mir va gaz variantlarini, ko'mir texnologiyalarini ikki marta investitsilashni ko'zda tutuvchi sun'iy usul bilan emas, balki har ikki variantdagi ekvivalent annuitetlar asosida taqqoslaymiz. Buning uchun diskont stavkasini 10% deb olamiz va uning yordamida har bir variant realizatsiya jarayoni uchun

hisob-kitoblar olib boramiz (xizmat qilish muddati ko'mir uchun - 2 yil, gaz uchun - 4 yil). Bunda quyidagi natijalarga erishamiz.

$$E_{\text{Ko'mir}} = 95,04 / PVA_{12,10\%} = 95,04 / 1,7355 = 54,76$$

$$E_{\text{Gaz}} = 109,45 / PVA_{14,10\%} = 109,45 / 3,1699 = 34,53$$

Misoldan ko'rinib turibdiki, ko'mir va gaz variantlari bu erda xam maqsadga muvofiq. qisqa hisob-kitoblar bilan hisoblaganda EA qayta investitsiyalashni ko'zda tutuvchi murakkab hisob-kitob natijasida olingan natija bilan bir xil.

Ekvivalent annitet bo'yicha investitsiya loyihalarini baholashda quyidagi shart-sharoitlar mavjud bo'lishi kerak, aks holda undan foydalanish maqsadga muvofiq emas:

1. Investitsiyalash barcha loyihalarda asosiy vositalar xizmat qilish muddati bir vaqtda tugaguncha davom etadi;
2. Hech bo'lmaganda bitta investitsiya loyihasi korxonaga faoliyatini ta'minlash doirasida cheksiz qayta investitsiyalashni ko'zda tutadi.

#### **6.4.Xarajatlarga ko'ra samaradorlikni baholash usuli**

Amaliyotda pul tushumlarini ta'minlamaydigan loyihalarni baholashga duch kelishimiz mumkin. Masalan, xizmat binosini yoritish uchun kunduzgi yoritish lampalaridan yoki boshqa turdagi yoritish vositalaridan birini tanlash vazifasi turganda shunday holat yuzaga keladi. Bunda firma ma'lum bir vaqt davomida kam xarajat talab etadigan yoritish Loyihasini tanlaydi.

Agar biz turli xizmat davrlariga ega loyihalarga duch kelsak, hamda baholanayotgan faoliyatni davom ettirish uchun qayta moliyalash ko'zda tutilsa, yuqorida ko'rib chiqilgan ekvivalent annitetni aniqlash usulidan foydalaniladi. Bunda ekvivalent annitet – EAS-yillik ekvivalent xarajatlar deb ataladi.

Misol. Aytaylik tuman hokimiyati suv yoki elektr bilan isitish tizimini kiritish masalasini echishi kerak. Bunda diskontlash stavkasi 10% deb olinadi. Suv bilan isitish 5 yil va bu tizimni yaratish hamda ta'minlab turish uchun 100 mln.sum xarajat qilish kerak. Elektr isitish tizimi uchun



bu ko'rsatkichlar mos holda 7 yil va 120 mln so'mni tashkil etadi. Bularni bir xil davrga keltirib, ya'ni suv tizimini 7 marta, elektr tizimini 5 marta kayta loyihalashni ko'zda tutib, murakkab hisob kitoblarni amalga oshiramiz. Bu hisob-kitoblar quyidagi jadvalda keltirilgan: Ko'rinib turibdiki, elektr isitish tizimi yillik kam xarajatni talab etadi. SHuning uchun tuman hokimiyati uchun shu loyihani tanlash maqsadga muvofiqdir.

6.4.1-jadval.

Ekvivalent yillik xarajatlar hisob-kitobi

Isitish tizimi	Amal qilish muddati, yil	Xarajatlarning joriy qiymati, mln.sum	Ekvivalent yillik xarajatlar, mln Sum
Suv	5	100	$100/3,791=26,38$
Elektr	7	120	$120/4,868=24,65$

Ma'lumki, yuqori ko'rib o'tilgan, ma'qul investitsiya variantini tanlab olish usuli buyudjet va daromad keltirmaydigan tashkilotlar uchun ahamiyatga ega. Lekin, cheklangan investitsiya resurslaridan ratsional foydalanish masalasi xam juda muhimdir.

### 6.5.Uskunalarni ta'mirlash yoki almashtirish haqidagi qarorlarni asoslash

Bir-birini siqib chiqaradigan investitsiya loyihalaridan birini tanlashdagi muhim holat, mavjud asbob-uskunani remont qilish kerakmi yoki uni yangilash kerakmi degan savolga javob topishdir. Agar firma asbob-uskunalarni remont qilsa bu yangi sotib olishdan ko'ra kam pul chiqimini ta'minlaydi, lekin shuni unutmaslik kerakki, eski asbob-uskunalarning yaroqlilik muddati yangilarinikidan kam bo'ladi. Bunday holda avvalambor remont qilishga mo'ljallangan asbob-uskunalar qanaqa xarajatlarni talab qilishini aniqlab olish kerak. Bu xarajatlarga remont sarflari bilan birga eski uskunalarni sotishdan kelishi mumkin bo'lgan boy berilgan foyda, ya'ni likvidatsiya qiymati xam kiritiladi. Tahlilni ekvivalent annuitet yoki yillik ekvivalent xarajatlarni taqqoslash asosida olib borish mumkin.

Misol. Faraz qilaylik, sizda eski «Jiguli» avtomobili mavjud. Siz uni 5 mln. soʻmga sotib yuborib, 10 mln. soʻmga 10 yil xizmat qiladigan va jiddiy remont talab qilmaydigan yangi avtomobil sotib olishingiz mumkin. YOki oʻsha eski avtomobilni 2 mln. soʻmga kapital remont qilib, 5 yil foydalanishingiz mumkin. Har ikki holda ham foydalanilgan avtomobilni metallalomga topshirishingizga toʻgʻri keladi (bunda likvidatsiya qiymati 0 ga teng boʻladi).

YUqoridagilardan kelib chikib, eski avtomobildan foydalanish bilan bogʻliq variantning qiymati – 7 mln.sum, yaʼni boy berilgan foyda – 5 mln.sum, remont xarajatlari – 2 mln sum. Diskontlash koeffitsientini 10% deb olsak, quyidagi yoʻl bilan remont qilinadigan avtomobilning 5 yillik xizmat qilish muddati uchun yillik ekvivalent xarajatlarini hisoblashimiz mumkin:

$$EA=7,0/3,791=1,847 \text{ mln.sum}$$

YAngi avtomobil uchun mos koʻrsatkich:

$$EA=10/6,145=1,627 \text{ mln.sum}$$

Bu holda, bizning tahlil pul tushumlariga emas, balki qilingan xarajatlarga asoslangan. SHu tufayli, biz uchun eng qulay investitsiya Loyiha bu eng kam yillik ekvivalent xarajatni taʼminlaydigan variantdir. Koʻrinib turibdiki, yuqoridagi misolda yangi avtomobil sotib olish, eskisini taʼmirlashdan maʼqulrokdir.

SHu yul bilan investitsiyalashtirishda variantlarning koʻpligiga qaramasdan NPV dan foydalanish - analitik va investorlar uchun loyihalarning maʼqulini tanlash uchun ishonchli asos yaratadi. Xattoki, firmaga katta daromad keltiradigan, lekin bir-birini siqib chiqaradigan variantlardan birini tanlab olishda ham bu koʻrsatkich muhim ahamiyatga ega. Toʻgʻri, bularning barchasi agar firma byudjet tanqisligiga uchragan va shuning uchun investitsiya loyihalarini investitsiyalarni cheklash sharoitlarida tanlashi kerak boʻlmagan holdagina amal qiladi.

## Qisqacha xulosalar

Investitsiya loyihalarini samrali variantini tanlash amaliyotda ko'plab ziddiyatli xulosalarga olib keladi. Maqbul variantni tanlash va xisob kitoblarni soddalashtirish uchun ekvivalentli annuitetlardan foydalaniladi.

Investitsiyalar maqbulligini asoslashda qo'llaniladigan ko'rsatkichlar bizni ziddiyatli xulosalarga olib keladi. Barcha mezonlarga ko'ra investitsiyalarning yuqori daromadli bo'lishi kamdan-kam uchraydigan holdir. Buning ustiga bitta investitsiya loyiha uchun o'zi bir ko'rsatkich (masalan: ARR) bo'yicha o'zaro farq qiluvchi bir necha miqdorlarga ega bo'lishi mumkin. SHu sabab bu mavzuda tahliliy ma'lumotlar ziddiyatli bo'lgan holatlarda (ayniqsa raqobatlashuvchi investitsiyalar sharoitida) qanday qilib, investitsion qarorlar qabul qilish to'g'risida fikr yuritimiz. Investitsiyalar bitta natijaga erishishning bir nechta muqobil variantlari mavjud bo'lgan holda yoki qandaydir cheklangan resursning (pul mablag'laridan tashkari) bitta manbasini ishlatganlarida o'zaro inkor etuvchi yoki muqobil bo'lishi mumkin. Masalan: «Uzsanoatkurilishbank» uz filiallarining komp'yuter texnikasi bilan ta'minlash vazifasini hal etayotganida, unga turli firmalar o'zaro muqobil bo'lgan bir nechta investitsiya loyihalarini taklif qilishgan. Amaliyotda pul tushumlarini ta'minlamaydigan loyihalarni baholashga duch kelishimiz mumkin. Masalan, xizmat binosini yoritish uchun kunduzgi yoritish lampalaridan yoki boshqa turdagi yoritish vositalaridan birini tanlash vazifasi turganda shunday xolat yuzaga keladi. Bunda firma ma'lum bir vakt davomida kam xarajat talab etadigan yoritish loyihasini tanlaydi. Loyiha uchun belgilari va ta'riflar tahlili asosida loyiha uchun quyidagi ta'rif berilgan. Bu esa barcha asosiy belgilarni qoniqtiradi va keltirilgan ta'riflarning hech biriga zid kelmaydi: "Loyiha – bu alohida tizimning vaqt bilan chegaralangan, maqsadga yo'naltirilgan o'zgarishi bo'lib, u kapital va resurslar hamda maxsus tashkilotlar harajatlarining taxminiy doirasida belgilangan talablar bilan natijalarning sifatiga qaratilgandir".

## **Nazorat va muhokama uchun savollar**

1. Iqtisodiy sabablarga ko'ra loyixalarning raqobatlashtiruvchi bo'lib qolish sababini tushuntiring:

2. Qanday noiqtisodiy sabablarga ko'ra loyihalar raqobatlashtiruvchi bo'lib qoladi?

3. Muqobil investitsiyalar deganda nimani tushunasiz?

4. Raqobatlashuvchi loyixalarni tahlil qilishda ularning xizmat muddati turlicha bo'lishi muammosi qanday echiladi?

5. Xizmat muddati turlicha bo'lgan loyihalarda tahliliy ko'rsatkichlar turlicha xulosa berishga sabab nima?

6. Ekvivalent annuitet ko'rsatkichiga izoh bering:

7. Qaysi sabablar tufayli loyihalarni baholashda xarajatlarga ko'ra samaradorlikni baholash usulidan foydalaniladi?

8. Uskunalarni almashtirish yoki yangilash to'g'risida qaror qabul qilishda qaysi mezonlarga asoslaniladi?

## **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. А.Э. Ишмухамедов, М.С.Қосимов, З.А. Джумаев, Г.Я.Мухамеджанова. Лойиха таҳлили. Т: ТДИУ. 2006.-91-107 б.

2. Инвестиции. Учебник. А.Ю. Андрианов, С.В. Валдайцев, П.В. Воробьев и др. \ от ред В.В. Ковалев, В.В. Иванов, В.А. Лялин.-2-е издание, переработано и доп –М: Т.К. Велби. Изд-во Проспект. 2008.-432-584

3. Балдин К.В. Инвестиции и инновации. Учебное пособие. \ К.В. Балдин, И.И. Передеряев и др.-2- изд- М: Издательское –торговая корпорация «Дашков и К», 2010. -213-238 с.

4. Николаев М.А. Инвестиционная деятельность: Учебное пособие \ М.А. Николаев-Финансы и статистика, ИНФРА. М-2009.-256-336 стр.

5. Тюрина А.В. Инвестиции. Практикум. Учебное пособие. \ А.В. Тюрина-М: КНОРУС. 2010.- 189-208 стр

## **VII-BOB. TEXNIK TAHLIL**

### **7.1. Loyihalarni texnik tahlil qilishning vazifalari va tarkibi**

Texnik tahlil asosiy texnik - iqtisodiy ko'rsatkichlar yordamida amalga oshiriladi. Jumladan ishlab chiqarish xarajatlari, mahsulotni sifati, mahalliy xom ashyoda mahsulot chiqarish, yangidan ishlab chiqirilgan mahsulot va uning eksport salohiyati kabi savollar va ko'rsatkichlar o'rganiladi.

Loyihaning marketing nuqtai nazardan ijobiy xulosasi olingach, uning texnik tahlili amalga oshiriladi. Texnik tahlilda loyiha texnologiyasini ishlab chiqaruvchilardan shu loyihani amalga oshirish uchun zarur bo'lgan tender xujjatlari/tijorat taklifi olinadi. Tijorat taklifi loyiha texnologiyasining har bir mashina va asbob-uskunasi, ularning bahosi, texnik spetsifikatsiyasi, texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Loyihani amalga oshirishda eng samarali bo'lgan texnologiya tanlanadi. Agar loyiha Chet el valyutasi hisobiga texnologiya bilan ta'minlanadigan bo'lsa, unda xalqaro ko'lamda shu texnologiyani ishlab chiqaruvchilar o'rtasida tanlov e'lon qilinadi. Mutaxassislar tilida bunday tanlov tender deb ataladi.

Investitsiya loyihalarini texnik tahlil qilishning vazifasi loyiha maqsadi nuqtai nazaridan eng qulay bo'lgan texnologiyalar, loyihadan manfaat ko'rishi mumkin bo'lgan aholi kontingenti, mahalliy sharoitlar, kapital, xom ashyo va ishchi kuchidan foydalanish imkoniyatlari va ularning bahosi, bozor hajmi, shuningdek, loyihani rejalashtirish hamda amalga oshirishning mavjud va potentsial imkoniyatlarini aniqlash hisoblanadi.

Investitsiya loyihalari ustida ishlash jarayonida texnik tahlil birinchi navbatda o'tkaziladi.

Texnik tahlilga quyidagilarni ko'rib chiqish va belgilash kiradi:

- 1) Texnik va texnologik jihatdan muqobil variantlar.
- 2) Loyihani joylashtirish o'rnini bo'yicha muqobil variantlar.
- 3) Loyiha hajmi.

- 4) Loyihani amalga oshirish muddatlari.
- 5) Xom ashyo, ishchi kuchi va boshqa resurslardan foydalanish imkoniyatlari va ularning etarligini.
- 6) Loyiha mahsuloti uchun bozor sig'imi (hajmi).
- 7) Ko'zda tutilmagan omillarni hisobga olgan holda loyiha xarajatlari.

## **7.2. Loyihalarni ishlab chiqishning texnik muammolari.**

### **Mulk shakli. Loyiha ko'lami**

Turli loyihalarda uchraydigan texnik muammolar o'ziga xos bo'ladi. Ammo ayrim muammolar (barcha loyihalarga bo'lmasada) ko'pchilik loyihalarga xos bo'ladi va ularni identifikatsiya qilish mumkin. Bu muammolar quyidagi kategoriyalarga bo'linadilar: mulk shakli; loyiha ko'lami; amalga oshirish muddatlari hamda texnologiyalarni tanlash va to'plash.

Loyihaning texnik rejasi, ekspluatatsiyasi va menejmenti loyihani kim amalga oshirishiga bog'liq. Qaysi loyihalarni davlat sektori, qaysisini esa xususiy sektor amalga oshirishi kerakligini aniqlash hozirda ancha muammo. Chunki xususiy investorlar infratuzilmalar va kommunal xizmat singari an'anaviy davlat sektorlariga ham kirib borishayapti. Loyiha qaysi sohaga (tarmoqqa) tegishli ekanligi ham mulk shaklini tanlashda muhim rol o'ynaydi. Mulk shakli masalasi shu bilan birga loyihaning qanday texnik rejasi tanlanishini belgilab beradi.

Masalan, bir hududni elektr energiyasi bilan ta'minlash loyihasi davlat sektorida bajarilishi tanlansa, u holda yirikroq elektrostantsiya qurilishi tanlanadi. Xususiy sektorda esa bir necha kichik, o'zaro raqobat qiluvchi elektrostantsiyalar qurilishi tanlanishi mumkin. Yirik elektrostantsiya qurish qarori bunday investitsiyalarda tavakkalchilik darajasi yuqori bo'lgani uchun xususiy investorlar ishtirokini inkor etadi. SHu sababli xususiy investorlarni loyiha ustida ishlashga jalb qilish qarori qanday texnologiyalar tanlanishini belgilab beradi hamda texnologiyalarni oldindan tanlash loyiha davlat sektoridagina bajarilishi mumkin, degan xulosaga olib kelishi mumkin.

Loyiha ko'lamini va masshtabi deyarli har doim loyihani ishlab chiqish jarayonida aniqlanadigan o'zgaruvchan miqdorlar bo'lib kelgan. Qishloq xo'jaligi yoki sanoat ishlab chiqarish loyihalari ko'lamini loyiha mahsulotiga bo'lgan talabga ko'ra belgilanadi. Boshqa hollarda loyiha ko'lamini avvalo uni amalga oshiruvchi muassasalarning yoki ishlab chiqaruvchilarning imkoniyatlariga bog'liq bo'ladi. Ayrim loyihalar ko'lamini foydalanish mo'ljallanayotgan hududiy va tabiiy resurslarning cheklanganligi bilan belgilanadi. Lekin har qanday sharoitda ham rejalashtiruvchi idoralarning mavjud sharoitni hisobga olmasdan katta ko'lamlarni afzal ko'rishlarini cheklash kerak. Tajribadan o'tgan texnologik echimlar yo'q bo'lsa, bosqichma-bosqich yondashuvni tanlashga majbur bo'linadi. Bunday yondashuv tadqiqotlar va adaptatsiya ishlaridan boshlanadi. SHundan so'ng loyihaning tajriba varianti yaratiladi va u to'plangan tajriba bilan to'ldira borilib, to'liq loyihaga keltiriladi. Moliyaviy jihatlar, masalan, loyiha amalga oshirilgandan so'ng uni ekspluatatsiya qilishga xarajatlar qilish zarurati ham loyiha ko'lamini belgilashi mumkin.

Loyiha ko'lamini masalasiga tahliliy yondashish ham mumkin. Oddiy qilib aytganda loyiha uchun sof keltirilgan qiymat ( $SKQ=NPV$ ) maksimal bo'lishini ta'minlaydigan ko'lam optimal bo'ladi. Bunday tahlil o'tkazilishi uchun loyiha bir nechta alohida komponentlarga bo'lib tashlanadi, so'ngra bu komponentlar (o'z xarajatlari va daromadlari bilan birga) texnologik jihatdan eng kichik bo'lgan «bazis» loyihaga birlashtiriladi. Bundan keyin bazis loyiha hamda komponentlarning har bir kombinatsiyasi uchun NPV (SKQ) hisoblanadi. Oxirgi qo'shilgan komponent uchun daromadning cheklangan ichki stavkasi diskont stavkasiga teng bo'lmagunga qadar loyihaning izlanayotgan ko'lamini kattalashtirib borilaveradi. Ayni shu lahzada NPV butun loyiha uchun musbat bo'ladi va maksimal darajaga etadi. Loyiha bundan keyin ham kengaytirilganda qo'shilgan komponentlar uchun daromadning cheklangan ichki stavkasi diskont stavkasidan past, NPV esa manfiy bo'ladi.

Iqtisodiyotni qayta qurish sharoitida ko'lamga nisbatan bunday yondashuv yirik korxonalar tarkibida alohida bo'linmalarni ajratish qanchalik maqsadga muvofiqligini aniqlash uchun qo'llanilishi mumkin. Ko'pgina rivojlantirish loyihalari turli sektorlarga yoki faoliyat turlariga tegishli

komponentlardan tashkil topadi. Masalan, qishloq xo'jaligini rivojlantirish loyihasi sug'orish tizimi va drenajlar, qishloq xo'jaligida qo'llaniladigan turli ishlab chiqarish vositalari ishlab chiqarish, qishloq yo'llari va ijtimoiy infratuzilmaning klublar, suv ta'minoti tizimi, maktab va tibbiyot muassasalari kabi elementlarini o'z ichiga olishi mumkin.

Shu tufayli loyihaning turli elementlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni aniqlash birinchi navbatdagi vazifa hisoblanadi. Maktablar, klublar va tibbiyot muassasalari bir vaziyatda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi bilan chambarchas bog'langan bo'lsa, boshqa vaziyatda hech qanday aloqaga ega bo'lmasligi mumkin. Agar loyiha komponentlari o'zaro chambarchas bog'langan bo'lsa, u holda iqtisodiy tahlilda daromadlar va xarajatlarni komponentlar bo'yicha taqsimlash hech qanday mazmunga ega bo'lmaydi. SHu tufayli turli komponentlar bo'yicha daromad stavkasini aniqlash kerak emas. Bunday holda dastlab butun loyiha uchun NPV va daromadning ichki stavkasini aniqlash, so'ngra loyihaning bir yoki bir necha komponentini o'zgartirib, aytilgan ko'rsatkichlarni oshirish mumkin yoki mumkin emasligini aniqlash kerak.

Agar loyihaning alohida komponentlari bir-biri bilan deyarli bog'lanmagan bo'lsa, ular alohida-alohida tahlil qilinishi kerak.

Loyihaning turli komponentlari o'zaro bir-birining o'rnini bosadigan, bir-birini to'ldiradigan yoki mustaqil komponentlar bo'lishi mumkin.

Agar loyiha komponentlarini birgalikda amalga oshirishdan olinadigan manfaat ularning har biri alohida amalga oshirilganda olinadigan manfaatlar yig'indisidan kam bo'lsa, bunday komponentlar o'zaro bir-birining o'rnini bosadigan komponentlar hisoblanadi.

Agar loyihaning alohida komponentlaridan manfaat ko'rilsa, ular o'zaro bir-birini to'ldiruvchi komponentlar deyiladi. Agar butun loyihadan ko'rilgan manfaat alohida komponentlardan ko'rilgan manfaatlar yig'indisiga teng bo'lsa, bu komponentlar mustaqil komponentlar deyiladi.

Loyiha komponentlari, shuningdek, xarajatlarga ko'ra ham o'zaro bir-birining o'rnini bosadigan, o'rnini to'ldiradigan va mustaqil komponentlar bo'lishi mumkin. Bir-birining o'rnini bosuvchi komponentlar uchun umumiy xarajatlar ularni alohida-alohida amalga oshirish xarajatlari yig'indisidan katta bo'ladi. Bir-birini to'ldiruvchi



komponentlar uchun esa umumiy xarajatlar ularni alohida-alohida amalga oshirish xarajatlari yig'indisidan kichik bo'ladi.

### Loyihalarning komponentlari bo'yicha turlanishi

Loyiha komponentlari	Xarajatlarga ko'ra mustaqil	Xarajatlarga ko'ra bir-birini to'ldiruvchi	Xarajatlarga ko'ra bir-birining o'rnini bosuvchi
Daromadlarga ko'ra mustaqil	Umumiy NPV mustaqil NPV lar yig'indisiga teng	Umumiy NPV mustaqil NPV lar yig'indisidan katta	Umumiy NPV mustaqil NPV lar yig'indisidan kichik
Daromadlarga ko'ra bir-birini to'ldiruvchi	Umumiy NPV mustaqil NPV lar yig'indisidan katta	Umumiy NPV alohida NPV lar yig'indisidan katta	Aniqlanmagan natija. Birma-bir solishtirib ko'rish talab etiladi
Daromadlarga ko'ra bir-birining o'rnini bosuvchi	Umumiy NPV alohida NPV lar yig'indisidan kichik	Aniqlanmagan natija. Birma-bir solishtirib ko'rish talab etiladi	Umumiy NPV alohida NPV lar yig'indisidan kichik

Ko'pgina ko'p maqsadli loyihalar xarajatlarga ko'ra bir-birini to'ldiruvchi, daromadlarga ko'ra esa bir-birini o'rnini bosuvchi hisoblanadi. Masalan, sug'orish va gidroelektrostantsiya uchun umumiy tug'on qurish alohida-alohida tug'on qurishga nisbatan kam xarajat talab etadi. Lekin elektr energiyasi olish uchun qishda oqizilgan suv sug'orish uchun foydasiz bo'lsa, yozda sug'orish uchun elektr energiyasi olish ehtiyojlaridan ko'proq suv oqiziladi. Suv oqizish miqdori GES talablari uchun ham qishloq xo'jaligi talabi uchun ham zarur bo'lgan optimal miqdordan ko'p bo'ladi. Oqibatda alohida loyihadagiga nisbatan kamroq qishloq xo'jaligi mahsuloti hamda elektr energiyasi ishlab chiqarilishi

mumkin. Bunday holatda iqtisodiy tahlil chog'ida «loyihasiz» vaziyat sifatida tegishli inshootlarni alohida qurish varianti ko'rib chiqilishi kerak.

Alohida loyihalarni iqtisodiy baholash asosi sifatida qo'llanilishi loyihaning alohida komponentlarining turli kombinatsiyalari uchun quyidagi natijalarga olib keladi.

### **7.3. Loyihalarni joylashtirish o'rni**

Loyihaning joylashish o'rni belgilovchi omillar turli-tuman bo'lib, bu omillarni ham tahlil qilish mumkin. Loyiha uchun NPVni maksimallashtiradigan joy eng yaxshi hisoblanadi. Ko'p hollarda joylashish o'rni tanlash ham loyiha ko'lamini belgilashdagi kabi bir qator jihatlarni hisobga olishni talab etadi. Masalan, sanoat korxonasi yoki xom ashyo bazasi yaqiniga yoki boshlang'ich energiya manbai yaqiniga yoki mahsulot bozori yoniga yoki bo'lmasa tegishli infratuzilmaga yaqin joyda qurilishi mumkin. Har bir variant o'z afzalliklari va kamchiliklariga ega. Maksimal NPV ni ta'minlaydigan joylashish o'rni tanlanishi uchun bu afzalliklar va kamchiliklar baholanishi hamda taqqoslanishi mumkin.

Loyihaga kapital qo'yilmalar muddatlari masalasi ham loyihani tayyorlash bosqichida alohida ko'rib chiqilishi lozim. Kapital qo'yilmalar muddatlari bilan bog'liq muammolarning ahamiyati loyiha ko'lami, joylashish o'rni bilan bog'liq muammolarga nisbatan kam bo'lib ko'rinishi mumkin. Loyihalar ba'zida investitsiyalash muddatlarining maqbul (optimal) ekanligi to'liq asoslanmasdan qabul qilinadi. Loyiha iqtisodiy va moliyaviy jihatdan uning samarali bo'lishini ta'minlash uchun, uning mahsulotiga bo'lgan talab, texnologiyalar holati, qo'shimcha kapital kiritish imkoniyatlari etarlicha rivojlanmaganligi tufayli vaqtdan erta bo'lishi mumkin.

Boshqa tomondan loyihaning iqtisodiyotga hissasi va undan kelgan manfaat ancha yuqori bo'lishi, muddatidan kechikishi ham mumkin. Eksploatatsiyaning birinchi yilidagi daromad darajasi, loyihaning alohida komponentlaridan olinadigan cheklangan daromad singari, loyihalarni amalga oshirishning maqbul muddatlarini baholash mezoni hisoblanadi. Agar shu yilgi daromad stavkasi diskont stavkasidan past bo'lsa, u holda

loyiha muddatini kechiktirish sof keltirilgan qiymatning (NPV) ko'payishiga olib keladi. Optimal (maksimal NPVni ta'minlovchi) muddatda ekspluatatsiyaning birinchi yili uchun daromad stavkasi diskont stavkasiga teng bo'ladi.

Ekspluatatsiyaning birinchi yilida olingan daromad mezoni birinchi yilda olingan manfaat etarli daromadlilik darajasini ta'minlay olish-olmasligini aniqlash orqali loyiha muddatlari to'g'ri tanlanganligini tekshirish imkonini beradi. Bunda ekspluatatsiyaning birinchi yilida olingan sof daromad loyihaga qilingan (qurilish davrida yo'qotilgan % daromadini qo'shgan holda) kapital xarajatlar bilan solishtiriladi.

Agar daromadlarning xarajatlarga nisbati kapital qo'yilmalarning muqobil qiymatidan yuqori bo'lsa, loyiha muddatidan kechikkan hisoblanadi. Bu mezonni qo'llash NPVni maksimallashtirish loyiha rejasi bilan ta'minlanganligini aniqlash uchun keng ko'lamli tekshiruv boshlashda birinchi qadam hisoblanadi. Sof daromad (manfaat) birinchi bor kapital qo'yilmalar rentabelligi ta'minlangan yil NPV ko'rsatish birinchi bor musbat bo'lgan yilga mos keladi.

#### **7.4. Xarajatlardagi o'zgarishlar**

Xarajatlarga va loyihani amalga oshirish grafigiga real baho berish uchun muhandislik va loyiha-konstruktorlik ishlanmalarining aniq bo'lishi talab etiladi. Noto'g'ri berilgan baho iqtisodiy va moliyaviy tahlilda ham noto'g'ri echimlarga olib kelishi mumkin.

Xarajatlar smetasi loyiha turi va mavjud uslublarning imkoniyatidan kelib chiqib mumkin qadar maksimal aniqlikda baholangan bo'lishi kerak. Shuningdek, bunday smeta loyihani moliyalashtirish boshlanishidan ancha oldin tayyor bo'lishi kerak. Loyiha turlariga qarab muhandislik va loyiha-konstruktorlik ishlari hajmi turlicha bo'ladi, masalan, tekis joyda yo'l qurish loyihasi hamda tog'li joyda yo'l qurish loyidasida. Agar loyihada standart uskunalarni bir necha bor xarid qilish yoki an'anaviy ishlarni bajarish ko'zda tutilgan bo'lsa, muhandislik va loyiha-konstruktorlik ishlariga ketadigan xarajatlar minimal bo'ladi.

Loyihaning har bir komponenti uchun alohida xarajatlar smetasi

tuziladi. Uskunalar sotib olish xarajatlari smetasi uskunalar turi, soni va har birining bahosidan kelib chiqib tuziladi. Mamlakatda bajarilgan o'xshash loyihalar tajribasi uskunalar bahosini aniqlashda mo'ljal hisoblanadi. Agar bu to'g'rida axborot etarli bo'lmasa (yoki o'xshash loyihalar yaqin vaqt ichida amalga oshirilmagan bo'lsa), xarajatlar smetasini tuzishda ixtisoslashgan firmalar, shaxslar yoki pudratchilar xizmatidan foydalaniladi.

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi loyihalar uchun xarajatlar smetalari ham milliy, ham xorijiy valyutada tuziladi. Qurilish davrida hisoblangan foizlar va qo'shimcha aylanma kapitalga ehtiyoj ham xarajatlar smetasida hisobga olinishi kerak. Xarajatlar smetasi moliyaviy (iqtisodiy emas) ko'rinishida pul xarajatlarini hisobga olgan holda tuziladi. Mahalliy soliqlar va importga boj to'lovlari smetaga kiritilishi, lekin alohida ko'rsatilishi lozim. CHunki bular loyihani amalga oshiruvchi firma xarajatlariga kirsada, mamlakat xarajatlariga kirmaydi va iqtisodiy tahlildan chiqarib tashlanadi.

Xarajatlar smetasi, odatda, ikki qismdan tashkil topadi:

Asosiy smeta.

Ko'zda tutilmagan xarajatlar qo'shimcha smetasi.

Asosiy smeta dastlab loyihaning maqsadga muvofiqligini asoslash uchun tuziladi va tuzatib boriladi. U tuzilish paytida loyihaning eng aniq qiymatini aks ettiradi. Lekin u asosiy smeta tuzilgandan loyiha tugallangunga kadar ro'y beradigan miqdor va baho o'zgarishlarini, masalan, etkazib berish, qurilish ishlarini tugallash muddatlaridagi o'zgarishlarni hisobga olmaydi. Bu o'zgarishlar ko'zda tutilmagan xarajatlar qo'shimcha smetasida hisobga olinadi. Har ikki smetani o'z ichiga olgan xarajatlarning to'liq smetasi loyihaning yakuniy qiymatini eng aniq baholaydi. Qo'shimcha smeta loyiha xarakteriga bog'liq va loyihaning har bir asosiy komponenti uchun alohida tuziladi.

Fizik ko'rsatkichlarning ko'zda tutilmagan o'zgarishi. Sotib olinadigan uskunalar soni va turida, bajariladigan ishlar hajmi yoki loyihani amalga oshirish usullarida bo'ladigan o'zgarishlar tufayli loyiha xarajatlarining o'zgarishi fizik ko'rsatkichlarning ko'zda tutilmagan o'zgarishi zahirasida aks etadi. Bunday o'zgarishlar miqdori va xarakterini

doim ham oldindan ko'rib bo'lmaydi. Tabiiy hodisalar, sel, bo'ron, qurg'oqchilik, er qimirlashlari ko'zda tutilmagan shunday hodisalarga misol bo'la oladi va ularda hech qaysi loyiha to'liq ximoyalangan.

Bu o'zgarishlarni aks ettiruvchi zahiralarni turli loyihalarda turlicha bo'ladi. (Masalan, fuqaro - muhandislik inshootlari uchun material va xom ashyo etkazib berish hollariga nisbatan yuqoriroq). Bunday ko'zda tutilmagan xarajatlar zahiralarning Jahon banki tomonidan qabul qilingan darajalari quyidagicha:

- loyihalarda doimiy foydalaniladigan uskuna turlari uchun yoki asfal't yotqizish kabi engil aniqlanmaydigan ish turlari uchun 5%;
- takrorlanib turuvchi va oldindan ko'rsa bo'ladigan noaniqlik omillariga ega bo'lgan umumiy fuqaro qurilishi uchun 10%, masalan, binolar, elektr uzatish liniyalari, truboprovodlar, tekis erda yo'l yotqizish ishlari uchun;
- qayta ishlash korxonalari, noqulay bino va muhandislik inshootlari, kichik sug'orish va drenaj hamda tug'onlar qurilishi uchun 15%.

Agar fizik ko'rsatkichlarni ko'zda tutilmagan o'zgarishi zahiralari summasi 15-20% dan oshib ketsa loyiha rejasini takomillashtirish hamda (loyiha bo'yicha shartnomalar tuzilgunga qadar) noaniqliklarni kamaytirish uchun vaziyatni joyning o'zida qo'shimcha o'rganish zarur.

Ko'zda tutilmagan baho o'zgarishlari. Bahoning ko'zda tutilmagan o'zgarishi bilan bog'liq tuzatishlar asosiy smeta tuzilganidan so'ng loyihaning alohida komponentlari uchun baholar o'zgarishi tufayli loyiha qiymatining mumkin bo'lgan o'zgarishini aks ettiradi. Bunday ko'zda tutilmagan xarajatlar valyuta kursi o'zgarishini hisobga olish uchun milliy va xorijiy valyutalarda alohida-alohida hisoblanadi. Ko'zda tutilmagan baho o'zgarishlari loyihaning moliyalashtirishga bo'lgan ehtiyojini tahlil etishda foydalanilsa-da, loyiha maqsadga muvofiqligini aniqlash uchun o'tkaziladigan iqtisodiy va moliyaviy tahlilda qo'llanilmaydi, chunki bunday tahlillar barqaror baholarga asoslanadi. Ko'zda tutilmagan baho o'zgarishlarining vaziyatga mos keluvchi darajasini aniqlash uchun ikki omilni ko'rib chiqish zarur:

1. Loyihani amalga oshirish muddatlarida mamlakat ichida va jahonda kutilayotgan inflyatsiya darajalari.

2. Umumiy inflyatsiya tendentsiyalaridan alohida turdagi ishlar va xizmatlarga bo'lgan ichki va tashqi baholar farqining kutilayotgan darajasi (masalan, yirik loyihaning mahalliy resurslar bahosiga potentsial ta'siri tufayli mahalliy qurilish sanoatida talab va taklif nisbatining o'zgarishi oqibatida).

Agar loyiha bo'yicha tuzilgan shartnomalarda bajarilgan ishlar yoki uskunalar bahosini indeksatsiya qilishning ma'lum usullari kelishib olingan bo'lsa, bunday holat zahira miqdorini aniqlashda hisobga olinishi kerak. Ko'zda tutilmagan baho o'zgarishlari zahirasi har bir yil uchun hisoblanib loyihani amal qilish muddati bo'yicha qo'shib chiqiladi.

### **7.5. Loyihani amalga oshirish ishlari grafigi**

Loyihaning texnik jihatlarini ishlab chiqish hech bo'lmaganda loyihani amalga oshirishning kim, nimani va qachon bajarilishi ko'rsatib o'tilgan dastlabki rejasini tuzishni o'z ichiga olishi kerak. Bunday faoliyat ba'zida tarmoqli tahlil yoki tanqidiy yo'l uslubida tahlil deb yuritiladi. Oxirgi atama dasturlarni baholash va izohlash uslubi kabi murakkab tizimlarni o'z ichiga oladi. Bu tizimlar bir tadbir boshlanishidan oldin tugallanishi kerak bo'lgan yoki belgilangan muddatda tugallanmay qolishi butun loyiha bo'yicha ishlarning kechikishiga olib kelishi mumkin bo'lgan tadbirlarni aniqlashga mo'ljallangan. Bu tizimlar yirik fuqaro inshootlarini o'z ichiga olgan loyihalarni rejalashtirishning samarali vositasi bo'lsa-da, boshqa loyihalar uchun tadbirlar ketma-ketligini belgilovchi va izohlar bilan to'ldirilgan oddiy kalendar' rejalari ham etarli hisoblanadi. Har ikkala holda ham o'z vaqtida bajarilishi loyihani amalga oshirishga ta'sir ko'rsatuvchi tadbirlarni aniqlash va ularni tugallashga etarli vaqtni ta'minlash kerak. Bu tadbirlarni etarli darajada rejalashtirmaslik oqibatida loyihani rejalashtirish muddatlari cho'zilib ketishi mumkin.

Loyihani amalga oshirish bo'yicha ishlar grafigi real, ya'ni tashkilot va shaxslarning imkoniyatlari darajasiga asoslangan bo'lishi shart. Haddan ortiq optimistik grafiklardan foydalanish salbiy natijalarga, operativ rejalashtirishning izdan chiqishi, ishlar rejadan orqada qolganda turli tashkilotlar o'rtasida kelishmovchiliklarga olib keladi. Bundan tashqari

ishlar grafigi noreal tuzilganda iqtisodiy va moliyaviy tahlilda noto'g'ri xulosalarga kelishga sabab bo'ladi.

### **Qisqacha hulosalar**

Loyiha maqsadi nuqtai nazaridan eng qulay bo'lgan texnologiyalarni, loyihadan manfaat ko'rishi mumkin bo'lgan aholi kontingenti, mahalliy sharoitlar, kapital, xom ashyo va ishchi kuchidan foydalanish imkoniyatlari va ular bahosi, bozor hajmi, shuningdek loyihani rejalashtirish hamda amalga oshirish imkoniyatlarini aniqlash texnik tahlilning vazifasi hisoblanadi va uning mohiyatini tashkil etadi.

Loyihalarni ishlab chiqishning texnik muammolardan ko'pchiligi ko'pgina loyihalarga xos bo'lib bularga mulk shakli, loyiha ko'lami, amalga oshirish muddatlari, texnologiyalarni tanlash kabilar kiradi.

Loyihalar davlat sektorida yoki xususiy sektorda amalga oshirilishi loyiha ko'lamiga, texnik rejasiga ta'sir ko'rsatadi.

Loyiha ko'lamini aniqlashda loyiha mahsulotiga talab, tashkilotlarning imkoniyatlari, resurslarning mavjudligi kabilar mezon bo'lib xizmat qiladi.

Sof keltirilgan qiymat NPV eng yuqori bo'lishini ta'minlaydigan ko'lam loyiha uchun optimal hisoblanadi. Ko'p komponentli loyihalarda o'zaro bir-birining o'rnini bosadigan, bir-birining o'rnini to'ldiradigan va mustaqil komponentlar o'zaro farqlanadi.

Loyiha uchun NPVni maksimalashtiradigan joy eng yaxshi hisoblanadi. Loyiha ob'ekti yoki xom ashyo bazasiga, yoki iste'molchilarga yoki zarur infratuzilmalarga yaqin joyga quriladi.

Loyiha xarajatlari asosiy va qo'shimcha smetada aks ettiriladi. Asosiy smetada loyiha tuzilgan vaqtdagi uning qiymati, baho va miqdoriy o'zgarishlar ta'sirida xarajatlardagi o'zgarishlar esa qo'shimcha smetada aks ettiriladi.

### **Nazorat va mulohaza savollari**

1. Loyihalarni texnik tahlil qilishning vazifalarini tushuntirib bering.
2. Ko'p komponentli loyihalarga misol keltiring. Ko'p komponentli

loyihalarda loyiha ko'lamini qanday aniqlanadi?

3. Bir vaqtning o'zida bir-birining o'rnini bosuvchi va daromadlarga ko'ra bir-birining o'rnini to'ldiruvchi komponentlarda umumiy NPV mustaqil NPV yig'indisidan kattami yoki kichikmi?
4. Loyihani joylashtirish o'rni qaysi mezonlarga ko'ra tanlanadi?
5. Ko'zda tutilmagan baho o'zgarishlari loyihaga qanday ta'sir ko'rsatadi?
6. Loyihani amalga oshirish ishlari grafigining ahamiyatini ochib bering.
7. Texnik va texnologik jihatdan muqobil variantlar qaysilar?
8. Loyihani joylashtirish o'rni bo'yicha muqobil variantlar qaysilar?
9. Loyiha hajmi qancha?
10. Loyihani amalga oshirish muddatlari qancha?

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Колмыкова Т.С. «Инвестиционный анализ» Учебное пособие М: ИНФРА-М -2009.-202-230 стр. Учебники экономического факультета МГУ им. Ломоносова.
2. А.Э. Ишмухамедов, М.С.Қосимов, З.А. Джумаев, Г.Я.Мухамеджанова. Лойиҳа таҳлили. Т: ТДИУ. 2006.-137-145 б.
3. Балдин К.В. Инвестиции и инновации. Учебное пособие. \ К.В. Балдин, И.И. Передеряев и др.-2- изд- М: Издательское –торговая корпорация «Дашков и К», 2010. -145-238 с.
4. Николаев М.А. Инвестиционная деятельность: Учебное пособие \ М.А. Николаев-Финансы и статистика, ИНФРА. М-2009-245-336 стр.
5. Тюрина А.В. Инвестиции. Практикум. Учебное пособие. \ А.В. Тюрина-М: КНОРУС.2010.- 178-208 стр.



## VIII-BOB. EKOLOGIK TAHLIL

### 8.1. Nima uchun ekologik tahlil kerak?

O'zbekiston Respublikasida ekologik kapitalga alohida e'tibor qaratiladi. 2010 yildan e'tiboran mamlakat Oliy Majlisida (Parlamentida) ekologik qanot shakllantirildi va qonunchilik palatasi vitse - spikerlaridan biriga O'zbekiston ekologik harakati vakillaridan saylandi.

Tabiiy muhitga ta'sir davlat mego-loyihalarining ko'pincha uchrab turadigan tashqi (eksternal) omillaridan biri hisoblanadi. Masalan, transport tizimlari ko'pincha tabiiy landshaftda to'siqlarni yuzaga keltiradi, yomg'ir oqimi va tabiiy drenaj tarmoqlari xarakterini o'zgartiradi, kasallik tarqalishiga imkoniyat yaratadi va ijtimoiy ofatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Shuning uchun loyiha o'rta va uzoq muddatda ham ekologik barqarorlikni ta'minlashi kerak. Sirdaryo viloyatidagi yangi avtomobil yo'li Farg'ona vodiysini mamlakatning g'arbiy va janubiy viloyatlari bilan bog'laydi. Ushbu loyihadan kutilgan iqtisodiy manfaat (yonilg'i sarfi, tonna/kilometrni kamayishi) va ekologik manfaat (havoning ifloslanishi kamayishi, havodan kasallanish qisqarishi va h.k.) qisqa va uzoq muddatli istiqbolda muhim ahamiyatga ega.

Atrof-muhitga tashqi ta'sir (samaralar) xususiy sektor faoliyatida ham keng namoyon bo'ladi. Sanoat rivojlanishi bilan shovqin, tutun va taraqqiy etish foydasi bilan qiyoslanishi lozim bo'lgan boshqa noqulay oqibatlar paydo bo'ladi.

Atrof-muhitga ta'sir deyarli bir xil emas va loyihadan sarf/foйда nuqtai nazaridan oddiy tahlil qilinishi mushkulroq kechadi. Ekologik oqibatlarni aniq o'lchab ham qiyin kechadi. Ekologik tahlil loyihaviy tahlilda alohida o'ringa ega, chunki inson faoliyati va atrof-muhit o'rtasidagi o'zaro munosabat etarlicha o'rganilmagan. SHuning uchun hozirgi kunda qabul qilinayotgan ko'pgina ekologik qarorlar atrof-muhitda qayta tiklanmaydigan resurslar va cheklangan resurslardan kelajakni o'ylab yondashuvni taqaza etmoqda. Qolaversa global isish, ichimlik suvining tobora cheklanishi kabi muammolar har bir loyihaning ekologik oqibatlarini chuqur tahlil etilishini zarur qilib qo'ymoqda. Orol

dengizining qurishi bunning yaqqol misoli hisoblanadi.

## **8.2 Ekologik tahlilning vazifalari**

Ekologik tahlilining asosiy vazifasi, loyihani amalga oshirish va foydalanish vaqtida atrof-muhitga keltiriladigan potentsial zararni aniqlash va uni yumshatish yoki bartaraf etish uchun zaruriy choralarni belgilab olishdir.

Umuman, atrof-muhitga etkazilayotgan zararni barataraf etish yoki uni rivojlanish sur'atlarini qisqartirmagan holda sezilmaydigan darajagacha kamaytirish yanada muhim muammo hisoblanadi. Atrof-muhit «tabiiy kapitalni» namoyon etadi. Daryo oqimi, tuproqni tabiiy himoya qilinishi, havo oqimlarning doimo o'zgarib turishi – “tabiiy kapital”dan keladigan foydadir va tabiatni iqtisodiyotni rivojlantirishga bergan xizmatlaridir, ular iqtisodiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlaydi va rag'batlantiradi. Yomon rejalashtirilgan rivojlanish jarayoni milliy kapitalni yo'qolishiga olib kelishi mumkin. Hatto juda puxta rejalashtirish holatlarida ham iqtisodiy rivojlanish jarayoni tabiiy ekologik tizimlarda ba'zi o'zgarishlarni keltirib chiqaradi va chiqindilar hamda ifloslantiruvchi moddalarni keltirib chiqaradi. Masalan, Angren GRES va unda mahalliy yoqilg'i - ko'mirning chiqindilari yillar mobaynida to'planib qoldi. Angren GRES ishga tushirilgandan so'ng millionlab tonna chiqindilar to'plandi, ular tabiiy kapital va aholi salomatligiga salbiy ta'sir etgan holda ekologik muhitni yomonlashtirdi. O'zbekiston Ekologik harakati ushbu muammoni ko'tirib chiqib, chiqindilarni qayta ishlashga investitsiyalarni jalb etgan holda ushbu muammoning echimiga ko'maklashmoqda.

Ekologik boshqaruvning vazifasi insonlarning tabiiy resurslarga ehtiyoji hamda atrof- muhitning ushbu ehtiyojni qondira olish imkoniyati yoki layoqati o'rtasidagi balansni o'rnatish hisoblanadi. Masalan, qishloq xo'jaligida ekin aylanmasi (sevooborot) tuproqning tarkibini ,sifatini yaxshilaydi va barqaror qishloq xo'jaligi darajasini ta'minlashga xizmat qiladi. Yana bir misol, tuproqning iirigatsiya va melioratsiya holatini yaxshilashdir. Bu ham barqaror iqtisodiy rivojlanishning ajralmas qismidir. Ba'zi holatlarda jamiyat boshqacha holatni tanlashi mumkin.

Strategik rivojlanish nuqtai nazaridan vazifasi bo'lib, kelgusi ehtiyojlarni qondirish bo'yicha salohiyatni qisqartirmagan (ya'ni ekotizimning «doimiy sig'imini» kamaytirmagan) holda bugun ma'lum darajada foyda berishi mumkin bo'lgan, mamlakatning yangilangan resurslarini boshqarish hisoblanadi. Bunday yondashuvga mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida yangilangan resurslardan foydalanishni misol qilib olish mumkin. Tog' oldi hududlarida biogaz, quyosh energiyasi, kichik suv elektr stantsiyalaridan foydalanish mumkinligini hisobga olish mumkin. Bu borada O'zbekistonda kelgusida ko'plab innovatsion va ekologik loyihalar yaratiladi va amaliyotga tatbiq etiladi. O'zbekiston Ekologik harakati ushbu yo'nalishlarda katta ishlarni boshlab yuborganligi bunday xulosa qilishga asos bo'ladi.

Ekotizimning doimiy hajmi - mazkur ishlab chiqarishda uzoq muddat amal qila oladigan va atrof-muhit bilan degredatsiyaga uchramagan maksimal miqdordagi tirik organizmlardir. Mavsumiy va tasodifiy o'zgarishlarni bu holda hisobga olinmaydi. Doimiy hajm qo'llangan texnologiya oqibatida ortishi yoki qisqarishi mumkin.

Ekologik tahlilning asosiy vazifalaridan biri uning qonunchilik asosini doimo takomillashib borishga kerakli takliflarni ishlab chiqishdiridir.

Tabiatni muhofaza qilish tadbirlari uchun dastlabki profilaktika chorolari va unga ketgan xarajatlar, ba'zan tuzatib bo'lmaydigan, etkazilgan zararni tuzatishga nisbatan muhim va arzondir. Bunga yaqqol misol Orol dengizi fojiasidir. SHuning uchun mos ravishda har qanday loyiha va taraqqiyot dasturi atrof-muhitga ma'lum tarzda ta'sir etishini e'tirof etish, uning ehtimoliy ta'sirini aniqlash uchun tahlil qilinishini talab etishi lozim. Agar ushbu ta'sirlar/samaralar jiddiy zarar keltirsa, u holda loyiha qayta ishlanishi lozim. Agar loyihaning qayta ishlanishi xavfni kamaytirmasa, agar ba'zi vaziyatlarga ko'ra undan keladigan uzoq muddatli foyda uzoq muddatli xarajatlar hamda ekologik xarajatlardan kam bo'lsa u holda loyiha bekor qilinishi lozim.

Bu kabi tahlilni o'tkazish uchun hozirgi vaqtda qo'llanayotgan baholashga nisbatan Uzbekistonning ekologik va tabiiy resurslarini asosini mufassalroq hisobga oladigan ko'rsatkichlar tizimini yaratish

zarur. Loyiha ishlab chiqilishi jarayonida tabiiy resurslar zaxirasi, shuningdek yangilangan resurslar iste'moli va yo'nalishini ko'rsatuvchi «ekologik indikatorlar»ni qo'llash lozim. O'zbekiston BMTTD/YUNDP, YUNEP va Jaxon bankidan texnik yordam olib bu borada ishlarni tashkil etgan. Bunday indikatorlarning tatbiq etilishi keng miqyosda atrof-muxit monitoringini o'tkazish imkonini beradi. Atrof-muhit monitoringi (masalan, Qashqadaryo viloyatidagi Moydanak qo'riqxonasi), insonlar salomatligi bilan bog'liq muammolar (masalan, suv va havoning ifloslanishidan), turli tabiiy resurslarning mavjudligi va sifati (masalan, tuproqning ustki qatlami) kabi biologik yo'nalishlarni o'z ichiga olishi lozim. Monitoring doimiy yoki haqiqiy zarar haqida avvaldan ogoh bo'lish tizimini ta'minlashi va zaruriy tuzatish choralarini ko'rsatishi lozim. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga soliq tushumlari, tashqi savdo to'g'risidagi ma'lumotlar bilan birga ekologik ma'lumotlar ham, ekologik loyihalarni milliy rivojlanish strategiyasida, uni rejalashtirishda doimo hisobga olishi lozim.

### **8.3. Ekologiya bo'yicha loyiha-smeta xujjatlarini tayyorlash**

Atrof-muhitni muhofaza qilish maqsadlarini ko'zlash loyiha - smeta xarajatlarida o'z aksini topadi. Iqtisodiy rivojlanish muammolarini insonlar tomonidan ilmiy o'rganish kuchayishi bilan, loyihalarning ekosistemaga ta'sirini juda bo'lmaganda minimal xavfsizlik me'yori darajasiga tushirish imkoni paydo bo'ladi. Bu me'yorlarga inson salomatligiga bo'lgan xavf darajasi, atrof-muhitga zararli moddalarni chiqarish me'yorlari va boshqalar misol bo'ladi. Loyihalar ekosistemani muhofaza qilish bo'yicha Chet el mamlakatlari bilan tuzilgan shartnomalar buzilishiga olib kelishi kerak emas.

Ayrim hollarda loyiha ta'sirida ekologik holat salbiy tomonga qarab o'zgarishi va bunga ruxsat berilishi ham mumkin. Masalan, aholi joylashgan joy yaqiniga temir yo'l qurish loyihalashtirilsa va bu loyiha amalga ohsa, shovqin ko'payadi hamda bu aholi yashash tarziga salbiy ta'sir etishi mumkin. Loyihada bu salbiy ta'sirni bartaraf qilish yo'llari

bo'lishi kerak. Buning uchun aholini boshqa joyga ko'chirish (bu esa juda qiyin, chunki odamlar o'zlari o'rganib qolgan joylardan, yaxshiroq sharoit yaratib berilishiga qaramasdan, ko'chishga rozilik bermasliklari mumkin) yoki shovqinni kamaytiradigan, yaxshisi umuman yo'qotadigan moslamalarni uylarga o'rnatish kerak. Bu, albatta, qo'shimcha xarajatlarga olib keladi. Undan tashqari ayrim vaqtlarda aholini kompensatsiya berish yo'li bilan ham rozi qilish mumkin. Masalan, elektrostantsiya qurish loyihasi amalga oshsa kompaniya egalari atrofda yashovchi aholiga elektroenergiyani tekinga berishni o'z bo'yiga oladi.

Ayrim hollarda loyihalarni amalga oshirishda vujudga keltiriladigan ekologik xavfni bartaraf qilish juda oson, ayrim hollarda esa juda murakkab kechadi. Umuman, loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirish xarajatlarida atrof-muhitni himoya qilish xarajatlari taxminan 5% ini tashkil etadi. Jahon bankining atrof-muhitni himoya qilish bo'limi loyihalarning turli kategoriyalari uchun maxsus qo'llanma yaratgan bo'lib, u loyiha tahlili bilan shug'ullanadigan mutaxassislar uchun tavsiya etiladi. Tajribada eng ko'p sodir bo'ladigan va atrof-muhit uchun katta ziyon etkazadigan omillar havoning buzilishi, suvga zararli moddalarning oqizilishi va boshqalar hisoblanadi. Umuman, ekosistemaga loyihalarning ta'siri har xil bo'ladi. Ularni quyidagicha ta'riflash mumkin.

Loyihada ekologik xavfni e'tiborga olmaslik keyinchalik juda katta xarajatlarga olib kelishi mumkin. Ekologik xavfni standart tahlil qilish uslubiyati mavjud emas. Ekologik loyiha va ekologik tadbirlarni o'z ichiga olgan loyihalar natijasi kapitalni boshqa muqobil loyihalarga jalb etishdan olinadigan natijalardan yuqoriroq bo'lishi kerak. Darhaqiqat, ekologik loyihalarni iqtisodiy tahlil qilish umuman loyihani iqtisodiy tahlil qilishdan farq qilmaydi. Muammo shundan iboratki, ekologik loyihalarning natijasi juda kech namoyon bo'ladi, shuning uchun ularni oldindan bashorat qilish va o'lchash juda murakkab.

Atrof muhitga ta'siri to'liq tahlil qilinishi zarur bo'lgan loyihalarga quyidagi loyihalar kiradi:

Platinalar, suv havzalari, o'rmon bilan bog'liq bo'lgan, katta sanoat qurilishi, irrigatsiya va melioratsiya, zah ketkazish ishlari, suv toshqinlarga qarshi tadbirlar, erlarni tozalash minerallarni qazib olish, aholini boshqa

joyga ko'chirish, daryo havzasini o'zgartirish, issiqlik va GES qurilishi va undan foydalanish, zararli chiqindilarni qayta ishlash loyihalari kabi ekologiyaga bevosita bog'liq loyihalar.

Shu bilan birga atrof muhitga qisman bog'liq bo'lgan loyihalar mavjud, ularni baholash ham muhimdir:

Agrosanoat tarmoqlari korxonalari, kichik irrigatsiya ob'ektlari, qaytadan tiklanadigan energiyadan foydalanish ob'ektlari, qishloq xo'jaligini elektrlashtirish, turizm, qishloq aholisini suv bilan ta'minlash, daryo oqimini tartibga solish kabi loyihalar misol bo'lishi mumkin.

Atrof muhitga ta'siri ni baholash shart bo'lmagan loyihalar ham mavjud. Ularga quyidagi loyihalar kiradi: Aholi resurslaridan foydalanish, kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash, beg'araz texnik yordam loyihalari.

#### **8.4. Ekologiyani moliyalashtirish manbalari**

Umuman olganda, loyihalarni ekologik tahlil uchun sarf etilgan xarajatlar unchalik katta emas,

Tabiiy muhit faqatgina tabiiy resurslarning manbai bo'lib qolmasdan, shu bilan birga u har xil ekologik xizmatlar ham ko'rsatadi (tuproqni tiklash, chiqindilarni chiritish va h.k.). Tabiatning bu vazifalariga ko'pincha etarli e'tibor berilmaydi, chunki ularning bozor bahosi mavjud emas. Suv va havoning ifloslanishi natijasida odam organizmidagi o'zgarishlarning salbiy oqibatlarini statistik ma'lumotlar yordamida taxminiy aniqlash mumkin bo'lsada, bu ham ancha qiyin kechadi. SHuning uchun ko'p hollarda bu zararlarni aniqlash uslubi bo'lmaganligi sababli bunday holatdan zarar ko'rgan odamlar tovon puli ololmay qoladilar.

Ekologik loyihalar xarajatini umumiy loyihadan foyda ko'radigan shaxslar qoplashi kerak. Agar loyiha davlat tomonidan amalga oshirilsa, xarajatlar manbai davlat byudjeti hisoblanadi. Lekin masalaga bunday yondashuvning o'ziga xos kamchiliklari ham mavjud. Masalan, pirovardda ekologik loyiha tufayli kim manfaatdor ekanligini aniqlash juda qiyin, undan tashqari loyihaning maqsadi yo'qotilgan yoki buzilgan ekologik elementlarni tiklash yoki xavf oldini olish bo'lishi mumkin. Bunda yutuq

to'g'risida fikr yuritilmaydi. Agar metallurgiya kombinati atrof-muhitni bo'lg'ayotgan bo'lsa, ekologik xavfni bartaraf qilish harajatlarini o'z bo'yniga olishi kerak. Sel xavfidan saqlanish uchun kanal qurilishi xarajatlarining manbai davlat byudjetidir.

Atrof-muhitni ifloslanishdan asrash uchun kurash ruxsatnomalar va litsenziyalar olish tartibini joriy etish yo'li bilan ham amalga oshiriladi. Korxonalar tashqi muhitga ma'lum miqdorda zararli moddalar chiqarishi uchun litsenziya oladilar. Buning uchun zaharli moddalarni atmosferaga chiqarish, vaqt birligida suvlarga oqavalarni tashlash me'yoralarini vujudga keltirish zarur.

Bu me'yorlar hamma turdagi korxonalar uchun umumiy qilib tuzilganligi uchun ham yaxshi samara bermaydi. SHuning uchun tajribada har xil sohadagi korxonalar uchun alohida me'yorlar belgilanadi. Individual me'yorlar korxonalar turgan rayonga qarab o'zgarishi mumkin. Tadbirlardan yana biri atrof-muhitning ekologik holatiga salbiy ta'sir ko'rsatgan korxonalarga jarima solish hisoblanadi. Jarimalar tizimini puxta o'ylab vujudga keltirish atrof-muhitni ifloslantirishdan saqlab qoladi.

Jahon banki tomonidan amalga oshiriladigan loyihalar asosan individual me'yorlarga asoslangan. Ayrim mamlakatlar tajribasida me'yordan yuqori bo'lgan chiqindilar savdo-sotig'i amalga oshiriladi. Masalan, shaharlarda havoga zaharli moddalar chiqarishni kamaytirishda ana shunday tadbir qo'llaniladi va bu ijobiy natijaga olib kelgan. SHaharlarda joylashgan korxonalarga havoga ma'lum miqdorda (shaharni o'rtacha ifloslash darajasiga unchalik ta'sir etmaydigan miqdorda) zaharli moddalar chiqarish uchun ruxsat berilgan. Aytaylik, yo bir korxonalar yangi texnologiya joriy qilish yo'li bilan havoga zaharli moddalar chiqarishni ma'lum miqdorda kamaytirdi. Qolgan korxonalar bu korxonadan ortiqcha chiqarilgan zaharli moddalarni sotib olishlari kerak. Bunday hol boshqa korxonalarni ham yangi, ilg'or texnologiyalarni tadbiiq qilishga undaydi.

### **Qisqacha xulosalar**

Ekologik tahlilning asosiy vazifasi loyiha natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan potentsial zararni oldindan belgilash va uning ta'sirini

yumshatish yoki batamom tugatish yo'llarini topishdir. Agar ekosistemaga loyihaning salbiy ta'siri me'yordan yuqori bo'lsa va buni tuzatib bo'lmasa, odatda, loyihadan voz kechiladi. Ekologik tahlil nisbatan ortiqcha xarajatlarsiz loyihaning salbiy ekologik oqibatlarini oldini olish imkonini beradi. Loyihalar ekosistemani muhofaza qilish bo'yicha xalqaro majburiyatlarning buzilishiga olib kelmasligi zarur.

Ekosistemani saqlash talabiga ko'ra, loyihalar to'liq va qisman ekologik tahlil qilinishi zarur bo'lgan va atrof-muhitga ta'siri baholanishi shart bo'lmagan turlarga bo'linadi. Loyihalarning ekologik oqibatlarini iqtisodiy baholashda ekologik oqibat ta'sirida zarar ko'rgan odamlarga to'lanadigan tovon puli, atrof-muhitni ifloslantirgani uchun to'lanadigan mablag'lar ekologik tadbirlarning iqtisodiy samarasini aniqlash mezonlari bo'lishi mumkin. Loyiha atrof-muhit holatini buzsa, ekologik tadbirlar xarajatlari uni amalga oshiruvchi tomonidan qoplanishi shart. Davlat tomonidan amalga oshirilsa, ekologik tadbirlarga xarajatlar davlat byudjetidan qoplanadi.

Selga qarshi inshoot loyihasining xarajatlar manbai ham davlat byudjetidir. Xarajatlar manbalarini vujudga keltirish uchun korxonalariga nisbatan atrof-muhitga ifloslantiruvchi moddalar chiqarganligi uchun (modda turiga qarab) turlicha to'lov me'yorlari qo'llaniladi. Atrof-muhitga ifloslantiruvchi modda chiqarish huquqini sotib olish usuli loyihalarning ekologik xavfsizligini ta'minlashga undovchi progressiv vositalardan biridir.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar**

1. Ekologik tahlilining mohiyati va vazifasini tushuntirib bering.
2. Loyihalarning salbiy ekologik oqibatlarini bartaraf qilish yo'llari qanday?
3. Atrof-muhitga ta'siri to'liq va qisman tahlil qilinishi zarur bo'lgan loyihalar turlarini sanab o'ting.
4. Loyihalarning ekologik oqibatlarini iqtisodiy baholash muammolari nimada?
5. Ekologik loyihalar xarajatlarini qoplash manbalariga izoh bering.
6. Normativdan yuqori bo'lgan chiqindilarni sotib olish tajribasining



mohiyati nimada?

7. EKOSAN qanday kompaniya?
8. EKOSANNI maqsadi nimalardan iborat?
9. Ekologik loyihalar qanday tuziladi?
10. Har qanday loyihalar ham ekologiyaga ta'sir ko'rsata oladimi?

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

- 1.Марголин А.М. Экономическая оценка инвестиционных проектов. Учебник для вузов. А.М. Марголин, М.ЗАО Издательство экономика, 2007.-320-367стр.
- 2.А.Э. Ишмухамедов, М.С.Қосимов, З.А. Джумаев, Г.Я.Мухамеджанова. Лойиҳа таҳлили. Т: ТДИУ. 2006.-157-171 б.
3. Балдин К.В. Инвестиции и инновации. Учебное пособие. \ К.В. Балдин, И.И. Передеряев и др.-2- изд- М: Издательское –торговая корпорация «Дашков и К», 2010. -213-238 с.
- 4.Николаев М.А. Инвестиционная деятельность: Учебное пособие \ М.А. Николаев-Финансы и статистика, ИНФРА. М-2009.-256-336 стр.
- 5.Тюрина А.В. Инвестиции. Практикум. Учебное пособие. \ А.В. Тюрина-М: КНОРУС.2010.- 189-208 стр

## **IX-BOB.IJTIMOYIY TAHLIL**

### **9.1. Ijtimoiy tahlilning mohiyati va tarkibiy qismlari**

Loyihalarni tahlil qilishda markaziy masalalardan biri inson omilidir. Loyihalar inson hayotini engilashtirishga va ularning turmush darajasini oshirishga qaratilishi zarur. Loyihalar tahlilida davlat manfaatlarini va aholining manfaatlarini birinchi o'ringa turadi.

Investitsiya loyihalarida va tadbirkorlarning biznes rejalarida birinchi galda foyda olish turadi. Loyiha tahlilining yondashuvi Iqtisodiyot vazirligi va Moliya vazirligining yondashuviga tayanadi. Ular loyihalarga davlat manfaatlarini va aholining manfaatlaridan kelib chiqib baho beradilar va xulosa qiladilar. SHu jihatdan ushbu fandagi ijtimoiy tahlil va iqtisodiy tahlilning yondashuvi bir – biriga yaqindir.

Har qanday loyiha samarali amalga oshirilishi uchun ijtimoiy tahlilning ahamiyati va shu nuqtai nazardan chiqarilgan xulosaning o'rni katta.

Loyihaning taklif etilayotgan u yoki bu varianti aholining maqsadli guruhi manfaati talablariga javob berishi yoki bermasligini aniqlash ijtimoiy tahlilning vazifasi hisoblanadi. Ijtimoiy tahlil loyiha va u yo'naltirilgan ijtimoiy guruhning o'zaro muvofiq kelishini yaxshilash bo'yicha tadbirlarni taklif etadi. SHuningdek, ijtimoiy tahlil aholi tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan hamda jamoatchilik fikri va qarashlaridagi o'zgarishlarni rag'batlantirish yo'li bilan loyiha maqsadlariga erishishni ta'minlaydigan loyiha strategiyasini belgilaydi.

Ijtimoiy tahlil loyiha tahlilining boshqa turlari bilan, birinchi galda iqtisodiy tahlil bilan birga o'tkazilishi kerak. Loyiha tahlilining boshqa turlari singari ijtimoiy tahlil ham identifikatsiya bosqichida boshlanib, loyiha davrining keyingi har bir bosqichida davom etishi kerak.

Ijtimoiy tahlil to'rt asosiy sohaga e'tiborni jamlaydi. Bular:

1. Loyihaga ta'sir ko'rsatadigan aholining ijtimoiy-madaniy tavsifi, miqdoriy tavsifi va ijtimoiy tuzilmasi bo'yicha tahlil. Misol uchun loyiha qishloq aholisi turmush darajasini yuksaltirishga qaratilgan bulsin. Unda

Farg'ona voliysi aholisi va Kashqadaryo qishloq aholisining turmush darajasini xarakteristikasida, joylashuvi va demografik xususiyatlarida ma'lum o'ziga xoslik mavjud. SHularni hisobga olib, loyihani aholi tomonidan qo'llab- quvvatlashishiga erishish juda muhimdir.

2. Loyiha amal qiladigan hududdagi aholi tomonidan ishlab chiqarishni tashkil qilish shakllari, shu jumladan oilalar, uy xo'jaliklari tuzilmasi, ishchi kuchining mavjudligi, erga egalik qilish shakllari, resurslardan foydalanish imkoniyati va ulardan foydalanishni tartibga solish masalalari tahlili. Misol uchun meva-konserva zavodiga pamidorni aholi yoki dehqon xo'jaligi etkazib berishi nazarda tutildi deylik. Dehqon xo'jaligining o'ziga xos xususiyatlarini xisobga olmaslik va ularni qo'llab quvvatlashishiga loyihada erishmaslik kelgusida korxonani xom ashyo bilan ta'minlashda uzilishlarga olib kelishi mumkin. Farg'ona vodiysida zamonaviy konserva zavodlari xuddi shu sababli xom ashyosiz qolib ko'p muammolarga duch kelganlar.

3. Loyihaning mahalliy madaniyat nuqtai nazaridan talabga javob berishi, xususiyl loyihaning mavjud ijtimoiyl me'yorlarga moslashuvchanligi, kishilarning qarashlarida, o'z ehtiyojlarini anglashlarida zarur o'zgarishlar yasashga qobilligi. Loyihalarda xuddi shu xususiyatlardan kelib chiqib xashar qilinishi loyihaning muvaffaqiyatli amalga oshirilishini ta'minlaydi.

4. Loyihadan uni amalga oshiruvchi tashkilot hamda mahalliy aholi manfaatdorligini ta'minlash strategiyasi. Bundan maqsad aholi va maxalliy tashkilotlarning loyihaning barcha bosqichlarida uzluksiz ishtirokini ta'minlashdir.

## **9.2.Aholining ijtimoiyl-madaniyl va demografik xususiyatlari**

Ijtimoiyl tahlilda ijtimoiyl-madaniyl va demografik xususiyatlarni to'la xisobga olmaslik jahon mamlakatlari va xaqaro-moliya institutlarining tajribasida loyihalarning samarasiz bo'lishiga sabab bo'lgan. Misol uchun Misrda Nil daryosiga qurilgan Asuan to'g'onini eslab o'tish kifoyadir.

Ijtimoiyl tahlilning birinchi bosqichi loyiha yo'naltirilgan aholi

guruhi, uning miqdori va tarkibini aniqlashdan iborat.

Loyiha yo'naltirilgan aholining turmush tarzi ko'pincha uni ishlab chiquvchi kishilarning turmush tarzidan farq qiladi. SHu tufayli rejalashtirish jarayonlariga mahalliy aholi jalb etilmasa, loyiha mahalliy sharoitga mos kelmasligi mumkin. Mahalliy sharoitlarni bilmaslik, bu to'g'rida bir guruh shaxslar, xususan, yo'lboshchilarning interv'yu yo'li bilan olingan fikriga ko'ra ish yuritish aholi ko'pchilik tabaqalari qarashlarining e'tiboridan Chetda qolishiga olib keladi.

SHahar hamda qishloq joylaridagi oilaviy xo'jaliklar tarkibi to'g'risida to'g'ri tassavurga erishish ham katta kuch talab etadi. SHahar joylari uchun mo'ljallangan ayrim loyihalarda bu erlarda oila a'zolari qishloq joylarida muhim rol o'ynovchi ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimidan butunlay aloqasini uzgan deb qaralgan. Aslida kam ta'minlangan shahar oilasi tez o'zgarib turuvchi ijtimoiy koalitsiya hisoblanadi. Iqtisodiy va siyosiy sharoitlar o'zgarishi ta'sirida bu oila bolalari bir uy xo'jaligidan boshqasiga o'tib turadilar, boshqa bir a'zolari esa boyroq qarindoshlarinikiga ko'chib o'tadilar. Bunday o'zgarishlar oila a'zolari sonining o'zgarib turishiga moslasha oladigan uy-joy maydonini talab etadi.

Agar loyiha aholini ko'chirishni ko'zda tutsa, ijtimoiy madaniyati va demografik xususiyatlarni e'tiborga olishi zarur. Majburiy ko'chirish o'ziga xos ijtimoiy muammolarni keltirib chiqaradi. U ojizlik, begonalik tuyg'ularini tug'diradi hamda ijtimoiy birdamlik va guruh ishlab chiqarish potentsiali pasayishiga olib keladi.

Ko'chirish dasturlari uy joy bilan ta'minlash, tovon puli to'lash, ishga joylashtirish tadbirlari bilan bir qatorda, kishilarga ularning turmush darajalari yaxshilanishini kafolatlashi kerak.

### **9.3. Loyiha va mahalliy madaniyat talablar**

Ko'p sonli aholiga ta'sir etuvchi loyihalar muvafaqqiyatli bo'lishi uchun ularning ko'pchiligi loyiha maqsadini tushinishlari va uni qo'llab - quvvatlashlari kerak. SHu tufayli loyihalarni ishlab chiqish va amalga oshirish jarayonida mahalliy qadriyatlar tizimini, urf-odatlar, an'analar,

aniqlangan ehtiyojlar va maqsadlarni hisobga olish zarur.

Milliy iqtisodiyot nuqtai nazaridan samarali bo'lgan loyihalar mahalliy aholi uchun tushunarsiz yoki ular fikriga ko'ra, ahamiyatsiz bo'lishi mumkin. Oqibatda loyihalar mahalliy aholi tomonidan qo'llab-quvvatlanmaydi. Ijtimoiy tahlil mahalliy sharoitlarga asoslangan holda loyiha vazifalari va umumiy maqsadlarni mahalliy aholining individual maqsadlari bilan bog'lash yo'llarini ko'rsatib beradi.

Oilani rejalashtirish masalasida ham mahalliy madaniyatning o'ziga xos xususiyatlari loyiha maqsadiga yoki umumiy maqsadlarga erishishga ta'sir ko'rsatadi. Loyiha natijalari odamlarning loyiha va undan keladigan foyda o'rtasidagi bog'liqlikni qanchalik tushunishiga bog'liq bo'lgan yana bir soha- sog'liqni saqlash sohasidir.

O'zbekistonda 2009 yildan boshlab qishloq qurilish banki va qurilish smeta institutlari hamkorlikda har bir viloyatni tabiiy-iqlimiy sharoitini va milliy urf-odatlarini hisobga olib uy-joy qura boshladi. Bu loyiha ijtimoiy lohiyalar guruhiga kiradi. Qishloq aholisining ijtimoiy xususiyatlarini to'laqonli xisobga olish loyihaning muvaffaqiyatini ta'minlaydi.

#### **9.4. Loyihalardan manfaatdorlikni ta'minlash masalalari**

Loyiha muvaffaqiyatining yana bir shartining maqsad guruhining loyihada manfaatdorligini, uni qo'llab-quvvatlash va ishtirokini ta'minlashdir. Bu loyihani samarali ekspluatatsiya qilish garovidir. Kishilar o'zgarishlar qilish uchun tavakkalchilikka borishlari va loyiha maqsadlariga erishishlari uchun qilgan kuch-g'ayratlari o'zini oqlashiga ishonch hosil qilishlari kerak. Loyihada ishtirok etish barcha bosqichlarda va shakllarda bo'lishi mumkin, jumladan:

1. Investitsiyalarni tanlash va rejalashtirish borasida maslahat.
2. Ishchi kuchi bilan ishtirok etish.
3. Moddiy va pul resurslari bilan ishtirok etish;
4. Loyiha bajarilishini kuzatib borish va hokazo.

Mahalliy aholining loyihada ishtirok etishi loyiha rahbarlariga jami xarajatlarni o'zgartirmagan holda ko'proq sonli aholiga loyihadan manfaat etkazish imkonini beradi. Qaror qabul qilingunga qadar mahalliy aholidan

maslahat olish loyihalarga ko'rsatiladigan qarshilikni minimallashtirish, undan keladigan manfaatni ko'paytirish, xizmat muddatini uzaytirish imkonini yaratadi. Masalan, fermerlar qishloq xo'jaligi xodimlari ishlab chiqarish texnologiyalari bozorlarining holati, loyihaning mumkin bo'lgan ekologik oqibatlarini to'g'risida muhim axborot manbai hisoblanadilar. Suv inshootlari qurish va qishloq xo'jaligiga tegishli boshqa loyihalarda bu axborotlar juda muhim rol o'ynaydi.

Mahalliy aholining loyihada ishtirok etish imkoniyatlarini kengaytirish strategiyasi muvaffaqiyati aholining uyushmalarga birlasha olish qobiliyatiga bog'liq. Bu uyushmalar orqali ular o'z manfaatlarini aniqlaydilar va himoya qiladilar. Tashkiliy va texnik imkoniyatlar tajriba orttirish bilan kengaytirib boriladi. Ammo loyihani ekspluatatsiya qilish boshlangunga qadar mahalliy aholini o'qitib, bu jarayonlarga tayyorlash ko'proq samara beradi (O'zDeuAvto loyihasi bo'lgani kabi).

Mahalliy institutsional tizimlarni yaratish uchun vaqt talab qilinishi sababi ko'p loyihalarda ilgari mavjud bo'lgan tashkilotlarga tayaniladi. Ammo bu tashkilotlarga yangi vazifalar yuklatilganda ular oldindan bajarib kelgan vazifalarni keskin emas, balki asta-sekin kengaytirib borishi kerak.

Mavjud mahalliy tashkilotlardan foydalanish o'z afzalliklariga ega bo'lsa-da, bu yangi tashkilotlar muvaffaqiyatsiz ishlashini anglatmaydi. Yangi tashkilotlar faoliyatining muvaffaqiyati boshqa omillar qatorida yangi guruh mavjud ehtiyojlarni lozim darajada qondira olishiga, xodimlarning tayyorgarligi darajasiga, muddatlarning realligiga ham bog'liq.

### **9.5. Ijtimoiy loyihalarda xotin-qizlarning roli**

O'zbekistonda xotin – qizlarning iqtisodiyotda va jamiyatda tutgan o'rnini yanada yuqori darajaga etkazish uchun davlat darajasida e'tibor qilinadi. SHu sababli loyixalarni barcha bosqichlarida xotin qizlar masalasiga doimo baho berilishi kerak.

Ko'pincha loyihalar muhokama etilayotganda butun dunyoda xotin-qizlar aholining yarmidan ko'pchiligini tashkil etishi e'tibordan Chetda

qoladi. Loyihalarda ishtirok etish va ulardan manfaat ko'rishda, jinslar o'rtasida farq borligi, ayollarning iqtisodiy manfaatlari loyihalarda hisobga olinishi shart, chunki bu loyiha muvaffaqiyati garovlaridan biridir. Ko'proq ayollar mehnatiga tayanadigan engil sanoat korxonalarida loyihalarida bu alohida ahamiyat kasb etadi. Ayollar dunyo buyicha qishloq xo'jaligida ishchi kuchining 50%dan 80%gacha qismini tashkil etadi. Oilalarda qishloq xo'jaligida band ayollar soni erkaklarnikidan ko'p. Ular ish kunining uzoqligi erkaklarniki bilan bir xil.

Oiladagi ishlarning katta qismi ular zimmasida. SHu sababli qiz bolalar ta'limi uchun qilingan sarflar eng yaxshi kapital qo'yilma bo'lishi mumkin. CHunki ayollar ma'lumotining yaxshilanishi sog'liqni saqlash, ovqatlanish, bolalar sog'lig'ini yaxshilanishi hamda bolalar o'limining, tug'ilish sur'atlarning pasayishiga olib keladi. Rivojlantirish jarayonlarida ayollar ishtirokini kengaytirish uchun loyihani ishlab chiquvchilar aholi o'rtasida ayollarning loyihada ishtirok etishiga hamda undan manfaat ko'rishiga madaniy, huquqiy, jismoniy, moliyaviy to'siqlar bor-yo'qligini aniqlash kerak. Bunday tadqiqotlar o'tkazishda mamlakat hududlari o'rtasidagi farq e'tiborga olinishi lozim.

## **9.6. Ijtimoiy tahlilda mutaxassislar masalasi**

Loyihalarning yaratilishi bosqichidan samarali amalga oshirilishi bosqichigacha uning muvaffaqiyati birinchi galdan loyihada ishtirok etayotgan mutaxassislarning darajasiga bog'liq.

Ijtimoiy muammolar loyiha davrining turli bosqichlarida yuzaga chiqadi. Loyiha nafaqat salbiy oqibatlarining oldini olish uchun, shuningdek, ijtimoiy o'zgarishlarni boshlash maqsadida kishilar kuch-g'ayratlarini safarbar etishi uchun ham aholi urf-odatlarini, an'analariga moslangan bo'lishi kerak. Ko'pgina ijtimoiy muammolarni aniqlab, mohiyatiga etishning o'ziyoq ularning loyihaga salbiy ta'sirini keskin kamaytirish imkonini beradi.

Professional tayyorgarlik va ijtimoiy tahlil tajribasi potentsial ijtimoiy muammolarni aniqlash uchun o'ta zarur. SHu sababli loyiha tahlilida sotsiolog, antropolog kabi mutaxassislar ishtirokini ta'minlash

kerak. Turli qishloq xo'jaligi muassasalarining chorvachilik bo'limlarida chorva bilan shug'ullanuvchi mutaxassislar bo'lgani holda chorvani etishtirish (chorvadorlar) bilan shug'ullanuvchi mutaxassislarning yo'qligi ko'pgina mamlakatlarda chorvachilik loyihalari samaradorligining pastligi sabablaridan biridir.

Loyihani samarali ishlab chiqish va amalga oshirish quyidan mahalliy aholi ishtiroki va yuqoridan hukumat tomonidan rahbarlik qilinishini talab etadi. Muvaffaqiyatli va iqtisodiy samarali loyihalar kishilarni o'zlarining bir yoki bir necha maqsadlariga erishish yo'lida safarbar etadi va ularni o'z kuchlariga tayanishga o'rgatadi. Rivojlantirish loyihalarida ko'pincha bir-biriga zid keluvchi va o'zaro bog'langan bu ikki shart bir vaqtda bajarilishi kerak. Ijtimoiy tahlil ular o'rtasida muhim bog'lovchi bo'g'in sifatida xizmat qiladi.

Ijtimoiy tahlil boshqa loyihalar tajribasiga, mutaxassislar tajribasi va malakasiga tayangan holda kishilarning ehtimol bo'lgan xatti-harakatlarini ob'ektiv baholash orqali loyihalarni ishlab chiqishni takomillashtirish va amalga oshirishga yordam beradi.

### **Qisqacha xulosalar**

Loyihaning u yoki bu varianti aholining loyiha bilan bog'liq bo'lgan guruhi manfaati nuqtai nazaridan talabga javob berish yoki bermasligini aniqlash ijtimoiy tahlilning vazifasi hisoblanadi. Ijtimoiy tahlil aholi tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan loyiha strategiyasini belgilaydi. Bu tahlil loyiha tahlilining boshqa turlari bilan birga o'tkaziladi.

Ijtimoiy tahlilning birinchi bosqichida maqsad, aholi guruhi, ularning demografik va madaniy tavsiflari o'rganiladi. Loyihani rejalashtirish jarayonlariga mahalliy aholini jalb etish, ularning o'ziga xos qarashlari hisobga olinishini ta'minlash loyiha muvaffaqiyatining muhim shartlaridan biridir. Loyiha muvaffaqiyati shartlaridan yana biri aholining qay shakllarda uyushganligini, ular o'rtasidagi munosabatlar tizimini hisobga olishdir.

Mahalliy aholi loyihalarda quyidagi shakllarda ishtirok etadi:

– investitsiyalarni tanlash va rivojlantirish borasida maslahat;



- ishchi kuchi bilan ishtirok etish;
- moddiy va pul resurslari bilan ishtirok etish;
- loyiha bajarilishini kuzatib borish va hokazo.

Mahalliy aholining loyihalarda ishtirok etishi loyihadan manfaat ko'ruvchilar safini kengaytirish, ya'ni uning samaradorligini oshirish imkonini beradi.

Loyihalarda xotin-qizlar roliga katta e'tibor berish zarur, chunki ayollar jami aholining kamida yarmini tashkil etadilar. Buning uchun loyihada xotin-qizlar ishtirokiga to'sqinlik qiluvchi omillarni aniqlash va ularni bartaraf qilish choralarini ko'rish lozim. Ayniqsa, engil sanoatdagi kabi xodimlarining katta qismi xotin-qizlar bo'lgan tarmoqlarlagi loyihalar uchun bu o'ta zarur.

Loyiha tahlilida sotsiolog, antropolog kabi mutaxassislar ishtirok etishi ijtimoiy tahlil sifatli bo'lishi, loyihadagi turli ziddiyatlarning oldi olinishini ta'minlashi mumkin.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar**

1. Ijtimoiy tahlilning vazifasi va ahamiyatini tushuntirib bering.
2. Ijtimoiy tahlilning to'rt asosiy sohasiga (vazifalariga) izoh bering.
3. Mahalliy aholi madaniy xususiyatlari e'tiborga olinmasligining loyiha uchun salbiy oqibatlari nimalarda ko'rinadi?
4. Aholining demografik xususiyatlari va loyiha samarasi o'zaro qanday bog'langan?
5. Nima uchun mahalliy aholi axborot manbai hisoblanadi?
6. Xotin-qizlarning loyihalar muvaffaqiyatidagi rolini tushuntirib bering.
7. Investitsiyalarni tanlash va rejalashtirish borasida tushuntirib bering.
8. Ishchi kuchi bilan ishtirok etishni tushuntirib bering.
9. Moddiy va pul resurslari bilan ishtirok etishni tushuntirib bering.
10. Loyiha bajarilishini kuzatib borish xaqida nima deya olasiz?

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Колмыкова Т.С. «Инвестиционный анализ» Учебное пособие М: ИНФРА-М -2009.-202-230 стр. Учебники экономического факультета МГУ им. Ломоносова.
2. А.Э. Ишмухамедов, М.С.Қосимов, З.А. Джумаев, Г.Я.Мухамеджанова. Лойиха таҳлили. Т: ТДИУ. 2006.-137-145 б.
3. Балдин К.В. Инвестиции и инновации. Учебное пособие. \ К.В. Балдин, И.И. Передеряев и др.-2- изд- М: Издательское –торговая корпорация «Дашков и К», 2010. -145-238 с.
4. Николаев М.А. Инвестиционная деятельность: Учебное пособие \ М.А. Николаев-Финансы и статистика, ИНФРА. М-2009-245-336 стр.
5. Тюрина А.В. Инвестиции. Практикум. Учебное пособие. \ А.В. Тюрина-М: КНОРУС.2010.- 178-208 стр

## **X-BOB. INSTITUTSIONAL TAHLIL**

### **10.1. Institutsional tahlilning mohiyati va maqsadlari**

Institutsional tahlil loyiha ustida bajariladigan ishlarning eng muhimlaridan biriga aylandi. Loyihalarining natijalari ko'p jihatdan tashkiliy tuzilma sifatiga ham bog'liq. Loyihani amalga oshiruvchi tashkilotlarni o'rganish, ularning boshqaruv imkoniyatlari, shuningdek, markaziy hokimiyatning loyiha uchun mutasaddi bo'lgan tashkilotlarga yordam berishga qanchalik tayyor ekanliklarini baholashga imkon beradi. YAxshi shakllanmagan, takomillashmagan boshqaruv tuzilmasiga, malakali mutaxassislar, axborot tizimlari va hokazolarga ega bo'lmagan tashkilotlar zimmasiga loyihalarni amalga oshirishni topshirish yoki ular taklif etgan loyihalarni moliyalashtirish muvaffaqiyatsizlikka olib kelishi mumkin (yoki hech bo'lmaganda qo'shimcha xarajatlarni keltirib chiqaradi).

Institutsional tahlil loyihalarni samarali amalga oshirish va eksplutatsiya qilishga, shuningdek, mavjud tashkilotlarni mustahkamlash, malakali mutaxassislar bilan to'ldirishga ko'mak berishi lozim. Kuchli institutlarni tashkil etish loyihaga ko'ra foydalaniladigan milliy hamda xalqaro resurslarni muhofaza qilgan holda loyihalarni samarali amalga oshirish imkonini beradi. Investitsiya loyihalari institutsional tahlili (IT) dan maqsad loyiha amalga oshirilayotgan makondagi tashkiliy, huquqiy, siyosiy va ma'muriy vaziyat (muhit) ga baho berish hamda loyihaga jalb etilgan tashkilotlarning imkoniyatlarini mustahkamlash chora-tadbirlari borasida tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Tavsiyalar quyidagi masalalarni qamrab oladi:

a)menejment uslublari va usullari, shu jumladan, monitoring va baholash;

b)tashkiliy tuzilma, undagi o'zgarishlar;

v)rejalashtirish, shu jumladan, investitsiyalarni joylashtirishni rejalashtirish;

g)xodimlar tarkibini to'ldirish, o'qitish, malakasini oshirish;

d)moliyaviy faoliyat, shu jumladan moliyaviy faoliyatni boshqarish,

- smetalar tuzish, buxgalteriya hisobi va taftish;
- e) loyihalarning moddiy-texnik ta'minoti;
  - j) ekspluatatsiya va texnik xizmat ko'rsatish tizimlari;
  - z) tashkilotlararo muvofiqlashtirish;
- i) alohida sektorlarga nisbatan siyosat masalalari.

Bu vazifalar nafaqat loyihalarni amalga oshirayotgan va ekspluatatsiya qilayotgan tashkilotlar, shuningdek, loyiha muvaffaqiyatiga ta'sir ko'rsatuvchi hukumat va tarmoq tuzilmalariga, ya'ni vazirliklar, idoralar, banklar, tadqiqot muassasalariga ham tegishli.

O'tish davrini boshidan kechirayotgan mamlakatlarda institutsional tahlilning muhim vazifalaridan biri eski davlat tashkilotlarini bozor iqtisodiyotidagi boshqacharoq vazifalarni bajarishga moslashgan yangi tashkilotlar, agentliklar va korxonalariga aylantirish bo'lgan. Bu muammoning naqadar muhimligi bir qator mamlakatlarda ommaviy xususiyashtirish loyihalarini amalga oshirish chog'ida yaqqol namoyon bo'ldi. Jumladan O'zbekistonda jahon bankining paxtachilik industriyasini takomillashtirish bo'yicha loyihasi misol bo'la oladi Iqtisodiyotni qayta qurish sharoitida loyihaga mutasaddi bo'lgan tashkilotlar uchun "mulkchilik" kontseptsiyasi o'ta muhim hisoblanadi. Loyihani amalga oshiruvchi tashkilotlar uning muvaffaqiyati yoki muvaffaqiyatsizligi uchun mas'uliyatni o'z zimmalariga olgandagina ijobiy natijaga erishiladi. Mulq huquqi mutasaddi tashkilotlar menejerlari loyiha maqsadlarini anglashlari va bu maqsadlarga erishish uchun zarur qaror qabul qilish vakolatiga ega ekanliklarini anglatadi. Bunday vaziyatda ularda ham shaxsiy manfaatdorlik, ham loyihaga rahbarlik qilish imkoniyati mavjud bo'ladi. Institutsional tahlilning kattagina qismi "mulkchilik" omili loyihani muvaffaqiyatli amalga oshirishga qanchalik ta'sir etishini aniqlashga qaratilgan.

## **10.2. Institutsional tahlil tuzilmasi**

Investitsiya loyihalarini institutsional tahlil uchun konkret sharoitlarga tezda moslashtirsa bo'ladigan standart echimlar yoki modellar deyarli yo'q. Institutlarni rivojlantirish uzoq davom etuvchi eksperimentlar

va adaptatsiya (moslashuv) jarayonlaridan iborat. Bu jarayonlar esa ko'pincha siyosiy va iqtisodiy vaziyatning salbiy o'zgarishlari tufayli muvaffaqiyatsizlikka uchraydi. Umuman olganda institutsional tahlilga quyidagi vazifalarni bajarish kiradi: **-loyiha amalga** oshiriladigan institutsional shart-sharoitlarni (tashkilotlar, me'yoriy hujjatlar va siyosiy omillarni) aniqlash va tasvirlab berish;- loyihada ishtirok etuvchi tashkilotlarning moddiy va mehnat resurslari, texnik malakasi, tashkiliy tuzilmasi, boshqaruv va ma'muriy imkoniyatlari, moliyaviy ahvoli nuqtai nazaridan kuchli va zaif tomonlarini baholash;

- qonunlar, siyosat va yo'riqnomalar o'zgarishining loyihani amalga oshirish va ekspluatatsiya qilishga (ayniqsa, atrof-muhitni muhofaza qilish, ish haqi, baholar, subsidiyalar, tashqi savdo, valyuta kursi va hokazolarga ) ehtimol bo'lgan ta'sirini baholash;

- loyihada qatnashuvchi tashkilotlarning zaif jihatlarini bartaraf qilishning muqobil yo'llarini hamda qonunlar, siyosat va yo'riqnomalarning loyihaga ko'rsatishi mumkin bo'lgan potentsial salbiy ta'siriga qarshi chora-tadbirlarni ilgari surish (tegishli takomillashtirish ishlari loyiha amalga oshirilayotgan va ekspluatatsiya qilinayotgan vaqtda hamda bundan oldin loyiha bo'yicha ish grafigiga ko'ra amalga oshiriladi);

- tavsiya qilinayotgan tashkiliy o'zgarishlarni amalga oshirish uchun kerak bo'lishi mumkin bo'lgan texnik yordam bo'yicha takliflarni ilgari surish hamda zarur ishlarni o'tkazish grafigini ishlab chiqish.

### **10.3. Loyiha ishtirokchilari faoliyatidagi doimiy muammolar**

Iqtisodiyotni qayta qurish jarayonida ikki muhim institutsional muammo kuzatiladi. Birinchidan, bu mavjud hukumat muassasalarini isloh qilish zarurati, ikkinchidan, eski tuzumda mavjud bo'lmagan yangi institutlarni tashkil etish. Masalan, sobiq Sovet Ittifoqi respublikalarida bank tizimi, birjalar va boshqa bir qator institutlar mavjud emas edi. Bozor iqtisodiyotiga o'tish ushbu zarurlarni keltirib chiqardi va tijorat banklari, birjalar, lizing kompaniyalari, mikromoliya institutlari kabi yangi bozor institutlari yaratildi.

Iqtisodiy islohotlar, yangi bozor institutlarining yaratilishi shubhasiz, ishsizlik va boshqa ijtimoiy muammolarni keltirib chiqaradi. Xususiyl sektor va bandlikning boshqa muqobil sohalari ishga tushguniga qadar esa ancha uzilish yuzaga keladi. SHu tufayli o'tish davri iqtisodiyotida institutsional islohotlar ijtimoiy himoya tizimini yaratish bilan birga bormasa, amalga oshirib bo'lmaydigan vazifaga aylanadi. O'zbekistonda bozor iqtisodiyotiga bosqichma – bosqich utilishi va bozor iqtisodiyotiga utish tajribasi O'zbekiston modeli nomi bilan jahonda tan olindi. Bu institutsional rivojlanishning o'ziga xos va zamonga mos yo'li bo'lib tarixda qoldi.

Institutsional muammolarni xarakterlash uchun ko'pincha zarur echimlarni topishga halaqit beruvchi yuzaki atamalar qo'llaniladi. Masalan, qiyinchilikka uchragan loyiha haqida, uning "rahbarlari zaif" deyilsa, loyiha muvaffaqiyatini "loyihaning harakatchan menejeri" bilan bog'lashadi. Moliyaviy faoliyatni nazorat qilishda yuzaga kelgan qiyinchiliklarni esa ko'pincha buxgalteriyada personal komp'yuterlarning yo'qligi bilan izohlashadi, xodimlar va ma'muriyatning qoniqarsiz ishi esa, xodimlarda etarli malaka yo'q, deb osongina izohlab qo'yiladi.

Ammo bu ko'rinib turgan kamchiliklarni tuzatish bo'yicha taklif qilingan qarorlar ko'pincha navbatdagi muammolar qatlamini aniqlashning ancha qimmat turadigan yo'lidir. Albatta, yaxshi menejer kerak. Lekin menejerlar aslida ishga layoqatli bo'lsalaru bir-biriga zid talablarga duch kelishsa hamda bu ziddiyatni echish vakolatiga ega bo'lishmasa menejerlarni o'zgartirishdek ko'p vaqt talab qiluvchi va qimmat turuvchi jarayon xech qanday ijobiy natija bermaydi. SHu singari haqiqiy muammo buxgalteriya hisobini avtomatlashtirish emas, balki aniq axborotning kelib turishi bo'lsa komp'yuter o'rnatish bilan masala echilib qolmaydi.

Ko'pgina davlatlarda vazirliklardagi byudjet hisob-kitoblarida personal komp'yuterlarni qo'llash nafaqat axborotlarni qayta ishlash hajmlarini ko'paytirish va tezligini oshirish tufayli, shuningdek, vazirliklar rahbarlariga axborot tizimining o'zini o'zgartirish imkonini bergani uchun ham muvaffaqiyatli bo'ldi. Natijada shu mamlakatlarda hisobotlarni topshirish tartibi soddalashdi va shu qadar tezlashdiki, topshirish muddatlari hafta va oylar o'rniga kunlargacha qisqardi hamda turli xildagi

va hajmdagi xarajatlar oqibatini ancha aniqroq baholash tizimini o'rnatishga erishildi.

Xuddi shuningdek, ayrim hollarda xodimlar malakasining etishmasligi ularning qoniqarsiz ishlashining vazifalarini belgilash va stimullar tizimida aniqlik etishmasligi, xizmatda ko'tarilish imkoniyatlari cheklanganligi kabi omillarga nisbatan ikkinchi darajali sababi bo'lishi mumkin. Bu omillarda o'zgarish yasamasdan turib, xodimlarni o'qitish borasidagi chora-tadbirlar kutilgan natijani bermaydi.

Qisqacha qilib aytganda, odatda, loyihalarni amalga oshirayotganda paydo bo'ladigan ko'pgina institutsional muammolar juda chuqur sabablarga ega. Bu sabablarni aniqlamasdan turib esa uzoq muddatli qarorlar qabul qilish qiyin. Sanab o'tilgan qiyinchiliklardan ko'pini hal etish o'nlab yillarni talab qilishi mumkin. Chunki ular chuqur iqtisodiy, texnik, ijtimoiy va madaniy cheklanishlarni aks ettiradi. Yangi institutlar o'z jamiyatida ildiz otishi va o'z madaniy muhitiga moslashishi kerak. Texnik va boshqaruv layoqati siyosatni samarali rejalashtirish, ishlarni dasturlash, moliya va kadrlarni boshqarish va hozirgi zamon tashkilotining boshqa muhim vazifalarini bajarishni ta'minlashi uchun asta-sekin yaxshilanib borishi kerak.

O'zbekistondagi institutsional rivojlanish jarayoni xuddi shu xalqaro tajribaga, uning xulosalariga asoslandi va uning tajribasi xalqaro ko'lamda e'tirof etildi. 2010 yilning may oyida bo'lib o'tgan Osiyo taraqqiyot bankining boshqaruvchilarining yillik anjumanini eslab o'tish kifoyadir.

#### **10.4. Bozor iqtisodiyoti institutlarni tashkil etishga ta'sir etuvchi omillar**

Loyihalar bozor iqtisodiyotining samarali rivojlantirish quolidir. Bu qurolni ishlashi uchun bozor iqtisodiyoti institutlari yaratilishi va mavjudlari ishlab chiqarish kuchlarining talabiga monand o'zgarib borishi shart.

Zaruriy institutlarni tashkil etish (ayniqsa, rivojlantirish loyihalari bilan bog'liq hollarda) uch guruh omillar ta'sirida murakkablashadi. Bular:

a) noqulay siyosiy shart-sharoitlarning salbiy ta'siri;

- b) loyiha oldiga qo'yilgan maqsadlarning murakkabligi;
- v) loyihaning investitsiyadan keyingi bosqichiga e'tiborsizlik.

SHu tufayli institutsional muammolarni aniqlash, baholash hamda echish borasida tavsiyalar ishlab chiqish uchun (bu borada umumiy modellar, andozalar yo'qligini ham e'tiborga olgan holda) sanab o'tilgan omillarni e'tiborga olish zarur.

### ***Siyosiy omillar ta'siri***

Barcha taraqqiyot loyihalari xoh u davlat sektorida, xoh u xususiy sektorda bo'lsin, hukumat makroiqtisodiy siyosatining hamda bu siyosatni o'zida mujassamlashtirgan qonunlar va me'yoriy hujjatlar kuchli ta'siri ostida bo'ladi. Agar tashkiliy tuzilmalar o'z kuch va resurslarini siyosiy qarorlarining salbiy ta'siriga qarshi kurashga sarflashga majbur bo'lsalar bu tuzilmalar uzoq istiqbolga muvaffaqiyat bilan ishlay olmaydilar. Hokimiyat loyiha amalga oshirilayotgan iqtisodiy shart-sharoitlarni (jiddiy suratda) buzib ko'rsatsa, institutsional muammolar soni ortib ketadi. Asosanmagan valyuta almashuv kursi yoki savdo siyosati nafaqat loyiha bo'yicha olinadigan daromadlar darajasiga ta'sir ko'rsatadi, shuningdek, ehtiyot qismlarni qidirib topish, eksport-import operatsiyalari yo'lidagi byurokratik to'siqlarni engish kabilarga ortiqcha kuch kelishga olib keladi.

Ayniqsa, xalqaro loyihalarga davlatning narh va byudjet siyosati loyihaning iqtisodiy va moliyaviy faoliyatiga katta ta'sir etadi. O'zbekistonda davlat manfaatlari va mamlakat aholisining manfaatlari bilan loyihaning maqsadlari/manfaatlari uyg'unlashsagina loyiha ijobiy baholanadi. Mana shu qoidaga O'zbekiston hukumati qat'iy rioya qilishi natijasida mamlakat mustaqqilligining birinchi 20 yilligi yakunlari bo'yicha O'zbekistonning tashqi qarzi yo'q va u imoprt salohiyati jihatidan dunyodagi juda kam mamlakatlar sirasiga kiradi. SHuni dalil sifatida aytish kerakki, O'zbekiston hukumati Jaxon Banki bilan ishlagan birinchi loyihadan (O'zbekistonda paxtachilik industriyasini takomillashtirish loyihasi) shu qoidaga amal qilib kelmoqda va avvallari tanqidiy ko'z bilan qaragan Jaxon Bankining ekspertlari va maslaxatchilari bu qoidaning naqadar to'g'ri ekanligini xozirda tan olishmoqda. (Osiyo taraqqiyot banki boshqaruvchilarining may 2010 yilgi yillik anjumanlari



materiallariga qarang).

### ***Maqsadlar murakkabligi***

Ko'pchilik iste'molchilar va manfaat ko'ruvchilar talabini ifoda etuvchi yirik, ijtimoiy yo'naltirilgan rivojlantirish loyihalarida ko'p hollarda loyiha maqsadi va unga erishish vositalarini belgilash qiyin bo'ladi. Bunga misol tariqasida ta'lim dasturi va mineral o'g'itlar ishlab chiqarishga investitsiya sarflari loyihalarini taqqoslashimiz mumkin. Ma'lumotli va o'zgaruvchan sharoitlarga tez moslashuvchan kishilarni tayyorlash vazifasini ma'lum miqdordagi o'g'it ishlab chiqarish vazifasiga ko'ra baholash qiyin. O'qitish dasturida maqsadga erishish usullari ham ancha murakkab va noaniqdir.

Ayrim loyihalarda maqsadlar aniq-ravshan bo'lsa-da, ular shunchalik ko'pki, ularning hammasiga bir tekis erishishni ta'minlab bo'lmaydi. Masalan, qishloq tumanlarini kompleks rivojlantirish loyihalari qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishni ko'tarish, infratuzilmani rivojlantirish, ijtimoiy xizmatlarni kengaytirish, madaniy an'analarni o'zgartirish kabi maqsadlarga duch keldi.

Ijtimoiy yo'naltirilgan loyihalar ko'p sonli aholi bilan ish ko'radiki, loyiha agentligi ularga doim ham bevosita ta'sir ko'rsata olmaydi (elektrostantsiya direktori o'z xodimlariga ta'sir ko'rsatishiga o'xshab).

Loyihani o'rab turgan muhitga nisbatan uni boshqarishning uch jihatiga alohida to'xtalib o'tish zarur:

1. Standart va eksperimental loyihalardan foydalanish.
2. Ishlarni muvofiqlashtirish uslublari.
3. Boshqaruv nazoratini takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar.

Infratuzilmalar, kommunal inshootlar va yirik sanoat korxonalarini qurish loyihalari tashkiliy jihatdan birmuncha afzallikka egalar. YA'ni ular uchun zarur tashkiliy tadbirlar va texnologiyalar, standart echimlar mavjud. Ko'pchilik loyihalar uchun esa standart echimlar, texnologiyalarni qo'llab bo'lmaydi. Bunday sharoitda moslashtirish qobiliyati tashkiliy tuzilmaning muvaffaqiyat garovi bo'lishi mumkin. Moslashtiruv ishi byurokratik muassasalar uchun ayniqsa qiyin kechadi. Bunga ularning rejali xarajatlar haqida doimiy hisobot berishga majburliklari va har

qanday xavfdan qochishlari sababki, bu hol ularni konservativ qilib qo'yadi. Ayrim hollarda loyihani amalga oshiruvchi tashkilotga murakkab institutsional va moddiy-texnik talablar qo'yiladigan bitta yirik loyihadan ko'ra, o'rnatilgan grafik bo'yicha bir nechta eksperimental loyihalarni amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'lishi mumkin.

Eksperimental loyihalarga muqobil variant - kichik dasturlarni subpudratchi tashkilotlarga topshirishdir. Bunda bosh pudratchi bunday dasturlarni moliyalashtirish, texnik yordam ko'rsatishni o'z zimmasiga oladi.

### ***Muvofiqlashtirish muammolari***

Yirik loyihalarga xos bo'lgan tashkiliy muammolarni hal etishning yana bir yo'li loyihaning bosh maqsadiga erishish uchun qaysi faoliyat turlari asosiy ekanligini aniqlab, cheklangan tashkiliy resurslarni shu faoliyatga jamlash hamda ikkinchi darajali vazifalarni keyinroqqa qoldirishdir. SHunday yondashuvni loyiha bo'yicha ishlarni muvofiqlashtirishga nisbatan ham qo'llash mumkin, chunki ko'p sonli ijrochilar faoliyatini muvofiqlashtirish ko'p vaqt talab etadi va kerakli natija bermasligi mumkin. Muvofiqlashtirishni inkor etib bo'lmaydigan sharoitlarda turli ijrochilar vazifalari aniq-ravshan belgilanishi kerak. Ikkinchi darajali resurslarni nazorat etuvchilar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi komitet tuzgandan ko'ra ularni kichik ishchi guruhlariga birlashtirish muvofiqlashtirishning samaraliroq mexanizmi bo'lishi mumkin.

### ***Boshqaruv nazoratini takomillashtirish chora-tadbirlari***

Loyiha natijalarini baholashdagi qiyinchiliklarni loyiha faoliyatining mumkin qadar kichikroq nazorat va boshqaruv oson bo'lgan vazifalarga bo'lish yo'li bilan kamaytirish mumkin. Ta'lim va ijtimoiy masalalar bo'yicha loyihalarda moliya faoliyatini boshqarishga katta e'tibor beriladi. Moliyaviy oqimlarni hisobga olish va nazorat qilish esa bu loyihalardagi noaniqliklarni kamaytirar va ularni boshqarishni yaxshilar, moliyaviy tartibni mustahkamlagan bular edi. SHuningdek, zamonaviy boshqaruv axborot tizimini yaratish imkoniyatini beradiki, bu o'z navbatida loyihani

samarali boshqaruvning asosiy unsuridir. Patent berish yoki kommunal xizmat ko'rsatish bo'yicha xususiy korxonalar bilan kontrakt tuzish uslublari boshqaruv nazoratini takomillashtirish usuli sifatida keyingi yillarda alohida e'tibor jalb etayapti. Turli sabablarga ko'ra hukumat idoralari bilan shartnoma asosida ishlovchi xususiy korxonalar tomonidan kommunal xizmatlar ko'rsatish transport, sog'liqni saqlash kabi sohalarda xizmat sifatini oshirishga, xarajatlarni qisqartirilishiga olib keladi.

### **10.5. Loyihalarning investitsiyalardan keyingi bosqichiga e'tiborsizlik**

Loyihalarni amalga oshirishdan keyingi bosqichga doim ham etarlicha e'tibor berilavermaydi. Ko'pincha bu holat qaror qabul qiluvchi shaxslarning asosiy e'tibori investitsiyalash bosqichiga jamlangani holda, ekspluatatsiya va joriy xizmat masalalari e'tibordan Chetda qolishida namoyon bo'ladi. Buning oqibatida loyihadan olinayotgan daromad kamayadi, asosiy fondlar qisqarib ketadi hamda tashkiliy tuzilma rivojlanishida jiddiy moliyaviy va boshqaruv muammolari kelib chiqadi. Loyihani amalga oshirishdan manfaatdor bir qancha tashkilotlar va shaxslarni sanab o'tish mumkin (Masalan, xorijiy investorlar, siyosatchilar, kompaniyalar va kasaba uyushmalari). Lekin loyiha tugallanishi bilanoq uni samarali ekspluatatsiya qilish uchun zarur bo'lgan resurlar bilan ta'minlash hamda ma'muriy boshqaruv tizimi tomonidan etarlicha e'tibor berish borasida muammolar paydo bo'ladi.

Loyihani ekspluatatsiya qilish bosqichiga e'tiborsizlikning ko'rinishlaridan biri texnik xizmat ko'rsatish xarajatlari va undan keladigan daromadlarga kam ahamiyat berilishidir. Bu sohaga etarli e'tibor berilishi loyihadan kutilayotgan samarani yanada oshiradi. Loyihani ekspluatatsiya qilish bosqichiga e'tiborsizlik oqibatlaridan biri qaytarilib turuvchi investitsiya xarajatlari etarli darajada tahlil qilinmasligidir. Buning ustiga, bu xarajatlarni qoplash manbalari zarur darajada rejalashtirilmaydi. O'zbekistoda paxtachilik industriyasini takomillashtirish loyihasida loyiha sanoat korxonasining menedjementi bilimlarining etishmasligi, Chet el investorining e'tiborsizligi va sust tadbirkorlik sanoat

korxonasining etarli darajada samara bilan ishlay olmasligiga asosiy sabab bo'ldi. Loyixaning xususiy sektor korxonalarining taxlili kelgusi loyihalarda bunday kamchiliklarga yo'l qo'ymaslikni o'rgatadi.

### **Qisqacha xulosalar**

Investitsiya loyihalarini institutsional tahlil qilishdan maqsad loyiha amalga oshirilayotgan makondagi tashkiliy, huquqiy, siyosiy va ma'muriy vaziyat (muhit)ga baho berish hamda loyihaga jalb etilgan tashkilotlarning imkoniyatlarini mustahkamlash chora-tadbirlari borasida tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Bu tavsiyalar menejment, tashkiliy tuzilma, rejalashtirish, xodimlarni boshqarish, moliya, moddiy texnik ta'minot kabi sohalarni qamrab oladi va ular loyiha muvaffaqiyatiga ta'sir ko'rsatuvchi hukumat va tarmoq tuzilmalariga, ya'ni vazirliklar, idoralar, banklar, tadqiqot muassasalariga ham taalluqlidir.

Iqtisodiyotni qayta qurish jarayonida ikki muhim institutsional muammo kuzatiladi. Birinchidan, bu mavjud hukumat muassasalarini isloh qilish zarurati bo'lsa, ikkinchidan, eski tuzumda mavjud bo'lgan yangi institutlarni tashkil etishdir.

Loyiha ishtirokchilari faoliyatida menejer malakasi, uning vakolatlari etishmasligi, axborot etishmasligi yoki axborot tizimining murakkabligi, xodimlarni rag'batlantirish tizimida aniqlik etishmasligi kabi chuqur sabablarga ega institutsional muammolarga duch kelinadi.

Loyihani amalga oshirish uchun zaruriy institutlar tashkil etishga uch guruh omillar aks ta'sir ko'rsatadi. Bular:

- a) noqulay siyosiy shart-sharoitlar (siyosiy omillar);
- b) loyiha oldiga qo'yilgan maqsadlarning murakkabligi;
- v) loyihaning investitsiyadan keyingi bosqichiga e'tiborsizlik.

Davlatning noto'g'ri baho va byudjet siyosati, iqtisodiy faoliyatini qat'iy tartibga solish, byurokratik to'sqinlarning mavjud bo'lishi oqibatida bozor signallari buzib ko'rsatiladi, iqtisodiy faoliyat cheklanadi va loyiha muvaffaqiyati shubha ostida qoladi.

Loyiha ishga tushirilgandan so'ng, uni kim ekspluatatsiya qilishi, xarajatlar va daromadlar qanday bo'lishi kabilar ham loyiha muvaffaqiyati

shartlaridan biridir.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar**

1. Institutsional tahlilning mohiyatini tushuntirib bering.
2. Institutsional tahlil vazifalari nimalardan iborat, ya'ni tuzilmasi qanday?
3. Loyihalar uchun zarur institutlarni tashkil etishga ta'sir etuvchi omillar nimalardan iborat?
4. Loyihalarning investitsiyalardan keyingi bosqichiga e'tiborsizlik.
5. Institutsional tahlil loyiha tahlilining boshqa turlari bilan qanday bog'langan?
6. Standart va eksperimental loyihalardan foydalanish haqida nima deya olasiz?
7. Ishlarni muvofiqlashtirish uslublari qanday?
8. Boshqaruv nazoratini takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlari qanday?
9. Menejment uslublari va usullari, shu jumladan, monitoring va baholashtizimi qanday?
10. Tashkiliy tuzilma, undagi o'zgarishlar qanday?

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Марголин А.М. Экономическая оценка инвестиционных проектов. Учебник для вузов. А.М. Марголин, М.ЗАО Издательство экономика, 2007.-320-367стр.
2. А.Э. Ишмухамедов, М.С.Қосимов, З.А. Джумаев, Г.Я.Мухамеджанова. Лойиха таҳлили. Т: ТДИУ. 2006.-157-171 б.
3. Балдин К.В. Инвестиции и инновации. Учебное пособие. \ К.В. Балдин, И.И. Передеряев и др.-2- изд- М: Издательское –торговая корпорация «Дашков и К», 2010. -213-238 с.
4. Николаев М.А. Инвестиционная деятельность: Учебное пособие \ М.А. Николаев-Финансы и статистика, ИНФРА. М-2009.-256-336 стр.
5. Тюрина А.В. Инвестиции. Практикум. Учебное пособие. \ А.В. Тюрина-М: КНОРУС.2010.- 189-208 стр

## **XI-BOB.MOLIYAVIY TAHLIL**

### **11.1. Moliyaviy tahlilning mohiyati va turlari**

Loyihalarni moliyaviy tahlil qilishning metodologik asoslarini IV-VI boblarda ko'rib chiqdik. Moliyaviy tahlilda loyihalarning metodologik asoslaridan foydalaniladi va qo'shimcha moliyaviy tahlil uslublari va yo'nalishlari mukammal ko'rib chiqiladi.

Loyihani moliyaviy tahlil qilish bir necha ko'rinishga ega bo'lib, loyiha turiga qarab, ikki yoki undan ko'proq turdagi moliyaviy tahlil amalga oshirilishi mumkin. Moliyaviy tahlil quyidagi turlarni o'z ichiga oladi:

1. Moliyaviy rentabellik tahlili.
2. Moliyalashtirishga ehtiyoj tahlili.
3. Loyihani ekspluatatsiya qiluvchi tashkilotning moliyaviy tahlili.
4. Xarajatlarning qoplanishining tahlili.

Moliyaviy tahlilning sanab o'tilgan turlari qaysi vazifalarga ega bo'lishi, loyihaning moliyaviy jihatdan maqsadga muvofiqligi u qaysi nuqtai nazardan turib ko'rib chiqilayotganligiga bog'liq.

Moliyaviy tahlilning har xil turlari loyihaning maqsadga muvofiqligini, resurslardan foydalanish samaradorligini, loyiha ishtirokchilari uchun rag'batlarni, moliyaviy rejalarning asoslanganligini, moliyaviy boshqaruvning layoqatliligi darajasini hamda loyihani amalga oshirish natijasida kutilayotgan foyda darajasini baholash uchun qo'llaniladi.

U yoki bu turdagi tahlilni o'tkazish zarurati loyihaning murakkabligi darajasiga, uning xususiy sektordagi yoki davlat loyihasi ekanligiga hamda iqtisodiyotning qaysi tarmog'iga taalluqligiga bog'liq.

Moliyaviy tahlilda daromad va xarajatlarni hisoblashda:

- faqat alohida bozor baholari qo'llaniladi;
- kapital xarajatlar loyihaning butun xizmat davriga taqsimlab chiqiladi (amortizatsiya);
- soliqlar va turli guruhlar o'rtasidagi bir tomonlama to'lovlar hisobga olinadi;

- xususiy diskont stavkasi qo'llaniladi.

## **11.2. Moliyaviy rentabellik tahlili**

Moliyaviy rentabellik tahlilining maqsadi loyihaning hayot davri davomida investitsiyalardan keladigan samarani baholashdan iborat. Bu tahlilni ba'zida loyihaning moliyaviy maqsadga muvofiqligi tahlili deb ham yuritiladi. Bu tahlilni o'tkazishning uslubiy asoslari IV-V boblarda ko'rib chiqilgan. SHu asosga tayanilgan holda rentabellik ko'rsatkichlari hisoblab chiqiladi.

Bu tahlil avvalo loyihadagi pul tushumlari va chiqimlari oqimiga asoslangan holda o'tkaziladi va ana shu oqimlar tahlil qilinadi. Bunda e'tibor loyihani amalga oshiruvchi tashkilotlarga(ularning moliyaviy holatiga) emas, balki loyihaning o'ziga qaratiladi. Moliyaviy rentabellik tahlili tovarlar va xizmatlar savdosini amalga oshiruvchi loyihalar uchun o'ta muhim, lekin kommunal xizmat ko'rsatuvchi va davlatdan qisman dotatsiya olib ishlovchi tashkilotlar uchun uncha ham muhim emas.

Xarajatlarni qoplash tahlili rentabellik tahlilining deyarli xuddi o'zi bo'lib, davlat xarajatlari foydalanuvchilar to'lovlari va soliqlar hisobiga qoplanadigan loyihalar uchun qo'llaniladi.

Moliyaviy rentabellik tahlilida xarajatlar va daromadlar qo'yilgan maqsaddan kelib chiqib aniqlanadi. Xarajatlarni firma yoki ijrochi tashkilotning foydasini kamaytiruvchi moliyaviy oqimlar tashkil etsa, daromadlarni foyda yoki daromadni ko'paytiruvchi moliyaviy oqimlar tashkil etadi.

Xarajatlar va daromadlar oqimlarini loyihalashtirish uchun ishlab chiqarish faoliyatining texnik darajasini belgilab olish, investitsiyalardan ko'zda tutilgan texnik resurslarning loyihaga kirish va chiqishdagi oqimini, loyihalarning bozor va ma'muriy o'rnatiladigan baholarda hisoblangan natijalarini aniqlab olish talab etiladi.

Tushumlar oqimi mahsulot sotish (xizmat ko'rsatish) hajmini ularning harid baholariga ko'paytirib topiladi. Xarajatlar oqimi esa ishlab chiqarishda foydalanilgan moddiy resurslar va xizmatlar miqdorini ularni sotib olish bahosiga ko'paytirib topiladi. Bunday baholash loyihaning

butun yashash davriga, har bir yil uchun o'tkaziladi.

Loyiha uchun zarur resurslar va undan kutilayotgan natijalarni baholashda: birinchidan, ichki va tashqi bozorda yaqinda bo'lib o'tgan bitimlarda qo'llanilgan amaldagi baholar asosida real bozor baholarini; ikkinchidan, kelgusidagi baholarni prognoz qilish lozim.(5-ilova qarang)

Odatda, iqtisodiy va moliyaviy tahlilni o'tkazishda inflyatsiya ta'siridan tozalangan doimiy baholar, shuningdek, inflyatsiya ta'siridan tozalangan diskont koeffitsienti qo'llaniladi.

Loyiha bo'yicha ishlab chiqarilgan tovar (ko'rsatilgan xizmat)lar uchun tushgan barcha to'lovlar, debitorlik qarzlari, subsidiyalar va boshqa daromadlar (ijara haqi va boshqalar) loyiha bo'yicha tushumlarga kiritiladi va uning umumiy samarasini ko'rsatadi.

Xarajatlar o'z ichiga ekspluatatsiya va kapital xarajatlarini oladi. Ekspluatatsiya xarajatlariga ish haqi, material, yoqilg'i xarajatlari, ijara haqi to'lovlari, kommunal to'lovlar, umumiy va ma'muriy xarajatlar, soliqlar, joriy ta'mirlash xarajatlari, hali to'lanmagan, ammo hisobga olingan kreditorlik qarzlari va boshqalar kiradi. Kapital xarajatlarga esa investitsiyalar, loyiha fondlarini alishtirish, modernizatsiya qilish va kapital ta'mirlash xarajatlari kiradi.

Pul oqimlari baholab bo'lingandan so'ng rentabellik ko'rsatkichlari kal'kulyatsiya qilinadi, loyihalashtirilayotgan tushumlar va xarajatlar diskontlanadi va ilovada keltirilgan ko'rsatkichlar hisoblanadi. Moliyaviy ehtiyojni tahlil qilishda loyihani amalga oshirishga ketadigan aylanma mablag'lar alohida valyutada hamda so'mda hisoblanadi. O'zbekiston sharoitida aylanma mablag'larni valyutada shakllantirish ayniqsa katta amaliy ahamiyatga ega. Agar loyihada aylanma mablag'lar valyutada to'g'ri rejalashtirilmasa, loyiha muammoga duch keladi. Misol uchun, loyiha mahsulotining ingredientlari import qilinsa, uni sotib olish uchun valyuta ko'rinishidagi aylanma mablag'lar etarli bo'lishi kerak. SHunda mahsulot ingredientlarni sotib olishda muammoga duch kelinmaydi. Ba'zi loyihalarda aylanma mablag'lar so'mda etarli bo'lsa-da valyutada etarli bo'lmagani uchun korxonalar ingredientlarni import qila olmaydi. Natijada ishlab chiqarish to'xtab qoladi.



### 11.3. Moliyalashtirishga ehtiyoj tahlili

Loyihaning moliyalashtirishga ehtiyojini aniqlashda avvalo milliy valyuta bilan loyiha xarajatlarini qoplash imkoniyatlari o'rganiladi. Milliy valyuta yordamida loyiha xarajatlari qoplansa loyihaning valyuta bilan bog'liqligi kamayadi va uning xatari kamayadi. Milliy valyuta bilan xarajatlarni qoplash mutlaqo ilojsiz bo'lgan holda valyuta bilan xarajatlarni qoplanishi rejalashtiriladi. Loyiha Milliy iqtisod manaatlariga mos kelishini albatta hisobga olinishi shart.

Loyihani moliyalashtirish ikki manba' xisobidan amalga oshirilishi mumkin.

1.O'z mablag'lari

2.Qarzga olingan mablag'lar

Eng avvala o'z mablag'lari xisobiga loyihani moliyalashtirish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Bunda investitsiyalashga ketgan mablag'lar aylanma kapitalni kamayishiga va shu bilan bog'liq muammolarga olib kelmasligi kerak.

Moliyalashtirishga ehtiyoj tahlili loyihani investitsiyalash va uni ekspluatatsiya qilish uchun kerak bo'lgan barcha moliyaviy ehtiyojlarni prognoz qilishni o'z ichiga oladi.

Bu esa zarur resurslar kelib tushishini ta'minlaydigan moliyaviy reja tuzish imkonini beradi. Moliyaviy rejani tayyorlashda xorijiy kreditorlar talablarini bajarishni engillashtirish uchun xorijiy valyutaga bo'lgan ehtiyoj alohida ko'rsatiladi.

Moliyaviy rejada, shuningdek, moliyalashtirishning mahalliy manbalari, loyiha uchun mas'ul bo'lgan tashkilotning o'z mablag'lari va fondlari, davlat va tijorat tashkilotlaridan olinishi mumkin bo'lgan qarzlar ham e'tiborga olinadi.

Moliyaviy rejada loyihani ekspluatatsiya qilish davri xarajatlari o'z aksini topmasa, ekspluatatsiya qilish, joriy xizmat ko'rsatish va ta'mirlash uchun fondlar yo'qligi tufayli loyiha uskunalari eskirib, tezda yaroqsiz holga kelib qoladi.

Moliyaviy reja loyihadan manfaat ko'ruvchilarning u taklif etayotgan mahsulotni sotib olish qobiliyatini hisobga olishi zarur.

Moliyaviy reja joriy baholarda tuzilishi hamda yillar bo'yicha loyihaning butun amal qilish davriga quyidagilarni ko'rsatishi kerak:

- mo'ljallanayotgan kapital mablag'lar va ekspluatatsiya xarajatlari (shu jumladan, baho va fizik ko'rsatkichlarning ko'zda tutilmagan o'zgarishlari hisobga olib kiritilgan tuzatishlar);
- loyiha mahsulotini sotish va boshqa manbalardan keladigan daromad;
- qarzlarni, investitsiyalarni va loyihaning boshqa ehtiyojlarini qoplashning boshqa manbaalari.

#### **11.4. Loyihani ekspluatatsiya qiluvchi tashkilotning moliyaviy tahlili**

Loyihani ekspluatatsiya qiluvchi tashkilotni moliyaviy holati ishonarli va barqaror bo'lishi kerak. SHuning uchun bu masalaga alohida e'tibor qaratiladi.

Loyihani ekspluatatsiya qiluvchi tashkilotni moliyaviy tahliliga uchta moliyaviy hisobotni tayyorlash, tahlil etish va prognoz qilish kiradi:

- daromadlar(foyda va zararlar) hisoboti;
- pul mablag'lari tushumlari va chiqimlari hisoboti;
- balans hisoboti.


Bu hisobotlar loyihaning butun amalda bo'ladigan davri yoki hech bo'lmaganda uni ekspluatatsiya qilishning dastlabki bir necha yiliga tuziladi.

Ko'rsatilgan moliyaviy hisobotlarni prognoz qilish ularning barcha komponentlarini chuqur tahlil qilish, buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotlarning umumiy qabul qilingan qoidalarini bilishni talab etadi. SHu tufayli bu ishni tajribali buxgalter auditorlarga yoki moliyaviy tahlilchiga topshirish kerak.

Foyda va zararlar hisoboti korxonaning ma'lum davrdagi (chorak, yil) ishlab chiqarish faoliyatidan olgan daromadlarini shu davrdagi qilingan va daromad olish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlari o'rtasidagi nisbatni ko'rsatadi. Bu hisobot joriy xo'jalik faoliyati samaradorligi, loyihaning o'z kapitalini oshirish zahiralari baholash uchun zarur.

Bu shaklning yana bir vazifasi turli soliq to'lovlari va dividendlar miqdorini aniqlashdan iborat.

### **Korxonaning moliyaviy hisob tizimi ma'lumotlari**



Bu hisobotlar quyidagilarga taqdim qilinadi:

1. Ichki guruh

- ta'sischi;
- boshqaruvchilar;
- ichki auditorlar.

2. Tashqi guruh

- investorlar;
- kasaba uyushmalari;
- soliq inspeksiyasi;
- kreditorlar;
- jamoat tashkilotlari;
- tashqi auditorlar.

Pul mablag'lari tushumi va xarajati hisoboti hisobot davrida pul mablag'larini boshqarishni xarakterlaydi va hisobot yilida tashkilotning pul tushumlari va chiqimlarini hisoblash uchun xizmat qiladi. Ba'zida bu hisobot likvidlikning harakati hisoboti, pul mablag'lari harakati hisoboti deb ham yuritiladi.

Bunday hisobotning tayyorlanishi zarurati shu bilan izohlanadiki, foyda va zararlar hisobotida pul mablag'larining shu davridagi harakati to'liq aks ettirilmaydi.

Balans hisoboti boshqa hisobotlardan farqli ravishda korxonaning ma'lum bir davr uchun emas, balki aniq sanadagi holatini aks ettiradi Balans hisoboti yoki an'anaviy buxgalteriya hisoboti ma'lum sanada korxonaning ixtiyorida nimalar borligi va uning manbalarini ko'rsatib boradi.

Loyiha amaliyotida umumlashtirilgan ko'rinishdagi balansdan foydalaniladi.

Hisobot shakllaridan foydalangan holda zarur moliyaviy koeffitsientlar hisoblanadi va yillar bo'yicha bu koeffitsientlar o'zgarishi tahlil qilinib muammo va zahiralar aniqlanadi:

### **Moliyaviy holatni baholash uchun qo'llaniladigan koeffitsientlar:**

$$\text{Joriy likvidlik koeffitsienti} = JA/JP$$

$$\text{SHu muddatdagi likvidlik koeffitsienti} = LA/JP$$

$$\text{Kritik baholash koeffitsienti} = (NP+DQ)/QMM$$

Umumiy to'lov qobiliyati

$$\text{koeffitsienti} = QM/UA$$

Investitsiyadan foydalanishni baholash koeffitsientlar:

Aktivlarning aylanuvchanligi

$$\text{Koeffitsienti} = \text{Sotuvdan tushim}/UA$$

Doimiy kapitalning aylanuvchanlik koeffitsienti = Sotuvdan tushim/DK

Aktsiyadorlik kapitali aylanuvchanligi

$$\text{Koeffitsienti} = \text{Sotuvdan tushim}/AK$$

Aylanma kapitalning aylanuvchanlik koeffitsienti = Sotuvdan

tushim/Aylanma kapital

Rentabellik ko'rsatkichlari:

$$\text{Umumiy aktivlar rentabelligi} = (SF+F)/UA$$

Doimiy kapitalning

$$\text{rentabelligi} = (SF+F)/DK$$

Aktsiyadorlik kapitalining

$$\text{rentabelligi} = SF/AK$$

Sotish rentabelligi = SF/Sotishdan tushim

$$\text{O'z kapitali rentabelligi} = SF/(AK+TF)$$

Kapitalning daromadligi = (SF+F)/O'z kapitalining uzoq muddatli qarzlar

Bu erda: A-yuqori likvidli aktivlar;

JP-joriy passivlar;  
 JA-joriy aktivlar;  
 TF-taqsimlanmagan foyda;  
 LA-likvidli aktivlar;  
 F- kredit(qarz) uchun foiz;  
 UA-umumiy aktivlar;  
 NP-naqd pullar;  
 DQ-debitorlik qarzlari;  
 QMM-qisqa muddatli majburiyatlar;  
 DK-doimiy kapital;  
 AK -aktsiyadorlik kapitali;  
 SF- sof foyda;  
 M-qarz majburiyatlar.

### **11.5. Loyihaning moliyaviy samaradorligini foyda balansi yordamida aniqlashning oddiy usuli**

Loyihani birinchi hisobda hisob-kitoblar bilan samaradorligini hisoblashda soddalashgan usulda foyda hisoboti modelidan foydalanib aniqlashimiz mumkin.

Bu jadvaldan ko'rinib turibdiki loyihaning foydalilik darajasi soliq va kredit foizini to'lashdan oldingi foyda ko'rsatkichida ko'rinadi. Ko'p hollarda tijorat banklari loyihani samaradorlik darajasini hamda kreditni qaytarib berish quvvatini aniqlashda bu ko'rsatkich 30% dan yuqori bo'lishini xohlaydi. Bu ko'rsatkich qancha yuqori bo'lsa kreditni qaytarish koeffitsienti yuqori deb tushuniladi.

Foyda hisoboti modelidan foydalanib, loyihaning oddiy usulda samaradorligini aniqlash

Ko'rsatkichlar	Xalqaro standart bo'yicha	Mahalliy standart bo'yicha
1. Tovar sotilishidan tushim	100\$	60\$

2.Sotilgan tovarlarning tannarxi	40\$	40\$
3.Umumiy foyda (3=1-2)	60\$	20\$
4.Boshqaruv xarajatlari		
5.Marketing xarajatlari		
6.Boshqa xarajatlar	15\$	15\$
7.Soliq va kredit foizini to'lashdan oldingi foyda (7=3-4-5-6)	45\$	5\$

SHu bilan birgalikda umumiy foyda ko'rsatkichining koeffitsienti ham 50% dan yuqori bo'lsa, maqsadga muvofiq deb tushiniladi. O'zbekistondagi tijorat banklari loyiha xarajatlarining kamida 25%i mijozlar tomonidan qoplanishini talab etadi. Agar mijozlar 30-35 va undan ko'p foizda loyihani moliyalashtirsa, unda loyihalar tijorat banklari tomonidan yanada engilroq moliyalashtirilishi mumkin. YUqoridagi jadvaldan ko'rinib turibdiki, ushbu loyihada xalqaro standart bo'yicha kutilayotgan sof foyda 60%ni, soliq va kredit to'lashdan oldingi foyda 45% ni tashkil etadi. Demak, bu loyihani birinchi sodda usul bilan tahlil qilganimizda unga ijobiy baho berishimiz mumkin. Jadvaldan yana qo'yidagi xulosaga kelish mumkin: loyihadagi soliq va kredit foizini to'lashdan oldingi foyda 45% ni tashkil etgani uchun korxonaga umumiy tushumning 45% gacha miqdorida investitsiya olish mumkin. Boshqacha so'z bilan aytganda, agar korxonaning umumiy tushumlari bir mln.dollar miqdorda kutilayotgan bo'lsa korxonaga maksimum 450 ming dollar miqdorda kredit berishi mumkin. Bunda tijorat bankining kreditlash koeffitsienti umumiy foydaga nisbatan 1:0,5 qilib belgilangan. SHuni aytish kerakki, rivojlangan mamlakatlarda bu koeffitsient 1:1, 1:3,1:4, va hokazo qilib belgilangan. Amaliyotda kredit olish hatto rivojlangan mamlakatlarda ham oson emas. SHuning uchun g'arb mamlakatlarida shunday muhit mavjud: investitsiyani olish investitsiya kerak bo'lmagan kompaniyalar uchun oson, chunki ularning aktivlari va sof foydasi yuqori, banklar uchun esa ularning kafolati etarli, ammo ularning kreditga zarurati yo'q. Urta va kichik biznes korxonalari uchun tuzilgan loyihalar yuqori miqdorda qo'shilgan qiymat yaratsa, ularning investitsiya olish ikoniyatlari

ko'payadi.

### **Qisqacha xulosalar**

Moliyaviy tahlil tahlilning moliyaviy rentabellik tahlili, moliyalashtirishga ehtiyoj tahlili, loyihani ekspluatatsiya qiluvchi tashkilotning moliyaviy tahlil, xarajatlarning qoplanishi tahlili kabi turlarini o'z ichiga oladi.

Moliyaviy rentabellik tahlili loyiha pozitsiyasidan amalga oshiriladi va loyihaning hayot davri davomida investitsiyadan keladigan samarani baholashdan iborat. Bu tahlil pul tushumlari va chiqimlari hisobotiga tayanib, diskontlangan tushum (daromad)lar va chiqim (xarajat)lar yordamida turli rentabellik ko'rsatkichlarini, shuningdek, ichki foyda me'ori, sof keltirilgan qiymat, investitsiyalar rentabelligi kabi mezonlar bo'lib hisoblangan ko'rsatkichlarni hisoblashga asoslangan.

Moliyalashtirishga ehtiyoj tahlili hukumat, loyihadan foydalanuvchilar va undan manfaat ko'ruvchilar pozitsiyasidan turib amalga oshiriladi va uning maqsadi loyihani investitsiyalash va uni ekspluatatsiya qilish uchun kerak bo'lgan barcha moliyaviy ehtiyojlarni prognoz qilishdan iborat. Zarur hisob-kitoblar joriy baholarda tuzilgan moliyaviy rejada aks ettiriladi.

Loyihani ekspluatatsiya qiluvchi tashkilotni moliyaviy tahlidan maqsadi tashkilotning moliyaviy ahvoli va boshqaruv sifatini aniqlashdan iborat. Bu tahlil o'z ichiga uchta moliyaviy hisobotni tayyorlash, tahlil etish va prognoz qilishni oladi. Bular foyda va zararlar hisoboti, pul mablag'lari tushumlari va chiqimlari hisoboti va balans hisobotidir. Bu hisobot shakllari prognoz qilinib, intervallar bo'yicha ko'rsatkichlar hisoblanadi. O'z navbatida ular bir qancha moliyaviy ko'rsatkichlarni hisoblash uchun baza hisoblanadi. Bu ko'rsatkichlarda umumiy likvidlik, shu muddatdagi likvidlik, umumiy to'lov qiymati koeffitsienti va boshqalar o'z ifodasini topadi.

## **Nazorat va muhokama uchun savollar**

1. Loyihalarning moliyaviy tahlili nima maqsadda o'tkaziladi?
2. Loyihalarning moliyaviy tahlili vazifalarini tushuntiring?
3. Moliyaviy rentabellik tahlilining mohiyati nimada?
4. Moliyalashtirishga ehtiyoj tahlili qanday amalga oshiriladi?
5. Xarajatlarning qoplanishi tahliliga tavsif bering.
6. Loyihani ekspluatatsiya qiluvchi tashkilotning moliyaviy tahlilida qo'llaniladigan hisobot shakllarini izohlab bering.
7. Loyiha tahlili turlari bo'yicha qo'llaniladigan mezonlarni tushuntirib bering.
8. Moliyaviy tahlilda qo'llaniladigan qaysi koeffitsientlarni bilasiz?
9. Moliyaviy tahlilda aylanma mablag'larga talab so'mda va valyutada hisoblanishi sababi nimada?
10. Moliyaviy rentabellik tahlili sabablari nimada?
11. Moliyalashtirishga ehtiyoj tahlili nimani anglatadi?

## **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. И.А.Каримов. “Асосий вазифамиз –Ватанимиз тараққиёти ва халқимиз фаровонлигини янада юксалтиришдир”. Т.: Ўзбекистон, 2010 –62-67 бет.
2. А.Э. Ишмухамедов, М.С.Қосимов, З.А. Джумаев, Г.Я.Мухамеджанова. Лойиха таҳлили. Т: ТДИУ. 2006.-157-171 б.
3. Староверова Г.С. Экономическая оценка инвестиций. Учебное пособие.- Г.С. Староверова, А.Ю.Медведев.3-е изд, -М: КНОРУС, 2010. -215-250с.
4. Балдин К.В. Инвестиции и инновации. Учебное пособие. \ К.В. Балдин, И.И. Передеряев и др.-2- изд- М: Издательское –торговая корпорация «Дашков и К», 2010. – 199-238 с.
5. Тюрина А.В. Инвестиции. Практикум. Учебное пособие. \ А.В. Тюрина-М: КНОРУС.2010.- 112-208 стр



## **XII-BOB.IQTISODIY TAHLIL**

### **12.1. Iqtisodiy tahlilning mohiyati.**

#### **Iqtisodiy tahlilni moliyaviy tahlildan farqli jihatlar**

Loyiha O'zbekiston milliy iqtisodiyotining ustuvor yo'nalishlariga, iqtisodiy manfaatlariga va xavfsizligiga javob berishi kerak. SHuning uchun iqtisodiy tahlil investitsiya loyihasini umumjamiyat manfaati nuqtai nazaridan o'rganadi. Iqtisodiy tahlil loyihalarga kengroq yondashib, daromad va xarajatlarni baholashda moliyaviy tahlildan farq qiladi. Umuman, bu tahlilda daromadlar-xarajatlar oqimini baholashda moliyaviy tahlilga qaraganda ikki katta o'zgarishga yo'l qo'yiladi.

Birinchidan, investitsiya loyihasini amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan ishlab chiqaruvchilar olgan subsidiyalar soliq to'lovchilarning to'lovlari bilan qoplanib ketadi. Ikkinchidan, bir loyihani amalga oshirish ikkinchi bir loyiha uchun resurslar miqdori kamayishiga olib kelishi mumkin. Misol uchun, Samarqand viloyatida 15000 tonna pomidor etishtiriladi. Evropa texnologiyasida qayta ishlangan pamidor tomat pastasi, agar 110 kg lik asseptek qoplariga qadoqlansa va Evropaning ISO-9001 sertifikati bilan kafolatlansa, loyiha valyuta keltiruvchi loyihaga aylanadi.

Agar shunday zavod mavjud bo'lsayu, uning talabi 12000 tonna pomidorni qayta ishlashga mo'ljallangan bo'lsa, demak, keyingi loyihaga faqat 3000 tonna pomidor qolyapti. Qo'shimcha zahiralalar bilan yana 5000 tonna pamidor etishtirilsa ham ikkinchi turdosh korxonaning loyihasiga xom ashyo taqchil bo'ladi. Bu holda ikkinchi loyiha o'zi bilan bir xil bo'lgan birinchi loyihaga ziddiyatli loyiha deb baholanishi mumkin. Bundan xulosa shuki, birinchi loyihaning amalga oshirilishi ikkinchi loyihani moliyalashtirishni samarasiz qilib qo'yadi.

Buning asosiy sababi har ikki loyiha xom ashyo etishmovchiligidan raqobatdosh mahsulot ishlab chiqara olmay qolishlari mumkin. Bu holda umumjamiyat nuqtai nazaridan iqtisodiy daromad moliyaviy daromaddan past bo'ladi va buni loyiha bo'yicha ish boshlashdan oldin hisobga olish zarur. Moliyaviy tahlilda foydali deb baholangan loyiha o'zining salbiy

ekologik yoki ijtimoiy oqibatlari tufayli iqtisodiy tahlilda foydasiz deb baholanishi mumkin.

Loyihaning ekologik jihatlari bilan bog'liq iqtisodiy xarajatlar hisobga olinganda ko'p hollarda u samarasiz bo'lib qolishi mumkin. Loyihaning ekologiyaga salbiy ta'sirini oldini olish uchun tozalash inshootlari qurishga to'g'ri keladi. Bu holda investitsiya xarajatlari ko'payadi va loyihaning samaradorligi pasayadi. Natijada loyiha samarasiz deb hisoblanishi mumkin. Moliyaviy tahlil va iqtisodiy tahlil o'rtasidagi farqlarni quyidagicha keltirish mumkin:

1. Moliyaviy tahlilda daromad va xarajatlarga nisbatan alohida bozor baholari qo'llaniladi.

Iqtisodiy tahlilda muqobil ijtimoiy qiymatlar (daromadlar va xarajatlarga nisbatan yashirin baholar, ekologik daromad va xarajatlar, foydalanilmayotgan yoki to'la foydalanilmayotgan ishlab chiqarish omillari) qo'llaniladi.

2. Moliyaviy tahlilda kapital xarajatlar loyiha xizmat muddatiga taqsimlab chiqiladi (amortizatsiya).

Iqtisodiy tahlilda esa kapital xarajatlar foydalanish (ishlatilish) yilidagi bir marotabalik xarajat summasi sifatida hisobga olinadi.

3. Moliyaviy tahlilda soliqlar va turli guruhlar o'rtasidagi boshqa bir tomonlama to'lovlar hisobga olinadi. Iqtisodiy tahlilda esa bu to'lovlar va soliqlar jamiyat ichidagi transfert to'lovlari bo'lgani uchun hisobga olinmaydilar.

4. Moliyaviy tahlilda diskontning xususiy stavkasi qo'llaniladi.

Iqtisodiy tahlilda loyihalar bo'yicha daromadlar va xarajatlar oqimlarini daromad darajalariga ko'ra guruhlar bo'yicha o'rganiladi.

Umuman olganda, iqtisodiy tahlil loyihaning homiylariga ham, boshqalarga ham ta'sirini o'rgangan holda u jamiyat uchun qanchalik foydali ekanligini, uni amalga oshirish uchun jamiyat nuqtai nazaridan resurs ajratish qanchalik maqsadga muvofiqligini tekshiradi.

Daromadlar va xarajatlarni iqtisodiy tahlil qilish resurslardan samaraliroq foydalanish maqsadida iqtisodiy tanlash muammosini qulay va tushunarli izohlash usulidir. Har bir mamlakat u yoki bu mahsulotni ko'p ishlab chiqara oladi. Lekin bir yo'la hamma mahsulotni ko'p ishlab

chiqarib bo'lmaydi. SHu sababli resurslardan foydalanishning turli variantlaridan birini tanlashga to'g'ri keladi. Minimal xarajatlar bilan maksimal natijalarga erishishni ta'minlaydigan qilib investitsiyalashga erishgan mamlakatgina o'z resurslaridan oqilona foydalanishni ta'minlay oladi.

Iqtisodiy tahlil maqsadi loyiha bilan bog'liq barcha samaralarni ko'rib chiqish uchun umumiy asos yaratishdir. Bunga:

1. Bozor bitimlaridan o'z aksini topadigan iqtisodiy o'zgaruvchilarni aniqlash (masalan, uy bahosi u joylashgan xudud sifatini-transport, maktab kabilarning yaqinligini, uy-joy arxitekturasining urf bo'lgan turini, xonalar sonini aks ettiradi);

2. Loyihaning turli belgilarini baholashga aholi munosabatini aniqlash uchun loyihaning foydali tomonlarini xarakterlovchi ko'rsatkichlarga pulda ifodalanmaydigan qiymatlarni kiritish;

3. Loyihalarni bevosita o'lchanadigan boshqa xarajatlari hamda natijalarini taqqoslash imkonini beruvchi chizmalarni ishlab chiqish yo'li bilan erishiladi.

Bular asosida loyihadan olinadigan manfaat unga sarflangan xarajatdan oshish-oshmasligi to'g'risida murakkab qarorga kelinadi. Bunda manfaat (daromad) va xarajatlar yagona o'lchov birligida ifodalanadi.

Loyihani qabul qilish, loyiha bo'yicha iste'mol qilinadigan resurslardan foydalanish borasidagi muqobil variantlardan hech biri mamlakat oldida turgan vazifalar nuqtai nazaridan bundan yuqoriroq natija bermasligini anglatadi.

Iqtisodiy tahlil ya'ni daromadlar va xarajatlarni tahlil qilish usullari 4-5-boblarda da aks ettirilgan. Bunda NPV, PI, IRR, CC, PP, ROI kabi ko'rsatkichlari hisoblanadi.

## **12.2. Iqtisodiy tahlilning yo'nalishlari. Loyihasiz va loyiha asosida rivojlanishni qiyosiy tahlili**

Daromadlar va xarajatlarning tahlili quyidagi tadbirlarni o'tkazishdan iborat:

- 1.Loyiha maqsadlarini aniqlash va bosh maqsadning iqtisodiy mazmuni, oqibatlarini anglash;
- 2.Loyihani baholash chizmasini va bosqichlarini aniqlash;
- 3.Loyiha natijalari bo'yicha talabni prognoz qilish;
- 4.Daromad va xarajatlarning iqtisodiy ko'rsatkichlarini hisoblash;
5. Rentabellik ko'rsatkichlarini baholash;
- 6.Ta'sirchanlik va tavakkal xavfi (qaltislik) darajasini tahlil qilish.

Loyiha maqsadlari uni moliyalashtiruvchi tashkilotning operativ vazifalarini aks ettiradi. Masalan, transport sohasi bo'yicha loyiha maqsadi transport qatnovi samaradorligini ta'minlash, sanoat loyihasining maqsadi esa ma'lum turdagi mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirish bo'lishi mumkin.

Muqobil variantlarni ko'rib chiqish loyihani tayyorlash va uni ishlab chiqishning muhim qismi hisoblanadi. Texnik, muqobil variantlar (ya'ni yoqilg'i uchun yo ko'mir yoki gazni qo'llash, temir yo'lni uzaytirish yoki yangi avtomobil shossesini qurish)ni bir-biri bilan taqqoslash va eng maqbulini tanlab olish kerak. Agar hamma variantlar miqdor va sifat jihatdan bir xil natija bersa, ham investitsiya, ham ekspluatatsiya xarajatlarini hisobga olganda eng kam xarajat talab etiladigan loyiha tanlanadi.

Iqtisodiy tahlil chizmasi turlicha bo'lishi mumkin. Bunda loyiha maqsadlariga salbiy ta'sir etuvchi hamma narsa xarajatlarga, ijobiy ta'sir etuvchi hamma narsa daromadlarga kiritiladi.

Loyiha tahlili daromad va xarajatlarni resurslardan foydalanishning boshqa variantlari bo'yicha erishilishi mumkin bo'lgan daromad va xarajatlar bilan qiyoslaydi. Ko'pincha loyihasiz va loyiha bilan degan chizma qo'llaniladi.

Masalan, tsement zavodi qurilishi bo'yicha loyiha bor bo'lsa, investorlar boshqa loyihalarga sarmoya qo'yish imkoniyatidan mahrum

bo'ladi. Ammo tsement ishlab chiqarishning ko'payishi natijasida uning narxi tushib ketishi, xaridorlar uchun tsementga kamroq pul to'lash, ayrim xaridorlar uchun esa boshqa qurilish materiallari o'rniga tsement ishlatish imkoniyatini paydo qilishi mumkin.

Loyiha bilan va loyihasisiz vaziyatlarni solishtirish loyihani amalga oshirish natijasida olinadigan qo'shimcha va o'sgan daromadlarni hisoblashning asosiy uslubidir. Loyihasisiz vaziyatlarni istiqbolga baholashda xarajatlarning taxmin qilinayotgan o'suvi yoki daromadlarning pasayishiga nisbatan reaksiyani hisobga olish kerak. Bu loyihani amalga oshirish yuzaga keltiradigan o'zgarishlarni to'liq aks ettirish imkonini beradi.

Loyiha natijalariga talabni tahlil va prognoz qilish kiritiladigan resurslar va ishlab chiqariladigan mahsulot bozorlarini tahlil qilishni o'z ichiga oladi hamda talab va taklif o'rtasidagi nisbatni bilishni, loyihaga taalluqli resurslar va mahsulotlar marketingi haqida ma'lumotga ega bo'lishni talab etadi.

### **12.3. Iqtisodiy tahlilda yashirin baholar**

Jamiyat nuqtai nazaridan qaraganda loyiha mahsulotini sotish yoki resurslarini sotib olish baholari doim ham xarajatlar va daromadlarning maqbul darajasini ko'rsata olmaydi. Masalan, baholar ularga soliq to'lashga ketgan xarajatlar qo'shib yuborilishi natijasida oshirib yuborilishi yoki davlat subsidiyasi ta'sirida pasaytirib yuborilishi mumkin. Iqtisodiy tahlil uchun, ikki yoqlama hisoblashga yo'l qo'ymaslik maqsadida, baholarni bu elementlardan tozalash kerak.

Ikki yoqlama hisoblash shu tufayli ro'y beradiki, jamiyat, dastlab, ishlab chiqaruvchiga sotib olinayotgan mahsulot bahosiga soliqlar (subsidiyalar) qo'shilishi natijasida oshirilgan (kamaytirilgan) narxda haq to'laydi, keyin esa ishlab chiqaruvchi daromadining bir qismini soliq sifatida olib qo'yadi (ishlab chiqaruvchiga subsidiya ko'rinishida qo'shimcha daromad beradi), ya'ni bu bilan soliq va subsidiyalarni ikki bor hisobga oladi. Boshqa holatlarda baholar monopolistik amaliyoti ta'sirida, ularning davlat tomonidan tartibga solinishi, boj to'lovlari hamda

boshqalar ta'sirida muvozanat darajasidagidan farq qilishi, ya'ni xatoli bo'lishi mumkin.

Iqtisodiy tahlilda baholarni tozalash uchun hisoblab topilgan, ya'ni boshqacha aytganda yashirin (soyadagi) baholardan foydalaniladi. YAshirin baholarni aniqlashda ichki bozorda baholar yuqorida keltirib chiqaruvchi omillar mavjud bo'lmagan paytda qanday bo'lar edi, degan shartga asoslaniladi. YAshirin baholarni aniqlashning eng oddiy uslubi jahon narhlarini olib, bir necha usullarni qo'llagan holda, so'mda qayta hisoblab chiqishdir.

Buni misolda tushuntiramiz.

Misol: Aytaylik, investitsion loyihaning muhim elementi eksport tovari bo'lgan dizel' yoqilg'isi bo'lsin. Uning 1 tonnasining birja narhi O'zbekistonda t davrda 20000 so'mni tashkil etsin. Dizel' yoqilg'isining «yashirin» narhini aniqlaymiz.

1. 1 tonna dizel' yoqilg'isi uchun FOB (Franko-bort, ingl. Free on board) jahon bozori narhlarida olamiz va uni joriy almashinuv ko'rsi (aytaylik  $1\$ = 86$  so'm) bo'yicha so'mga aylantiramiz  $250 \$ \times 86 = 21500$  so'm.

2. Almashinuv kursini belgilash paytida unga (soliq shakllaridan biri bo'lgan) boj to'lovlari katta ta'sir o'tkazganini hisobga olib, hisob-kitobimizga tuzatish kiritamiz. Bunday tuzatish tuzatish o'tkazish koeffitsienti deb yuritiladi. Uni tovarlar guruhi bo'yicha (bu maxsus o'tkazish koeffitsienti deyiladi) hamda barcha tovarlar bo'yicha (o'tkazishning standart koeffitsienti) hisoblab topish mumkin. Soddalik uchun o'tkazishning standart koeffitsientidan foydalanamiz(23-formula):

Bu erda:  $I_{SIF}$  - import SIF (Qiymat, sug'urta, fraxt - ing cost, insurance, freight);

$E_{FOB}$  - eksport FOB;

$C_1$  - import boji;

$C_E$  - eksport boji.

$$R_{ST} = \frac{(I_{SIF} + E_{FOB})}{(I_{SIF} + C_1) + (E_{FOB} + C_E)}$$

Agar o'tkazishning hisob kitob yo'li bilan aniqlangan standart koeffitsienti t davr uchun 0,8 ga teng bo'lsa, u holda bizning misolimizda:  $21500 \times 0,8 = 17200$  so'm

3. 1 tonna dizel' yoqilg'isini tashib keltirish xarajatlarini 8000 so'm deb olsak;

$17200 + 8000 = 25200$  so'm

Bu o'ta soddalashtirilgan misol bo'lib, amaliyotda yashirin baholarni aniqlash ancha murakkab hisob-kitoblarni talab qiladi.

Lekin shu misolning o'zidan ham ko'rinib turibdiki yashirin bahoni hisoblab topishda biz mamlakat oldida dizel' yoqilg'isidan bizning investitsion loyihamiz uchun foydalanishga muqobil bo'lgan yo'l, ya'ni uni eksport qilish imkoniyati bor, degan shartga tayandik.

Bu muqobillikka asoslangan yondashuvni (lekin yuqorida keltirilgan uslubni emas) jahon bozori narhlari bo'lmagan tovarlarning, ya'ni er, ishchi kuchi, turli xizmatlar va hokazolarning «yashirin» baholarini hisoblab topishda ham qo'llash mumkin.

Agar firma loyihani o'z erida amalga oshirayotgan bo'lsa va shuning uchun ham moliyaviy tahlil jarayonida erning qiymati xarajatlarga deyarli kiritilmasa, u holda iqtisodiy tahlilda `yashirin` bahoni:

a) mahalliy er bozoridagi shunga o'xshash maydonlarning qiymati asosida;

b) agar bunday bozor bo'lmasa, u holda shunga o'xshash maydonlarning ijara bahosi asosida;

v) ijaraga berilgan shunga o'xshash maydonlar bo'lmasa, u holda shu erdan olinishi mumkin bo'lgan qishloq xo'jaligi mahsuloti qiymati asosida aniqlanadi.

#### **12.4. Manfatlar va xarajatlarni o'lchash uslublari va muammolari**

Loyihadan olinadigan manfaat (foyda)ni doim ham to'liq miqdoriy baholash mumkin emas. Masalan, loyiha natijasida yo'l harakati xavfsizligi yoki tibbiyot xizmati yaxshilanishi tufayli aholi sog'lig'i yaxshilanishini baholash juda qiyin. Agar loyiha umumiy foydalanish uchun qulaylik yaratsa (tozalash inshootlari, jamoat markazlari) olinadigan manfaatni alohida iste'molchining to'lashga tayyorligi to'g'risidagi ma'lumotga asoslanib baholab bo'lmaydi. Resurslar hududiy

taqsimlanishining yaxshilanishi, mamlakat ichidagi (milliy) integratsiyaning kuchayishi kabi loyihadan olinadigan bir qancha o'lbah bo'lmaydigan manfaatlar mamlakat ichida resurslarni joylashtirishda muhim rol o'ynaydi.

Olinadigan foydani miqdoriy o'lchash mumkin bo'lmagan yoki ularni sifat jihatdan qismangina baholash mumkin bo'lgan hollarda boshqacha yondashuvlar qo'llaniladi. Bunday yondashuvlardan biriga loyiha natijasida uning yaroqliligini ta'minlaydigan foyda-manfaatlar minimumini olish ehtimolini tahlil qilish kerak. Ikkinchi yondashuv u yoki bu xizmatni ko'rsatish uchun bajarilishi shart deb hisoblangan, ilgari o'rnatilgan fizik yoki qiymat me'yorlariga asoslanish hisoblanadi (masalan, yo'lga asfalt yotqizish xarajatlari 1 km ga X so'mdan ortmasligi kerak, birinchi yordam ko'rsatuvchi punktga bo'lgan masofa U km dan oshmasligi zarur).

O'lchash muammolari tarmoqlar bo'yicha farq qiladi. Masalan, ta'lim, sog'liqni saqlash va umumiy ovqatlanish sohalarida daromadga asoslangan manfaat mezonlari yaroqsiz bo'lib qoladi, ya'ni ulardan foydalanib bo'lmaydi.

Bu hollarda yoki eng kam xarajatlar uslubidan, yoki texnik ko'rinishdagi muammolar uchun (masalan, maktab qurish uchun qulay me'yorlarni aniqlashda) xarajatlar samaradorligi uslubidan foydalanish mumkin.

Xarajatlar samaradorligi tahlili bir necha muqobil variantlardan qo'yilgan vazifa bajarilishini ta'minlaydigan eng arzon loyihani tanlab olish uchun qo'llaniladi.

Ba'zi hollarda manfaatlar faqat fizik ko'rinishda bo'ladi va shu sababli ularni moliyaviy xarajatlar bilan taqqoslab bo'lmaydi. Bunday hollarda yuqoridagi uslublarni qo'llashdan boshqa imkon ham bo'lmaydi.

Xarajatlar samaradorligi tahlili qo'yilgan vazifani hal etishning eng samarali yo'lini tanlash uchun qo'llaniladi. Bu tahlilga loyihaga qilinadigan barcha xarajatlarni tegishli yashirin baholar asosida kal'kulyatsiya qilish va ularning keltirilgan qiymatini topish uchun olingan xarajatlar oqimini diskontlash kiradi.

Bu tadbir loyihani amalga oshirishning barcha variantlari bo'yicha



o'tkaziladi. Ko'zda tutilgan natijalarga eng kichik diskontlangan xarajatlar bilan yoki mahsulot birligiga eng kam xarajatlar bilan erishishni ta'minlaydigan loyiha eng yaxshi hisoblanadi. Bu mezon barcha loyihalar loyiha maqsadini sifat jihatlaridan bir xilda qondiradi, degan shartga asoslanadi. Agar loyiha bo'yicha ko'rsatiladigan xizmatlar sifatida farq bo'lsa, eng ma'qul variantni aniqlashda bu hol ko'zda tutilmog'i lozim.

### **Iste'mol tejami ko'rsatkichini loyihada aniqlash/hisoblash muammolari**

Ko'pgina investitsiya loyihalari natijasida iste'mol tovarlari va xizmatlarining baholari pasayadi. Chunki bunday loyihalar ta'minotni yaxshilaydi va tovarlar taqchilligiga barham beradi (masalan, yo'llarning yaxshilanishi yo'l xarajatlarini pasaytiradi). Baholar pasayishidan iste'molchilar manfaat ko'radilar, chunki loyihani amalga oshirishi natijasida tejalgan resurslardan boshqa maqsadlarda foydalanish mumkin.

Iste'mol tejami = iste'molchi tovar va xizmat uchun to'lashga tayyor bo'lgan summa - haqiqatdan sarflangan summa.

Iste'mol tejami qo'shimcha mahsulot faqat uning narhi pasaytirilgan sharoitda sotilgandagina paydo bo'ladi. Bunday vaziyat ko'proq tartibga solinadigan bozorlar uchun xos.

Masalan, O'zbekistonda 2009-2010 yillarda avtobobillarning narhlarini ichki bozorni to'lib borishi bilan pasayib borishi. Agar Nexcia rusumli avtomobilning narhi 2007-2008 yillarda 18 000 dollargacha ko'tarilib u 2009 yildan 10 000 dollargacha narhini pasaygani dalil bo'la oladi. Iste'molchilarning tejami xar bir avtobobildan 8 000 AQSH dollarigacha ortganini aniqlashimiz mumkin.

Ayrim hollarda paydo bo'lgan iste'mol tejimini aniqlash oson bo'lsada, ko'pincha buni (masalan, umumiy elektr tarmog'iga ulangan zavod uchun o'z elektrostantsiyasidan olingan qimmat elektr energiyasidan voz kechishi hisobiga olgan tejamni) hisoblash ancha qiyin bo'ladi.

Amaliyotda olingan iste'mol tejami e'tiborga olinmaydi va loyihadan olingan manfaat (hisoblash oson bo'lgan) iste'molchilardan olinadigan to'lovlarga tenglashtiriladi. Ammo iste'mol tejami iqtisodiy manfaatning

muhim qismi bo'lganligi tufayli, uni hisobga olmaslik ancha kam qilib ko'rsatishga olib keladi.

Agar iste'mol tejamining taqribiy miqdorini olishga ham imkon bo'lmasa, loyiha variantlarini taqqoslayotganda bu hol e'tiborda tutilishi kerak. Ayrim loyihalarni amalga oshirish natijasida «loyihasiz» holatga nisbatan mahsulot hajmi shunchalik ko'payadiki, u baholarning pasayishiga olib keladi. Bunday hollarda pasaygan baholardan foydalanish qo'shimcha mahsulotdan keladigan iqtisodiy manfaat etarlicha baholanmasligiga sabab bo'ladi (chunki iste'molchilar u uchun ko'proq to'lashga tayyor edilar). «Loyihasiz» holatga nisbatan loyiha natijasida baholar pasayishi iste'mol tejamini oshiradi va bu hol iqtisodiy tahlilda e'tiborga olinishi lozim. Odatda, bu fikrlar tovarlar va xizmatlar umumiy taklifini keskin o'zgartirishga qodir bo'lgan juda yirik loyihalarga nisbatan tegishli bo'lgandagina ahamiyatga ega bo'ladi.

#### Tashqi samaralar

Tashqi samaraga quyidagi bir misolni keltirish mumkin. 2006-2007 yillarda neftning jahon bozorida narhini keskin ko'tarilishi natijasida bio-yoqilg'i ishlab chiqarish Braziliya va boshqa mamlakatlarda kuchaydi. Ular qishloq xo'jaligi va oziq – ovqat mahsulotlari eksportini kamaytirib, ularni bio-yoqilg'i xom ashyosi sifatida ishlatishni ko'paytirdilar. Natijada jahonning ko'plab mamlakatlarida oziq ovqat taqchilligi muammosi kelib chiqdi.

Tashqi samara loyiha doirasida xarajatlarga ham, manfaatlarga ham kirmaydigan, shu tufayli moliyaviy hujjatlarida aks etmaydigan natijalari tashqi samaralar, deb ataladi. Ammo bunday samaralar jamiyatning boshqa a'zolariga salbiy yoki ijobiy ta'sir ko'rsatsa yoki mamlakat oldida turgan maqsadlarga erishishga xizmat qilsa, ularni iqtisodiy tahlilda hisobga olish zarur.

Tashqi xarajatlarga misol tariqasida to'g'onlar qurilishi natijasida ekin maydonlarining suv ostida qolishi, atrof-muhitning ifloslantirilishi, sug'orish tizimining aholi sog'lig'iga va baliqchilik xo'jaliklariga ta'sirini keltirish mumkin. Tashqi manfaatlarga - o'qitish jarayonida olingan bilimlarni keltirish mumkin.

YAngi texnologiyalarni qo'llash uchun bir loyiha bo'yicha uskunalarni import qilish ikkinchi loyiha uchun bu jarayonlar arzon va oson kechishiga olib kelishi mumkin. Bunga birinchi loyihada ishtiroq etgan mutaxassislarni jalb etish orqali erishiladi. Tashqi manfaatlarga shuningdek ta'lim darajasi ortishi natijasida tug'ilish sur'atlarining pasayishini, transport tizimining rivojlanishi natijasida ishchi kuchi harakatchanligining kuchayishini va hokazolarni misol qilib keltirish mumkin.

Loyihalarning barcha tashqi samaralarini hisobga olib o'lchab bo'lmaydi, shu sababli ularning eng muhimlarini hisobga olish hamda ichki samaralar qatoriga kiritishga harakat qilish zarur. Masalan, to'g'on qurilishi er osti suvlari sathi ko'tarilishiga olib kelsa, loyihaga drenajlar qurish vazifasini ham kiritish zarur.

Ayrim loyihalarning tashqi samarasi tarkibiga xalqaro samara ham kiradi. Masalan, eksportni oshirishga qaratilgan loyiha natijasida mahsulot narhi jahon bozorida pasayishi mumkin. Bundan import qiluvchilar manfaat ko'rsa, shu turdagi mahsulotni eksport qiluvchi boshqa davlatlar zarar ko'radilar va hokazo. Iqtisodiy tahlilda asosan mamlakat ichidagi manfaat va xarajatlargina ko'rib chiqiladi. Xalqaro loyihalarda esa barcha ishtirokchi davlatlarning foyda-zararlari hisobga olinishi lozim.

### **Qisqacha xulosalar**

Loyiha xarajatlari va manfaatlarini umumjamiyat nuqtai nazaridan baholash, loyiha bilan bog'liq barcha samaralarni ko'rib chiqish uchun umumiy asos yaratish iqtisodiy tahlilning mohiyatini tashkil etadi.

Iqtisodiy tahlilda moliyaviy tahlildan farqli o'laroq, yashirin baholar qo'llaniladi, kapital xarajatlar bir martalik xarajat summasi sifatida hisobga olinadi, diskont stavkasi sifatida investitsiya sarflashning muqobil variantlari bo'yicha eng yuqori daromadlilik darajasi olinadi, soliq to'lovlari xarajat sifatida, subsidiyalar esa daromad sifatida hisobga olinmaydi.

Loyihani qabul qilish loyiha bo'yicha iste'mol qilinadigan resurslardan foydalanish borasidagi, muqobil variantlardan hech biri

mamlakat oldida turgan vazifalar nuqtai nazaridan bunday yuqoriroq natija bermasligini anglatadi.

Daromadlar va xarajatlar tahlili loyiha maqsadlarini aniqlashni, loyihani baholash chizmasini aniqlashni, loyiha natijalarini prognoz qilishni, daromad va xarajatlarni o'lchashni, rentabellik ko'rsatkichlarini baholashni, ta'sirchanlik va qaltislik darajasini tahlil qilishni o'z ichiga oladi.

YAshirin baholar soliqlar va subsidiyalardan tozalangan baholar bo'lib, ularni aniqlashda ichki bozorda baholar yuqorida aytilgan omillar bo'lmagan paytda qanday bo'lar edi, degan shartga asoslanadi.

YAshirin baholarni aniqlashning eng oddiy uslubi jahon baholarini olib, bir necha uslublarini qo'llagan holda mamlakat valyutasida (so'mda) qayta hisoblab chiqishdir.

Loyihalarni doim ham miqdoriy ifodalash mumkin bo'lmagan hollarda foyda - manfaatlar minimumini olish ehtimolini tahlil qilish, eng kam xarajatlar uslubi kabi uslublar qo'llaniladi.

Loyiha manfaati iste'mol tejami sifatida namoyon bo'ladi. Iste'mol tejami - iste'molchilar tovarlar va xizmatlar uchun to'lashga tayyor bo'lgan summa - haqiqatda sarflangan summa. Iste'mol tejami loyiha natijasida baholar arzonlashgan paytda paydo bo'ladi.

Iqtisodiy tahlilda hisobga olinishi shart bo'lgan manfaat va xarajatlarning yana bir ko'rinishi tashqi samaralardir.

Tashqi xarajatlarga misol sifatida to'g'on qurilishi natijasida sug'oriladigan erlarning suv ostida qolishi, o'simliklarning vegetatsiya davri uzayishini ko'rsatishi mumkin. Tashqi manfaatlariga transport tizimi yaxshilanishi natijasida ishchi kuchi harakatchanligi kuchayishini misol qilib ko'rsatish mumkin.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar**

1. Iqtisodiy tahlil vazifalarini tushuntirib bering.
2. Iqtisodiy tahlilning maqsadi va moliyaviy tahlildan farqi nimada?
3. YAshirin baholar nima? Iqtisodiy tahlilda nima uchun yashirin baholardan foydalaniladi?
4. Manfaat va xarajatlarni o'lchash muammolariga izoh bering.

5. Iste'mol tejami nima?
6. Tashqi samara, jumladan, xalqaro samaraning mohiyati nimada?
7. Loyiha maqsadlarini aniqlash va bosh maqsadning iqtisodiy mazmuni, oqibatlarini anglash kerakmi?
8. Loyihani baholash chizmasini va bosqichlarini aniqlash kerakmi?
9. Loyiha natijalari bo'yicha talabni prognoz qilish
10. Daromad va xarajatlarning iqtisodiy ko'rsatkichlarini hisoblash kerakmi?

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. А.Э.Ишмухамедов, М.С.Қосимов, З.А.Джумаев, Г.Я.Мухамеджанова. Лойиха таҳлили. Т: ТДИУ. 2006.-189-204 б.
2. Марголин А.М. Экономическая оценка инвестиционных проектов. Учебник для вузов. А.М. Марголин, М.ЗАО Издательство экономика, 2007.-320-367стр..
- 3.Есипов В.Е. и др. Коммерческая оценка инвестиций. Учебное пособие. КНОРУС М: 2009. -278-350 стр.
4. Балдин К.В. Инвестиции и инновации. Учебное пособие. \ К.В. Балдин, И.И. Передеряев и др.-2- изд- М: Издательское –торговая корпорация «Дашков и К», 2010. -145-238 с.
- 5.Николаев М.А. Инвестиционная деятельность: Учебное пособие \ М.А. Николаев-Финансы и статистика, ИНФРА. М-2009-245-336 стр.

## **XIII-BOB. LOYIHALARDA NOANIQLIK VA QALTISLIKNI TAHLILI**

### **13.1.Loyihalarda noaniqlik va qaltislik tushunchalari**

Loyihalarda noaniqlik va qaltisliklarni aniqlash va ularni boshqarish ularni har bir bosqichida juda muhimdir.

Biz xoxlamagan narsaning, voqeaning sodir bo'lish ehtimolini qaltislik deb ataymiz. Investitsiya loyihalari uchun qaltislik – bu loyihalarda ko'zda tutilgan maqsadlarga erishmaslik ehtimolidir. Buning natijasida investorlarning loyihani moliyalashtirishga bo'lgan qiziqishi pasayadi yoki loyiha umuman qiziqitirmay qolishi mumkin.

Aynan XIX asr oxirida insoniyat qaltisliklarni boshqarish muammolari bilan to'qnashdi. SHu davrda firmalar rivojlandi va ko'paydi, tabiiy zarar ko'rish qaltislikni ham oshib bordi.

Eng birinchi qaltislikni boshqarish rejasi 1890 yilda AQSHdagi temir yo'l qurilish bilan shug'ullanuvchi firma tomonidan ishlab chiqildi.

1920-1930 yillari Buyuk depressiyadan so'ng qaltislik boshqaruviga katta e'tibor qaratildi. II jahon urushidan so'ng dunyoda ilm-fan, texnika-texnologiya jadal rivojlandi va insoniyat uchun XX asrning 50-yillaridan boshlab qaltislik boshqaruvu muhim muammoga, masalaga aylandi. 70-yillarga kelib qaltislikni boshqaruv jarayonlari va professional qaltislik menejerlariga talab paydo bo'la boshladi.

Hozirda esa qaltislikni hisobga olish loyihalarni baholashning ajralmas qismi hisoblanadi

Iqtisodiy qaltislik deganda pul ko'rinishida ifodalanishi mumkin bo'lgan turli zararlarning yuzaga kelish ehtimolligi tushuniladi. Ular quyidagicha bo'lishi mumkin.

- Zarar ko'rish xavfi, ehtimolligi mavjud. Qaysidir mahsulotni ishlab chiqarish zarar keltirishi mumkin; Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida xatto eng yirik xalqaro kompaniyalar ham ba'zi sohalarini yoki mahsulotlarini ishlab chiqarishni to'xtatib qo'ydi, uni o'rniga ekologik sof va tan - narhi arzon mahsulotlar ishlab chiqarishga utdilar. Bunga yaqqol misol Frantsiyada Konkord rusumdagi tovushdan

tez uchar samalyotlarni ishlab chiqarishni to'xtatilishidir.

- Noaniqlik, oldindan ko'ra bilish imkoniyati yo'qligi. YA'ni bozorning o'rganilmaganligi yoki boshqa sabablar tufayli ma'lum bir loyiha uchun yakuniy moliyaviy natija qanday bo'lishini oldindan aytish qiyin bo'ladi.

Iqtisodiy qaltislik bilan xohlagan sub'ekt to'qnashishi mumkin – alohida shaxs, guruh, firma, bank, sug'urta kompaniyalari va hokazo. Iqtisodiy qaltislik kimda bo'lishidan qat'iy nazar, hamma qaltislik bilan bog'liq xatarni, zararlarni kamaytirishga harakat qiladi. SHuning uchun qaltisliklarni boshqarish muammosi yuzaga keladi va «qaltislik - menejment» deb ataladi.

Iqtisodiy qaltislik bilan bog'liq ehtimoliy yo'qotishning kamayishini xoxlaydigan har bir firma o'zi uchun quyidagi bir qancha muammoli masalalarni hal qilishi kerak:

- iqtisodiy qaltislik bilan bog'liq ehtimoliy zararlarni baholash;
- qaltislikni to'liq o'zida qoldirish yoki boshqa sub'ektga berish, ma'lum qaltislikni o'zida qoldirish yoki boshqa sub'ektga berish kabi masalalarni hal qilish;
- o'zida qoldirilgan qaltislik sababli yuzaga kelishi mumkin bo'lgan yo'qotishlarni kamaytirish dasturini ishlab chiqish. Bundan maqsad qaltislik mavjud bo'lgan sharoitda firmaning samarali ishlashini ta'minlashdir.

Firmada ro'y berishi mumkin bo'lgan qaltisliklar turli xil, lekin asosan ularning ikki turi ko'riladi:

1. Moliyaviy qaltisliklar. Ularga quyidagilar kirishi mumkin:

- Foiz stavkasi o'zgarishi;
- Kredit qaytarilmasligi;
- Valyuta kursining noma'qul tebranishi;
- Xaridorlarning to'lovga qobiliyatsizligi;
- Xom-ashyo va materiallar narxining oshishi;
- Xaridorlar tomonidan majburiyatlarning bajarilmasligi va hokazolar.

2. Firma xo'jalik faoliyati bilan bog'liq qaltisliklar. Ularning paydo bo'lishiga quyidagilar sabab bo'lishi mumkin:

- jihozlarning eskirganligi;
- xom-ashyo va materiallar sifatining o'zgarib turishi;
- texnologiya etishmasligi;
- ishlab chiqarish kuchlari zaxirasining yo'qligi;
- turib qolishlar;
- favqulotda holatlar va hokazo.

### **13.2.Qaltisliklarni boshqarish usullari**

Qaltisliklarni boshqarishning ko'p qo'llaniladigan aniq usullari quyidagilar:

1. Qaltislikdan qochish yoki inkor qilish (Risk avoidance). Kompaniyalar ishida qochish mumkin bo'lmagan katta qaltisliklar mavjud bo'ladi. Bunday qaltisliklarni biroz kamaytirish mumkin, ammo bu ularning ta'sir kuchini kamaytirmaydi. SHuning uchun ulardan qochishning eng yaxshi usuli ularni sodir bo'lishi ehtimolini umuman yo'q qilish kerak. Bunday usulni qo'llashga misol ma'lum mahsulotni ishlab chiqarishni to'xtatish, shu sohada biznesdan ketish va bunday qaltisliklar bo'lmagan boshqa sohalarni tanlash.

2. Qaltisni o'ziga olish (Risk assumption). Uning mohiyati – zararlarni xususiy moliyaviy imkoniyatlar asosida qoplashdir. Bu usul quyidagi holatlarda ma'qul:

- Zararlar chastotasi katta bo'lmaganda;
- Potentsial zararlar hajmini firma joriy aktivlari hisobidan qoplash mumkin bo'lganda. Bu usulda zararlar joriy pul tushumlari yoki shu maqsadlarda maxsus tuzilgan zahira fondi hisobidan qoplanadi.

3. Qaltislikni oldini olish (Loss prevention). Bu usulda ular yuzaga kelishi ehtimolini kamaytirishga qaratilgan tadbirlar qilinadi. Quyidagi hollarda uni qo'llash ma'quldir:

- Zarar yuzaga kelishi ehtimoli yuqori;
- Zarar miqdori katta emas.

Qaltis boshqarishda bu usulni qo'llash har xil oldini olish dasturlarini ishlab chiqish va qo'llash bilan bog'liq. Bu dasturlar davriy bo'ladi va ular nazorat qilib turilishi kerak. Misol sifatida, qorovullar (banklarda),



haydovchilarni o'qitish (xafvsizlik maqsadida) ,kimyoviy zararlardan ogohlantirish, mehnat muhofazasi va hokazo.

4. Zararni kamaytirish (Loss reduction). Bu usulning mohiyati zararlarni kamaytirishga qaratilgan. Bu usuldan quyidagi hollarda foydalanish mumkin:

- Zarar ehtimoli katta bo'lishi;
- Qaltis, lekin zarar yuzaga kelish ehtimoli katta emas.

Misol uchun qaltislikni bo'lish/ajratish usuli. YOng'in xavfidan zarar ehtimolini hajmini kamaytirish maqsadida bitta katta omborning o'rniga ikkita kichik ombordan foydalanish mumkin, agarda bunda xarajatlar kutilayotgan zararlardan kam bo'lsa bu usulni iqtisodiy tarafdin qo'llasa bo'ladi.

5. Sug'urtalash (Incurrence). Bu usul qaltislik boshqaruvida eng ko'p qo'llaniladigan usullardan biridir. Uning mohiyati shundaki, firma ma'lum qaltisliklarni sug'urta kompaniyasiga beradi va agar bular sodir bo'lganda sug'urta firmasi ko'rilgan zararni qoplaydi. Quyidagi hollarda firma uchun bu usulni qo'llash ma'quldir:

- Agar qaltislik mavjud bo'lsa, zararni ehtimoli yuqori emas, ammo zararni ehtimoli yuqori darajada bo'lsa. SHuni nazarda tutish kerakki, firmada qaltisliklar bir xil turda va ko'p bo'lsa, ularni sug'urta kompaniyasi orqali sug'urtalash yo'li bilan emas, balki sug'urta badallarini firma ichida joriy etish orqali boshqarish mumkin.

- Qaltislik mavjud, zarar bo'lishi ehtimoli yuqori, ammo zarar miqdori kam bo'lsa.

Sug'urta asosan baxtsiz hodisa yuz bergan hollarda juda zarurdir. Ko'p hollarda sug'urta qaltislik boshqaruvida yagona usul hisoblanadi, ba'zida esa qonun tomonidan majburiy qilib qo'yiladi (avtomobillarni sug'urtalash bunga misol).

6. O'z-o'zini sug'urta qilish (Self-insurance) usuli ya'ni zararlarni qoplashga qaratilgan shaxsiy sug'urta fondlarini tuzishga qaratilgan. U qaltislik boshqaruv usuli sifatida quyidagilarga sharoit yaratadi:

- Zararni qoplash imkoniyatlarini oshirish;
- Sug'urta fondlarini investitsiya qilish orqali firma foydaliligini oshirish.

Keptiv sug'urta – bu nosug'urta tashkilotlari guruhiga kiruvchi sug'urta tashkilotidir – sanoat, sanoat-moliyaviy, moliyaviy guruhlar va hamma guruh qaltislarini sug'urta qiladi.

7. Qaltislikni boshqaga o'tkazish (Risk transfer) usuli shuni anglatadiki firma o'zidagi ehtimoliy qaltislik, zararni boshqa firmaga o'tkazadi. Buning bir turi sug'urta, firma sug'urta badalini to'laydi va qaltislik sug'urta kompaniyasiga o'tadi. Bundan tashqari qaltislikni o'tkazishning, ijara, hold-harmless tipidagi kelishuvlari kabi ko'rinishlari mavjud.

Xedjirovanie(hedging) – sug'urta bilan bog'liq bo'lmagan narx bo'yicha qaltisliklarni berish. Buning ma'nosi bozorda narxlarning o'zgarishi xisobidan keladigan foyda va zararlarni chegaralash hisoblanadi. Xedjirovanie savdo auksionlari, fyuchers va forward shartnomalari orqali joriy qilinadi va qaltislik menejmentining ajralmas qismi bo'lib qoladi.

Ijara usuli mulkni ijara olgan kishi uchun uning eskirish qaltisini mulk egasiga qoldirish imkonini yaratadi. Odatda bunday qaltislik uchun to'lov ijara haqi tarkibiga kiritiladi.

Hold-harmless tipidagi kelishuvlar (ushlovchi uchun zararsiz) zararlar bo'lishiga tuziladi. Bunda bir tomonda zarar yuzaga kelganda, ikkinchi tomonning qaltisligini o'ziga olishi bo'yicha kelishuv bo'ladi.

YAna shuni ham aytish mumkinki, davlat tomonidan ham firmalar qaltisligini kamaytiruvchi siyosatlar yuritiladi. Masalan, ma'lum sharoitlarda majburiy sug'urta, iqtisodiy-ijtimoiy qaltislik juda yuqori faoliyatlar bilan shug'ullanishni cheklash va hokazo.

Bu usullarni qaysi birini qo'llash yoki qo'llamaslikda iqtisodiy tamoyil shundaki shu usulga xarajatlar undan keladigan qo'shimcha foydadan kam bo'lishi kerak.

### **13.3. Qaltislik uchun mukofot**

Loyiha qaltisligi qanchalik yuqori bo'lsa, uning daromadli bo'lish darajasiga talab ham shunchalik yuqori bo'ladi. Chunki katta qaltislikni olishga faqat katta foyda sabab bo'lishi mumkin. SHuning uchun qaltislik loyihalarni baholashda diskontlash darajasi oshiriladi, ya'ni haqiqiy foiz

stavkasiga «qaltis uchun mukofot» ham qo'shiladi. NPV, IRR va boshqa ko'rsatkichlar yangi diskontlash darajasi bo'yicha hisoblanadi va solishtiriladi. Bu esa investitsiya loyihalarini baholashda qaltislikni ham hisobga olishga ko'maklashadi.

Misol. Quyida ikkita muqobil loyiha bo'yicha pul oqimlari keltirilgan bo'lib, har ikki loyiha uchun ham diskontlash darajasi 15% ga tengdir.

Ko'rsatkich	1-yil	2-yil	3-yil
Loyiha A	-1900	-1870	4840
Loyiha V	-4025	2880	2880

$$NPV_A = -1900 + 1870_{1,15} + 4840_{1,15}^2 = 400$$

$$NPV_B = -4025 + 2880_{1,15} + 2880_{1,15}^2 = 657$$

V loyiha ma'qul ko'rinadi, ammo bu erda qaltislik darajasi hisobiga olinmadi. Loyiha mutaxassislari A loyihani qaltis siz, V loyihani esa qaltis li deb topishdi va qaltis uchun mukofotni 5% miqdorda hisoblashdi. Endi qaltislik mukofotini hisobga olgan holda ikki loyihani taqqoslaymiz:

Demak mavjud qaltislikni hisobga olsak A loyiha biz uchun foydali ekanini ko'ramiz.

«Qaltis uchun mukofot» qanday hisoblanadi? Buning uch turi mavjud:

1. Kumulyativ usul
2. Kapital aktivlarni baholash usuli
3. Diskont normasini baholash usuli.

Kumulyativ usulda asosan uch xil qaltis hisobga olinadi:

- Siyosiy qaltis ;
- Loyiha qatnashchilari layoqatsizligi;
- Ko'zda tutilgan daromadlarning olinmasligi qaltis.

Siyosiy qaltislik odatda quyidagi hollarda mavjud bo'ladi:

- Loyihaga salbiy ta'sir etadigan tarafga mamlakat qonunchiligining o'zgarishi;
- Mol-mulkni konfiskatsiya qilish, milliy nizolar;
- Konvertatsiya cheklanganligi.

Umuman siyosiy qaltislik mamlakatning investitsion muhiti bilan bog'liq. Maxsus reyting firmasi bo'lmish BERI(Germaniya), SHvetsariya banklari asstsiatsiyasi va Earnst & Young auditorlik korporatsiyasi dunyo mamlakatlarida investitsiyalashda siyosiy qaltis darajasi bo'yicha reyting olib borib, uni doimiy ravishda chop qilib borishadi.

Loyiha qatnashchilari layoqatsizligi qaltisligi quyidagicha:

- Firmada moliyaviy va aylanma mablag'lar etishmasligi, va qarzni to'lay olmaslik;

- Loyiha boshqa qatnashchilarining moliyaviy layoqatsizligi.

Qaltis uchun mukofot miqdori loyihani amalga oshirishning iqtisodiy tashkiliy taraflari qanchalik puxtaligiga bog'liq bo'ladi. Agar loyiha qatnashchilarining bir-biriga va majburiyatlariga layoqatligini moddiy asoslab isbotlashsa qaltislik uchun mukofot kamayadi. Agar isbotlanmasa ko'payadi.

Ko'zda tutilgan daromodlarning olinmasligi qaltisligi.

Bu turdagi qaltislik asosan loyihaning texnik-tashkiliy taraflari va narx tebranishlari bilan bog'liq. Bunday qaltislik uchun mukofot loyihaning texnik va iqtisodiy, ilmiy asoslanganligi va yana marketing o'rganilganligi bilan aniqlanadi. Misol, ayrim faktorlar ta'siri quyidagicha hisobga olinadi:

1. Qo'llaniladigan texnologiy qaltislik uchun mukofot, %

- an'anaviy 0 yangi 2-5

2. Talab va narxning noniqligi

- oldindan mavjud tovarga 0-5

- yangi tovarga 5-10

### **13.4 Loyihalarning qaltislikka chidamliligi tahlili**

Loyihalarning qaltislikka chidamliligi - bu loyihaning zarar ko'ra boshlash imkoniyatidan qanchalik uzoqligini ko'rsatuvchi ko'rsatkichdir. YA'ni loyihaning rejalashtirilgan yoki mavjud darajasidan ahvol qanchalik yomonlashganda ham loyiha zarar keltirmasligidir. Demak, bu oraliq qancha uzoq bo'lsa loyihaning qaltisga chidamliligi shuncha yuqori bo'ladi. Buni aniqlashda quyidagi uchta ko'rsatkichdan foydalaniladi:

1. Zararsizlik nuqtasi (break-even point);
2. Xavfsizlik chegarasi (margin of safety);
3. Ichki daromad stavkasi (internal rate of return).

**Zararsizlik nuqtasi miqdorda** =  $FC / P - VCU$  (24-formula):

P (PRICE) – bir birlik mahsulot bahosi;

FC (FIXED COSTS) – doimiy xarajatlar;

VCU (VARIABLE COSTS PER UNIT) – bir birlik xarajatga qilinadigan o'zgaruvchi xarajatlar.

Zararsizlik nuqtasi shunday ishlab chiqarish nuqtasiki, unda qancha birlik mahsulot ishlab chiqarilsa, loyiha uchun foyda ham zarar ham 0 ga teng bo'ladi. Demak firma o'z xarajatlarini qoplashi uchun kamida zararsizlik nuqtasigacha mahsulot ishlab chiqishi kerak (25-formula):.

**Xavfsizlik chegarasi**<sub>orali/i</sub> =

$$= (Q - Q_{BE} / Q) * 100\%$$

Q – kutilayotgan sotish miqdori;

$Q_{BE}$  – zararsizlik nuqtasidagi sotish miqdori.

Xavfsizlik chegarasi loyiha zarar ko'rishni boshlaydigan miqdordan qanchalik uzoqdaligini foiz ko'rsatkichida ko'rsatadi. Demak, sotish hajmi uzog'i bilan necha foizga kamayganda ham firma zarar ko'rmay ishlaydi. Bu ko'rsatkichning yuqori bo'lishi loyihaning qaltisga chidamliligi darajasi ham yuqori bo'lishini bildiradi.

**Ichki daromad stavkasi** (26-formula):.

$$IRR \approx A + (NPV_B / NPV_A - NPV_B) * (B - A)$$

A – diskontlashning past darajasi;

B – diskontlashning yuqori darajasi;

NPV – sof keltirilgan qiymat.

IRR – diskont darajasi necha foiz bo'lganda loyihaning sof keltirilgan qiymati (NPV) 0 bo'lishini ko'rsatadi. YA'ni pulni loyihaga sarflash bilan shu mablag'ni bankda saqlash bir xil natija beradi. Demak, IRRning yuqori bo'lishi loyihaning qaltisga chidamlilik darajasining ham yuqoriligini ko'rsatadi. Yana IRRni qaltis uchun mukofot qo'shilgan holdagi diskont stavkasi bilan solishtirganda, IRR kata bo'lsa, bu loyiha ma'qul hisoblanadi.

### 13.5. Investitsiyalarda qaltislik darajasi

Investitsiyalashda qaltis deganda investitsiya daromadlarining ko'zda tutilgan miqdoridan kamayish holati tushuniladi. Daromadlarning o'zgarishi shkalasi qanchalik keng bo'lsa, investitsiyalashda qaltislik darajasi shunchalik yuqori bo'ladi. Investitsiyalashda qaltislik manbaalari bir-biri bilan juda bog'liq bo'lganligi sababli ularning qaysi biri daromadga qanchalik ta'sir etganligini aniqlash juda mushkul. Investitsiyalashda qaltislikning asosiy turlari: ish bilan bog'liq qaltislik, moliyaviy bozor tasodifi xavflari, aholining sotib olish qobiliyati bilan bog'liq bo'lgan moliyaviy xavf, foiz xavfi va boshqalar hisoblanadi.

Ish bilan bog'liq qaltislik kelayotgan daromadlarning hamma investorlar bilan hisob-kitob qilishga etishi kafotlanganligidir. Bunday holatda jami daromad investitsiya xarajatlarini qoplay olmaydi. Albatta, davlat (ayrim mamlakatlarda) bunday holatda xarajatlarning ma'lum bir qismini o'z zimmasiga oladi. Asosan bu xavf biznes bilan bog'liq bo'ladi. Moliyaviy xavf deganda o'z mablag'lari va qarzga olingan mablag'lar kompensatsiyalari natijasida kelib chiqadigan xavf tushuniladi.

Investitsiya uchun qanchalik ko'p Chetdan qarz jalb etilsa, moliyaviy xavf-xatar shunchalik ko'payadi. Bu xavfning oshishi asosan korxonalar qarz beruvchi investorlar o'z vaqtida foiz to'lovlari to'lashga ilojisizligi oqibatidan kelib chiqadi. Belgilangan, ya'ni vaqti aniqlanib qaratilgan qarzlarni yoki qarz foizlari loyiha ishga tushmasdan, daromad hali kelmagan vaqtdan boshlab to'lanishi kerak. Korxonalarining bunday qarzlarni to'lay olish qobiliyati yo'qligi moliyaviy xavfni tug'diradi.

Aholini tovarlar sotib olish qobiliyatining pasayishi bilan bog'liq bo'lgan xavf asosan taklif inflyatsiyasi vaqtida bo'ladi. Bu davrda pul birligining xarid qobiliyati pasayadi. Ayrim qimmatbaho qog'ozlar belgilangan vaqtda investorga foyda keltirishni ko'zda tutganligi uchun ayrim hollarda foiz xavfiga ega bo'ladi. Ko'p hollarda qimmatbaho qog'ozlarning kurslari oldingi kurslarga nisbatan o'zgarib turadi. Natijada qimmatbaho qog'ozlar chiqargan kompaniyalar belgilab qo'yilgan foizlarni bera olmaydilar. Bu jarayon qimmatbaho qog'ozlarning bozor baholari tez-tez o'zgarib turishi natijasida vujudga keladi.

Likvidlik xavfi korxonalarining aksiyalarni kerakli vaqtda ko'zda tutilgan summaga sotishga imkoniyati bo'lmay qolishini anglatadi. Agar kecha 1000 dollarga aktsiya sotib olgan bo'lsangiz, bugun uni 800 dollarga sotasiz, bunday aktsiya yuqori likvidli emas.

Bozor xavfi deganda bu daromadlarni qiymatbaho qog'ozlar kursi o'zgarishi emas, balki iqtisodiy-ijtimoiy voqealardan kelib chiqadigan xavf tushunchalaridir. Masalan, YAqin SHarqda urush kelib chiqish xavfi qurol-aslaha ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan aksiyalar hamda neft mahsulotlari ishlab chiqarishga bog'langan aksiyalar kursiga ta'sir etadi. Tasodif xavfi to'satdan vujudga keladigan xavf bo'lib, investitsiya natijalariga juda tez ta'sir etadi. Bunga ikkita yirik kompaniyaning bir-biriga qo'shilishi va boshqalar misol bo'la oladi.

Umuman, xavflarni baholashga uch xil yo'nalishda yondoshish mumkin. An'anaviy ishlab chiqarishni tubdan o'zgartiradigan yoki uning tuzilmasiga salmoqli o'zgartirish kiritadigan investitsiyalarni joriy etish bilan bog'liq loyihalarni qabul qilishda ayrim hollarda start davrini mukammal tahlil qilmaslik natijasida yaratiladigan mahsulotga etarli xaridor topa olmaslik hollari vujudga kelishi mumkin. Bunda, albatta, mukammal variantlarni chuqur o'rganish kerak.

Har xil muqobil variantlar mavjud bo'lmagan hollarda oldindan ma'lum tadbirlarni amalga oshirish kerakki, ular xavfni yo'qotishga qaratilgan bo'lsin. Navbatdagi yondashuv asosan oddiy loyihalarni o'z ichiga oladi. Bu loyihalarda ma'lum xavf mavjud: masalan, loyihani vujudga keltirish davrida o'rtacha ko'rsatkichlardan foydalanamiz, lekin keyinchalik bu ko'rsatkichlardan ma'lum chekinish vujudga kelishi mumkin. Mana shu yo'nalishlarni misolda ko'rib chiqamiz.

Loyihada temir-beton zavodi qurish ko'zda tutilgan deylik. Zavod aholi yashaydigan mikrorayonda bo'lib, u erdan avtotrassa o'tishi ko'zda tutilgan. Zavod qurilishi trassaga yaqin joyda bo'ladi. Zavod qurilishi uchun 5 mlrd.so'm mablag' ajratilgan. Bu zavod ishlab chiqaradigan mahsulot hajmi 2 mlrd. bilan 4 mlrd.so'm orasida bo'ladi. Loyihaning yashash davri 5 yil, bu vaqtdan so'ng zavod sotib yuboriladi. Zavodning qoldiq bahosi avtotrassa qurilishi davri bilan bog'liq bo'lib, 1 mlrd. bilan 3 mlrd.so'm orasidadir. Agar zavod qurilgandan keyingi birinchi yili

avtotrassa qurilishi haqida qaror qabul qilinmasa uning qoldiq qiymati 3,5 mlrd.so'm. Diskontning qabul qilingan stavkasi 10% va ikkita variantda mahsulot sotish hajmi 0,5 mlrd yoki 1,5 mlrd.so'm bo'ladi. Buni variantlar bo'yicha aniqlashda quyidagi formuladan foydalaniladi( 27-formula)::

$$NPV=[\sum NP_t / (1+k) + RV / (1+k) ] - I$$

Bu erda: NPt - sof foyda va amortizatsiya summasi;

RV- qoldiq qiymat.

Qo'yilgan masala bir necha variantda echilishi mumkin.

- yo'l qurilishining ikkita varianti (1-qurildi, 0-qurilmadi)

- mahsulot hajmining ikkita varianti (2 mlrd.so'm va 4 mlrd.so'm).

Birinchisining ehtimolligi 0,3, ikkinchisining esa 0,7.

- zavodni sotishning ikki varianti (1-birinchi yildan keyin yoki 5-besh yildan keyin).

- 5 yildan so'nggi zavodning tugatilish bahosi (1 mlrd.so'm va 3 mlrd.so'm), ehtimolligi mos ravishda 0,4 va 0,6 ni tashkil etadi.

Agar aytaylik, shu variantlarni kombinatsiya qilsak, 720 variant vujudga keladi. Yo'l qurilishining mavjud holdagi variantlarini 4 raqamli sonlar bilan kodlab chiqamiz. Kodning har bir pozitsiyasidagi raqam variantning tavsifini bildiradi. 1 raqami bilan boshlanuvchi barcha kodlar yo'l qurilishini ko'zda tutuvchi variantlardir. Ma'lum sabablarga ko'ra, 0 raqami bilan boshlanuvchi birgina variant mavjud. Bu variantga ko'ra, yo'l qurilmaydi va zavod bir yildan so'ng sortilishi kerak. SHu sabablarga ko'ra, quyida yo'l qurilishi bilan bog'liq besh variant ko'rsatilgan:

1. 1210 - mahsulot sotish hajmi 2 mlrd.so'm - zavod birinchi yildan so'ng sotiladi.
2. 1251 - mahsulot sotish hajmi 2 mlrd.so'm - zavod 5 yildan keyin sotiladi, qoldiq bahosi 1 mlrd.so'm.
3. 1253 - mahsulot sotish hajmi 2 mlrd.so'm - zavod 5 yilda so'ng sotiladi, qoldiq bahosi 3 mlrd.so'm.
4. 1410 - mahsulot sotish hajmi 4 mlrd.so'm - zavod birinchi yili sotib yuboriladi.
5. 1451 - mahsulot sotish hajmi 4 mlrd.so'm - zavod besh yildan keyin sotiladi, qoldiq bahosi 1 mlrd.so'm.



6. 1453 - mahsulot sotish hajmi 4 mlrd.so'm - zavod 5 yildan keyin sotiladi, qoldiq bahosi 3 mlrd.so'm.

Har bir variantni baholash uchun sof joriy qiymat formulasidan foydalanamiz.

1251- variant bo'yicha sof joriy qiymat hisob-kitobi

Ko'rsatkichlar	1-yil	2-yil	3-yil	4-yil	5-yil	Jami
1. Foyda	0,5	0,5	0,5	0,5	0,5	
2. Qoldiq qiymati	-	-	-	-	1,0	
3.Diskont koeffitsienti	1,1	1,4	1,331	1,464	1,61	
4. Sof foyda	0,454	0,413	0,375	0,341	0,310	1,893
Keltirilgan qoldiq summa $S1(1+0,10)$					0,621	0,621
6.Keltirilgan summa						2,514
7. Sof joriy qiymat (6-qator investitsiyalar) $2,514-5 = -2,486$						-2,486

Shunga o'xshash boshqa besh variant uchun ham sof keltirilgan qiymat hisoblanadi.

Loyihani amalga oshirish variantlari bo'yicha ma'lumotlar

Variantlar kodi	Sof joriy qiymat	Ehtimollik
1210	- 1,364	0,3
1251	- 2,486	0
1253	- 1,245	0
1410	- 0,454	0
1451	1,307	0,28
1453	2,546	0,42
0	0	1

Jadvalda ko'rsatilgan manfiy variantlarning barchasi zarur ko'riladigan variantlardir. Dastlabki uch variantning barchasida sotish hajmi 2 mlrd. so'm. 1410-variantda esa sotish hajmi 4 mlrd.so'm va agar shu vaqtgacha yo'l qurilishi to'g'risida qaror qabul qilinmasa, zavod ishga tushgandan bir yil so'ng sotiladi. Sotish hajmi 4 mlrd.so'mdan ortgandan so'nggina loyiha samarali bo'ladi. 1451 va 1453-variantlarni amalga oshirilish ehtimoli yuqoridagi jadvalda ko'rsatilgan va quyidagicha:

1451 uchun:  $0,7 \times 0,4 = 0,28$ ;

1453 uchun:  $0,7 \times 0,6 = 0,42$  da.

Jadvaldagi ma'lumotlar yordamida, ushbu loyihaga mablag' sarflashda hisobga olinishi zarur bo'lgan barcha variantlar bo'yicha sof keltirilgan qiymatni topish mumkin.

$$NPV = 0,3 * (-1,364) + 0,28 * 1,307 + 0,42 * 2,546 = 1,026$$

### **13.6. Investitsiyalarda qaltislik darajasini bosqichma-bosqich baholash**

Loyiha amalga kirgunga qadar har xil bosqichlardan o'tadi. Har bir bosqichda o'ziga xos qaltis bo'lib, ularni bosqichma-bosqich baholash va barchasining yig'indisini topish kerak (8-9 ilovalarga qarang). Oldingi mavzulardan ma'lumki, loyiha quyidagi bosqichlardan iborat:

- loyihani vujudga keltirishdan oldingi, tayyorlash bosqichi;
- qurilish: inshoot, uskunalar qurish, qurilish uchun zarur bo'lgan materiallarni sotib olish va ularni montaj qilish;
- loyiha asosida vujudga keltirilgan ob'ektni ishga tushurish va uni to'liq quvvatga olib chiqish hamda shu asosda foyda olish.

Hamma hisob-kitoblar ikki martadan, ya'ni:

- 1) loyihani vujudga keltirish paytida;
- 2) loyihaning xavfli elementlari aniqlangandan keyin amalga oshiriladi.

O'z ta'sir kuchi bo'yicha qaltisliklari oddiy va murakkab bo'ladi. Oddiy xavflar bir-biri bilan bog'liq bo'lmagan xavflardir. Loyihani vujudga keltirish davrida hamma xavflarning ro'yxatini tuzib olish va

ulardan har birining xavflardagi salmog'ini aniqlab olish kerak. Aytilgan hollarni quyidagi bir misolda ko'rib chiqamiz:

Har bir ekspertga ehtimolli xavflar ustida chuqur tahlil ishlarini olib borish topshiriladi va ularga quyidagi baholash tizimidan foydalanish tavsiya etiladi:

- 0 - xavf yo'q deb qabul kilingan;
- 25 - xavf asosan yuzaga chiqmaydi;
- 50 - bu holat hali hech qanday mulohaza yuritishga asos bo'la olmaydi;
- 75 - har qalay xavf o'z kuchini ko'rsatsa kerak;
- 100 - xavf yuzaga chiqsa kerak.

Ekspertlar baholarining bir-biriga zid kelmasligi quyidagi qoidalarga ko'ra tahlil qilinadi.

1- qoida: ikkita ekspertning fikri orasidagi farq 50 dan oshishi kerak emas.  $\max |a_i - b_i| \leq 50$

Bu erda: a va v ikkita ekspertning fikri.

Agar ekspertlar soni uchta bo'lsa, birinchi va ikkinchi, birinchi va uchinchi, ikkinchi va uchinchi ekspertlar fikrining natijasi olinadi. Masalan, alohida oddiy xavf bo'yicha uchta ekspert quyidagicha fikr berdi a=0, v=25, s=50, bunda av=25; as=50; vs=25 bu natijalar birinchi qoida talablarini qoniqtiradi.

2- Qonuniyat. Agar ekspertlar ko'p bo'lsa hamda ularning fikrlari bir-biridan tubdan farq qilsa, quyidagi formuladan foydalaniladi(28-formula):

$$\sum_i^n |a_i - v_i| / N \leq 25$$

Misol: 3 ta ekspert A,V,S quyidagi loyiha bahosini berdilar: A(100,75,50,25); V(75,75,75,75); S(25,50,75,100);

$$AV[(100-75) + ((75-75) + 50-75) + (25-75)]/4 = 100/4 = 25.$$

Xuddi shunday AS=50 va VS=25 topiladi. Agar yuqoridagidek ekspertlarning fikri bir-biridan farq qilsa, unda maxsus mutaxassislar yig'ilishida bu masala o'rganiladi. Aytaylik, loyiha maqsadi jamoa xo'jaligi hududida aktsiyadorlik jamiyati sutni qayta ishlaydigan

korxonaga vujudga keltirishdan iborat. Xom ashyo bazasi korxonaga atrofidagi fermer xo'jaligi hisoblanadi. Korxonada yirik muzlatgich bo'lib, u avariya bo'lsa atrof-muhitni ammiak bilan ifloslashga olib kelish ehtimoli bor. Xavf darajasini aniqlash uchun 3 ta ekspert chaqirilgan. 1-ekspert aksionerlik jamiyati direktori; 2-ekspert mahalliy rahbar; 3-ekspert pensioner.

Birinchi bosqich bo'yicha, ya'ni tayyorlov davridagi qaltislik bo'yicha ma'lum bo'ladiki, ikkinchi ekspert optimist, uchinchi ekspert esa pessimist. Bu, albatta, kelgusida to'g'ri qaror qilishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. YUqoridagi keltirilgan xavflardan tashqari quyidagi qaltisliklar ham mavjud bo'lib, ularni tayyorlov bosqichiga kiritish mumkin:

- transportdan uzoqda joylashganligi;
- muqobil xom ashyo manbalariga ega yoki ega emasligi;
- qurilishga doir bo'ladigan yuridik hujjatlarni tayyorlash;
- ob'ektni boshqarishni tashkil etish bilan bog'liq bo'lgan xavflar.

Bularni yuqoridagi qaltisliklarga qo'shish uchun muqobil javoblar bo'lishi kerak. Agar ekspertlarning fikrlari bir joydan chiqsa, unda bularni qo'shish shart emas. YUqoridagi jadvalda ekspertlar tomonidan baholangan qaltislik darajasining dastlabki natijalari qayd etilgan. Har bir qaltislikning jami qaltislikdagi vazni yoki boshqacha aytganda ahamiyati ekspertlar tomonidan emas, balki loyihani vujudga keltiruvchilar tomonidan belgilangan. Bizning misolimizda qaltislikni tug'diruvchi sabablar ahamiyatiga ko'ra, uchga bo'lingan. Bir bosqichga kiruvchi hamda turli ustuvorliklarga tegishli qaltislikning jami qaltislikni hisobga olinadigan vazni turlicha bo'ladi. Bir bosqichga kiruvchi 1- va 3-ahamiyatlilik orasidagi nisbat 10 ga teng deb olsak va uchinchi ahamiyatlilikni  $x$  bilan belgilasak, birinchi ahamiyatlilik  $10x$  ga, ikkinchi ahamiyatlilik esa  $5,5*x = (10+1)*x / 2$  ga teng bo'ladi.

SHu asosda yuqoridagi jadvalni qo'shimcha materiallar yordamida quyidagi shaklga keltiramiz:

Jadval tahlili shuni ko'rsatadiki loyihani tayyorlov davrida vujudga keladigan xavf 2.7%ni tashkil etadi. Ijtimoiy xavf darajasi 14 foiz ekan.

Qaltisni kompleks baholashdan oldin ekspluatatsiya bosqichidagi xavflarni birlashtirib olamiz.

## Ekspluatatsiya bosqichi qaltis

qaltis turi	qaltis
Moliyaviy-iqtisodiy	13,6
Sotsial	13,5
Texnik	4,4
Ekologik	0,7
JAMI	32,2

Endi barcha bosqichlar bo'yicha qaltisni bir jadvalga to'playmiz.

Bosqichlar bo'yicha qaltislar darajasi	
Bosqishlab chiqarish	Xavf
Loyihaning tayyorlov bosqichiga xos xavflar	2,7
Qurilish bosqichidagi xavflar	12,5
Ekspluatatsiya bosqichidagi xavflar	32,2
JAMI	47,4

Bu loyiha xavfi 47,4 foizni tashkil etdi. SHuning uchun qaltis qilishdan oldin chuqur o'ylab ko'rish kerak. Qaltislarining ahamiyatligi orasidagi nisbat o'zgartirilsa ham natija taxminan shunday chiqadi.

Nisbat                      100    10    5    3

Xavf ehtimolligi        52,7   47,4   47   44,9

Xavf asosan juda muhim bo'lgan omillardan tashkil topadi. Bizning misolimizda bular quyidagilar.

O'z aylanma mablag'i etishmasligi xavfi - 10,0%; ish tashlash xavfi 8,3%; ko'zda tutilmagan xarajatlar shu jumladan inflyatsiya 8,3%. Bu uchta omilga yarmidan ko'proq - 26,6% xavf to'g'ri keladi. Agar shu xavflarni bartaraf qila olsak unda loyihani investitsiyalash mumkin bo'ladi. YUqorida qayd etilgan xavflardan tashqari belgilanishi qiyin bo'lgan yoki umuman aniqlab bo'lmaydigan xavflar ham mavjud. Bunga har xil tabiiy ofatlar, hukumat siyosatining o'zgarishi kabilar kiradi.

## Qisqacha xulosalar

Loyihalarda tavakkal xavfi har doim bo'ladi. YUqorida investitsiya bilan bog'liq qaltislikni ko'rib chiqdik. Albatta, qaltislikni hisobga olmasdan loyihalarni baholashimiz, solishtirishimiz mumkin. Ammo bu haqiqiy holatni ko'rsatmaydi. Agar shu loyihadan mavjud qaltisga qo'l urishimizga arziydigan manfaat olsakina uni amalga oshiramiz. YAna bizni loyiha qaltisini boshqarish usullari qiziqtiradi va qaltisni boshqarishga xarajatlarni ham loyihalarni baholashda hisobga olish mumkin. Umuman, boshqarsa bo'ladigan (sug'urta va boshqalar orqali) qaltislar ma'lum xarajatlarni loyihaga qo'shish orqali hisobdan chiqarilishi mumkin. Bu boyihalar ma'lum darajada qaltislardan xoli xolda baholanishi va solishtirilishi mumkin. SHuning uchun loyiha samaradorligini baholashda ularning qaltisi hisobga olinadi va u asosan qanday qaltislardan iboratligi o'rganiladi. Ularni bartaraf qilish imkoniyati mavjudligi o'sha loyihaning yutug'i hisoblanadi.

Investitsiyalarda qaltis xavfi deganda turli omillar ta'sirida investitsiya daromadlarining ko'zda tutilgan miqdordan kamayish xavfi tushuniladi.

Investitsiya jarayonlari bilan bog'liq qaltis xavfining asosiy turlari bo'lib;

- a) ish bilan bog'liq qaltis xavfi;
- b) moliyaviy bozor tasodifi xavflari;
- v) aholining xarid qobiliyati bilan bog'liq bo'lgan moliyaviy xavf;
- g) foiz xavfi va boshqalar hisoblanadi. Bu xavflarning barchasi oxir-oqibat sof keltirilgan qiymat, investitsiyalar rentabelligi kabi ko'rsatkichlarni pasayishiga olib keladi.

O'z ta'sir kuchiga ko'ra qaltis xavflari oddiy va murakkab xavflarga bo'linadi. Murakkab xavflar deganda bir-biriga bog'liq bo'lgan xavflar tushuniladi. Qaltis xavfni aniqlashda ekspert baholash uslubidan keng foydalaniladi. Ekspertlar baholari qayta ishlanib, har bir xavf turi bo'yicha va umumiy xavf ko'rsatkichi hisoblab topiladi. Odatda tayyorlov bosqichi, qurilish bosqichi, va ob'ektning ishga tushurilgandan keyingi bosqichdagi xavflar bosqichma-bosqich xavf turlariga qarab baholanadilar. Bularga

iqtisodiy va moliyaviy xavflar, sotsial xavflar, texnikaviy xavflar, ekologik xavflar kiradi. Har bir xavfning ahamiyatlilik darajasini ko'rsatuvchi koeffitsient va ekspertlar baholari loyihadagi umumiy qaltis xavfi darajasini hisoblab topish, hamda uni amalga oshirish yoki oshirmaslik to'g'risida xulosa chiqarish imkonini beradi.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar**

1. Loyihalari bilan bog'liq qaltis xavfi deganda nimani tushunasiz?
2. Qaltis xavfi turlarini izohlab bering.
3. Oddiy va murakkab xavflarni tushuntirib bering.
4. Qaltis xavfini bosqichma-bosqich baholashni tartibi qanday?
5. Investitsiya jarayoni bilan bog'liq qaltis xavfini turlarini tushuntirib bering?
6. Sotsial xavf va texnikaviy xavflarning mohiyati nimada?
7. Ijtimoiy, ekologik, innovatsion loyihalarning xavlari nimalardan iborat?
8. Jahon moliyaviy- iqtisodiy inqirozi sharoitida loyihalarga qanday qaltislik va xavf paydo bo'ldi?
9. Loyihalarda makroiqtisodiy qaltisliklar deganda nimalarni tushunasiz?

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. А.Э. Ишмухамедов, М.С.Қосимов, З.А. Джумаев, Г.Я.Мухамеджанова. Лойиҳа таҳлили. Т: ТДИУ. 2006.-205 - 234 б.
- 2.Марголин А.М. Экономическая оценка инвестиционных проектов. Учебник для вузов. А.М. Марголин, М.ЗАО Издательство экономика, 2007.-320-367стр.
3. Балдин К.В. Инвестиции и инновации. Учебное пособие. \ К.В. Балдин, И.И. Передеряев и др.-2- изд- М: Издательское –торговая корпорация «Дашков и К», 2010. -213-238 с.
- 4.Николаев М.А. Инвестиционная деятельность: Учебное пособие \ М.А. Николаев-Финансы и статистика, ИНФРА. М-2009.-256-336 стр.
- 5.Тюрина А.В. Инвестиции. Практикум. Учебное пособие. \ А.В. Тюрина-М: КНОРУС.2010.- 189-208

Investitsiyalashning turli muddatlari va turli daromadlilik stavkalarida 1 so'mning kelgusi qiymati  $FV = (1 * (1+k)^n$

Davrlar soni n	Diskontlash koeffitsienti k									
	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
1	1,010	1,020	1,030	1,040	1,050	1,060	1,070	1,080	1,090	1,100
2	1,020	1,040	1,061	1,082	1,103	1,124	1,145	1,166	1,188	1,210
3	1,030	1,061	1,093	1,125	1,158	1,191	1,225	1,260	1,295	1,331
4	1,041	1,082	1,126	1,170	1,216	1,262	1,311	1,360	1,412	1,464
5	1,051	1,104	1,159	1,217	1,276	1,338	1,403	1,469	1,539	1,611
6	1,062	1,126	1,194	1,265	1,340	1,419	1,501	1,587	1,677	1,772
7	1,072	1,149	1,230	1,316	1,407	1,504	1,606	1,714	1,828	1,949
8	1,083	1,172	1,267	1,369	1,477	1,594	1,718	1,851	1,993	2,144
9	1,094	1,195	1,305	1,423	1,551	1,689	1,838	1,999	2,172	2,358
10	1,105	1,219	1,344	1,480	1,629	1,791	1,967	2,159	2,367	2,594
11	1,116	1,243	1,384	1,539	1,710	1,898	2,105	2,332	2,580	2,853
12	1,127	1,268	1,426	1,601	1,796	2,012	2,252	2,518	2,813	3,138
13	1,138	1,294	1,469	1,665	1,886	2,133	2,410	2,720	3,066	3,452
14	1,149	1,319	1,513	1,732	1,980	2,261	2,579	2,937	3,342	3,797
15	1,161	1,346	1,558	1,801	2,079	2,397	2,759	3,172	3,642	4,177
16	1,173	1,373	1,605	1,873	2,183	2,540	2,952	3,426	3,970	4,595
17	1,184	1,400	1,653	1,948	2,292	2,693	3,159	3,700	4,328	5,054
18	1,196	1,428	1,702	2,026	2,407	2,854	3,380	3,996	4,717	5,560
19	1,208	1,457	1,754	2,107	2,527	3,026	3,617	4,316	5,142	6,116
20	1,220	1,486	1,806	2,191	2,653	3,207	3,870	4,661	5,604	6,727
21	1,232	1,516	1,860	2,279	2,786	3,400	4,141	5,034	6,109	7,400
22	1,245	1,546	1,916	2,370	2,925	3,604	4,430	5,437	6,659	8,140
23	1,257	1,577	1,974	2,465	3,072	3,820	4,741	5,871	7,258	8,954
24	1,270	1,608	2,033	2,563	3,225	4,049	5,072	6,341	7,911	9,850
25	1,282	1,641	2,094	2,666	3,386	4,292	5,427	6,848	8,623	10,385
26	1,295	1,673	2,157	2,772	3,556	4,549	5,807	7,396	9,399	11,918
27	1,308	1,707	2,221	2,883	3,733	4,822	6,214	7,988	10,245	13,110
28	1,321	1,741	2,288	2,999	3,920	5,122	6,649	8,627	11,167	14,421
29	1,335	1,776	2,357	3,119	4,116	5,418	7,114	9,317	12,172	15,863
30	1,348	1,811	2,427	3,243	4,322	5,743	7,612	10,063	13,268	17,449
31	1,361	1,848	2,500	3,373	4,538	6,088	8,145	10,868	14,462	19,194
32	1,375	1,885	2,575	3,508	4,765	6,453	8,715	11,737	15,763	21,114
33	1,389	1,922	2,652	3,648	5,003	6,841	9,325	12,676	17,182	23,225
34	1,403	1,961	2,732	3,794	5,253	7,251	9,978	13,690	18,728	25,548
35	1,417	2,000	2,814	3,946	5,516	7,686	10,677	14,785	20,414	28,102
